TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

MARKAZIY OSIYODA ETNOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2024-yil 25-oktyabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING ETNO-TARIXIY JARAYONLARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

“Markaziy Osiyoda etnoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari”ga bag‘ishlanadi

II QISM

2024-yil 25-oktyabr

TOSHKENT– 2024

UO‘K: 94(575):314.122.6
KBK: 63.3(5):63.5
M-26

Markaziy Osiyo xalqlarining etno-tarixiy jarayonlari (II qism) [Matn] / prof. A.X. Doniyorovning umumiy tahriri ostida. – T.: “Best-publish” nashriyoti, 2024. – 221 b.

Mazkur to‘plamda “Markaziy Osiyo xalqlarining etno-tarixiy jarayonlari” (“Markaziy Osiyoda etnoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari”ga bag‘ishlanadi) mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari jamlangan. Unda Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy merosi va urf-odatlarini saqlash va ularni asrash etnoturizmni rivojlantirish asoslari, Markaziy Osiyo mintaqasida mavjud tabiiy manzaralar va qadimiy joylarning etnoturizmni rivojlantirishdagi ahamiyati, Markaziy Osiyo xalqlarining mahalliy taomlari va mehmondo‘stlik an’analari masalasi, Markaziy Osiyo xalqlari boy madaniy va tarixiy merosini global miqyosda targ‘ib qilishga bag‘ishlangan maqolalar joy olgan. Maqolalar mualliflari sohaning yetakchi mutaxassislari va yosh tadqiqotchilar hisoblanadi.

Mas’ul muharrir: t.f.d., professor A.X.Doniyorov

Nashrga tayyorchilar: PhD Odilov B.A., PhD Zokirov B.I.

Konferensiya materiallari Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy kengashida muhokama etildi va nashrga tavsiya qilindi (26.12.2024-yil, 4-sonli bayonnoma).

ISBN: 978-9910-9076-2-3

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024
© “Best-publish” nashriyoti, 2024

KIRISH

Bugungi tez o‘zgaruvchan zamonda mavjud muammolarga zudlik bilan e’tibor qaratish, ularni yechimiga doir doimiy izlanishlar olib borish, yillar davomida o‘zgarishsiz qolayotgan ba’zi metodologik yondashuvlarning ma’nan eskirganini hisobga olib, yangi konsepsiyalarni ishlab chiqish, Markaziy Osiyo mintaqasining yillar davomida mushtarak etnomadaniy muhit bo‘lganligini ko‘rsatib berish, mintaqa davlatlari o‘rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlash dolzarblashmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 2024-yilning 25-oktabr kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida “Markaziy Osiyo xalqlarining etno-tarixiy jarayonlari” mavzusida xalqaro ilmiy amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi. **“Markaziy Osiyo xalqlarining etno-tarixiy jarayonlari”** nomli xalqaro ilmiy anjumanning bu galgi yig‘ilishi “Markaziy Osiyoda etnoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari”ga bag‘ishlanib, mazkur konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Turizmni rivojlantirish instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Temuriylar tarixi davlat muzeyi bilan hamkorlikda tashkil qilindi.

Ushbu konferensiyaning asosiy maqsadi – Markaziy Osiyoda etnoturizmni rivojlantirish, sohada mavjud imkoniyatlarni o‘rganish, hamkorlik aloqalarini kengaytirish va kelajakda etnoturizmni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan strategik qadamlarni belgilab olishdan iborat. Shuningdek, konferensiya etnoturizm orqali sayyohlik industriyasini rivojlantirish hamda mahalliy aholini ham jalb qilgan holda barqaror turizmni targ‘ibotiga doir amaliy takliflar ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Konferensiyaga taqdim qilingan maqolalar mintaqamizning etnoturistik salohiyatini oshirishga doir muammo va yechimlar, etnografik va madaniy merosni saqlash, targ‘ib qilish, mintaqaning o‘ziga xosligini lokal atributlar asosida tadqiq qilish doir Rishton, Chust, Yangiqo‘rg‘on va Boysun tumanlari misolida qo‘llaniyatgan tajribalar o‘rganish kabi mezonlar asosida tanlandi. Konferensiya materiallari asosida shakllantirilgan ushbu to‘plamda sohaning yetakchi olimlari bilan bir qatorda ilm olamiga o‘zining ilk tadqiqoti bilan kirib kelayotgan yosh izlanuvchilar, magistrlar va talabalarning maqolalari joy oldi.

Konferensiya yetakchi mutaxassislar bilan yosh tadqiqotchilarning ilmiy muloqot maydoniga aylanib, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning etnoturizmni ilmiy jihatdan o‘rganishga doir eng so‘nggi izlanishlari natijalarini aprobatsiyadan o‘tkazishda, u bilan keng ommani tanishtirishda muhim vosita bo‘ladi degan umiddamiz.

Ushbu konferensiyaga yildan-yilga taniqli xorijlik tadqiqotchilarni taklif etish, shuningdek mavzular va muhokamalar doirasini kengaytirish ko‘zda tutilgan. Bu esa mamlakatda olib borilayotgan tadqiqotlarning xorijda ham talabgori bo‘lishi, turli grantlar va xalqaro ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, tajriba almashuvda muhim hisoblanadi.

T.f.d., prof. A.X.Doniyorov

IV SHO‘BA
MARKAZIY OSIYO XALQLARI ETNOMADANIY MEROSINI GLOBAL MIQYOSDA TARG‘IB QILISH

ҚИРҒИЗИСТОНЛИК ЎЗБЕКЛАР: МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР (ҚИСҚАЧА ЭТНОИЖТИМОИЙ ТАҲЛИЛ)

Шавкат Атаханов
Ўш давлат университети Гуманитар ва ҳудудий тадқиқотлар институти бўлим бошлиғи,
тарих фанлари номзоди.
OIRCID: 0009-0005-7923-4348,
E-mail:atakhanov_69@mail.ru
УДК:316.347

Калит сўзлар: *Қирғизистон, Қирғиз-истонлик ўзбеклар, ўзбек тили, аҳолини рўйҳатга олиш, мактаб, ўқувчи, олий таълим, талаба, диний радикализм.*

Аннотация*: Мазкур мақола Қирғизистонлик ўзбеклар масалаларига бағишланади.Матнда Қирғизистонлик ўзбекларнинг сонини динамикаси,ҳудудлар кесимидаги нуфуси ҳақида маълумотлар берилади. Бундан ташқари уларни ташвишга солган ижтимоий-иқтисодий ва маданий муаммолар таҳлил қилинади. Бунда ўқитиш ўзбек тилида олиб борилаётган мактаблар сонини ва шунингдек ўзбек тили ва адабиёти предметидан соатларни кескин қисқариши натижасида вужудга келган салбий кўринишларга асосий эътибор қаратилади. Шунингдек уларнинг олий таълим олишида дуч келаётган муаммолар боис дунёвий билим олган зиёлий ўзбеклар сафини камайиб бориши ва аксинча турли давлатларда ўзга ақидалар асосида диний билим олиб келганлар сонини ўсиши кўрсатиб ўтилади. Ўзга юртларда диний билим олганлар сонини ўсиши баробарида ҳамда жамиятдаги мавжуд ижтимоий адолатсизликлар боис Қирғизистонлик ўзбеклар орасида диний радикализм кучайиб бораётганига алоҳида урғу берилади. Илмий ишнинг сўнггида мақолада қилинган таҳлилларга якун ясалиб, Қирғизистонлик ўзбекларда мавжуд муаммоларни ечиш учун амалий тавсиялар берилади.*

UZBEKS IN KYRGYZSTAN: ISSUES AND SOLUTIONS (BRIEF ETHNO-SOCIAL ANALYSIS)

Shavkat Atakhanov

Head of the Department at the Institute of Humanitarian and Regional Studies, Osh State University,
Candidate of Historical Sciences,
OIRCID: 0009-0005-7923-4348,
E-mail: atakhanov_69@mail.ru
UDC: 316.347

Key words: *Kyrgyzstan, Uzbeks in Kyrgyzstan, Uzbek language, population census, school, student, higher education, student, religious radicalism.*

Abstract: *This article is dedicated to the issues faced by Uzbeks in Kyrgyzstan. It provides information on the dynamics of their population and demographic distribution across regions. Additionally, it analyzes social, economic, and cultural problems affecting them, focusing on the significant reduction in the number of schools teaching in Uzbek and the corresponding decrease in hours dedicated to Uzbek language and literature.The article discusses the challenges Uzbeks encounter in obtaining higher education, highlighting a decline in secularly educated intellectuals, alongside an increase in those acquiring religious education abroad based on various doctrines.The rise in the number of individuals receiving religious education abroad, coupled with existing social injustices, is emphasized as a contributing factor to the growing radicalism among Uzbeks in Kyrgyzstan.In the conclusion, practical recommendations are provided to address the identified issues faced by Uzbeks in Kyrgyzstan.*

Қирғизистонлик ўзбеклар умумўзбек этносининг ажралмас қисми бўлиб, улар 1924-йилда ўтказилган миллий-давлат чегараланишини натижасида Қирғизистон ҳудудида қолган қисми. Улар республиканинг барча вилоятларида яшашади. Аммо уларнинг мутлоқ кўпчилик қисми республиканинг жанубий қисмида, Ўзбекистоннинг Фарғона водийсидаги вилоятлари (Андижон, Наманган, Фарғона) билан чегарадош торгина деҳқончилик зоналарида жойлашган. Улар азалдан Қирғизистоннинг қадимий шаҳарлари, бозорлари бор йирик қишлоқларида аҳолининг мутлоқ кўпчилигини ташкил этиб келишган. Статистик маълумотларга кўра 2024-йил 1-январга қарата Қирғизстонлик ўзбеклар 1017700 [15, 7-б.] нафарни ташкил этган ва сон жиҳатдан республикада 2-ўринни эгаллашади. Аммо сон жиҳатдан республикада сезиларли нуфусга эга бўлишига қарамай Қирғизистонлик ўзбеклар масаласи бугунги кунга қадар махсус илмий тадқиқот объекти бўлмаган.

Жадвал. Қирғизистонлик ўзбекларнинг сонини ўсиш динамикаси[1]*

Аҳолини рўйхатга олиш йиллари	1926	1939	1959	1970	1979	1989	1999	2009	2022	2024
улуши, %	11,08	10,4	10,6	11,3	12,1	12,9	13,8	14,3	14,8	14,2
Умумий сони, минг киши	109,776	151,551	218,6	332,6	426,2	550,1	665,0	768,4	999,3	1017,7

Қирғизистон маъмурий бирлик сифатида ташкил этилган дастлабки йиллар (1924-й.)да ўзбеклар ўлкадаги энг урбанизациялашган этнос бўлган. Улар бу борада ҳатто руслардан ҳам олдинги ўринда туришган. Буни биз 1926-йилда собиқ иттифоқда ўтказилган аҳолини рўйхатга олиш натижаларида кўришимиз мумкин.

Масалан, Қирғизистонда яшаган русларнинг жаъми 116436 нафаридан 45071 нафари ёки 38,71% шаҳарларда яшаса, ўзбекларнинг жаъми 57812 нафаридан 109776 нафари ёки 41,12 % и шаҳарларда яшаган[4, 218-б.].Ўша вақтда титулли миллат вакилларининг атига 0,84% и шаҳарлик бўлган. Чунончи, ўзбеклар Ўш шаҳрида 90,09% ташкил этса, Ўзган шаҳрида 93,18%ни ташкил этишган[4, 220-б.]. Бу борада улар Фарғона водийсида фақат Маргилондан (97,6 %) [23, 129-б.] кейин, аммо Андижон (75,44%)[3,15-16-б.] ва Наманган (87,18%)[3,16-17-б.] шаҳарларига нисбатан энг ўзбеклашган шаҳарлардан бўлган. Аммо орадан 96 йил ўтиб, яъни 2022-йилга келиб Ўш шаҳрининг 353 080 дан иборат аҳолисининг 208300 нафари ёки 59,0% и титулли миллат вакиллари, 134876 нафари ёки 38,2% и ўзбеклар ва 2,8% и бошқа этнослар вакилларидир [22, 101-б.].

Қирғизистонлик ўзбекларда ички миграция деярли йўқ ҳисобида. Чунки олис қишлоқлардан олий ўқув юртларида ўқиб, йирик шаҳарларда яшаб қолувчилар деярли йўқ. Аммо уларда ташқи миграция кучли. Улар асосан Россия, Қозоғистон, Туркия, Жанубий Корея ва бошқа давлатларга боришади. Ички миграция асосан титулли миллат вакилларида жуда кучли. Буни биз 2022-йилда ўтказилган Миллий аҳолини рўйхатга олиш натижаларидан кўрсак бўлади[22, 101-б.]. Натижада асосан қўшни Ўзбекистон билан бўлган торгина чегара олди ҳудудларида жойлашаган шаҳарларда (масалан, Ўш,

[1] *Жадвал 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989 – йилларда ўтказилган Бутуниттифоқ аҳолини рўйхатга олиш натижалари [4,5,6,7,8,9] ва Қирғиз Республикасида 1999, 2009, 2022, 2024-йилларда ўтказилган Миллий аҳолини рўйхатга олиш натижалари асосида тузилди[12,13,15,16].

Қорасув, Жалолобод) яшаган ўзбекларни ёнига мустақиллик йиллари жуда кўп сондаги титулли миллат вакилларни кўчиб келиши натижасида ер заҳиралари кескин камайиб, иш ўринлари асосан титулли миллат вакиллари томонидан эгалланганлиги, айниқса 2010-йилдаги этник низо вақтида ўзбекларнинг кўпчилигини тижорат манбаи бўлган савдо-сотиқ ва умумий овқатланиш шаҳобчларини талон-тарож (2843 иморат зарар кўрди, ундан 2677 таси бутунлай вайрон қилинди[17]) қилиниши оқибатида эндиликда этник ўзбеклар орасида ишсизлик жуда юқори. Шу туфайли уларда ташқи миграция кенг қулоч ёйган.

Мустақиллик йилларида жадал кечган урбанизация жараёни боис шаҳар ичида собиқ советлар давридан қолган йирик ишҳона ва ташкилотлар (завод, фабрика, комбинатлар, корхоналар) ерлари титулли миллат вакилларига якка тартибдаги турар-жой қуриш учун бўлиб берилди.Қирғизистон жанубидаги шаҳар атрофидаги деҳқончиликка иҳтисослашган сувли ерлар якка тартибда турар-жой қуриш учун бу ерларда азалдан яшаб келган ўзбеклар билан бирга бу ерларга турли вилоят ва туманлардан кўчиб келган минглаган титулли миллат вакилларига ажратилди. Натижада Қирғизистоннинг Фарғона водийсининг Ўзбекистон билан чегарадош ўзбеклар зич яшаган тор ҳудудларда аҳоли зичлиги 1 км² 1000 кишидан ортиб кетди. Айниқса бу кўрсаткич Ўш шаҳрини чор атрофдан ўраб турган Қорасув туманининг Андижон вилояти билан чегарадош Манас, Ала-тоо, Қизил-қишлоқ, Датка каби қишлоқ хукумати ҳудудларида ундан ҳам юқори кўрсаткичга эга. Бу эса ўз навбатида икки халқ ўртасида низоларни келтириб чиқариш салоҳиятини ошириши мумкин.

Бундан ташқари ўзбеклар азалдан яшаб келган жойларнинг топонимлари уларнинг хохиш-истакларини эътиборга олмаган ҳолда ўзгартирилмоқда. Масалан, Ўшнинг Амир Темур микрорайони номи қирғизча Жибек жолу ва Турон микрорайони номи Алимбек датка(додҳоҳ), марказий кўчалардан бири бўлган ўзбек Зайнобидинов номи билан аталувчи кўча миллати қирғиз Раимбеков номига ўзгартирилди. Қорасув туманидаги Шарқ қишлоғи ҳукумати Датка (додҳоҳ), Қашқар-қишлоқ ҳукумати Ала-тоо, Наримон қишлоқ ҳукумати Манас номига ўзгартирилди. Бундай ўзгаришлар ўзбеклар яшаётган бошқа ҳудудларда ҳам амалга оширилди.

Ўзбек тили ва маданияти мустақиллик йиллари турли камситилишларга дуч келиб мажруҳ холга келиб қолди. Нуфузи 1 млн.дан ортиқ ўзбеклар учун республикада 1 та драматик театр фаолият олиб бормоқда. Аммо Ўш вилояти филармониясида ёки Ўш шаҳри мэрияси симфоник оркестрида, миллий телекомпания

экранларида ўзбекча куй ва қўшиқларни ижро этиш орқали ўзини намоён қилишнинг имконсизлиги боис кўпчилик иқтидорли ёшларда санъатга қизиқиш ўта суст аҳволда. Республикадаги мусиқа мактабларида, ўрта-махсус ва олий ўқув юртларидаги мусиқа факультетларида ўзбек мусиқачилиги ёки қўшиқчилиги бўйича билим берилмайди.

Қирғизистонлик ўзбекларни қийнаётган муаммолардан яна бири бу ўқитиш ўзбек тилида олиб борилаётган мактаблар сонини йилдан - йилга кескин қисқариб боришидир. Масалан, уларнинг сони 2002-йилда 141 та бўлса, 2012-йилда 91 та, 2013-йилда 65 та, 2017-йилда 33 та[26] бўлган. 2023-2024-ўқув йилида республикада атига 26 та ўқиш ўзбек тилида олиб борилувчи мактаблар қолган[2]. 2013-йилдан бошлаб ўқитиш ўзбек тилида олиб борилган мактаб битирувчиларига умумреспублика тестларини она тилида топшириш бекор қилинди[14]. Натижада ўзбек миллатига мансуб мактаб битирувчиларининг олий ўқув юртларга кириш имкониятлари чекланиб қолди. Бу ўз навбатида ўзбек ёшлари ўртасида олий маълумотлилар сонини кескин даражада тушиб кетишига олиб келди. Ўқитиш ўзбек тилида олиб борилган мактабларда мустақиллик йиллари ўзбек тили ва адабиёти дарслари қисқартирилди ва бугунга келиб синфларда ҳафтасига атига 1 соатдан дарс қолдирилди. Натижада ўзбек тили ва адабиётидан дарс берувчи ўқитувчилар дарс юкламаси етишмовчилиги туфайли мактабда иш ўрнини сақлаб қолиш учун ортиқча маблағ сарфлаб, олий ўқув юртларининг қирғиз тили ва адабиёти ёки тарих йўналиши бўйича сиртқи бўлимга ўқишга топширишга ва иккинчи диплом олишга мажбур бўлишмоқда. Аммо олий таълимда чуқур илдиз отган коррупция туфайли сиртқи бўлимда ўқиган талабалар кейинчалик педагогик фаолияти давомида ўқувчиларига ўз фанидан етарли даражада билим бера оладиган мутахассисга айланиша олмаяпти.

Бундан ташқари 2010-йилги миллий низодан сўнг азалдан ўқитиш ўзбек тилида олиб борилган мактабларда қирғиз ва рус синфлар очилди. Аммо мазкур мактаблар ҳали бунга тайёр эмас эдилар. Чунки мактабларда давлат тилини ёки расмий(рус) тилини мукаммал биладиган ўзбек миллатига мансуб фан ўқитувчилари камчил эди. Зеро ўқитиш ўзбек тилида олиб борилган мактабларнинг педагогик ходимларининг аксарияти собиқ шўролар даврида Ўзбекистондаги олий ўқув юртларни ва 2010-йилгача Ўш давлат университети ва Қирғиз-Ўзбек университетида ўзбек тилли гуруҳларда ўқиган битирувчилар эди. Натижада бир мактабни ўзида ўзбек, рус, қирғиз синфлар очилди. Аммо соф рус ёки соф қирғиз тилида дарс берувчи фан ўқитувчиларининг етишмаслиги боис шу мактабда

ишлаётган ўзбек тилли фан ўқитувчиси ноиложликдан рус ва қирғиз синфларга ўз фанидан ўзбек тилида дарс берди. Оқибатда этник ўзбекларнинг фарзандлари ўқиган мактабларнинг битирувчилари на ўзбек тилини, на рус тилини ва на қирғиз тилини яҳши билмай, чаласавод бўлиб қолишди. Мактаб битирувчиларининг аксарияти оддий ариза ёки бирор бир тилхат ёза олмайдиган, оддий матнни ўқий олмайдиган даражада етишиб чиқмоқда. Аммо ўқиш ўзбек тилида олиб борилувчи кам сонли мактабларда ўқув жараёни яхши йўлга қўйилганда битирувчилар умумреспублика тестини топширишда ўқитиш рус ёки қирғиз тилида олиб борилган собиқ ўзбек мактабларникига нисбатан юқори кўрсаткичларга эришишмоқда. Масалан, Қорасув туманидаги №69-сон Ч.Айтматов номли ўқитиш ўзбек тилида олиб борилган ўрта мактабнинг 16 та битирувчисидан 15 таси 110* баллдан юқори кўрсатгичга эга бўлди ва 2024-2025-ўқув йилида республика олий ўқув юртларининг талабаларига айланишди ва асосан тиббиёт йўналишига ўқишга киришди. Қолган 1 та битирувчи умумреспублика тест топширишида иштирок этмади, чунки у Жанубий Кореяга ўқишга топширди. Қизиғи шундаки бу мактабдан унча олис бўлмаган жойда жойлашган этник ўзбеклар фарзандлари таълим олувчи Х.Мирзажанов номли №81-сон ўрта мактабида 18 та битирувчидан атига 3 таси умумреспублика тестидан ўта олишди. Зотан мазкур мактаб битирувчилари ўзбек, рус, қирғиз тилларида билим оладилар. Бундан кўриниб турибдики барча дарслар чала-чулпа қирғиз ёки рус тилида ўқитилган қирғиз ёки рус синфда ўқиган ўқувчидан кўра, ўзининг она тили-ўзбек тилида ўқиган ва қирғиз тилини билимли ўқитувчидан ўрганган ўзбек синфи ўқувчиси билимлироқ бўлар экан[10].

Эндиликда давлат бошқарув, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларда ўзбек миллати вакиллари жуда камчил. Бундан ташқари 1 млн.дан ортиқ нуфузга эга ўзбеклардан танқили қўшиқчи, актёр, бастакор, рассом, ёзувчи ва шоирлар деярли кам сонда. Ўзбек театрида катта авлод вакилари ўрнини ёшлар эгаллаб бормоқда. Аммо ёш актёр ёки актрисаларнинг аксарият кўпчилигида театр ва санъат соҳасида олий маълумот йўқ.

Олий таълимда ўзбек миллати вакиллари уларнинг умумий сонига нисбатан жуда кам сонда. Бунга юқорида айтилган сабаблар қўшимча қилиб айтсак ўзбек миллати болалари ўқийдиган мактабларда ўқувчилар асосан 9-синфгача ўқиб, битириб кетишади ва бунинг натижасида 10- ва 11-синфларда кам сонда ўқувчи ўқийди. Ўқитиш аралаш тилларда олиб борилган мактабларда ўқиган айрим ўзига тўқ оиладан чиққан ўзбек ўқувчиларининг аксарияти йиллар давомида

репетиторларда ҳақ тўлаб қўшимча билим олганларигина умумреспублика тестларидан ижобий балл тўплаб, асосан тиббиёт факультетларига ўқишга киришмоқда. Чунки улар бошқа сохалар, масалан ҳуқуқтартибот, иқтисодиёт, молия, бошқарув, меъморчилик, ҳарбий соха ва бошқа шу кабиларга ишга ўрнашишда сунъий тўсиқларга учрайди. Тиббиёт сохасини битирган ўзбек ёшларида давлат касалхоналарига ишга ўрнашиш имконияти чекланган бўлишига қарамай,уларда ўзбек миллатига мансуб тадбиркорлар очган хусусий касалхоналарда ишга ўрнашиш имкони мавжуд.

Ўзига тўқ оиладан чиққан ўзбек ёшлари (аниқса йигитлари) педагогик сохаларни танламайди. Чунки мактабларда ойлик маоши тақрибан 200-300 АҚШ доллари атрофида бўлиб, бу маблағ оила ҳаражатларини қоплашга етмайди. Натижада олий маълумот олиш аксарият ўзбек ёшлари учун ўз жозибасини йўқотмоқда. Пировардида ўзбек жамиятида дунёвий билим олишга нисбатан диний билим олиш, диний уламоларнинг маърузаларини тинглаш, уларга мухлислик қилиш кучаймоқда. Бошқача айтганда ўзбек жамиятида дунёвий билим олган зиёлий қатлами сийраклашиб, уларнинг ўрнини араб диёрларидаги турли диний ўқув юртларида таҳсил олган ва онги ёт ғоялар билан суғорилган шахслар эгаллай бошлади. Оқибатда Қирғизистонлик ўзбеклар орасида вахобийлик, хизбут-тахрир ва салафийлик оқими кенг қулоч ёймоқда. Шу боис Қирғизистонлик ўзбеклар ўртасида диний радикаллашув даражаси республикадаги бошқа миллатларга қараганда анча юқори. Буни биз Қирғизистондан Сурия ва Ироққа ИШИД сафига кетган 850 нафардан зиёд фуқаронинг аксарияти ўзбек миллатига мансуб эканлигидан кўрсак бўлади[22]. Бундан ташқари айрим Қирғизистонлик ўзбеклар дунёнинг турли мамлакатларида амалга оширилган террорчилик ҳуружларида иштирок этиб, нафақат Қирғизистонлик ўзбеклар, аксинча бутун дунёдаги ўзбекларни жаҳон ҳамжамияти кўз ўнгида ёмон отлиқ қилишмоқда. Масалан, 2017-йилда Санкт-Петербург шаҳри метросидаги[23], 2019-йилда Швециядаги террористик ҳуружларда иштирок этишди[25]. Шунингдек, 2022-йилда Қирғизистон фуқароси Ҳиндистонда теракт уюштирмоқчи бўлганлиги ҳақида хабарлар тарқади[27].

Дала сафарларимиз давомида Ўш шаҳри бозорининг қуйи қисмида жойлашган хунармандлар ҳудуди билан яқиндан танишдик. Маълумки Ўш шаҳри бозори минтақадаги энг қадимий бозор. Ўзбеклар қадимдан бозорда савдо-сотиқ ва ҳунармандчилик молларини сотиш билан шуғулланиб келишган. Мустақиллик йиллари ва айниқса 2010-йилдаги воқеадан сўнг бозордаги савдо

шаҳобчаларининг кўпчилиги титулли миллат вакиллари қўлига ўтди. Аммо бозорни қуйи қисмидаги темирчилик ва ёғочсозлик устахоналарида фаолият олиб бораётган темирчиларни ўрнини ҳеч ким эгалламади. Чунки ҳунармандчилик, айниқса темирчилик мураккаб касб бўлиб, соха эгаси бўлган респондентларнинг таъкидлашича уни эгаллаш учун 10-15 йил вақт талаб қилинади. Аммо 2024-йил июль ойида бўлган сел туфайли бозорни сув босиши натижасида бозорда тирикчилик қилувчиларнинг кўпчилигига катта моддий зарар етди. Хатто одамлар ҳалок бўлди. Шундан сўнг хукумат бозорни бошқа ҳудудга кўчиришга қарор қилди. Аммо темирчиларга бу қарор унчалик мақбул бўлмай турибди. Чунки темирчилик учун жуда кўп миқдорда сув талаб этилади. Аммо кўчириладиган ерда сув катта муаммо. Чунки у ерда темирчиларнинг ҳозирги устаҳоналари жойлашган ердаги каби ёнидан оқиб ўтган оқин сув йўқ. Боз устига темирчилик дўкони савдогарларникидан тубдан фарқ қилади. Чунки темирчилик дўкони учун махсус печлар қуриш, оғир мосламаларни ўрнатиш талаб қилинади. Ундан ташқари кўмир ёнганда тутун тарқалади, бозғон билан урилганда тақир-тукур билан янги бозордагиларга ноқулайлик туғдириши турган гап. Шунинг учун улар ўзларини янги бозорга кўчирмай, эски бозорни ўзлари фаолият олиб бораётган қуйи қисмида ҳунармандлар шаҳарчасини ташкил қилиб, уларга шароит яратиб бериш ва анъанваий ҳунармандчиликни ривожлантиришга хукумат томонидан эътибор қаратишларини илтимос қилишмоқда[11].

Қирғизистонлик ўзбекларни қийнаётган оғриқли муаммолардан бири 2010-йилги қонли низо бўйича узоқ муддатларга ёки умрбод ноҳақдан қамалган ёки турли таъқиблар боис юртидан чиқиб кетган ўзбеклар масаласидир.Сўзимиз қуруқ бўлмаслиги учун мисол қилиб айтсак, 2010-йилги воқеаларда қурбон бўлган 492[1] нафар инсоннинг 74%и[24] ўзбеклар бўлгани ҳолда, воқеа юзасидан судланганларнинг 91,3%и[1] ҳам айнан улар бўлиб қолган, айниқса умрбод қамоқ жазосига хукм қилинган 49[18] нафар маҳкумларнинг мутлоқ кўпчилиги ҳам ўзбек миллатига мансублар. Ноҳақ судланганларнинг оилалари ҳамон адолат қарор топишига умид қилиб яшашмоқда.

Юқоридагилардан ҳулоса қилиб шуни айтиш мумкинки мустақиллик йиллари Қирғизистонлик ўзбеклар республиканинг ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётидан бир-мунча узоқлаштирилди. Бугунги ўзбек ёшларини аксариятининг ҳаёти ишхона-уй-масжид-чойҳонадан иборат бўлиб қолди. Ўзбекларда жамиятни олға етакловчи илм-фан, санъат ва маданият арбоблари деярли етишиб чиқмай қолди. Глобаллашув, ташқи миграция боис оила институтига путур етди. Тарбиясизлик, дағаллик, маданиятсизлик оддий кўринишга айланди.

Аммо бугунги кунга қадар Қирғизистонлик ўзбеклардаги бу ва шу каби муаммолар махсус илмий тадқиқот объекти бўлмади.

Ишсизлик, билимсизлик, маданий таназзули, моддий ресурсларни етишмаслиги, диний фанатизм ва коррупция мазкур ҳудудда этнослараро муносабатларда вазиятни кескин холда сақланиб қолишига асосий омил бўлиши турган гап. Кичкина учқун бўлса миллатлараро низо чиқариш бу ерда жуда осон. Буни олдини олиш учун фикримизча қуйидагиларни амалга ошириш лозим:

1.Ўзбек болалари ўқийдиган мактабларда ўзбек тили ва адабиёти учун ўқув соатини кўпайтириш лозим. Зеро, одоб-ахлоқ адабиётдан ўғит олур.

2. Асосан ўзбек болалари ўқийдиган мактаблардаги чала-чулпа билим берадиган қирғиз ва рус синфларини камайтириш лозим. Уларни ўрнига ўзбек синфларни қайта очиш ва уларни сонини кўпайтириш лозим.

3. Ўзбек ўқувчисига қирғиз тилини билимли ўқитувчидан олишга имкон яратиб бериш зарур.

4. Мактаб битирувчиси бўлган ўзбек ёшларига умумреспублика тестларини ўз она тилида топширишга руҳсат бериш лозим.

5. Ўзбеклар кўп ва зич яшаган ҳудудлардаги давлат органларига ишга олишда сунъий тўсқинликлар бартараф қилиш керак. Зеро, йиллар давомида Қирғизистонлик ўзбеклар томонидан хукуматга энг катта эътироз сифатида қўйилган талаблардан бири ҳам шу масала бўлмоқда.

6. Ўзбеклар қадимдан яшаб келган аҳоли манзилгоҳларининг жой номлари, яъни топонимлари, кўча номларини ўзгартирмай, ўз аслида қолдириш лозим. Зеро, бу ўзбек халқи томонидан миллий камситилишнинг бир тури сифатида қаралиши мумкин.

7.Қирғизистон билан Ўзбекистон ўртасида икки томонлама алоқаларни юқори даражада ривожланиб бораётганини ҳисобга олиб Қирғизистонлик ўзбекларнинг иқтидорли фарзандларини Ўзбекистон Республикаси президенти мактабларига қабул қилишни йўлга қўйиш зарур. Чунки, республикадаги 1 млн. дан зиёд ўзбекларда иқтидорли ёшлар кўп. Аммо уларда тил масаласи, молиявий масала ва хоказолар туфайли сифатли билим олишга имкон йўқ. Ўша қабул қилинган иқтидорли болаларга ўзбек санъати, маданияти, адабиёти, мусиқа, рассомчилик, театр ва қўшиқчилик сохасида чуқур билим олишига кўмаклашилса мақсадга мувофиқ бўларди. Келгусида улар Ўзбекистондаги олий ўқув юртларида айнан шу сохалари бўйича билим олишса, Қирғизистондаги ўзбек маданиятини ривожланишига омил бўлиши мумкин. Пировардида маданиятни ривожланиши

туфайли ўзбеклар орасида диний радикаллашувнинг суръати ҳам бир оз сустлаштирар эди.

8. Ўшнинг эски бозорининг қуйи қисмида ҳунармандлар шаҳарчасини ташкил қилиб, темирчи ва ёғочсозларга шароит яратиб бериш ва анъанваий ҳунармандчиликни ривожлантиришга хукумат томонидан эътибор қаратилиши зарур.

9. 2010-йил воқеалари бўйича умрбод қамалган ўзбекларга авф берилиб, ҳеч бўлмаганда жазони муддатли жазога алмаштириб берилса, бир оз бўлса ҳам ижтимоий адолат тикланган бўлур эди. Маҳкумларда ва уларнинг оила аъзоларида ҳеч бўлмаганда 15-20 йилда озодликка чиқиш умиди пайдо бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар

1. Альтернативный доклад к пятому, шестому и седьмому периодическим докладам Кыргызской Республики о выполнении Международной конвенции о ликвидации всех форм расовой дискриминации (КЛРД-CERD). http: //facebook. com/OpenView point, http://prava.kloop.kg. [Дата обращения 08.09.2024]
2. В Кыргызстане работают 26 школ с узбекским языком обучения, 3 — с таджикским. https://bilim.akipress. org/ru/news:2070389/?f=ср [Дата обращения 07.08.2024]
3. Всесоюзная перепись населения 1926 года Узбекская ССР Т. 15. С.15-17. - Система онлайн-просмотрahttps://viewer.rusneb.ru/ru/000199_000009 _0 09004424?page=31&rotate=0&theme=white [Дата обращения 27.07. 2024]
4. Всесоюзная перепись населения 1926 года. Национальный состав населения по регионам РСФСР. Киргизская АССР. М.: Издание ЦСУ Союза ССР, 1928-29. Том 8. сС.216-2020. Том 9. С. 34-51. Том 10. С. 9-13. Том 11. С. 8-17. Том 14. С.6-16. Том 15. С.8-13. Том 16. С.8-12. Том 17. С. 8-25.
5. Всесоюзная перепись населения 1939 года. Основные итоги. Под ред. Полякова Ю.А. - М., Наука, 1992.С.78, таблица 16
6. Всесоюзная перепись населения 1959 года. Национальный состав населения по республикам СССР. РГАЭ РФ (быв. ЦГАНХ СССР), фонд 1562, опись 336, ед. хр. 1566а -1566д (Таблица 3,4 Распределение населения по национальности и родному языку).
7. Всесоюзная перепись населения 1970 года. Национальный состав населения по республикам СССР. РГАЭ РФ , фонд 1562, опись 336, ед.хр.3998-4185 (Таблица 7с. Распределение населения по национальности, родному и второму языку).
8. Всесоюзная перепись населения 1979 года. РГАЭ РФ (быв. ЦГАНХ СССР), фонд 1562, опись 336, ед.хр. 6174-6238 (Таблица 9с. Распределение населения по национальности и родному языку).
9. Всесоюзная перепись населения 1989 года. Национальный состав населения по республикам СССР Рабочий архив Госкомстата России. Таблица 9с. Распределение населения по национальности и родному языку.
10. Дала сафарлари 2024-йил, август. Ўш вилояти Қорасув тумани
11. Дала сафарлари 2024-йил, август. Ўш шаҳри

12. Итоги Первой национальной переписи населения Кыргызской Республики 1999 года. https://www.stat.gov. kg/ stat.files/census.pdf [Дата обращения 06.08.2024]
13. Кыргызстан в цифрах. Статистический сборник. Национальный состав населения (оценка на начало года, человек).-Бишкек, 2024, с.7. https: //stat .gov.kg/ru/publications/sbornik-kyrgyzstan-v-cifrah/ [Дата обращения 06.08.2024]
14. Кыргызстан: Отменено Общереспубликанское тестирование на узбекском языке. https://vesti.kg/politika/item/18053-kyirgyizstan-otmene no-obscherespub likanskoe-testirovanie-na-uzbek skom-yazyike.html [Дата обращения 07.08.2024]
15. Население Кыргызстана. Бишкек, 2023.с 101.
16. Национальный состав населения (оценка на начало года, человек). Национальный статистический комитет Кыргызской Республики // https://stat.gov.kg/ru/opendata/category/312/ [Дата обращения 06.08.2024]
17. Ош пережил не геноцид, но преступления против человечности. https://inosmi.ru/20110504/169063723. Html [Дата обращения 07.08.2024]
18. Оштогу июнь окуясына байланыштуу 49 адам өмүр бою эркинен ажыратылган. https://24.kg/kyrgyzcha/155443 [Дата обращения 07.08.20 24]
19. Перепись населения и жилищного фонда Кыргызской Республики 2009 года КНИГА I.Основные социально-демографические характеристики населения и количество жилищных единиц. Численность постоянного населения по отдельным национальностям, родному языку в 2009 г. Бишкек,2009, с.37
20. Перепись населения Кыргызской Республики 2022 года. Книга II (часть первая) в таблицах.Население Кыргызстана. Бишкек, 2023.с 101
21. Рахматиллаев Х. Изменения в этнической структуре населения городов узбекской части Ферганской долины за годы советской власти. // Этнографическое обозрение.1988, №6,с.126-134
22. Рыскулова Наргиза. Не случившаяся война. Как живут кыргызстанцы, вернувшиеся из Сирии.https://www.bbc.com/russian/features-47281602 [Дата обращения 07.08.2024]
23. Russia metro attack staged by Kyrgyz suicide bomber: Kyrgyzstan. https://www.geo.tv/latest/136694-Russia-metro-attack-staged-by-Kyrgyz-sui cide-bomber-Kyrgyzstan [Дата обращения 07.08.2024]
24. Токмаков Александр.Международная комиссия: На юге Киргизии были совершены преступления против человечности. https://www.dw.com/ru [Дата обращения 07.08.2024]
25. Швецияда Ўзбекистон ва Қирғизистон фуқароларига нисбатан суд бошланди.Улар терроризмда айбланмоқда.https://kun.uz/kr/84902439 [Дата обращения 07.08.2024]
26. Эксперт ООН: узбеки, живущие в Кыргызстане, имеют право учиться на родном языке. https://news.un.org/ru/story/2021/03/1398772 [Дата обращения 07.08.2024]
27. Ўзбекистон ва Қирғизистон фуқароси Ҳиндистонда теракт уюштирмоқчи бўлгани айтилмоқда.https://namanganliklar.uz/news/25304 [Дата обращения 07.08.2024]

ELCHILAR KOSHG‘AR DEHQONCHILIGI XUSUSIDA

Raxima Alimova
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

Kalit so‘zlar: *T. D. Forsyth, 1873 yil, 1876 yil, Yoqubbek, Yettishahar davlati, A.N.Kuropatkin, elchilik, dehqonchilik, asosiy ekin turlari, ekinlarni ekish texnologiyasi.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 1873 yilda Koshg‘arga jo‘natilgan Forsayt rahbarligidagi ingliz elchiligi, A.N.Kuropatkin boshchiligidagi Turkiston general-gubernatorligi elchiligi, elchiliklarning maqsad va vazifalari, elchilik bildirishnomalarida mamlakatning iqtisodiy hayoti, xususan xo‘jalik tarmoqlari, ayniqsa dehqonchilik tarmoqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlari ko‘rib chiqiladi.*

AMBASSADORS ON KOSGHAR AGRICULTURE

Alimova Rakhima Ruskulovna
Associate Professor of Tashkent State University of Oriental Studies.

Key words*: T. D. Forsyth, 1873, 1876, Yakubbek, Yettishahar state, A. N. Kuropatkin, embassy, agriculture, main types of crops, technology of planting crops.*

Abstract: *In this article, the British ambassador headed by T.D.Forsyth sent to Kashgar in 1873, the ambassador of Turkestan General Governorship headed by A.N. Kuropatkin, the goals and tasks of the embassies, the economic life of the country, especially the economic sectors, especially the agricultural sectors, in the embassy notifications. information will be considered.*

XIX asrning 70-yillarida Sharqiy Turkistonga bir necnta elchiliklar kelgan. Shulardan biri, 1873 yilda Koshg‘arga Yoqubbek davlatiga[2] kelgan T.D.Forsyth rahbarligidagi ingliz harbiy missiyasi[3]. Angliya qiroli topshirig‘ida elchilikka savdo shartnomasini tuzish va Kashg‘ar haqida to‘liq va aniq ma’lumotlarni olish belgilangan edi[4]. T. D. Forsyuth Yoqubbek davlatiga ikki marta safar qilgan bo‘lib, birinchi safari 1870 yilda

[2] Д.А.Исиев. Уйгурское государство Йэттишар (1864-1877). – М.: Наука, 1981; Ш.Қўлдошев, Б.Ҳайдаров. Муҳаммад Ёқуббек – Хитойдаги Еттишаҳар давлатининг Пскентлик ҳукмдори // https://shosh.uz/muhammad-yoqubbek-hitoydagi-ettishahar-davlatining-pskentlik-hukmdori-1-maqola$; Abdulkadir Macit. Başbakanlik osmanli arşiv belgeleri işiğinda XIX уьzyil osmanli-hokand hanliği mьnasebetleri. (Yьksek Lisans Tezi). – İstanbul, 2008.

[3] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, K.C.S.I., C.B., Bengal civil service, with historical and geographical information regarding the possessions of the Ameer of Yarkund. – Calkutta: Printed at the foreign department press, 1875.

[4] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 1.

amalga oshirilgan[5]. T.D.Forsyth elchiligining asosiy maqsadi Rossiyaning Afg‘oniston va Koshg‘ar bilan chegara hududlaridagi holatni o‘rganishdan iborat edi. Ular o‘zlarining hisobotida yurgan yo‘llar bo‘ylab uchragan aholi manzillari, xo‘jalik tarmoqlari, qo‘shin holati, qurol-yaroqlar, harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari, va boshqalarni kuzatib ma’lumotlar to‘plagan.

Elchilik missiyasi to‘plagan materiallar turkumida Koshg‘ar tarixining hamma jihatlari qamrab olingan. Jumladan, bildirishnomalar materiallari orasida xo‘jalik tarmoqlari xususida batafsil ma’lumotlar mavjud. Xususan, Koshg‘arda xo‘jalik tarmoqlaridan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sohalari nisbatan yaxshi rivojlanganligini ko‘rish mumkin.

Xususan, T.D.Forsyuth elchiligi bildirishnomalarida xo‘jalikning asosiy ikki tarmoqlari to‘g‘risida xabar berilib, ulardan biri qishloq xo‘jaligi va ikkinchisi manufaktura ishlab chiqarishi edi. Unda hamma xo‘jalik tarmoqlariga alohida urg‘u berib o‘rganilganligi e’tiborni tortadi. Masalan: Qishloq xo‘jaligi mamlakatning eng muhim va keng tarqalgan tarmog‘i ekanligi, shahar aholisidan boshqa barcha o‘troq aholi dehqonchilik bilan shug‘ullanishini qayd etadi. Chorvachilik asosan ko‘chmanchi qirg‘izlar va qalmiqlarning yumushi hisoblanadi. Manufaktura ishlab chiqarishi bilan shahar aholisi shug‘ullanishi qayd etilgan.

T.D.Forsythdan uch yildan so‘ng Qo‘qon xonligi Rossiya tomonidan bosib olinib, Turkiston general-gubernatorligiga kiritilgandan keyin Sharqiy Turkistondagi Yoqubbek davlati bilan Farg‘ona viloyati o‘rtasidagi chegaralarni aniqlab olish maqsadida elchilik hozirlanadi. Turkiston general-gubernatori, general-ad’yutant fon-Kaufman 1876 yil may oyida Koshg‘arga Yoqubbek davlatiga general shtabi polkovnigi A.N.Kuropatkin boshchiligidagi elchilikni safarga jo‘natadi[6]. Bundan tashqari mahalliy-tarjimonlar, yigitlar, xizmatchilar bilan birga elchilik tarkibi 60 nafarga yetkaziladi, 104 ta ot va yuk ortilgan otlar bilan safarga chiqiladi[7].

A.N.Kuropatkin elchiligi juda boy ma’lumotlarni to‘plagan. Ayniqsa, ingliz hukumatining Yoqubbek davlatini o‘z tomoniga og‘dirib olish maqsadida, birinchidan, rus yerlaridan hind hududlarini ajratib turadigan bu hududni neytral zonaga aylantirish, ikkinchidan, ingliz fabrikantlari tovarlarini sotish uchun bozorlarni qo‘lga kiritish yo‘lidagi harakatlari elchilikni iloji boricha ko‘proq ma’lumotlarni topishga undagan edi[8].

T.D.Forsyt elchiligi mamlakat dehqonlarining qishloqlar va shahar atroflarida yashashlari, zero mamlakat dehqonchilikka ixtisoslashganligini qayd etgan. Elchilik ma’lumotlarida dehqonlarning uylari, qishloqlari,

[5] А.Н.Куропаткин. Кашгария. Историко-географический очерк страны, ея военныя силы, промышленность и торговля. – СПб., 1879. – С. 3, 149.
[6] А.Н.Куропаткин. Кашгария. Историко-географический очерк страны,. – С. 2.
[7] А.Н.Куропаткин. Кашгария. Историко-географический очерк страны, ея военныя силы, промышленность и торговля. – СПб., 1879. – С. 5.
[8] А.Н.Куропаткин. Кашгария. Историко-географический очерк страны. – С. 2-3.

plantatsiyalar, mahallalar, mahalla oqsoqollari, qishloqlar to‘g‘risida eng mayda detallarigacha e’tibor qilinganligiga guvoh bo‘lasiz. Unda, “har bir oilaning *uy* deb nomlangan alohida tomorqasi bor bo‘lib, bu uylar yakka-yakka, ikki, uch yoki undan ko‘p to‘da bo‘lib, ularning atroflari dalalar, plantatsiyalar va bog‘lar bilan o‘rab olinganligi, uy-joylarning hech biri devor bilan o‘ralmagan yoki biron bir tarzda mudofaa devorlari bilan himoyalanmagan, hech bir aholi punktida hind qishlogidagi kabi uylar yig‘ilmagan”, deyiladi[9].

Hisobotlarda qishloq aholisining ma’muriy boshqaruv birliklari haqida ham batafsil axborotlar aks etgan. Unda yozilishicha, “odatda to‘rtdan oltmish yoki saksontagacha hovlilar daryo yoki ariq bo‘ylab joylashgan, yuzdan ikki yoki uch yuz yardgacha[10] yoki undan ko‘proq masofadagi qisqa oraliqda ekin ekiladi va ularning har biri “mahalla” deb ataladigan bo‘limni tashkil qiladi va uning jamiyati oqsoqol (ácsacál yoki oqa-soqol) tomonidan nazorat qilinadi. Bu mahallalar yig‘indisi “qishloq” yoki “yaz”ni tashkil qiladi va ulardan ikki yoki uch yoki undan ortig‘i shaharcha yoki “kand”ni tashkil qiladi[11]. Har bir kandda bozor, asosiy ko'cha va chorrahalarning atroflarida hukumat amaldorlari, do‘kondorlar, hunarmandlar va boshqalarning turar joylari zich joylashgan va devorlar bilan o‘rab olingan. Bir nechta turar joylar devor ichida joylashgan; boshqalari devorning tashqi tomonida atrofga tarqalgan. Strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ba’zi shaharchalarda har bir kandning alohida qal‘asi mavjid bo‘lib, ular beg, mir, sarkor deb atalgan tuman hokimi tomonidan boshqarilgan, uning qo‘l ostida tartibni saqlash, soliqlarni yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi mansabdor shaxslar bo‘lgan. Kandda haftada bir marta bozor bo‘lib, unga shaharcha va qo‘shni aholi punktlaridan dehqonlar keladilar, ular bu yerda o‘zlarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini shaharda ishlab chiqarilgan tovarlarga ayirboshlaydilar va kelgusi hafta uchun kerakli oziq-ovqatlarni sotib oladilar. Dehqonlar quyosh botganda uylariga tarqalib ketadilar. Har bir kandning o‘z machidi, maktabi, mehmonxonasi, ruhoniylari, o‘qituvchilari va xizmatchilari mavjud[12]. Bozor do‘konlarida dehqonlar uchun zarur bo‘lgan hamma uy-ro‘zg‘or buyumlari topilgan, bozorlarda savdo-sotiq tovar ayrboshlash orqali amalga oshirilgan. Bozorlarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, masalan, g‘alla, meva, paxta, yem-xashak, parranda go‘shti va boshqa narsalar, uyda yigirilgan ip va uyda to‘qilgan gazlamalar, paxtadan to‘qilgan qo‘pol matolar, chorva mollari, masalan, otlar, ho‘kizlar, sigirlar, qo‘ylar va boshqalar olib kelingan va shahar savdogarlari yoki bozor

[9] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 76.
[10] Ярд - инглиз узунлик ўлчов бирлиги бўлиб, 3 фут ёки 36 дюймга, яъни 91,44 см ёки 0,9144 метрга тенг келади.
[11] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 76.
[12]Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P.76.

do‘konchilarida mo‘ynali bosh kiyimlar, bosma sharflar, kashtali etiklar, shoyi ko‘ylaklar kabi tayyor kiyimlarga, erkaklarning mo‘ynali kiyimlari, qo‘njli etiklari, mo‘ynali qalpoqlar, paxtali palto‘lar (устки кийим-Р.А.) va boshqalar ayirboshlangan[13].

1858-1859 yillarda Sharqiy Turkistonga borgan Cho‘qon Valixonov o‘zining safari davomida bu hududning xo‘jalik tarmoqlarini kuzatib, qishloq xo‘jaligi turlari to‘g‘risida, xususan, don mahsulotlari, paxta yetishtirish, kanop, kunjut, ipaklik, tamaki, polizchilik, bog‘dorchilik va chorvachilik sohalari haqida ma’lumotlar to‘plagan. G‘allachilik va paxtachilik xalqning asosiy boyligi ekanligi, ular bilan mahalliy aholi xitoyliklarga va hatto mo‘g‘ul xonlariga ham soliq to‘laganligini e’tirof qilgan[14]. Yer haydash, sug‘orish tizimi va ekish vaqti o‘rtaosiyoliklar bilan bir xilligi to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Koshg‘arning qishloq xo‘jaligidagi mavsumiy ishlar, dalalarga suv ta’minoti masalalarini ham diqqatga sazovor. Xususan, dalalar va bog‘larda ish asosan olti oy apreldan to oktyabrgacha davom etgan. Hosil yig‘ishtirib olingandan so‘ng yerlar haydalib, dam berilgan. Bu hududda dehqonchilik asosan sun’iy sug‘orishga asoslangan, suv taminoti bilan mirob shug‘ullangan, qishloqlarning katta-kichikligiga qarab miroblar bir nechta bo‘ladi. Mirob o‘z navbatida suvni mahallalardagi oqsoqollarga bergan, oqsoqollar esa suvni har bir hovligi proporsional taqsimlagan. Har yig‘im terimda mirob har bir oqsoqoldan to‘lov sifatida mahalladagi umumiy hosilning ellikdan bir qism miqdorida haq oladi. Mirob to‘plangan soliqning yarmini o‘zida olib qoldirgan, qolgan qismini bekga topshirgan. Ya’ni yer kimga tegishli bo‘lsa, shunga topshiradi. Ot va ho‘kizlardan omochga qo‘shib yer haydalgan.

Koshg‘arning o‘troq aholisi asosan dehqonchilik bilan shug‘ullanishi, bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, tariq va sholi kabi boshoqli ekinlarni yetishtirganligini ma’lum qilgan[15] hamda har bir ekin turining nomi, ekilish davri, qaysi oyda pishib yetilishi, qaysi hududlarda ekilishi bo‘yicha elchilik materiallarida batafsil to‘xtalib o‘tilgan[16].

Koshg‘arda eng ko‘p tarqalgan donli ekinlardan biri bug‘doy hisoblanadi[17]. Donli ekinlar biologik xususiyatiga ko‘ra, kuzgi va bahorgi shakllarga bo‘linadi. Kuzgi bug‘doy kuzda ekilib, qishlab chiqqandan keyin kelasi yili hosil beradi. Kuzgi bug‘doyning bahorgilardan farqi shundaki,

[13]Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P.77.

[14] Ч.Ч.Валиханов. О состоянии Алтышара или шести восточных городов Китайской провинции Нан-Лу (Малой Бухарии) в 1858-1859 годах // Собрание сочинений Ч.Ч.Валиханова в пяти томах.. Том 3. Алма-Ата, 1985. – С. 197-198.

[15]А.Н.Куропаткин. Кашгария. Историко-географический очерк страны, ея военныя силы, промышленность и торговля. – СПб., 1879. – С. 25.

[16] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 76.

[17] А.Н.Куропаткин. Кашгария. Историко-географический очерк страны, ея военныя силы, промышленность и торговля. – СПб., 1879. – С. 20.

ularning birinchi boshlang‘ich rivojlanish davri past haroratda kechadi. Bahorgi bug‘doy esa yuqori haroratda tez muddatda unib chiqadi. Forsayt ma’lumotlarida bug‘doy ikki mavsumda ekilishi, aynan avgust va sentyabrda ekiladigan bug‘doy “kuzlik bug‘doy”, mart va aprel oylari ekiladigan bug‘doy “yozlik bug‘doy” deb atalishi to‘g‘risida ma’lumot bergan[18]. Kuzda sepilgan bug‘doy butun qish yerda yotib, martda taxminan bahorgi ekin davrida ko‘karib chiqadi. Ikkala ekin bir vaqtda yetilgan va iyulda o‘rib olingan. Qishki bug‘doy bahorgi bug‘doyga nisbatan ikki barobar ko‘p hosil bergan. Hosildorligi nisbatan ko‘p bo‘lganligi tufayli, dehqonlar ko‘proq kuzgi bug‘doy ekishgan. Bahorda, aprel oyida ular go‘ng va qum bilan ikki yoki uch marta o‘g‘itlangan, boshoqlash davrida sug‘orilgan[19]. Ko‘rinib turibdiki, Forsayt elchiligining boshqa elchiliklarga qaraganda, iloji borichi ko‘proq ma’lumotlar berishga harakat qilgan. Ch.Ch.Valixonov g‘allachilik, jo‘xori, arpa, makka, paxta, nasha, kunjut, ipakchilik, tabaka, bog‘dorchilik, uzumchilik sohalari, ekinlarni ekish vaqtlari to‘g‘risida qisman ma’lumot bergan[20].

Koshg‘arda yetishtiriladigan don ekinlaridan yana biri arpadir. Forsayt arpaning Koshg‘ar va Yangi-Hisorda yetishtirilmasligi, Yorkendda kam miqdorda ekilishi, bug‘doyga nisbatan yuqori hosil berishi, uning bahorda ekilishi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Bundan tashqari arpa bug‘doyga nisbatan yengilligiga ham urg‘u bergan[21].

Serhosil, donli ekinlardan biri makkajo‘xori sanaladi. Bu ekin turi Koshg‘arning hamma joyida yetishtirilgan. Makka aprelda ekiladi va sentyabrda yig‘ishtiriladi. Juda serhosil bo‘ladi. Makka doni va uning poyasi otlar va yirik qoramollarga arpa bilan qo‘shib beriladi, uning uni esa non mahsulotlari tayyorlashda qo‘llaniladi[22].

Yer yuzidagi eng qadimgi ekinlardan biri bo‘lgan sholi aholi uchun asosiy ozuqa manba hisoblanadi. T.D.Forsyth elchiligi e’tiborini jalb qilgan sholi asosan Yorkend okrugida yetishtirilgan. Sholi aprelda ekilib, sentabr va oktabr oylarida yig‘ishtirib olinadi, yuqori hosildor don ekinilaridandir. Tegirmonlarda yanchilib, sholidan guruch olinadi. Sholi tegirmonlari suv yordamida harakatga keladi, shuning uchun ular kanal bo‘ylarida qurilgan bo‘lib, sucana deb ataladi. Tadqiqotchi sucananing texnik qurilishi, sholini yanchish texnologiyasi to‘g‘risida atroflicha ma’lumot bergan. Sucanani har bir odam suv bo‘yida qurishi mumkin, faqatgina okrug gubernatorining ruxsati bilan davlatga oltmish tanga (taxminan o‘n to‘rt rupiy) to‘lagandan

[18] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 76.
[19] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 76
[20] Валиханов Ч.Ч. О состоянии Алтышара или шести восточных гордов Китпайской провинции Нан-Лу (Малой Бухарии) в1858-1859 годах // Собрание сведений Ч.Ч.Валиханова в пяти томах. Том 3. Алма-Ата, 1985. – С. 198-200.
[21] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 76.
[22] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 77.

keyin uni ishlatishi mumkin, bu esa tegirmon egasini keyingi soliqlardan ozod qiladi. Tegirmonchiga haq guruch bilan to‘lanadi, ya’ni o‘nbeshdan chorak miqdorida guruch beriladi. Butun tegirmonning mexanizmi yog‘ochdan qilinganligi e’tirof qilingan[23].

Ma’lumki, beda yer unumdorligini oshirish va chorva oziqa bazasini yaratishda asosiy ekin hisoblanadi. Elchilik bergan ma’lumotlarga ko‘ra, Koshg‘arda beda avgust va sentabr oylarida ekiladi, mart va aprelda o‘sib chiqqan, olti oyda uch marta o‘riladi, har o‘rimdan keyin go‘ng solinadi va sug‘oriladi. Beda bir marta ekilib, uch yil hosil beradi. Beda ozuqa mahsuloti sifatida yetishtiriladi va qishga quritilib, bog‘lab, pichan qilib bosib qo‘yiladi.

Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan boshoqdoshlar oilasiga mansub tariq janubiy tumanlarda yetishtiriladi, asosan makkajo‘xori bilan birga ekiladi. Uning doni va poyasi chorva uchun qishga yig‘ib qo‘yiladi, uni esa non mahsuloti sifatida foydalaniladi.

Koshg‘arda ekiladigan paxta va undan olinadigan mahsulotlar to‘g‘risida T.D.Forsyth elchiligi qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tgan. Masalan, paxtaning asosan Xo‘ton, Yorkend va Turfonda ekilishi[24], uning sharq va g‘arb mamlakatlariga eksport qilinishi, hamda uy-ro‘zg‘orda keng foydalanilishi haqida batafsil to‘xtaladi. A.N.Kuropatkin esa, paxtaning Xo‘ton va Kunya-Turfon okruglarida ekilishini ma’lum qilgan. Koshg‘arda yetishtiriladigan tovarlar orasida asosiysi paxta, undan to‘qilgan matolar Yettisuv, Farg‘ona va hattoki Orenburg o‘lkasiga eksport qilingan[25]. Koshg‘ar paxtasi Qo‘qon va Toshkent bozorlarida xaridorgir bo‘lgan. T.D.Forsyth elchiligi paxta chigiti aprel va may oylarida yerga qadaladi, iyul oyida gulga kiradi va oktabr oxirigacha paxta ochiladi, deb ma’lumot qoldirgan. Mavsumda paxta uch marta terilgan va shundan so‘ng poyasi o‘rib olinadi. Elchilik paxta yetishtirishning agrotexnologiyasiga alohida ahamiyat berib, quyidagilarni ma’lum qiladi. Paxta o‘simligi ikki-uch futgacha o‘sadi va bargiga nisbatan ko‘p hosil beradi. Har yili yangi urug‘lar ekiladi. 560 kvadrat yard (metr)ga teng bo‘lgan bir tanob yerga har biri qirq funt keladigan ikki chorak (demak, sakson funt) chigit ekiladi, undan sakkiz tartam, ya’ni yigirma funt paxta olinadi, va yigirma to‘rt tartam, ya’ni oltmish funt chigit olinadi. Chig‘riq yordamida chigit paxta tolasidan ajratib olinadi. Chigitdan moy olinadi, moyi ajratib olingan chigit po‘chog‘i ozuqa sifatida chorvaga beriladi. Davlat solig‘i har tanob yerga taxminan bir rupiyadan besh tanga yig‘ilgan.

Elchilik vakillaridan kapitan Chapmanning xabariga ko‘ra, eng yaxshi paxta Koshg‘arning janubi-sharqidagi Janarik tumanida yetishtirilgan. U

[23] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 77-78.
[24] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 78.
[25] А.Н.Куропаткин. Кашгария. Историко-географический очерк страны,– С. 20.

yerda paxtaning uch turi, birinchi navi “olderum” yoki “aksakal”, uning urug‘i Qo‘qondan keltirilgan, shuning uchun bo‘lsa kerak, bu paxta “andijon paxtasi” deb atalishini xabar qilgan. O‘simlik uch fut balandligacha o‘sadi, boshqalaridan ustunligi shundaki, uning hosili yuqori va chigiti mayda. Bu navning urug‘lik chigiti kam bo‘lganligi uchun ko‘p ekilmaydi. Paxtaning ikkinchi navi “Kara Kivaz” deb atalib, bo‘yi past, ikki fut keladi, sifati pastroq. Uchinchi navi “Mella” yoki “Kizzil” deb atalib, rangi qizil, hosildorligi ikkinchisiga o‘xshaydi. Tadqiqotchi paxtaning navidan tashqari, undan tayyorlangan matolarning sifatlari va narx-navolari haqida ham ma’lumot qoldirgan[26].

T.D.Forsyth elchiligi zig‘irni g‘arb okruglarining hammasida ekilishi, tegirmonlarda urug‘idan moy olinishi, moyi siqib olingan massa chorvaga ozuqa sifatida berilishi haqida xabarlar to‘plagan. Elchilik zig‘irning agrotexnologiyasi to‘g‘risida shuni xabar qiladiki, zig‘ir urug‘lari aprel va may oylarida yerga qadalgan, hosili oktyabrda yig‘ishtirib olingan[27].

Elchilik materiallarida yuqorida eslatilgan ekin turlaridan tashqari hind kanoplyasi (kandir) asosan Yorkend okrugida yetishtirilishi bo‘yicha ma’lumotlar mavjud. Konoplya – baland o‘tsimon o‘simlik bo‘lib, 1,5 metrgacha o‘sadi. Konoplya tolasidan baliq tutish to‘rlari, arqon, kiyimlar tayyorlanadi[28].

Forsayt elchiligi sabzavot va poliz ekinlariga ham alohida ahamiyat qaratgan. Jumladan, sholg‘om, turp, sabzi, lavlagi va marul, piyoz, qalampir, tamaki, no‘xat, loviya va baqlajon barcha g‘arbiy shahar va shaharlarning chekkalari va qishloqlarida yetishtirilgan, dukkakli ekinlar, xususan siseron va loviya, shuningdek, shirin qovunlar va bodring, oshqovoq va uzun bo‘yinli qovoqlar ekilgan. Bo‘yinli qovoqlar ichi tozalanib, suv idishlari o‘rnida ishlatiladi[29].

Ingliz elchiligi asarda Koshg‘arda dehqonchilik mahsulotlaridan tashqari gullar, ularning nomlari, bog‘lar, uzumzorlar, mevazorlar - o‘rik, shaftoli, nok, olma, behi va boshqalar[30]yetishtirilishi yozadilar.

Forsaytdan farqli o‘laroq A.N.Kuropatkin Koshg‘ardagi qishloq xo‘jalik mahsulotlaridan olinadigan soliq turlariga e’tibor qaratgan. Asarda hosildan olinadigan soliqlar O‘rta Osiyo hududlaridagiga o‘xshash bo‘lib, bular xiroj, tanob va zakot soliqlari ekanligini qayd etgan. Aholidan xiroj solig‘i hosilning o‘ndan biri miqdorida yig‘ilgan, tanob solig‘i bog‘lar, paxta, beda maydonlaridan, poliz ekinlaridan olingan. Har bir tanobdan

[26] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 479.
[27] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 78.
[28] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 78.
[29] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 79.
[30] Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, – P. 79.

turlicha miqdorda, eng ko‘pi bilan 20 tangagacha soliq olingan, 20 tanga 2 rublga teng bo‘lgan. Chorva va tovarlardan zakot solig‘i 2,5 % olingan. Bundan tashqari samonpuli, kafsan, tari-kara va boshqa soliq turlari ham bo‘lgan[31].

Yoqubbek davlatini o‘rganish maqsadida Koshg‘arga jo‘natilgan T.D.Forsyth va A.N.Kuropatkin boshchiligidagi elchilik vakillari tomonidan juda qiziqarli hamda qimmatli ma’lumotlar aniqlangan. Koshg‘arning dehqonchilik xo‘jaligi xususidagi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, avvalom bor bu hududda ekiladigan va yetishtiriladigan mahsulotlar, ularning turlari, navlari, ekin ekish va hosilni yig‘ishtirib olish davri juda sinchiklab, e’tibor bilan o‘rganilganligidan dalolat beradi. Ma’lumotlar qiyosiy o‘rganilganda, Yettishahar asosan qishloq xo‘jaligiga asoslangan agrar mamlakat bo‘lib, ekinlar ko‘proq ichki ehtiyoj uchun yetishtirilganligi, aholi an’anaviy dehqonchilik sohasida uzoq tajribaga egaligi ma’lum bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulkadir Macit. Başbakanlik osmanli arşiv belgeleri işiğinda XIX yzyil osmanli-hokand hanliği mnasebetleri. (Yksek Lisans Tezi). – İstanbul, 2008.
2. Report of a mission to Yarkund in 1873, under command of sir T. D. Forsyth, K.C.S.I., C.B., Bengal civil service, with historical and geographical information regarding the possessions of the Ameer of Yarkund. – Calkutta: Printed at the foreign department press, 1875.
3. Валиханов Ч.Ч. О состоянии Алтышара или шести восточних городов Китайской провинции Нан-Лу (Малой Бухарии) в 1858-1859 годах // Собрание сочинений Ч.Ч.Валиханова в пяти томах. Том 3. – Алма-Ата, 1985. – С. 97-218.
4. Исиев Д.А. Уйгурское государство Йэттишар (1864-1877). – М.: Наука, 1981.
5. Куропаткин А. Очерки Кашгарии. – СПб., 1878.
6. Куропаткин А.Н. Кашгария. Историко-географический очерк страны, ея военныя силы, промышленность и торговля. – СПб., 1879. 7. Қўлдошев Ш., Ҳайдаров Б. Муҳаммад Ёқуббек – Хитойдаги Еттишаҳар давлатининг Пскентлик ҳукмдори // https://shosh.uz/muhammad-yoqubbek-hitoydagi-ettishahar-davlatining-pskentlik-hukmdori-1-maqola$.

ERKEN ORTAÇAĞ AZERBAYCANINDA KONFESYONEL DURUMUN BAZI MESELELERİNE DAİR

Nigar R. Coşkunsu
Doçenta doktor
AMEA A. A. Bakıxanov adına Tarix və Etnoloji Enstitüsü
E-mail: Joshkunsu.n@gmail.com

[31] А.Н.Куропаткин. Кашгария. Историко-географический очерк страны,. – С. 33-34.

Anahtar Kelimeler: *Azerbaycan, Erken ortaçağ, Din, İslam, Zerdüştilik.*

.

Annotasiya: *Azərbaycan tarixinin erkən orta əsrlər dövrü siyasi və sosial-iqtisadi proseslərin mürəkkəbliyi ilə yanaşı, dini şəraitin müxtəlifliyi, dini-ideoloji proseslərin dinamik inkişafı ilə diqqəti cəlb edir. İbtidai inanc və inanclarla yanaşı, müxtəlif dinlərin və dini cərəyanların eyni vaxtda mövcudluğu, onlar arasında hakimiyyət uğrunda mübarizə, kütlənin bu dinlərə münasibəti və digər məsələlər bu dövrdə konfessional dövlətin əsas xüsusiyyətləri sayıla bilər.*

Azərbaycanın erkən orta əsrlər tarixinə dair mənbələrin müqayisəli təhlili və elmi araşdırmalara əsaslanan məqalədə problemin müəyyən tərəflərini işıqlandırmaq cəhdi göstərilir.

ON SOME ISSUES OF CONFESSIONAL CONDITION IN EARLY MEDIEVAL AZERBAIJAN

ABSTRACT

Nigar R. Coshkunsu
Associate Professor, Doctor
Institute of History and Ethnology named after A. A. Bakikhonov, AMEA
E-mail: Joshkunsu.n@gmail.com

Key words: *Azerbaijan Early medieval, religion, Islam, Zoroastrianism.*

Abstract: *Along with the complexity of the political and socio-economic processes the early medieval period of Azerbaijan history draws attention for the diversity of confessional condition and dynamic development of religious and ideological processes as well. In addition to the primitive faith and beliefs, the simultaneous existence of different religions and sects, the struggle going on between them for the power, attitude of the masses to these religions and other matters can be considered as the main features of the confessional condition in this period.*

In the article basing on comparative analysis of sources and scientific research works devoted to early medieval history of Azerbaijan was attempted to elucidate this or that aspects of the problem.

Hıristiyanlıktan önce ve İslam'a kadar Azerbaycan topraklarında Animizm, Totemizm, Fetişizm ve Atalar Kültü gibi ilkel inançlar geniş yayılmıştı. Dünya halklarının ekseriyetinde olduğu gibi kadim Azerbaycan'da da Güneş, Ay, yıldızlar, yüksek zirveler, çeşitli hayvanlar ve ağaçlar, ilkel inanç ve itikatların temel objeleri idiler. Bu yüzdendir ki Azerbaycan, söz konusu inançların maddi yansıması olan tarihi yapıtlarla zengindir. Farklı bölgelerde yapılan arkeolojik kazılar sırasında ortaya

çıkarılmış taş, heykel kalıntıları, tasvirler, kayaüstü resimlerdeki dini-törensel kompozisyonlar ve günümüze kadar varlığını sürdüren mabetler, ibadetgahlar vs. de bunu doğrulamaktadır.

Kadim Azerbaycan halkının ilkel inançları ile ilgili antik dönem yazılı kaynaklarda da bilgiler bulunmaktadır. Örneğin, Yunan coğrafyacısı Strabon şunları kaydetmektedir: *"Onlar (Albanlar-N.V.) ilahlardan Helios, Zevs ve özellikle İberiya yakınlığında mabedi bulunan Selena'ya tapmaktadırlar. Kahinler Kraldan sonra en saygın insanlar olarak kabul edilirler. Onlar büyük ve kalabalık vilayetlerle birlikte mabedin kullarını da yönetmektedirler..." (Алиев, 2010: 51; Алиев, 1960: 419-422)*

Alban tarihçi M. Kalankatlı ise şunları kaydetmektedir: *"... Hunlar ağaca at kurban ediyor, kanını yapraklara serpiyor, kafasını ve derisini ise dallarından asıyorlardı. ...Pelit ağacı tüm diğer ağaçların anası olarak görülüyor ve bu ağaca Hun ülkesinde Kral ve ayanları dahil her kes tapıyordu." (Kalankatlı, 1993: 161)*

Şunu da kaydedelim ki, Albanların Hıristiyanlığa kadarki inançları, arkeolojik kazılar sırasında elde edilmiş malzamelere de yansımıştır. Şöyle ki, Yaloylutepe, Mingeçevir ve Hınıslı kazılarında elde edilmiş seramik ürünleri üzerinde Yıldız Kültü, Ağaç Töreni ve Totemizm'in izleri açık şekilde görünmektedir. Ateşperestliğin maddi alametleri ise IV. yüzyıldan itibaren Şirvan bölgesinde yayılmaya başlayan lahit mezarlarda ve bazı mimari yapıtlarda muhafaza edilmiştir. (Orucov, 2012: 18-19)

İlkel inanç ve itikatların insanların fikir ve düşüncesinde, hayat ve günlük yaşamında uzun asırlar boyunca derin kök saldığını, Zerdüştilik, Hiristiyanlık ve VII. yüzyıldan yayılmaya başlayan İslam gibi dinlerin Azerbaycan halkına-Albanlara yad ve yabancı olduğunu, dışarıdan zorla kabul ettirildiğini söyleyen K. V. Trever'in kaydettiğine göre, "sıradaninsanlar daha uzun yıllar doğa güçlerine- Güneşe ve ateşe, suya ve toprağa tapmaya devam etmiştir ki, bunlar olmadan özellikle hayvancı ve ekincinin yaşaması münkün değildi." (Тревер, 1959: 292-294)

Trever'in "tüm dinlerin Albanlara yad ve yabancı olması, zorla kabul ettirilmesi" düşüncesini paylaşmasak da, Zerdüştiliğin Hıristiyanlıkla, Hıristiyanlığın ise İslamla yer değiştiği, birçok durumda hatta birlikte mevcut oldukları ortamda, insanların fikir ve düşüncesinde ilkel inanç ve itikatların sağlam şekilde yerleştiği, yaşamaya devam ettiği bir gerçektir. Özetle Azerbaycan'ın erken ortaçağ döneminin ideolojik sistemi, dini senkretikliği ve konfesyonel ortamı son derece ilginç bir manzara ile karakterize edilmekteydi. Bu sistemde Zerdüştilik asıl yerlerden birine sahipti.

Genellikle Zerdüştilik Ateşperestlikle aynı görülmektedir. Oysaki, her iki inanç bağımsız din alanları şeklinde ortaya çıkmış ve bunların yaranması

direkt Azerbaycan toprakları ve halkı ile bağlantılıdır. (Orucov, 2012: 27) Üç büyük imparatorluğun devlet dini olmuş Zerdüştilik, mahalli din anlayışının sınırlarını aşmak bir tarafa, hatta kadim dünyada ilk kez mükemmel din, düşünce, ahlak, günlük yaşam ve maneviyat ilkeleri bütününü ortaya koymuştur. Bu dinin kurucusu sayılan Zerdüşt'ün büyüklüğü, kendisine kadar inanılan ilahların tamamını reddederek tek olan Allah-Hürmüz'ü kainatın ve tüm canlı varlıkların yaratıcı olarak ileri sürmesinde idi. Bu açıdan Bütperestlikten ayrılan Zerdüştilik, bütperest dinlerle semavi dinler arasında ayrı bir aşamayı oluşturmaktadır. (Orucov, 2012: 27-28)

Fakat Zerdüştiliğe dayanan sonraki din biçimlerinin (Manilik ve Mezdekilik) mensupları arasında yaygın olan ateşe tapma ritüeli, bu ritüeli gerçekleştirenlerin Ateşperest olduğunu onaylamaktadır. (Əhədov, 1991: 11)

Ekser araştırmacıların fikrince Zerdüşt'ün düşünceleri sadece takipçilerini değil, Platon, Aristo, Hemmipin gibi kadim devrin bir çok alimini de etkilemiştir. Hindistan ve İran'da şimdiye kadar mensupları yaşayan Zerdüştilik, Azerbaycan'ın tarihi topraklarında yaranmış ve Azerbaycan halkının, insanlığın kültürel değerler sistemine armağan ettiği ilk büyük katkısıdır.(Orucov, 2012: 28)

Zerdüştilikle ilgili önemli noktalardan biri de tarihinin Azerbaycan feslefesi tarihi ile yaşıt olmasıdır. Şöyle ki, Zerdüştilik ayinlerini gerçekleştirmiş olan Maglar, aynı zamanda Azerbaycan'ın ilk filozofları olarak kabul edilirler. Aslında günümüzde farklı dönemlere ve gruplara böldüğümüz dünya felsefesinin temelinde Magların tebliğ ettiği düşünceler dayanmaktadır. Bu açıdan dünya felsefesi kendilerine çok şey borçludur.(Orucov, 2012: 28) Belki de bu yüzden birçok tarihçi Avesta'nın Azerbaycan'da ortaya çıktığı ve Zerdüşt'ün Azerbaycan'da doğduğu fikrini ileri sürmektedir. İran tarihçisi Ahmet Kesrevi (Tebrizi) ise hatta Avesta'yı Azerbaycan dilinin ilk örneği olarak kabul etmektedir. (Fazili, 1964: 141)

Ayrıca tarihi kaynaklarda Ateşperestlerin üç en ihtişamlı Ateş Mabedi'nden birinin (Kadim Şiz şehrindeki Ateş Mabedi'nden bahsedilmektedir-N. V.) Azerbaycan topraklarında olduğu konusunda bilgiler bulunmaktadır. Söz konusu dönemden bahseden Arap tarihçilerin tamamına yakını bu gerçeği dile getirmektedirler: "... Orada son derece saygın bir Ateşgah bulunmaktadır. Doğu ve Batıda yaşayan Ateşperestler buradan ateş götürüyorlar. Ateşgahın kubbesinin en üst noktasında, büyülü güce sahip gümüş aypara bulunmaktadır. Bazı emir ve fatihlee onu çıkarmak istemiş, fakat beceremeyişlerdir..." (Velixanlı, 1975: 78)

Zerdüştilikle sonraki dinler arasında parallelik kuran, benzer veya ortak yönlerini bulmaya çalışan bazı araştırmacılar, Zerdüştilik öğretilerine

yansımış birçok düşüncenin, sonraki dinler tarafından benimsendiğini kaydetmektedirler. Örneğin, görkemli İngiliz alimi M. Boys, Zerdüştilikle İslam'ın birbirine çok yakın olduğunu, Cennet, Cehennem, Kıyamet vs. gibi inaçların Zerdüştilkten alındığını kaydetmektedir.(Бойнс, 1986: 128)

Milattan sonra ikinci yüzyıldan itibaren tarihi Azerbaycan topraklarında Hıristiyan toplulukları yaranmaya başlamıştır (Kalankatlı, 1993: 18) Dördüncü yüzyılın ilk çeyreğinde ise Alban Kralı Urnyar, Hıristiyanlığı ülkenin resmi dini ilan eder.

Bazı araştırmacılara göre ise Azerbaycan topraklarında Hıristiyanlık, Yelisey'in Kafkasya'ya gelişinden çok önce yani, milattan sonra ilk yüzyılların başlangıcında artık mevcuttu. M. Kalankatlı'nın "Albanya Tarihi"ndeki bilgilerine dayanan tarihçi F. Memmedova'nın kaydettiğine göre, söz konusu dönemde Albanya'ya Kudüs (Yerusalim) ve Suriye'den ilk Hıristiyan misyonerler- Havariler ve talebeleri gelmeye başlamış, ilk Hıristiyan toplulukları kurulmuştur. (Məmmədova, 2003: 26) "Nazariler" olarak isimlendirilen bu Yahudi Hıristiyanların, İsa'yı Tanrı'nın oğlu değil, dindar, mümin ve pak insan gibi takdim eden en erken geleneği, tüm dini kitaplarda belirtilmiştir.

Araştırmalar ayrıca, Hıristiyanlığın tebliği amacıyla Çol vilayetinden Uti vilayetine geçen Yelisey'in, Kiş köyüne geldiği ve burada "Doğu Kiliselerinin Anası" olarak isimlendirilen, yani Metropolit olan ilk Kafkas Kilisesi'ni inşa ettiğini göstermektedir.(Xəlilov, 2011: 29) Bazı araştırmacılar bu Kilisenin günümüzde Şeki iline bağlı Kiş köyünde bulunan Alban Mabedi olduğunu düşünmektedirler. Kanaatimizce bu, gerçeğe daha uygundur. (Xəlilov, 2011: 30-31)

F.Memmedova da Kafkasya'nın en kadim ve Hıristiyan aleminin en eskilerinden biri olmuş Alban Apostolik (Bağımsız) Kilisesi'nin Albanya'da inşa edildiğini onaylamakta ve ülkenin IV. yüzyıldan, yani Hırsityanlığın devlet dinine dönüşmesinden çok önce Hıristiyan topluluklarının meydana geldiği ülkeler arasında olduğunu kaydetmektedir. (Məmmədova, 2003: 26)

III. Vaçaga zamanında tek sistemli dini kurum haline gelen Hıristiyan Kilisesi, Partava (Berde) şehri yakınlığındaki Aluyen olarak isimlendirilen yerde toplanmış ünlü Aluyen Meclisi'nde 21 maddeden oluşan dini tüzüğü onaylanmıştır. (Əhədov: 1991: 13)Bununla da zamanla diğer dinler (Bütperestlik, Zerdüştilik, Manilik, Mezdekilik) karşısında üstünlük sağlamaya başlayan Hıristiyanlık, Monofizit ve Diofizit akımlardan oluşmaktaydı. Monofizit Hıristiyan akımlarının taraftarı olan Albanlar, Ermeni Grigoryan Kilisesine, Diofizitler ise Bizans yanlısı Gürcü Ortodoks Kilisesine bağlıydılar. Albanya'nın güney batısında faaliyette bulunmaya çalışan Nasturi Hıristiyan tarikatının taraftarları da çoktu. Ermeni Grigoryan ve Gürcü Ortodoks Kiliseleri ülkede yaranmış karmaşık sosyo-politik

durumdan ve Alban Hıristiyan Kilisesi'nin iç çekişmelerinden yararlanarak bu kiliseyi etki altında tutmaya çaba gösteriyorlardı.(Əhədov, 1991: 14)

VII-VIII. yüzyıllarda Güney Kafkasya'nın Araplar tarafından fethiyle Azerbaycan'da İslam dini yayılmaya başlamıştır. Araplara karşı mücadele 150 yıla kadar devam etmiştir. Arapların üç kez (639, 643 ve 645 yıllarında) ısrarla Azerbaycan'ı boyun eğdirmeye çabalamış olmaları bunun açık delilidir. Girdman Hükümdarı, Alban Hıristiyan Kilisesine bağlı Cavanşir'in (VII. yüzyıl) ve Babek Hürremi'nin (IX. yüzyıl) Araplara karşı mücadelesi ve aynı şekilde Arran ve Beylegan halkının uzun süreli direniş harekatı da bunu onaylamaktadır.

Bununla birlikte bazı kaynakların, Azerbaycan halkının Araplara karşı verdiği mücadelenin aslında İslam'a karşı mücadele olduğu şeklindeki iddialarını kabul etmek kesinlikle mümkün değildir. Söz konusu iddiaların Sovyet ideolojisinden ve yakın geçmişin zararlı ateist propagandasından kaynaklandığı açıkdır. Şöyle ki, tarihi kaynaklarda yer alan gerçekler de İslam'ın Azerbaycan'da yayıldığı dönemde halkın rahatsızlığını yansıtan itiraz ve kıyamların İslam'a karşı değil, Arap işgalci siyasetine karşı olduğunu ispatlamaktadır. Arap kaynaklarının verdiği bilgilere dayanan Z. Yampolski'nin kaydettiği gibi, ister Hürremiler ve isterse de Babekiler, Arap esaretine ve yerli sömürgecilere karşı mücadele etmişlerdir. (Ямпольский, 1941: 12)

Böylece, İslam'ın yayılması ile Azerbaycan topraklarında Hıristiyanlığın konumu keskin şekilde zayıflamaya başlamış ve VIII-IX. yüzyıllarda Hıristiyan mabetleri ülkede Hıristiyanlığı muhafaza etmeye çalışan temel dini kurumlara dönüşmüştür. Azerbaycan'ın yalnız bir kısmında-Küçük Kafkas'ın ün yetmez bölgelerinde ve Büyük Kafkas'ın eteklerinde faaliyette bulunan Kum (Kah ili), Hofaveng (Kelbecer ili), "Hazinedağ-Garansar" (Ağdere ili) ve diğer Alban mabet kompleksleri bu gibi kurumlardandı. Tahmini hesaplamalara göre, erken ortaçağda Albanya'da 30'dan fazla Hıristiyan mabet kompleksi bulunmaktaydı. (Геюшов: 1984: 143)

Kısaca kaynaklardaki bilgilerden ve İslam araştırmacılarının araştırmalarından "İslam'ın, yarandıktan sonra önceki dinleri ve inançları tamamen ortadan kaldırmaya çalışmadığı" şeklinde bir kanaate varmak mümkündür. Şöyle ki, söz konusu dönemde Bütperestlik ve Zerdüştilikle birlikte "Ehl-i Kitap" olarak kabul edilen Yahudilik de varlığını muhafaza edebilmişti. (Əhədov, 1991: 89) Bu kontekstte İslam'ın söz konusu dinlere, özellikle Zerdüştiliğe bakışı ilginçtir. Daha çok ülkenin güney kısmında yaşayan ve Araplar tarafından "Ateşperest", "kafir" ve "gavur" olarak isimlendirilen Zerdüştilerin dini, Müslümanlar tarafından himaye edilen din gibi kabul edilmekteydi.

Azerbaycan'da yayılmaya başladığı ilk zamandan itibaren İslam, milli, dini, cinsi ve aile münasebetlerini kendine özgü bir şekilde belirlemiş, devletler arası ilişkilerde din etkeninin rolünü ön plana çeken bir dizen biçimlendirmiştir. Bu din, ülke dahilinde vatandaşların yaşamının tüm alanlarına nufuz ederek, onları yeniden gözden geçirerek yoluna koymuş ve yeni dini hukuk normları yaratabilmiştir. Bu ise sonuçta Arap fetihlerinden geçen yaklaşık üç asır boyunca Azerbaycan halkının ekseriyetinin İslam dinin kabul edip Müslüman olmasına katkıda bulunmuştur. (Orucov, 2012: 89-90).

İslam dininde mevcut olmuş mezhep, tarikat ve akımların da kendine özgü sosyo-ekonomik ve dini-politik temelleri bulunmaktadır. Azerbaycan Müslümanları arasında da mevcut olan bu grupları meydana gelmesi meselesi, dini ritüel farklılıklar ve bunların tezahür biçimleri tamemen farklı bir araştırma konusu olduğundan, üzerinde fazla durmuyoruz. Burada yalnız bir noktaya dikkat çekmek istiyoruz. İslamda İmamların seçilmesi, İmamette veraset hukuku vs. gibi meselelerle bağlı yaranmış tartışmalar kontekstinde Müslümanlar iki temel gruba-Sünniliğe (sünne-arapça yol demektir) ve Şiiliğe (arapça "taraftar" anlamındadır) bölünmüşlerdir. Her iki grubun takipçileri kendilerini daha mümin kabul etmekte, muhaliflerini ise yollarını azmakla suçlamaktadırlar. (Paşazade, 1991: 79)

İslam'ın yönetim yapısına gelince, şunu kaydedelim ki, bu hiyerarşi farklı dönemlerde ve devletlerde kendine özgü özellikleriyle diğerlerinden ayrılmıştır. X. yüzyılın ikinci yarısında fahri "şeyhulislam" unvanı ortaya çıkmış, bu unvan daha sonralar Azerbaycan'da önemli role sahip olmuştur. Önceleri bu unvan ünlü mutasavvıflar ve fakihler için kullanılmaktaydı. Fakat daha sonralar özellikle XII. yüzyıldan sonra Halifeler, bu isimleri eyaletlerdeki ve Yakın Doğu'nun Müslüman devletlerindeki temsilcilerine vermekteydiler. XI-XIII. yüzyıllarda şeyhulislamlar kadıları atar ve kendilerine şeriat kuralları esasında hüküm verme yetkisi verilirdi. Kadıya bağlı mirze (katip), küçük tartışmaları araştıran mahkeme hizmetçisi (hasip), yardımcısı (munsif), mahkeme binasının reisi ve çağdaş polis görevini yerine yetirenler dahildi. Tüm bu şahıslar çoğu zaman devlet hazinesinden maaş almaktaydılar. "Din adamlığı" görevine, cami görevlileri, yani İmam ve Müezzin de dahildi. (Orucov, 2012: 123-124)

Müslüman Doğu'da o cümleden Azerbaycan'da bu dönemde Şeriat normlarının denetleyici fonksiyonlarını, geniş yetkilere sahip "muhtesipler" (müfettiş) yerine yetirmekteydi. Onlar halkın yalnız kamuya açık alanlarındaki davranışlarını değil, aynı şekilde ticaret ve iş faaliyetini denetlemekle birlikte, yanlarında yardımcılar "avan", polis görevini gören "şurta" olarak isimlendirilen şahısları da bulundurmaktaydılar. Ortaçağda aralarında sıradan Müslümanlarlarla birlikte sanatkar ve tüccarların da

bulunduğu çeştili teşkilatlar faaliyette bulunmuşlar ve bunların en büyüğü "ahilik" teşkilatları olmuştur. (Orucov, 2012: 125)

Özetle erken ortaçağ Azerbaycanındaki konfesyonel durumun tarihi etnografik tahlilinden hareketle, söz konusu dönemin, çeştili dinlerin, tarikatlerin ve ilkel inançların kaynayıp karıştığı, iç içe olduğu bir dönem olarak nitelendirmek mümkündür. Önce Zerdüştiliğin, daha sonra Hıristiyanlığın, VIII. yüzyıldan itibaren ise İslam'ın egemen olduğu bu tarihi toprakların diğer bir önemli özelliği ise, İslam'ın hakim olduğu ortamda etnik dinlerin varlıklarını muhafaza edebilmesi, baskı ve takiplere maruz kalmamasıdır. Çağdaş dünyada "dini hoşgörü" terimi ile ifade edilen bu özellikler, geleneksel mirasçılık ilkesi temelinde günümüze kadar devam etmektedir. Şöyle ki, birtakım ülkelerden farklı olarak Azerbaycan'da hiçbir zaman sadece İslam mezhep, tarikat ve akımları arasında değil, aynı şekilde İslam ve diğer dinler arasında herhangi bir çatışma veya münakaşa görülmemiştir. Bu da halkımızın tüm milli ve manevi değerlere karşı hoşgörülü olmasından ve İslam'ın Azerbaycan'da dini mahiyetini muhafaza etmekle birlikte kendine özgü milli mahiyet kesbetmesinden ileri gelmektedir.

KAYNAKÇA

1. Алиев К. (2010)Древнегреческие и латинские первоисточники по истории древнего Азербайджана (с примерами нового толкования). Б., Элм ве тахсил.
2. Алиев К. (1960) К вопросу об источниках Страбона в описании древней Кавказской Албании //Доклады АН Азерб. ССР, вып. 4.
3. Kalankatlı M.(1993) Albaniya tarixi (Ziya Bünyadovun tərcüməsi). B., Elm,
4. Orucov H. Azərbaycanda din. Ən qədim dövrdən bu günədək. B., İdrak İB, 2012. 388 s
5. Fazili A. (1964) Azərbaycanın qədim və ilk orta əsrlər tarixi İran tarixşünaslığında (III-VII əsrlər). B., Elm.
6. Vəlixanlı N. (1974) IX-XII əsr ərəb coğrafiyaşünasları Azərbaycan haqqında. B. Elm.
7. Əhədov A. (1991) Azərbaycanda din və dini təsisatlar. B., Azərb. Dövlət Nəşr.
8. Xəlilov M. (2011) Albaniyanın xristian abidələri (IV-X əsrlər). "Xəzər Universiteti".
9. Məmmədova F. (2003) Qafqaz Albaniyasında xristianlıq. B.
10. Тревер К.И. (1959)Очерки по истории и культуре Кавказской Албании. IV в. до н.э. – VII в. н.э. М.-Л., Изд. Акад. Наук СССР
11. Ямпольский З.И. (1941) Восстание Бабека (краткий очерк). Б., Издательство АзФан.
12. Бойс М. (1986) Зороастрийцы: верования и обычаи. М., Наука.
13. Геюшев Р. (1984) Христианство в Кавказской Албании. Б., Элм.
14. Paşazade A. (1991), Qafqazda İslam. B., Azerneşr.

САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХИЙ-МАДАНИЙ ВА МАЪНАВИЙ МЕРОСНИ САҚЛАШДА ТУТГАН ЎРНИ

Фаррух Темиров
Бухоро давлат университети
т.ф.ф.д (PhD) доцент

Калит сўзлар: *Бухоро, Самарқанд, Тошкент, Садр Зиё, Ҳашма Бухорий, кутубхона, шарқшунослик, манбашунослик, девон, тазкира*

Аннотация. *Ушбу мақолада машҳур ёзувчи, шарқшунос олим, жамоат арбоби ва академик Садриддин Айнийнинг бой илмий мероси, шарқшунослик, манбашунослик соҳасидаги фаолияти, шунингдек Ўзбекистонда тарихий-маданий меросни асраб-авайлаш ва сақлаш, уни келажак авлодларга етказиш, қўлёзма манбаларни сақлаш, таржима қилиб уни нашр қилдириш ва маданий мерос ёдгорликларини тарихини ўрганиш борасидаги хизматлари илмий жиҳатдан таҳлил этилган.*

HISTORICAL AND CULTURAL AND ROLE IN PRESERVING SPIRITUAL HERITAGE

Farrukh Temirov
Bukhara State University
Ph.D. associate professor

Key words*: Bukhara, Samarkand, Tashkent, Sadr Ziya, Hashmat Bukhari, library, oriental studies, source studies, divan, anthology (tezkire).*

Abstract *This article scientifically analyses the rich scientific heritage of the famous writer, orientalist scientist, public figure and academician Sadriddin Ayni, his activities in the field of oriental and source studies, as well as his merits in the preservation of historical and cultural heritage, transmission to the future generation, including the preservation, translation and publication of manuscript sources, the study of the history of cultural monuments.*

Кириш

Дунёнинг АҚШ, Туркия, Россия, Буюк-Британия, Германия, Голландия, Покистон, Ҳиндистон, Қозоғистон, Тожикистон ва бошқа қатор илмий тадқиқот марказларида, туркистонлик мутафаккир алломалар, миллий зиёлиларнинг илм-фан тараққиётига қўшган ҳиссаси, XIX асрнинг охири – XX бошларида мусулмон мамлакатларининг ижтимоий-сиёсий ҳаёти, Туркистонда маърифатпарварлик, жадидчилик ҳаракатининг вужудга келиши ва

жадид намояндаларининг бу ҳаракатда тутган ўрни ҳамда илмий мероси ўрганилмоқда. Яқин тарихда ўтган жадид боболаримиз миллат ойдинлари эди. Улар маънавий-маърифий, адабий-илмий, моддий-техникавий соҳаларда янгиликка интилишди. Инсон ҳурлигини қадрлашди. Ватан истиқлоли ва миллат истиқболи учун жон фидо қилишди.

Ҳозирда жадид зиёлилари, фидойи боболаримиз орзу қилган истиқлол замонида уларнинг ибратли ҳаёт йўли, илмий меросини ўрганиш долзарб[32] аҳамият касб этмоқда. Маърифатпарвар адиб, машҳур олим ва жамоат арбоби, академик, ўз ижоди билан мактаб яратган Садриддин Айнийнинг ҳам Туркистон минтақасидаги ижтимоий-маданий ҳаётда тутган ўрни ва илмий мероси дунё илмий жамоатчилиги томонидан муносиб эътироф этилган. Туркистоннинг XIX аср охири - XX аср биринчи чорагида кечган тарихий жараёнларни ўрганишда С.Айний тарихий-бадиий асарлари ва илмий меросининг аҳамияти катта.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил Бухорога ташрифида “Дарҳақиқат, ўтмишда қанча-қанча синов ва қийинчиликларга дуч келмасин, Бухорои шарифнинг илм-маърифат, маданият ва санъат дарёси ҳеч қачон тўхтаган эмас. Бу кўҳна юртда туғилиб, ижод қилган Аҳмад Дониш, Абдурауф Фитрат, Файзулла Хўжаев, Садриддин Айний сингари маърифат фидойиларининг ибратли ҳаёти бугунги кунда ҳам юртимизда янги жамият барпо этиш, баркамол авлодни тарбиялаш, мамлакатимизни юксалтиришда бизга беқиёс куч бағишлаб келмоқда”[33] деб, айтган ибратли фикрлари бугунги кунда ҳам ўз тасдиғини топмоқда.

Ўрта Осиё қадим замонлардан илм ва маданият ўчоғи бўлиб, унинг энг қадимий шаҳарлари Бухоро ва Самарқанд фақат Шарқдагина эмас, балки Ғарбда ҳам машҳур бўлган бир қанча илм хазиналари – кутубхоналар мавжуд бўлганлиги кўпгина тарихий манбалардан маълумдир. Биргина Бухоронинг ўзида бир неча катта-кичик кутубхоналарда турли даврларда яшаб ижод этган машҳур олимлар, файласуфлар шоирлар, тарихчи ва тарихшунослар, тазкиранавислар томонидан асрлар давомида ёзилган асарлар тўпланган. Ўзаро урушлари (араблар, мўғуллар истилоси даврида ва бошқа қонли тўқнашувлар) даврида халқимизнинг маданий бойликлари ер билан яксон қилинган, қимматли қўлёзма китоблар мутаассиб руҳонийлар

[32] Бирлашмоқ даври // Жадид, 2024 йил № 1. – Б. 1-2

[33] Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент, Ўзбекистон, 2019. – Б. 146.

фатвоси билан ёндирилиб юборилган, яна бир қисми эса – Европа олимлари томонидан олиб кетилган эди[34].

Шунга қарамай, шарқ тилларида (араб, форс, тожик ва туркий халқлар тилларида) ёзилган кўпгина қимматли ва нодир қўлёзма манбалар (тарих китоблари, девон, тазкира, жангномалар ва бошқалар) бизгача етиб келган. Илмий-маданий меросимизнинг бизгача етиб келиши ва сақланишида, давлат ҳамда мадрасалар ихтиёридаги кутубхоналар билан бир қаторда ноёб китобларга бой шахсий кутубхоналар ҳам катта роль ўйнайди.

Маълумки, Бухоро Халқ Совет Республикаси ташкил топгандан кейин 1921 йилда Туркистон Шўролар ҳукуматининг Маориф Халқ Комиссарлиги бу Бухородаги сақланган амирлки ва шахсий кутубхоналарни аниқлашга киришади. Бу ишда махсус комиссия тузилиб, унинг таркибида ҳайъат бошлиғи этиб, таниқли тарихчи олим, профессор Пўлат Солиев[35], тафтиш ишларни назорат қилиш ва ёзиб боришга масъул профессор Абдурауф Фитратлар раҳбарлик қилишган. Ҳайъат вакиллари 1921 йилда Бухородаги мавжуд кутубхоналарни излаш ва ундаги нодир қўлёзма китобларни рўйхатга олиб Тошкентга хабардор қилиш бўлган[36].

Бухородаги маданий ёдгорликлар, турли-туман, катта-кичик кутубхоналарни аниқлашга муваффақ бўлган профессор Абдурауф Фитрат бошчилигида ташкил топган комиссияси Туркистон Шўролар ҳукуматининг Маориф Халқ Комиссарлигига қуйидаги маълумотни хабар қилади: “Биз Бухорода келиб ўз ишимизга тушдик. Бухорода энг машҳур, энг бой уч кутубхона бор экан. Биринчиси бўлган қозикалоннинг[37] кутубхонаси, иккинчиси (шаҳзода, амир Музаффархоннинг ўғли) Муҳаммад Сиддиқхон Ҳашмат (Бухорий)нинг кутубхонаси, учинчиси, қози Муҳамммад Шарифжон Махдум Садр (Зиё) деган бир кишининг кутубхонасидир”[38].

---

[34] Бу ҳақда қаранг: Инқилоб журнали, 1922 й, № 2. – Б. 20-21.

[35] Солиев Пўлат (Бекбулат) Мажидович. 1882 йилда 22 мартда Астрахань (Ҳожитархон) губерниясининг Зацоравский бўлисидаги Башмаковка қишлоғида, ўзи тўқ деҳқон оиласида туғилган. П.Солиевнинг отаси, унинг авлодлари маълумотларига қараганда, Бухородан бўлган.. 1937 йилда қатағон қилинган ва отиб ташланган. 1956 йилда оқланган. Академик олимлардан, машҳур файласуф Иброҳим Мўминов, ўзбек археология мактабининг асосчиларидан Яҳё Ғуломов, тарихчилардан Абдураҳмон Ҳамроев, Рашид Набиев, Раҳмон Ҳабиб каби таниқли тарихчи олимлар профессор Пўлат Солиевнинг шогирдлари ҳисобланади. 1927 йилда доцент унвони берилган. 1930 йилда эса профессор унвони берилган. Асарлари: Бухоро тарихи. (араб имлосида ўзбек тилида). – Тошкент: 1923; Манғитлар салтанати даврида Бухоро ўлкаси (араб имлосида ўзбек тилида). – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1925; Ўзбекистон ва Тожикистон. (араб имлосида ўзбек тилида). – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1926; Ўрта Осиё тарихи (XI-XV асрлар). 1-қисм (араб имлосида ўзбек тилида). – Самарқанд-Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1926.

[36] Қаранг: Элбек. Бухороға юборилған ўзбек билим ҳайъатининг ишлаган ишлари // Қизил Байроқ. 1921 йил, № 29.

[37] Бухоро қозикалони мулла Бурҳониддин Садр қози ул-қуззот

[38]Элбек. Бухороға юборилған ўзбек билим ҳайъатининг ишлаган ишлари. // Қизил Байроқ. 1921 йил, № 29.

С.Айний Бухоро мадрасаларида таҳсил кўриш даврида Бухородаги мавжуд кутубхоналар, жумладан Шарифжон Махдум Садр Зиёнинг бой шахсий кутубхонаси борлигини билган, ундан фойдаланган. У ўзининг “Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар” ва мемуар “Эсдаликлар” (1949-1954) асарларида Шарифжон Махдумнинг кутубхонаси Бухородаги энг бой шахсий кутубхоналардан биридир, деб ёзади[39]. Чиндан ҳам китобни жонидан севган, ўзининг “Тазкира ул-ашъор” (1910) номли шеърий антологиясини тузган Шарифжон Махдумнинг шахсий кутубхонасида сақланаётган уч юз жилддан зиёд қўлёзма манбалар Ўзбекистон ФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланмоқда. С.Айний Бухоро амирлиги ва амир Сайид Олимхон ҳукмронлиги даврида Бухородаги энг нодир асарлар чет элликларга сотиб юборилганлигини афсусланиб ёзади[40].

1921-1923 йилларда С.Айний Бухоро Халқ Совет Республикасининг Самарқанддаги консулхонасига маслаҳатчи сифатида ишлади[41]. Бу ерда у матбуотчилик ва адабий ижодиёт билан шуғулланишни давом эттирди.. Шунингдек, у нашриёт ва таҳрир ишларида фаол иштирок этиб, ўзининг инқилобий руҳдаги шеърларини, алоҳида мустақил йирик асарлар ҳам яратади, китоб шаклида БХСР Маориф нозирлиги ҳисобидан нашр эттирди[42].

1923 йилда БХСРнинг Самарқанддаги консулхонаси ёпилгач, С.Айний ўша йилнинг охирида Самарқанддаги Бухгосторг (Бухоро савдо уйи, ташкилоти)га мудир қилиб тайинланади. С.Айний бу вазифада ишлашни рад қилади. “Лекин Бухоронинг савдо ишлари бошлиғи одам топилишига қадар вақтинча ишлаб туришга кўндирди. Бироқ, бу “вақтинча” иш ва менинг мудирлик номим 1924 йилнинг бошидан 1925 йилнинг бошига қадар давом этди”[43], - деб ёзган эди олим. “Ўрта Осиё Республикалари миллий чегараланишдан кейин Самарқанд Бухгосторги идораси Ўзбекистон ҳукумати ихтиёрига ўтди ва мени яна мудир қилиб тайинлашди. Аммо мен Самарқанд вилоят Комитетига ариза бериб, бу ишдан озод бўлдим ва тамомига адабий ишга берилиб кетдим”[44].

БХСР ҳукумати ёзувчи С.Айнийнинг ижодий юксалишини моддий ва маънавий жиҳатдан қўллаб-қувватлади. Шахсан, Ф.Хўжаевнинг раҳбарлигида 1923 йил 13 сентябрида С.Айний ҳақида қуйидаги қарор қабул қилинади. “Ўртоқ Айнийнинг революцион

[39] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – Б. ; Унинг ўзи: Эсдаликлар
[40] Айнй С. Таърихи инқилоби Бухоро. – саҳ. 6-8.
[41]Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим / Асарлар. 8 жилдлик. 1-жилд. – Б. 99.
[42]Айнй С. Мажмуаи ашъори инқилобий форсий (точикй). Бухоро халқ маориф назорати, 1923. 32. Саҳ.
[43]Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим / Асарлар. 8 жилдлик. 1-ж. – Тошкент: Ўздавнашр, 1963. – Б. 100.
[44]Айний С. Қисқача таржимаи ҳолим / Асарлар. 8 жилдлик. 1-ж. – Б. 101.

ҳаракатдаги хизматларини ва Бухоро меҳнаткаш оммасининг фойдаси учун узоқ йиллик фаолиятини ҳисобга олиб, Бухоро МИК фракциясига унга қўшимчаси билан 17-разряд ставкаси миқдорида шахсий пенсия белгилаш таклиф этилсин. Секретариатга ўртоқ Айнийга хат билан мурожаат қилиш топширилсин, бундан кейин ундан ўзини фақат адабий фаолиятга бағишлаш сўралсин”[45].

Бу даврда профессор Фитрат Бухорода ўқув юртлари ва мактаблар учун дарсликлар ёзиш ва чоп этиш, ўқувчиларни бу дарсликлар билан таъминлаш, халқ хўжалиги равнақи учун турли хил иқтисодий ислоҳотлар ўтказиш, Амударё флотилиясидан БХСР манфаатлари йўлида фойдаланиш, вақф ерларини ҳисобга олиш ва ундан фойдаланишни назорат қилиш[46], нарх-навони арзонлаштириш[47], вайрон бўлган шаҳарларни тиклаш, меъморчилик обидаларини асраш каби турли ишларда қатнашди[48].

Фитрат она юртида энг аввало 1921 йилда Бухоро илмий жамиятини тузади. У маҳаллий зиёлилар ва уламолар билан ҳамкорликда турли фанлар тарихига оид қўлёзмаларни тўплашга киришади. Бу қўлёзмалар бугунги кунда Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтида сақланади. Бу ишга у Самарқандда яшовчи Садриддин Айний, шунингдек, Мусожон Саиджонов (ўша пайтда БХСР Маориф халқ нозири), Мирза Салимбек (Бухоро амирлигида қўшбеги бўлган машҳур тарихчи), Садр Зиё (Шарифжон Махдум) ва бошқаларни жалб қилади.

Жамиятнинг “Анжумани тарих” шуъбаси томонидан 1921 йилда ёзилган “Бухоро Арки тарихи”[49] асари қимматли тарихий манбалардан ҳисобланади. Бу асарнинг муаллифи Амир Музаффарнинг иккинчи ўғли Саййид Муҳаммад Носир (Носириддин Тўра) ҳисобланган. Бу китоб шарқшунос олим Ғулом Каримий (1962 – 2014) томонидан ўзбекчага таржима қилиниб, нашр этилди. Носириддин Тўранинг “Туҳфат уз-зойирин” ва бошқа тарихий асарлари ҳам мавжуд бўлган.

С.Айнийнинг ўтган асрнинг 20-йилларида ёзилган исломшунослик, тасаввуфшунослик, манбашунослик, тарихий топография масалаларига оид тадқиқотлари бир томондан атоқли адибнинг кам ўрганилган ва қисман унут бўлган ижод қирралари тўғрисидаги тасаввуримизни бойитса, иккинчи томондан бу тадқиқотларга бўлган илмий заруратнинг ҳамон мавжудлигидан дарак беради.

---

[45]Қаранг: Ҳасанов М. Файзулла Хўжаев. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. – Б. 46.
[46] Ўзбекистон Миллий архиви, 47-фонд, 1-рўйхат, 200-иш, 20-варақ.
[47] Ўзбекистон Миллий архиви, 47-фонд, 1-рўйхат, 240-иш, 25-варақ.
[48] Ўзбекистон Миллий архиви, 47-фонд, 1-рўйхат, 108-иш, 88-89-варақлар.
[49] Саййид Муҳаммад Носир ибн Музаффар. Таҳқиқоти Арки Бухоро (Бухоро Арки ҳақида тадқиқот). Форс тилидан таржима, сўзбоши, изоҳлар ва кўрсаткичлар Ғ.Каримовники. – Тошкент: Tafakkur, 2009. – 200 бет.

XX аср адабиёти, тарихи ва илмининг машҳур сиймоларидан бири бўлган С.Айнийнинг олижаноб шахсий фазилатлари, бой илмий адабий мероси мумтоз адабиёт ва маданият тарихини синчиклаб холисона ўрганишда, XXI аср кишиларини, келажаги порлоқ Ўзбекистоннинг баркамол ёшларини ватанпарварлик, халқсеварлик ва фидоийлик, ҳалоллик, пок эътиқодлилик руҳида тарбиялашда, илмни, хусусан, адабиётшунослик ва манбашуносликни янгича асосларда ривожлантиришда ўз хиссасини қўшадиган умри боқий маънавий-илмий бойлигимиздир.

“ABDULLANOMA” ASARIDA BAZMLAR TASVIRI VA ULARNING IJTIMOIY-MADANIY AHAMIYATI

Bexzodjon Zokirov
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti katta o‘qituvchisi, PhD
Email manzil: zbexzodz@gmail.com
Bahodir Bakirov
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti magistranti
Email manzil: azimxojasaidov@gmail.com

Kalit so’zlar: *«Abdulla-noma», bazmlar, o‘rta asrlar, madaniyat, urf-odatlar, ijtimoiy hayot, tarixiy manba, adabiyot, san’at, siyosiy muloqot.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “Abdullanoma” asarida tasvirlangan bazmlar madaniy va ijtimoiy jarayonlarning yoritilishi tahlil qilinadi. Bazmlar o‘z davrining jamiyat hayoti, urf-odatlari va an’analarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida qaraladi. Asarda bazmlar faqatgina tantanali tadbirlar sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy muloqotlar, adabiyot va san’at rivojiga ko‘maklashgan platforma sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu tadqiqot orqali o‘rta asrlardagi bazm madaniyatining o‘ziga xos tomonlari hamda ularning tarixiy va madaniy ahamiyati tahlil etiladi.*

THE IMAGERY OF FESTIVITIES AND THEIR SOCIAL-CULTURAL SIGNIFICANCE IN «ABDULLANOMA»'S WORK

Bekhzodjon Zokirov
Senior Lecturer, Tashkent State University of Oriental Studies,
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
E-mail address: zbexzodz@gmail.com
Bahodir Bakirov
Master's student, Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail address: azimxojasaidov@gmail.com

Key words: *«Abdullanoma», feasts, middle ages, culture, customs, social life, historical source, literature, art, political communication.*

Abstract: *This article analyzes the illumination of cultural and social processes of parties described in the work of «Abdullanoma». Festivals are considered as an important source reflecting the social life, customs and traditions of their time. In the play, parties are not only ceremonial events, but also a platform that helps the development of social and political dialogues, literature and art. This study analyzes the unique aspects of the medieval party culture and their historical and cultural significance.*

Kirish

Inson omili har qanday jamiyatning rivoji va mustahkamligi uchun asosiy omildir. Jamiyat taraqqiyoti insonlarning aqliy va ma'naviy yuksalishiga bog‘liq. O‘qimishli, bilimli kishilar qancha ko‘paysa, rivojlanish va taraqqiyot ham shuncha barqaror bo‘ladi. Ilm-fan shunday kuchki, unga ergashgan xalq hech qachon qoloqlikka yuz tutmaydi. Tarix esa barcha fanlarning ildizidir. U insoniyatga nafaqat o‘zligini anglash, balki tarbiya olish, xatolardan saboq chiqarish, milliy g‘urur va Vatanni sevish tuyg‘ularini ham taqdim etadi. Tarix orqali biz jamiyatning rivoji yoki tanazzuliga, tinchlik va urushning sabablariga, inson hayotiga ta'sir qiluvchi omillarni anglaymiz. O‘tmishda yashagan ajdodlarimizning matonati va mehnati tufayli biz bugun faxrlanadigan boy tariximiz yaratilgan. Shu bilan birga, o‘tgan davrlarni to‘liq anglash uchun moddiy va yozma manbalarga murojaat qilishimiz zarur.

XVI asrda temuriylar davlati tanazzulga yuz tutib, Shayboniylar sulolasi (1500–1601) hokimiyatni qo‘lga olgan davrda mamlakatning tarqoq hududlari markazlashtirilib, barqarorlik tiklangan. Ayniqsa, bu davrni muvaffaqiyatli boshqargan yirik shaxs Abdullaxon II bo‘lib, uning faoliyati va davrini o‘rganishda Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» (Sharafnamai shohiy) asari bebaho manba hisoblanadi. Mazkur asar orqali biz faqat siyosiy voqealarni emas, balki o‘sha davrning ijtimoiy hayoti, amaldorlar faoliyati va bazmlar kabi madaniy jihatlarni ham keng o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

ASOSIY QISM

Hofiz Tanish Buxoriy haqida yetarlicha ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. U o'z zamonasining yetuk shoirlaridan bo'lgan. U "Naxliy", "Kiromiy" taxalluslari bilam mashhur. Hofiz Tanish Buxoriy 1540- yilda Buxoroda tug'ilgan. Uning otasi Mavlono mir Muhammad Ubaydullaxon zamonida (1533-1539) Buxoroda istiqomat qilgan va xonning yaqin kishilaridan bo'lgan. U 1550-yilning boshlarida Qoshg'arga ketib qolgan va oradan ikki yil chamasi vaqt o'tgach o'sha yerda vafot etgan [6, – B. 216.]

Hofiz Tanish Buxoriy Buxoro madrasalarida o’qib ta’lim oladi. Abdullaxon saroyining yetuk olimlari qatorida bo’lgan va 1584- yili Abdullaxon II yaqin odami Qulbobo Ko’kaldosh tafsiyasi bilan “Abdullanoma” asarini yozishga kirishgan, saroy tarixchisi vazifasida bo’lgan [1, – Б. 213.].

Ma’lumotlarga qaraganda, Hofiz Tanish Buxoriy asarni yoza boshlaganida 36 yoshda bo’lgan. Hofiz Tanish Buxoriy o‘zining shoh asari – «Abdullanoma» (“Sharafnomai shohiy”) bilan tanilgan. Asar shayboniy hukmdor Abdullaxon II ga bag‘ishlangan bo‘lib, 1584-1588-yillarda Buxoroda fors tilida yozilgan. Muallifning rejasiga ko‘ra, asar muqaddima, 2 qism (maqola) va xotimadan iborat bo‘lishi mo‘ljallangan. Muqaddimada, odatdagidek, oliy hukmdorning sha’niga hamd-u sano, asarning yozilish sabablari, Abdullaxoning ota-bobolari, qadimdan Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turk-mo’g’ul qabilalari, Chingizxon va uning avlodi haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Birinchi maqolada O’rta Osiyo Qozag’iston va qo’shni xorijiy mamlakatlarda 1583-yildan keyin yuz berishi mumkin bo’lgan voqealar. Muqaddimada Abdullaxoning sifatlarri uning bilan zamondosh bo’lgan shayxlar, olimlar, shoirlar, vazirlar va amirlar shuningdek, Abdullaxon zamonida qurilgan binolar haqida ma’lumot berilgan. Lekin asarni yozilish jarayonida reja o’zgargan, birinchi va ikkinchi maqolalar qo’shib yozilgan. Xotima esa muallifning bevaqt vafoti tufayli tugallanmay qolgan [3, – B. 239.].

Asar qofiyalangan nasr ko’rinishida yozilgan bo’lib, tili, shakli nihoyatda og’ir. Asar o’xshatish, istioralarga juda boy. Kitobda O’zbekiston, Qozog’iston shuningdek, Afg’oniston, Eronning XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi ham bayon qilingan. Bundan tashqari, xalqlar o’rtasidagi madaniy, siyosiy, savdo diplomatik munosabatlar haqida ham ma’lumotlar keltirib o’tiladi. Hofiz Tanish Buxoriy asari yakunini XVI asrning 80-yillarida yozib tugallaganligi haqida zamondoshlaridan Mutrubiy aytib o’tadi.

«Abdullanoma»asari o‘zbek adabiyoti va tarixining qimmatli manbalaridan biri bo‘lib, unda o‘rta asrlardagi bazmlar va ularga tayyorgarlik jarayonlari keng yoritilgan. Bu asar o‘sha davrning ijtimoiy hayoti, xalq urf-odatlari va saroy amaldorlarining turmush tarzini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bazmlar tasvirida nafaqat tantanalar, balki ularning tashkiliy jihatlari, ishtirokchilarning faoliyati va marosimlarning o‘ziga xosligi batafsil ko‘rsatiladi[6, – B. 18.].

Bunday bazmlarda qatnashuvchilar yuqori tabaqaga xos odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya qilishgan. Har bir marosim belgilangan tartib asosida tashkil etilgan bo‘lib, qatnashuvchilar shohlik va mansabdorlik an’analari doirasida o‘z xatti-harakatlarini namoyon etganlar. Bu esa

ijtimoiy boshqaruv va jamiyatdagi iyerarxiyani mustahkamlashda muhim vosita bo‘lgan.

Boshqa tomondan, xalq orasidan chiqqan o‘quvchilar bazmlarida yaxshi xulq va sodda odatlarni o‘zlashtirganlar. Ular uchun asosiy qadriyat rostlik, samimiylik va jamiyatning ma’naviy q adriyatlariga mos xatti-harakatlar hisoblangan. Bunday bazmlarda ishtirokchilar ajib voqea va o‘zgarishlarga hushyorlik bilan yondoshish orqali o‘zlarining aql-zakovati va ehtiyotkorligini namoyish etganlar.

Xalq bazmlarida rostgo‘ylik va halollik asosiy qadriyat sifatida ko‘rilgan. Bunday bazmlar orqali qatnashuvchilar o‘z jamiyatining ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlaganlar. Bu esa ularga fakhru iftixor tuyg‘usini, jamiyat oldida yuqori mas’uliyatni his etish imkonini bergan[6, – B. 19.].

Umuman olganda, ushbu tavsif shuni ko‘rsatadiki, bazmlar nafaqat marosim yoki ko‘ngilochar tadbirlar, balki ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi ijtimoiylashuv va axloqiy shakllanish jarayonining muhim qismi bo‘lgan vas hu maqsad Muhammad Solihning Shayboniynoma asarida ham ta’kidlanadi. Shu sababli bazmlar turli ijtimoiy guruhlarning qadriyatlarini saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazishda alohida o‘rin tutgan[3, – B. 41.].

“Abdullaxon” asarida Og’izxoning to‘y marosimiga tayyorgarlik va to‘yning o‘tkazilishiga oid ma’lumotlar keltiriladi. Yozuvchi shu davr bazmlari va to‘y marosimlarini estetik jihatdan tasvirlaydi. Unda bazm o‘tkazish jarayoni va tantanavor muhitning har bir tafsiloti o‘ziga xos aniqlik va go‘zallik bilan tasvirlangan. To‘y bazmi o‘z zamonasidagi hashamat va ijtimoiy ahamiyatni namoyon etuvchi ramz bo‘lgan.

To‘y munosabati bilan bazm tashkil qilinar ekan, joyning go‘zalligi va estetik jihatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Asarda bazmning bo‘lib o‘tgan joyi “Eram bog‘idek toza va yashnagan” deya ta’riflanadi. Mehmonlar uchun maxsus bezatilgan joy, gullar bilan bezaklangan sahna, musiqachilar va sozandalar tomonidan ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar bazmning badiiy muhitini yanada yuksaltirgan. Bazmdagi har bir unsur go‘zallikni va ma’naviy boylikni aks ettirgan. Bazm ishtirokchilari ham alohida e’tiborga loyiq. Parchada ular xushbichim qizlar va yigitlar sifatida tasvirlangan bo‘lib, har biri go‘zallik va latofat namunasi sifatida ko‘rsatilgan. “Nayshakardek bel”, “yosuman yuzi”, “binafsha zulf” kabi ta’riflar bu ishtirokchilarning nafis va nozik qiyofasini ifoda etadi. Ularning ishtiroki bazmni nafaqat ijtimoiy, balki san’at va estetik zavqning manbaiga aylantirgan[6, – B. 31.].

Bazm davomida musiqachilarning xonishlari va sozandalar tomonidan chalgan kuylar mehmonlarga ruhiy yuksaklikni his ettirgan. Sharob maxsus oltin qadahlarda tortilgan bo‘lib, bu nafaqat mehmonlarni xursand qilish,

balki marosimning hashamdorligini ham ko‘rsatgan. Bu ichimliklar faqat ichish uchun emas, balki tantana muhitini boyitish vositasi sifatida ham qadrlangan[6, – B. 32.].

Asarda O‘g‘izxoning Zand(yangi xabashlar), Farang(Yevropa), Arab va Ajam yurtlarini bosib olganligi va har bir shaharni bosib olganidan so’ng bazm uyushtirishi haqida yoziladi. O’ghizxon shaharlarni zabt etib, ularni qayta tiklaganidan so’ng, o’zining tug‘ilgan yurtiga, Bortoq va Qartoqga qaytib, o’zining saodat yo‘li uchun marosim o’tkazadi. Bu marosimda u qavmlari va qarindoshlarini to’plab, ularga katta bayramni tashkil etdi. Tashkil etilgan bazmda mehmonlar soni o‘sha qadar ko‘p ediki, ularni sanash juda qiyin bo‘ldi. Bu tadbir O’ghizxonga uning g‘alabasini nishonlash imkonini berib, odamlarga xursandchilik va quvonch bag‘ishladi[6, – B. 40.]. Shunga o’xshash ma’lumotlar Muhammad Solihning “Shayboniynoma” hamda Mirzo Muhammad Xaidarning “Tarixi Rashidiy” asarlarida uchraydi va podshohlarning g’alabalaridan so’ng xalqqa katta to‘y berib nishonlash odatlari mavjud bo‘lgan[3, 4].

Bayramda ko‘plab mehmonlar yig‘iladi, shuning uchun bazmga kiritilgan o‘ziga xos tafsilotlar bu tadbirning mohiyatini ochib beradi. Misol uchun, soqiylar va musiqachilar, shuningdek, ichimliklar va o‘ziga xos taomlar yordamida bazm quvnoq va zavqli atmosfera bilan to‘ladi. Shu tarzda, tadbir nafaqat xursandchilik manbai, balki O’ghizxonga va uning xalqi uchun jahonni yoritadigan bir turdagi yangilik, baxt va tinchlikni taqdim etdi. Shunday qilib, bu bayram xalqning birlashishi, tinchlik va baxt sari yangilanishini anglatadi. O’ghizxonga bu bayram uning xalqiga yana bir bor baxt, tinchlik va o‘zgarish olib kelgani aytiladi. Bazmda barcha ehtiyojlar qondirilgan, eng yaxshi va qimmatbaho taomlar tayyorlangan. Asosiy o‘rinlarda biyaning suti, uzum sharbati va boshqa ajoyib ichimliklar mavjud, bu esa bazmning yuqori darajasini va mehmonlarning quvonchini aks ettiradi[6, – B. 41.].

Bazmda turli hayvon go’shtlari masalan, ov hayvonlaridan: turna, chumchuq, quloq, kiyik, kaklik va tayhu kabi qimmatli ov hayvonlari va shuningdek, qizil go‘shtlar (qoramol, qo‘y, biyaning go‘shti) mavjud. Bu taomlar soni o‘ta ko‘p bo‘lib, ularning hayvonlarni o‘ldirish bilan tayyorlanishi va bazmda ular to‘plangan miqdori juda katta. Bunday bazmda taomlar va ichimliklarning o‘rniga meva va boshqa shirinliklar ham mavjud bo‘lib, ular ham mehmonlarning quvonchini oshiradi. Dasturxondagi taomlarning sifati va miqdori shunday darajada ko‘p bo‘lib, ular tog‘lar va dashtlarga teng bo‘lgan miqdor bilan solishtiriladi. Masalan, “turli ov hayvonlaridan” yig‘ilgan go‘shtlar va boshqa mahsulotlar, bazmdagi barcha taomlar bilan birga keltiriladi. Bu ko‘rsatilgan miqdorlar aslida bazmning o‘ta boyligini va bu voqeaning ahamiyatini tasvirlaydi. Shuningdek, bazmda

taqdim etilgan shirinliklar va ichimliklar ham mehmonlarni, ayniqsa shod-xurramlarni yanada ko‘taradi. Palov, za’far bilan pishirilgan, hech qanday taomdan qolishmaydi, bu esa o‘z navbatida ushbu bazmning yuqori sifatini ko‘rsatadi. “Hech qaysi taom oldida yuz sarg’aymas edi” degan ifodada esa taomning bir necha darajali, mukammal ta’mi va didi tasvirlangan. Odatga ko‘ra O‘g‘izxon bazm so‘ngida yuqori martabali kishilarga tilla tojlar, zarli kamarlar va chiroyli kiyimlar bilan ulkan hurmat ko‘rsatgan[6, – B. 41.].

Shu bilan birga, Abdullaxon o’zining podshohligini mustahkamlash uchun katta marosimlar va bazmlar tashkil qildi. Bu bazmlar faqat qimmatbaho taomlar va ichimliklardan iborat bo’lib qolmasdan, balki san’at va hunarlarni ham namoyish qilish, odamlarning birlashishi va farovonligi uchun bir imkoniyatga aylantiriladi. Abdullaxonning to’y va bazmida qatnashgan har bir shaxs o’zining ijodiy qobiliyatlarini ko’rsatadi, bu esa mamlakatda madaniy rivojlanishni yanada kuchaytirdi. Shunga o‘xshash ma’lumotlar Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida ham keltirilgan bo‘lib Temur o‘zining mustahkam hukmronligini ta’minlash uchun ko‘plab bayramlar va bazmlar o‘tkazgan, shu orqali amaldorlar va xalq o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga harakat qilganini ta’kidlaydi. Bazmlar, shuningdek, hukmdorning siyosiy kuchini va xalq orasidagi obro‘-e’tiborini ko‘rsatish uchun o‘tkazilgan[5, – B. 305.].

Asarda yana bir to‘y tasviri yoritilgan. Poyanda Muhammad sultonning singlisi Mahv Avliyo sultonimning Buxoroga nikoh marosimi uchun yuborilishi haqida yoziladi.

Sultonning singlisi oddiygina yuborilmagan, balki uni o‘sha davrning an’analariga ko‘ra katta shukuh bilan jo‘natishgan. Qimmatbaho dur-u gavharlar bilan to‘ldirilgan karvon Buxoroga yetib borgan. So‘ngra Abdullaxon tomonidan to‘yning istiqboli va nikoh bazmi uyushtiriladi. Bu yerda nomdor amirlar, obro‘li vazirlar, hatto sufiylar va boshqa ijtimoiy guruhlar qatnashgan. Har bir kishi o‘zining jamiyatdagi mavqeiga qarab joy olgan. Ya’ni bu nikoh marosimi faqatgina bir oilaviy tadbir emas, balki siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yig‘in edi. Marosim davomida xizmat qiluvchilar ham oddiy odamlar emas, zarboft kiyimlar kiygan, chiroyli va ozoda xizmatkorlar. Bu holat ham mehmonlarga ko‘rsatilgan ehtirom va bazmning naqadar dabdabali bo‘lganini ko‘rsatadi. Oltin idishlar, kumush tovoq va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan anjomlar to‘kin-sochinlik ramzi sifatida aks ettirilgan. Bu tasvirlardan marosimning naqadar yuksak darajada tashkil etilganini tushunish mumkin[6, – B. 159.].

To‘y marosimi shunchalik go‘zal tashkil etilganki, u jannatga o‘xshatilgan. Tuproqning o‘zidan atir hidi kelar, go‘yoki anbar tabiat kabi bo‘lib ketgan. Bu yerda xursandlik guli shu qadar ko‘p tarqatilganki, hatto to‘shalgan paloslarning naqshlaridan ham shui for tarqalgan.

Marosim davomida ud va goliya kabi tabiiy atirlar yoqilib, ulardan chiqayotgan hid bazmni yana-da bezatgan. Udning tutuni xuddi chiroqdek yonib, atrofga anbar hidi taratib turgan. Bu detallar orqali bazmning ajoyib muhitini tasavvur qilish mumkin. Mevalar esa har xil turlarda – quruq va ho‘l holda – mehmonlar uchun cheksiz darajada taqdim etilgan.

Bazmning eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri bu munaajjimlar va zakovatli hakimlarning ishtiroki bo‘ladi. Ular usturlob (osmon jismlarini o‘rganadigan asbob) yordamida osmon va quyosh harakati, baxtli vaqt va saodatli onlarni aniqlab, to‘y marosimining aynan “muborak soat”da o‘tkazilishini ta’minlashadi. Bu qadimiy an’ana bo‘lib, yirik marosimlarni falak va osmonning holatiga qarab boshlash qadimdan mavjud bo‘lgan.

Nikoh marosimi ham e’tibor va obro‘ bilan o‘tkazilgan. Unda mamlakatning qozilari, imomlar, din ulamolari va zodagonlar qatnashib, shar’iy jihatdan nikoh shartlari bajarilgan. Bu yerda hanafiy mazhabi asosida nikoh o‘qilgani alohida qayd etiladi. Bu islomiy tartib-qoidalarga amal qilinganining belgisi bo‘lib, to‘y nafaqat dunyoviy, balki diniy jihatdan ham sharafli bo‘lishini ta’kidlaydi. To‘y nihoyasiga yetgach, hayot xursandlik va quvonch bilan to‘lgan, tabriklar va muborakbod so‘zlari butun davraga tarqalgan. Zamona o‘zining tabrik ovozi bilan to‘lib-toshgan[6, – B. 160.].

Xon huzurida elchilar va hukumdorlarning tasviri va ular sharafiga uyushtiriladigan bazmlar ham asarda keltirilgan. Shulardan biri Darvishxon sharafiga o‘tkazilgan bayramdir. Abdullaxon Darvishxonning ziyofati uchun tayyorgarlik ko‘rishi buyurib bazmda xursandchilik asboblarini, to‘y va shodlik anjomlarini tayyorlashni, shodlik palosini va aysh-iskrat soya bo‘lagini Kayvon ayvoniga ko‘tarishni buyuradi. Majlis tashabbuskorlari xizmat kamari bo‘g‘lab, amir Turum do‘rmonning chorbog‘ini bazm uchun tayyorlaydi. Saropardachilar baland saroparda quyosh chiqishiga o‘xshash tarzda, nur tarqatib turadi[6, – B.179.].

Baytda gumbozning balandligi tasvirlanadi. Gumbaz, dunyo ustida soya soladigan kattalikda ta’riflanadi. U mohirlik bilan qurilgan va yuqori darajada yuksalgan, quyoshning chiqishiga o‘xshab yorqinlik va ulug‘vorlikni taqdim etadi. Boshqa shahzodalar uchun ham shunday baland chadirlarda, saroparda va borxotlarda joylar quriladi, ular yer yuzini yulduzlar kabi o‘rab olgan, go‘zal va ulug‘vor bir muhitni yaratadi.

A’lo hazrat bazm kunini butun xos va avomga xabar qilganidan so‘ng, do‘stlik majlisi va xursandchilik palosini tayyorlash uchun barcha zarur choralarni ko‘radi. Bazmning ochilishidan oldin, xursandchilik va baxtning yorqin ifodalari butun olamni yoritadi. Barcha noxushliklar, g‘amlar va qayg‘ular birdan yo‘qolib, butun makon shodlik bilan to‘ladi. Bu bazmning nuri butun koinotni qamrab olib, barchaning yuraklari xursandlikka to‘ladi.

Majlislarga ishtirok etganlar orasida Darvishxon va Iskandarnishon alohida izzat va hurmat bilan bir-birini kutib oladilar. Ularning birgalikdagi ishtiroki va bir-biriga bo‘lgan hurmatlari bazmga yana-da quvonch kiritadi. A’lo hazratning xizmatkorlari va go‘zal charmenderlar majlisga kiritilgan shodlik va yorug‘likni yanada oshiradi. Ular joy atrofida nur tarqatib, hushyorlikni va xushyo‘qishni ta’minlaydilar[6, – B.180.].

Shahzodalar va amirlar maxsus zarboft to‘nlar kiyib, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bosh kiyimlar taqib, bazmga keladilar. Har biri o‘z mavqei va izzatiga qarab joy oladi. Ularning bezatilgan kiyimlari va taqinchoqlari bazmni yanada jozibador va go‘zal qilib ko‘rsatadi. Barcha ishtirokchilar, yuqori darajada tayyorlangan bezaklar va liboslar bilan o‘zlarini yanada faxrlantiradilar. Bazmning yanada zavqli va jonli bo‘lishi uchun musiqa va san’at o‘rnini to‘ldiradi. Ustod Alidostning nag‘malari bazmning raqsga tushishini ta’minlab, barcha mehmonlarni ruhiy erkinlik va xursandchilikka olib keladi. Uning ovozlari va musiqa asboblari bazmga jonli va quvonchli ruh kiritdi deya yoziladi[6, – B.177.].

Shunga o‘xshash elchilarni izzat-ikrom bilan kutib olish haqidagi ma’lumotlar Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida ham keltirilib, elchilarni kutib olish marosimi Amir Temurning hokimiyatini mustahkamlash, shu bilan birga xalqaro munosabatlarni mustahkamlash uchun muhim hisoblangan. O‘sha davrda, elchilarni kutib olish va ularni bazmda qabul qilish, hukmdorning siyosiy mavqeini namoyish etishning bir vositasi bo‘lgan[5, – B.145.]. Yana bir shunga o‘xshash ma’lumotlar Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida Shayboniyxonning bir bazmda elchilarni kutib olish marosimi tasvirlanadi. Bu bazm nafaqat mehmonlarni kutish, balki siyosiy munosabatlarni mustahkamlash va davlat hokimiyatini namoyish etish uchun o‘tkazilgan. Bazmda ishtirok etgan hukmdorlar, amaldorlar va boshqa shaxslar orasida ijtimoiy va siyosiy mavqe hamda o‘zaro munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Bazmda amalga oshirilgan tadbirlar va boshqa bayramona nuqtalar o‘sha davr madaniy hayotining katta bir qismini tashkil etgan[3, – B.85-86.].

XULOSA

«Abdullanoma» asaridagi bazmlar tasviri o‘z davrining ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda keltirilgan bazmlar nafaqat o‘sha davrdagi turmush tarzining ajralmas qismi, balki jamiyatdagi tabaqaviy munosabatlar, an’ana va urf-odatlar, shuningdek, siyosiy muloqotlarning qanchalik muhim o‘rin tutganligini ham ko‘rsatadi. Bazmlar jarayoni orqali asar muallifi ijtimoiy hayotning estetik tomonlarini, odamlar orasidagi munosabatlar madaniyatini va ma’naviy qadriyatlarni keng yoritib beradi.

Bu bazmlar o‘zaro fikr almashish, ijodiy ilhomlanish va ko‘ngilochar tadbirlar doirasidan chiqib, yirik siyosiy masalalarni hal qilish uchun platforma sifatida ham xizmat qilgan. Mehmondo‘stlik, san’at va adabiyotga hurmat, hamda boy oshxona madaniyati mazkur bazmlarda yuksak darajada namoyon bo‘lgan. Bazmlar asarda faqat tantanali tadbir sifatida emas, balki qahramonlarning ichki dunyosini, ularning o‘zaro munosabatlarini va individual xarakterlarini ochib berishda muhim vosita sifatida ishlatilgan.

Shunday qilib, «Abdullanoma»dagi bazmlar tasviri nafaqat tarixiy voqealarni o‘rganish, balki o‘zbek xalqining an’ana va qadriyatlarini tushunishda, ularning tarixiy jarayonlar bilan qanday bog‘langanligini anglashda muhim ilmiy asosdir. Bu tasvirlar zamonaviy tadqiqotlar uchun ham qimmatlidir, chunki ular madaniy va tarixiy kontekstda ko‘plab yangi izlanishlar olib borishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
2. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
3. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи: Шодиев Э. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. - 318 б.
4. Мирзо Мухаммад Хайдар Аёзий. Тарихи Рашиди. Нашрга тайёрловчилар: С.А. Азимжонова, А.Уринбоев, О.Х. Жалилов. – Тошкент: 1999, - 709. Б
5. Низомиддин Шомий ва унинг "Зафарнома" асари. Форс тилидан угирувчи - Юнусхон Хакимжонов. – Тошкент: Ўзбекистан нашриёти, 1996 й.
6. Хофиз Таниш Бухорий Абдулланома I (Шарафномайи шоҳий). – Тошкент: Шарқ, 1999.
7. Хофиз Таниш Бухорий Абдулланома II (Шарафномайи шоҳий). – Тошкент: Шарқ, 2000.

QORAQALPOQ HUNARMANDCHILIGI: TADQIQOT VA TAHLIL

Abdullayev M.A.
Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail manzili: mabdullaev117@gmail.com

Kalit so‘zlar: *kashtachilik, tikuvchilik, zargarlik, temirchilik, o‘tov yasash, yog‘och o‘ymakorligi, teriga ishlov berish, temirchi usta, “shoiynshi”, ag‘ash usta, etikshi, malaqayshi, monshi, zerger.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlari orasida o‘zining etnografik xususiyati bilan alohida ajralib turuvchi qoraqalpoq xalqining mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilik turlari va uy-joy qurilishi tarixshunosligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, mustaqillik yillarida sohaga oid yozilgan maqolalar, ilmiy ishlar, monografiyalar avvalga tadqiqot ma’lumotlari bilan qiyosan o‘rganiladi.*

KARAKALPAK CRAFTS: RESEARCH AND ANALYSIS

Abdullayev M.A.
The researcher of Karakalpak State University
E-mail address: mabdullaev117@gmail.com

Key words: *embroidery, tailoring, jewelry, black-smithing, yurt making, wood carving, leather work, blacksmith, wood craftsman, shoemaker, malakayshi, monshi, jeweler.*

Abstract: *This article reflects on the historiography of national crafts and housing construction in the years of independence of the Karakalpak people, who are distinguished by their ethnographic features among the peoples of Central Asia. Also, the articles, scientific works, monographs written in the field during the years of independence are comparatively studied with research data.*

Qoraqalpoqlar xo‘jaligida hunarmandchilik tarmog‘i qadimdan muhim o‘rin tutgan. Mustaqillik yillarida ham ushbu soha o‘zining qadimiy an’analarining ma’lum qismini saqlab qoldi. Garchi qoraqalpoq xalqining asosiy xo‘jaligi baliqchilik, chorvachilik va dehqonchilik bo‘lsa-da, hunarmandchilik ham ular hayotida sezilarli iz qoldirgan soha hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, XX asrning 90-yillari boshlarida Qoraqalpog‘iston shaharlaridagi zamonaviy etnomadaniy jarayonlar tadqiqot obyektiga aylandi. Tarixchi-etnograflar oldida mustaqillik yillarida sovet hukumati mafkurasidan xoli bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash va uni tahlil qilish vazifasi yotardi. Eng avvalo, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan qoraqalpoq hunarmandchiligini o‘rganish tadqiqotchilarning asosiy masalalaridan biriga aylandi.

Qoraqalpoq xalq hunarmandchiligini dastlabkilardan bo‘lib o‘rgangan tarixchi olim A.Utemisovning sohaga oid tadqiqotlari natijasida asrlar davomida shakllanib kelgan qoraqalpoq hunarmandchiligi haqida yangi ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Xususan, qoraqalpoqlar hunarmandchiligi avloddan-avlodga o‘tib, qishloq xo‘jaligi qurollari, suv ko‘taruvchi inshootlar, transport vositalari, kiyim-kechak, uy-ro‘zg‘or anjomlari va boshqalar bilan ta’minlab, yaxlit iqtisodiyotda muhim o‘rin tutgan. Qoraqalpoqlarda hunarmandlar: temirchilar *temirshi usta* yoki *shoiynshi,* duradgorlar *ag‘ash usta, etikchilar etikshi, qalpoqchilar malaqayshi,* mo‘ynali kiyimlar *monshi,* zargarlar *zerger* va boshqalar bo‘lgan. To‘quvchilik, gilamdo‘zlik, kigizdo‘zlik bilan ayollar shug‘ullangan.

A.Utemisov temirchilar mehnatini tavsiflab, qoraqalpoqlarda temirchilik azaldan mavjud bo‘lganligini ta’kidlaydi [1; 108]. Qoraqalpoqlarda temirchilik kasbi otadan o‘g‘ilga yoki akadan ukaga meros bo‘lib qolgan, ba’zan temirchi o‘zining eng yaqin qarindoshlari oilasidan shogird olgan. Hunarmandchilik bo‘yicha mashg‘ulotlarni tugatgandan

so‘ng, xalfa uyida ustozi uchun marosim o‘tkazadi. Bu marosimga mulla, qishloqning boshqa ustalari, keksalari taklif qilingan. Mulla duosini o‘qib bo‘lgach, ustoz shogirdiga usta sifatida mustaqil ishlashi uchun *patiya – fotiha* bergan.

Hayvonlar va chorvachilik bilan bog‘liq kasb hamda hunarlarga oid ma’lumotlar N.A.Tleubergenovaning maqolasida qisqa yoritilgan bo‘lib, tadqiqotchi 2001-2002-yillarda Qoraqalpog‘istonning turli tumanlarida olib borgan dala tadqiqotlari materiallari asosida izlanish olib borgan [2; 97-99]. Maqolada terini oshlash, jundan mato to‘qish, gilamdo‘zlik, o‘tov uchun kigiz va boshqa materiallar tikish, to‘quvchilik kabi hunar turlari, bu hunarlarning o‘ziga xos tomoni hamda qo‘shni xalqlardan farqlari ochib berilgan.

Shuningdek, qadimdan qoraqalpoqlar geometrik naqshlar asosida igna yoki ipak ipi yordamida paxtadan qo‘lda tikilgan matoga mayda xoch shaklida kashtalar tikishgan. Ushbu usul *shiris-nag‘is* deb atalgan. Tarixchi-etnograf olim A.Allamuratov tadqiqotlarida XX asrning so‘nggi choragida qoraqalpoq milliy kashtachiligi birmuncha keng ko‘lamda o‘rganiladi. Tikuvchining nafis bezaklari turfa xilligiga movutga halqasimon zanjir kashtaning choki tushirilishi orqali erishilgan. Mahsulotning chekkalari qo‘lda to‘qilgan tasma bilan, shuningdek, o‘ralgan ipakdan qilingan popuk bilan bezatilgan [3; 45-46].

Hozirgi kunda ham hunarmandlar tikkan kashtalar bilan asosan, ayollar libosi, shu jumladan, bosh kiyim, libos, kapyushonli (qalpoqli) ko‘krak fartugi, keng choponlar bezatilgan. Bir necha yillar davomida o‘zi tomonidan yaratilgan kelinlik sarposi, o‘zining uzun tunikasi – *ko‘k-ko‘ylek,* ko‘krakkacha tushib turadigan bosh kiyimi – *qizil-kiymeshek,* “*dubulg‘a”* kelin toji – *saukele*larida aks etgan kashtachilik durdonalari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu soha tadqiqini mustaqillik yillarida Z.I.Kurbanova davom ettirdi.

To‘y uchun kelin chopon va po‘stin uchun yengchalar, libos va keng choponlar uchun yoqalar, shuningdek, qaynona uchun sovg‘alar *(keng chopon – aq jegde)* va kuyov uchun *(chopon va po‘stin uchun tumorlar, choy uchun bel qopchasi)*, mayda uy ro‘zg‘or buyumlari *(choynak ushlagich, o‘tov uchun tumorlar)* va boshqalar uchun kashtalar to‘qigan.

Poyabzal va ularning turlari, o‘ziga *xos* xususiyatlari an’anaviy kiyimlarning muhim elementlaridan sanaladi. Poyabzal odamlarga har xil iqlimlarga, landshaftlarga va turli xo‘jalik ishlariga moslashishga imkon tug‘dirdi. Kiyimlarning qadimiy elementlaridan sanalgan qoraqalpoqlarning an’anaviy poyabzali o‘zining tashqi ko‘rinishida hududimizda bo‘lib o‘tgan har xil madaniy jarayonlarning ta’sirini o‘zida aks ettirgan. Umuman olganda, poyabzal kiyimlarning rivojlanishini, hududimizdagi etnik va

integratsion jarayonlarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Tadqiqotchilar ushbu sohani ham chetlab o‘tmadilar. Xususan, poyabzal tayyorlash an’anasi va texnikasi Z.I.Kurbanova tomonidan tadqiq etiladi [4; 52-53, 33-36, 48-53, 64-73, 132-135].

Qoraqalpoq xalqi an’anaviy madaniyatining fundamental masalalarini ishlab chiqish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi. Bu muammo doirasida an’anaviy qoraqalpoq uy-joy qurilishi o‘zining turli ko‘rinishlarida rivojlanmoqda: tomorqa va hovlilar, o‘tov, qurilishi va dizayn, me’moriy dekoratsiya, ichki tartib va uyning ichki qismini bezash kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar ko‘zga tashlanadi.

1995-yilda N.A.Tleubergenovaning qoraqalpoqlar moddiy madaniyatiga doir maqolasi chop etildi. Maqola o‘zining tahliliy jihatlari bilan ajralib turadi. Avvaliga qoraqalpoqlar o‘toviga doir manba va adabiyotlar tarixshunoslik tahlili, so‘ng ularning o‘zbek (O.Suxareva, A.Pisarchik, K.Zadixina), qirg‘iz (K.Antipina), turkman (G.P.Vasileva), qozoq (A.Margulan) va nog‘ay (S.Gadjiyeva) xalqlari uylaridan farqlari haqida tadrijiy ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqot asosini esa 1989-1994-yillarda Xo‘jayli, Taxtako‘pir, Chimboy tumanlari va Nukus shahridan to‘plangan dala materiallari tashkil etadi.

N.A.Tleubergenova qoraqalpoq o‘tovi (qora uy)ga doir tadqiqotlarini davom ettirib, boshqa maqolasida qoraqalpoqlarning o‘tov bilan bog‘liq marosimlari va e’tiqodlarini o‘rgangan. 1996-yilda N.A.Tleubergenova tomonidan qoraqalpoq o‘toviga bag‘ishlangan navbatdagi maqolasi chop etildi. Ushbu maqola o‘z vaqtida T.A.Jdanko, A.S.Morozova, U.Shalekenov va boshqalarning tadqiqotlarida aks etgan ma’lumotlarni qayta tahlil qilish, o‘zgarishlarni aniqlash, an’anaviylik va Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari bilan o‘xshash va farqli tomonlarini o‘rganish uchun xizmat qildi.

N.A.Tleubergenova qoraqalpoq uylariga bag‘ishlangan izlanishlarini davom ettirib, 1997-yilda uy-joy qurilishi bilan bog‘liq urf-odatlar va irimlar tadqiqiga bag‘ishlangan maqolasini nashr etadi [5; 104-109, 101-110, 93-101, 129-130]. Maqolada tadqiqotchi tomonidan uy uchun lozim bo‘lgan joyni aniqlash, uy qurishni boshlashdan avval o‘tkaziladigan turli marosimlar, uyga kirish eshigi qaysi tomonga qarab turishi, uyni bezashda foydalaniladigan turli ornamentlar to‘plami, qurilishda foydalaniladigan mahsulotlar va ularning kelib chiqishi, xullas, qoraqalpoqlar uy qurilishi bilan bog‘liq barcha marosimlarni jamlab, tahlil qilib bera olgan.

Ye.Ye.Kalbanova tomonidan yozilgan Amudaryo quyi oqimida joylashgan ural kazaklari uy-joylari to‘g‘risidagi maqolasi ham qo‘shni xalqlar bilan qoraqalpoqlarning turar joylarini qiyosiy o‘rganishda muhim hisoblanadi [6; 142-144]. Maqolada an’anaviy o‘tovlarning qurilish

texnikasi, ishlatiladigan mahsulotlar turlari, bezash va jihozlash jarayoni, ularning diniy ahamiyati ochib berilgan bo‘lib, ural kazaklari va qoraqalpoqlar o‘rtasida etnomadaniy yaqinlikni aniqlash va tadqiq qilishda foydali hisoblanadi.

XIX – XX asr boshlarida qoraqalpoqlarning Amudaryoning quyi oqimidagi manzilgohlari va an’anaviy turar joylari X.E.Esbergenov asarlarida ko‘rib chiqilgan [7; 278]. U qoraqalpoqlarning an’anaviy turar joyining kelib chiqishi va evolyutsiyasini tahlil qildi, aholi punktlarining turlarini tasnifladi, statsionar va ko‘chma turar joylarga tavsif berdi, qurilish bilan bog‘liq urf-odat va marosimlarni ko‘rib chiqdi.

N.A.Tleubergenovaning qayd etishicha, qurilishni boshlashdan avval uy egasi ovul oqsoqollarini taklif qiladi va ular unga qaysi joyda, qaysi vaqtda uy qurishni maslahat berishadi. Oila farovonligi bilan bog‘liq bo‘lgan qurilish materiallarini tanlash ham bir xil darajada muhimdir. Qoraqalpoqlarning e’tiqodiga ko‘ra, chorshanba, payshanba yoki shanba kunlari uy qurishni boshlagan ma’qul. Bo‘lajak uy uchun joy, vaqt va qurilish materialini tanlash bilan bog‘liq marosimlar va e’tiqodlar - odamlarning hayoti, sog‘lig‘i va farovonligini saqlashga qaratilgan ramziy harakatlar bo‘lib, oilaviy uyga haqiqiy va xayoliy xavf-xatarlarning kirib kelishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Qoraqalpoq uyining etnik-madaniy jihatlarini hisobga olgan holda tadqiqotchi bu turar joy ekanligini ta’kidlaydi.

Bunda bir tomondan, dastlabki tarixiy davrlarga oid qadimiy an’analarni saqlab qolgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Turar joyning o‘zgarishi ko‘plab omillar bilan belgilanadi: tabiiy-geografik sharoitlar, ijtimoiy tuzum, maishiy va diniy e’tiqodlar va boshqalar. Shuning uchun uning tadqiqoti tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida etnogenez, etnik madaniyat, xalqlar tarixi, ijtimoiy hayoti, madaniy va maishiy aloqalari masalalarini yoritib berishi mumkin.

Qoraqalpoq yog‘och o‘ymakorligi san’ati juda o‘ziga xos tarzda suyak qo‘shilishi va qizil mato bilan uyg‘unlashgan. Ko‘pgina ma’lumotlarga ko‘ra, bu usul bezatishning qadimiy usuli hisoblanadi. Mahsulotlarning turli qismlarining, hatto suyaklari ham baliq yelim bilan yopishtirilgan.

Hozirgi kunda qora uy 3 bosqichda ishlanadi – dastlab, kerege (yog‘och panjara), undan so‘ng shanaraq (qora uyning tom qismi), so‘nggi bosqich uviq (tirgak) deb yuritiladi. Shanaraq – qora uyning eng muhim qismi bo‘lib, u gumbazsimon doiradan iborat. Shanaraqning o‘rtasiga egilib ishlangan ikki qatorli yarim doira yog‘och “to‘g‘in” deyiladi. Aynan ushbu to‘g‘in qora uyni boshqa xalqlar o‘tovidan ajratib turadi. Qora uyning yana bir qismi “erganak”, ya’ni, “eshik” hisoblanadi. Uni boshqa usta ishlaydi. Erganak o‘yma naqshlar bilan bezatiladi va qizil rangga bo‘yaladi.

Qora uyning 6, 8, 12 qanotli turlari bor. 5 qanotli uylar kam uchraydi. Odatda, 6 qanot uylar yosh oilalar uchun maxsus tikilgan. 8 qanotli uylar esa oiladagilar soni ko‘payganidan so‘ng tikilgan. Eng yirik – 12 qanotli uy qishloq tashqarisidagi “Maslahat tepa”ga tikilib, unda og‘alar, ya’ni biylar va beklar el-yurt taqdiri bilan bog‘liq muhim masalalarni hal qilish uchun yig‘ilgan. Qora uy bezak buyumlarining barchasi qo‘lda ishlangan, ya’ni o‘rmakda to‘qilgan. Kigiz asosan qo‘y, arqon esa tuya junidan tayyorlangan.

Qoraqalpoqlarning hunarmandchiligini etnografik o‘rganish bo‘yicha mustaqillik yillaridagi materiallarning to‘liq bo‘lmaganligiga qaramay qoraqalpoq ustalarining texnika va buyumlarining metall va yog‘ochga ishlov berish kabi sohaning o‘ziga xosligi va ana shunday yetakchi tarmoqlarning chuqur, ko‘p asrlik an’analarini kuzatish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqotlar Markaziy Osiyo xalqlarining qiyosiy mehnat malakasini, texnologiyasini, mahsulot xarakterini tahlil qilish, qoraqalpoq hunarmandlari, shuningdek, hunarmandchilik bilan bog‘liq jihatlar, diniy e’tiqodlar, urf-odatlar va marosimlar, qoraqalpoqlarning iqtisodiy tajribasi va madaniyatining ko‘plab elementlari boshqa xalqlarning iqtisodiy va madaniy an’analari bilan o‘xshash va umumiy tomonlarini ochib beradi.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар рўйхати

1. Утемисов А. Қарақалпақлардың өнер-кәсиплери. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1991. – 108 б.

2. Тлеубергенова Н.А. Ремесла и промыслы каракалпаков, связанные с животноводством (XIX – нач. XX в.) // Вестник ККО АН РУз., 2004. №3-4. – С. 97-99.

3. Алламуратов А. Каракалпакская народная вышивка. – Нукус: “Каракалпакстан”, 1977. – С. 45-46.

4. Курбанова З.И. Фотоальбом А.Л. Мелкова, как источник изучения этнографии каракалпаков // Вестник ККО АН РУз. 2000. №2. – С. 52-53; O‘sha muallif. Традиционный мужской костюм каракалпаков, конец XIX- конец XX вв. // Проблемы востоковедения. 2016. №2. – С. 48-53; O‘sha muallif. Традиционные верования и представления каракалпаков, связанные с одеждой и украшениями // Вестник антропологии. 2016. №3. – С. 64-73. O‘sha muallif. Традиционная обувь каракалпаков (конец XIX - первая четверть XX вв.)// Вестник ККО АН РУз. – Нукус. 2016. – С. 132-135. Курбанова З.И., Давлетияров М.М. Каракалпакский ак жегде // Вопросы истории и археологии западного Казахстана. 2013 №2. – С. 33-36.

5. Тлеубергенова Н.А. Этнокультурные аспекты юрты // Вестник ККО АН РУз. – №2. – Нукус, 1995. –С.104-109. O‘sha muallif. Некоторые обряды и верования каракалпаков связанные с юртой // Вестник ККО

АН РУз. – №4. – Нукус, 1995. –С.101-110. O‘sha muallif. Истоки традиционного деления внутреннего пространства юрты каракалпаков // Вестник ККО АН РУз. – №3. – Нукус, 1996. – С.93-101. O‘sha muallif. Поверья каракалпаков, связанные со строительством жилища // Вестник ККО АН РУз. – №5. – Нукус, 1997. – С.129-130.
6. Калбанова Е.Е. Традиционное жилище уральских казаков низовьев Амударьи // Вестник ККО АН РУз. 1998. №2. – С.142-144.
7. Есбергенов Х.Е. Обряды и верования каракалпаков, относящиеся к юрте//В кн.: Кочевое жилище народов Средней Азии и Казахстана. – М.: 2000. – 278 с.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ МАДАНИЯТИ МАСАЛАЛАРИНИНГ АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИДА ЁРИТИЛИШИ

Анвар Шосаидов
Тошкент давлат шарқшунослик университети ўқитувчиси
Э-маил манзили : anvar.shosaidov1988@gmail.com

Калит сўзлар: *Марказий Осиё, маданият, этнография, архив ҳужжатлари, урф-одатлар, диний маросимлар.*

Аннотация: *Ушбу мақола Марказий Осиё халқлари маданияти масалаларининг архив ҳужжатларида акс этиши ва уларнинг этнографик тадқиқотларда қандай ўрганилганлигини таҳлил қилади. Мақолада XIX аср охири ва XX аср бошларида Туркистон ўлкасида ўтказилган этнографик экспедитсиялар ва уларнинг аҳамияти ҳақида сўз юритилади. Ушбу тадқиқотлар орқали халқ урф-одатлари, диний маросимлар ва кундалик ҳаёт тафсилотлари ўрганилган.*

COVERAGE OF CULTURE ISSUES OF THE PEOPLE OF CENTRAL ASIA IN ARCHIVE DOCUMENTS

Anvar Shosaidov
Tashkent State University of Oriental Studies, Teacher
Email address: anvar.shosaidov1988@gmail.com

Key words: Central Asia, culture, ethnography, archi-

Abstract: This article analyzes how issues of Central Asian peoples' culture are reflected in archival documents and how they have been studied in

val documents, customs, religious ceremonies.

ethnographic research. The article discusses the ethnographic expeditions conducted in the Turkestan region in the late 19th and early 20th centuries and their significance. Through these studies, the customs, religious rituals, and details of daily life of the people were examined.

Кириш

Марказий Осиё халқлари маданияти ўзининг бой ва хилма-хил мероси билан ажралиб туради. Бу ҳудудда яшовчи турли халқлар минг йиллар давомида ўзига хос анъана ва қадриятларни яратиб келган. Архив ҳужжатлари ва тарихий манбалар ушбу маданиятларнинг шаклланиши ва ривожланиш жараёнларини ўрганишда бебаҳо аҳамият касб этади. Айниқса, XIX аср охири ва XX аср бошларида ўтказилган этнографик тадқиқотлар ва экспедитсиялар орқали Марказий Осиё халқларининг урф-одатлари, диний маросимлари, кундалик ҳаёт тарзи ҳақида қимматли маълумотлар йиғилган.

Мазкур мавзунинг долзарблиги шундаки, архив ҳужжатлари ва этнографик тадқиқотлар ёрдамида минтақанинг маданияти ҳақида кенгроқ тасаввурга эга бўлиш, маданий алоқаларни яхшироқ тушуниш ва ўзаро таъсирни аниқлаш имконияти мавжуд. Ушбу кириш қисми орқали, биз Марказий Осиё халқларининг маданий масалалари бўйича ўрганилган архив материалларини таҳлил қилишга киришамиз. Мазкур иш, тарихий манбаларни янада чуқурроқ тадқиқ қилиш, маданий ўзликни англаш ва маданиятлараро алоқаларни мустаҳкамлаш йўлида катта қадам бўлади.

Асосий қисм

Бу давр минтақа халқлари этнографиясига оид маълумотлар асосан ёзма манбаларда, қисман эса ҳужжатларда сақланиб қолган. Кейинчалик, яъни Туркистоннинг Чор Россияси томонидан босиб олиниши натижасида эса бу ерда турли этнографик экспедициялар олиб борила бошлаган. Этнографик изланишлар, яъни Туркистон ўлкаси ҳудудида яшовчи халқлар ва қабилаларни бир-бировига солиштирган ҳолда ўрганиш учун дала шаратоитида фотосуръатларга олган ҳолда изланиш олиб бориш ва у билан боғлиқ рухсат олиш жараёнлари бевосита ҳукумат билан алоқадор равишда кечган [1].

XIX аср охирида Туркистон маҳаллий аҳолиси ижтимоий ҳаётида ислом дини асосий ўрин тутган, ўлка маҳаллий аҳолиси шариат қоидаларига кўра турмуш кечириб, ислом ақидаларига муносиб тарзда яшашга ҳаракат қилишган. Россия империяси томонидан Туркистон босиб олинган бўлса ҳам ҳукумат мусулмонларнинг диний ҳаётига аралашишдан ҳайиққан. Хусусан, ҳаж зиёратига ўлка мусулмонлари

Макка ва Мадина шаҳарларига Туркия, Афғонистон ва Ҳиндистон орқали боришганлиги ҳақида маълумотлар учрайди.

1909 йиллар давомида нохристиан динлар бўлими директори А.Н. Харузин номига ёзилган хатда ҳожилар бу диний маросим орқали бирлашиб кетиши хавфи борлигини такидлайди. Лекин ҳаж сафаридан қайтганлар устидан қаттиқ назорат қилинганлиги ҳақида ҳам маълумотлар учрайди[2].

Ўша давр матбуотда қайд этилган маълумотларнинг кўрсатишича, ХИХ аср охири ХХ аср бошларида Ўрта Осиё мусулмонлари Ҳаж сафарини сув йўли ва темир йўллар орқали амалга оширилган. Улар Одесса, Феодосия, Батумгача темир йўлда сўнгра Ҳижозгача сув йўли транспортларида кетишган.

Туркистон генерал-губернаторининг 1901 йил 23 январда эълон қилинган буйруғида - зиёрат қоидаларининг 3 бандини эълон қилади. “1 бандида келтиришича; хориж паспорти берилгандан сўнг, Ҳаж зиёратига борувчилардан Ҳижозга Қора денгиздаги Россия портлари орқали кетиш, ҳамда шу йўл билан Феодосия ёки Батум орқали келиш ҳақида тилхат олинган”[3].

Туркистон шаҳарлари ва станцияларида Одесса, Феодосия ва Батумгача учинчи класс вагони билетнинг нархи 25-28 рубль бўлган[4].

Рамазон ойининг Марказий Осиёда қай тариқа нишонлашган. Ғусл, азон, намоз. - Қуръон бошдан-оёқ хатм қилмоқ. Рабиман, тунги гаштаклар, ва тонг саҳардан кун отгунга қадар саҳарлик қилмоқ, рўза тутмоқ. Рамазон ойининг бошқа ойлардан фарқи[5]:

- *Лайлат ул - қадр кечаси*
- *Садақа-и-фитр*
- *Рўза тутмоқ*
- *Аёлларни қабристонларга зиёрати*

Шунга ўхшаш жуда кўп урф-одатлар мавжуд бўлган. Олдинги Қўқон хонларидан бўлмиш Худоёрхон ҳам бу ойда Мўйи Муборакда масжидида ибодат билан машғул бўлган. Бу ойда энг катта машғулот рўза тутиш бўлган. Тарофиҳ намозлари ўқишган.

Қуръони Карим рамазон ойида нозил бўла бошлади. Рамазон бошқа ойлардан нақадар улуғ бўлса, бу ойнинг охирги ўн куни бошқа кунларидан шу қадар улуғ даражани эгаллайди. Бу ўн кун ичига Лайтул ул қадр кечаси яширинган бўлиб, унинг минг ойдан ҳам хайрлироқ эканини Қуръонда эътироф этилади[6].

Қуръони Карим тиловати, зикр ва дуони кўпроқ қилиш лозим бўлган. Рамазони шарифнинг охирги ўн кунлигида тоат – ибодатларни кўпайтириб кечалари бедор бўлишган[7].

Қадр кечаси, рамазоннинг охирги ўн кунларининг тоқ кечаларидан бирида экани баён қилинган[8].

Муборак Рамазон ҳайитининг халқимиз маънавий хаётидаги ўрни ва аҳамиятини эътиборга олиб, миллий-диний қадриятларимизни сақлаш ва улуғлаш ҳамда “Рамазон ҳайитини дам олиш куни деб эълон қилиш тўғрисида” қарор қабул қилинган[9].

Тошкентда Рамазон рўзаси тугаши 1867 йилнинг 23 январда тўғри келиб келаси куни Рамазон Ҳайити байрами эди[10]. 30 кунлик рўзани мусулмонлар тўлиқ тутишди[11].

Қуёш ботишига яқин бутун шаҳар ифторликка ҳозирланган. Кундуз кунлари баъзилар ибодат билан машғул бўлса қолганлар ўз иши билан банд бўлган. Бундай кунлар шаҳарнинг барча мусулмонлари хурсандчилик билан ўтказган. Муаззин азон айтиши билан сартлар масжидига шошилишар эди. Рўзани тутиш мусофирларга, тўлғоқлик яқинлашган аёлларга ва кичкина болаларга фарз эмас эди[12].

Туркистоннинг туб аҳолиси кўчманчи ва ўтроқ ҳаёт кечиришган. Биринчилардан бўлиб тожиклар ёки уларни яна сарт ҳам дейишган. Қирғиз ва қипчоқлар азалдан бу ерларда яшаб келишган деб рус олимлари томонидан талқин қилинади. Қирғизлар Чирчиқдан бошлаб Қурама қадар яшашган. Бундан ташқари, Тошкент шаҳарида лўлилар (циган), яҳудий (жугут), ҳиндлар, сартлар ва татарлар ҳам бўлган. Сартлар Тошкент шаҳрида 100 минг кишини ташкил этган.

Сартлар бу - юзи думалоқ, кўзлари катта, чиройли, келишган ва соқоллари қорамтир бўлиб, Тошкентнинг қишлоқ ҳудудларида кўп учраган.

Қирғизлар кўпинча Янги-бозор кўчасида истиқомат қилишган. Татарлар ҳаммаси Россия ҳудудларидан кўчиртирилиб келтирилган. Уларнинг кўпи ҳунармандчилик ва савдо ишларида яхши бўлишган.

Яҳудийлар ўзларининг жугутон-маҳалласи (яҳудийлар истиқомат қиладиган ҳудудлар шудай аталиб келган)да истиқомат қилишган. Улардан кўплари талмудлар бўлиб, деярли ҳаммаси форсий тилда гаплашган. Улар кўпинча узумдан шароб тайёрлашган. Савдода ҳам жуда уста бўлишган. Яна бу халқ ипакни ранглаб бозорларда сотиб кун кечирган. Қўқондан сургунликда юриган бу халқ белида чилвир билан юрган ва шаҳардан ташқарида фақат от ва эшакни миниб юришган.

Ҳиндуларнинг кўп ҳолларда уйлари бўлмаган шунинг учун улар карвон саройларда истиқомат қилишган. Улар маъбудаларга сиғинишган. Улар пешоналарига синдур суркаб юришган. Улар жунни қайта ишлаб сотишган.

Тошкентда ***лўли*** (циган)лар ҳам бўлиб, кундалик ҳаётда ўзларига фойда олиб келадиган ҳунар билан шуғулланишмаган.

Тошкентда руслардан ташқари яна афғонлар, бухороликлар, хиваликлар, эронийлар, қобулийлар ва бошқа этнослар истиқомат қилишган[13].

Қозоқлар кундалик ҳаётидаги жуда кўп нарсаларни ўз хонадонларида тайёрлашган. Чорвадор хонадонларда асосан қўй ва туя жунидан ҳар хил материаллар ясашган. Хусусан, намат, кигиз тайёрлаш ҳунари билан деярли ҳар бир оила шуғулланган.

Уй ҳайвонлари терисидан кўн тайёрлаш ишлари жуда қадимдан кенг тарқалган. Қорамол, эчки, от, туя терисидан пойафзал, ҳар хил чарм идишлар тикилган. Теридан кийим – кечак ҳам ишланган.

Ёғочсозлик касб – ҳунарини деярли ҳар бир хонадон яхши билган. Бу ҳунар кўпроқ ўрмонзорларга бой шимолий ва шарқий – шимолий туманларга кенг тарқалган. Махсус уй иши, яъни уй-ўтовлари, эгарчилар ҳам кўп бўлган. Яна қозоқ аҳолисида икки ғилдиракли арава, тўрт ғилдиракли қуйма XVII – XVIII асрлардан буён ишлатилиб келинган. Лекин бундай аравалар жуда кам бўлган. Юк ташиш учун кўпчилик асосан от, туя ва ҳўкиз ишлатишган.

Қозоқ оилалари асосан ўтов (кигиз уй)ларда яшашган. Уларнинг ўтови Марказий Осиёдаги бошқа чорвадор оилалар, яъни қирғиз, туркман, қорақалпоқ ўтовларидан деярли фарқ қилмаган. Ўтовлар Қозоғистоннинг турли ерларида, бир-биридан уст безаги билан анча фарқ қилган. Қозоғистонинг жанубий ерларида илгари Катта Жуз уруғлари яшаб келган қисмида ўтов баланд қилиб қурилган. Шимолий чўл ерларида эса ўтов пастроқ ва кенг бўлган.

Бойларнинг ўтови кенг ва баландлиги, устига қимматбаҳо намат – кигиз ёпилгани, безаги билан ажралиб турган. Ўтовлардан ташқари омонат уйлар ҳам бўлган: кўрки (чайла), жаппа, қўс. Қамишдан ўтовсимон қилиб қурилган ертўла (казба) уйларда ҳам яшаган. Чим уй кўп бўлган.

XVIII аср охири – XIX аср бошига келиб қозоқларнинг бир қисми ўтроқ ҳаёт кечиришга ўта бошлайди. Натижада доимий, муқим туриладиган уйлар пайдо бўла бошлаган.

Қозоқ оилалари ўзлари учун зарур уст-бош кийимларини хонадоннинг ўзида қўлда тикишган. Юпқа намат-кигиз, тери, чарм, кийим тикиш учун зарур асосий материаллардан ҳисобланган. Лекин Марказий Осиёнинг қўшни бозорларидан олиб келинадиган чит ва шойи газламалардан ҳам фойдаланишган.

Кийим-кечаклар кўчманчи ҳаёт шароитига мослаб тикилган. Эркакларнинг кийими кўйлак, иштон, бешмет, чопон, темак (жун қалпоқ), дўппи, кумис, белдик, камар, этик, пайпоқдан иборат бўлган.

Аёлларнинг кийимини бўрк - қизлар киядиган бош кийим, саукел *(ёш жувон бош кийими)*, кемшек *(аёллар бош кийими*), кўйлак, шапан, енгсиз камзул, бешмет ташкил этади.

Қиш кунлари қўй терисидан, баъзан тулки ва бўри мўйнасидан тикилган узун пўстин кийишган. Чакмон (шекпен) хам ишлатилган.

Қизлар сочлари майда (30 тагача) кокил қилиб ўриб кокил учларини иккита қилиб бирлаштиришган. Айрим ерларда аёллар шошқоп кийиб, яъни сочларини махсус халтага солиб юришган.

Асосан бошларига хилма-хил безак, тақинчоқлар тақишни яхши кўришган. Қизлар кокилларига танга ва кумуш безаклар тикилган ленталар ўрашган. Айрим жойларда, кўпроқ Ғарбий Қозоғистон ерларида бош кийимда бирон - бир безак қадаш одат бўлган. Қулоқларига турли хил зирак тақишган. Бўйни тақинчоқлари, билак узук, узук тақиш кенг тарқалган.

Асосий таоми гўшт, сут ва сут маҳсулотлари бўлган. Кўчманчи қозоқ оилалари сутни соққан заҳоти ичишни ёқтиришган. Дарҳол ундан қатиқ увитиб, айрон тайёрлашган. Энг севимли ичимлиги қимиз ҳисобланган. Қозоқ халқи туячилик билан кенг шуғулланган. Буғдой унидан нон бўғирсоқ, қийиқша нон, тандир нон, жуқа нон пиширилган.

Қозоқлар айниқса, пиширилган гўшт (эт)ни кўп истеъмол килишади. Кулшетай, бешбармоқ таомларини севиб тановул қилишади. XIX аср ўрталаридан бошлаб чой ичадиган бўлишган. Бўза ичиш қозоқлар ичида азалдан маълум бўлган. Уни буғдой, сули, гуручдан тайёрлашган. Таомлардан балиқ, парранда гўшти камдан-кам ишлатишган. Шунингдек, сабзавот, мевалар ҳам тановул қилинган.

Марказий Осиё халқларида фарзанд тарбиясига катта эътибор беришган бўлиб боланинг туғилишидан то уйлангунига қадар ота-оналар масъул ҳисобланган. XIX асрда қозоқлар учун кичик оила хос бўлиб, у ота-она ва вояга етмаган болалардан ташкил топган. Мазкур оилада патриархал муносабатлари қарор топган бўлиб, хотин устидан эри, кичиклар устидан катталар ҳукмронлик қилар эди. Оила бошлиғи – эркак киши атрофида оиланинг барча аъзолари шариат ва одат қоидаларига амал қилиб, жипслашиб яшар эдилар. Бу муносабатлар қозоқларнинг оилавий муносабатларини тартибга солиб турар эди. Оилада аёлнинг ўрни, унинг ёшидан қатъий назар оила аъзолари билан бўладиган ўзаро муносабатларидан келиб чиқиб, катта фарқланган. Қизлар оилада эркин яшаган ва бой-бадавлат оилаларда уй юмушларидан бутунлай озод қилинган. Оилада фарзанд туғилгунга

қадар ёш келиннинг ҳақ-ҳуқуқлари ўта чегараланган бўлиб, янги келинга паст назарда қаралар эди. Ёш келин оиладаги барчаси катталарнинг буйруғига бўйсуниши лозим бўлиб, унга энг оғир ишлар юкланган. Эрининг оиласида оила аъзолари билан мулоқот ва муносабатлар, урф-одатлар, таъқиқлар ва чекловлар ёш келинга уқтирилиб борилар эди. Масалан: куёвнинг отасига рўпара келиб қолишдан қочиш, қайнотаси ва эрини, ака-укаларини номини атамаслик. Келин болалик бўлгандан сўнг бир қанча ҳуқуқларга эга бўлган, ёши катта аёллар эса оилада анча таъсир ўтказа олган.

Хулоса

Марказий Осиё халқлари маданияти масалалари тарихий жиҳатдан бой ва хилма-хил бўлиб, архив ҳужжатлари ушбу маданиятнинг шаклланиши, ривожланиши ва ўзига хос хусусиятларини ўрганишда бебаҳо манба ҳисобланади. Бу ҳужжатлар халқларнинг миллий анъаналари, урф-одатлари, санъат турлари, тиллари ва маънавий мероси ҳақидаги маълумотларни ўзида мужассам этган. Архив ҳужжатлари маданиятлараро муносабатларни, турли даврларда маданий ўзгаришлар ва таъсирларни таҳлил қилиш имконини беради. Бу минтақада яшовчи халқлар ўртасидаги маданий алоқалар, ўзаро таъсир ва уйғунлик даражасини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга.

Шу билан бирга, архив ҳужжатларидаги маданий маълумотлар мустамлака давридаги маданият сиёсати, Совет даврида маданиятни бошқариш, минтақадаги маданий интеграция ва миллий ўзликни сақлаш масалаларини ҳам ўрганиш учун муҳим аҳамият касб этади. Архивдаги материаллар ёрдамида ўша даврдаги сиёсий-ижтимоий вазиятнинг маданиятга таъсирини ва унинг натижаларини чуқурроқ англаш мумкин бўлади.

Таклифлар

Архив маълумотларини тизимли таҳлил қилиш ва рақамлаштириш Марказий Осиё халқлари маданияти билан боғлиқ архив ҳужжатларини тизимли таҳлил қилиш ва уларни замонавий технологиялар ёрдамида рақамлаштириш керак. Бу, биринчидан, уларга киришни осонлаштиради, иккинчидан, уларни кенг жамоатчиликка тақдим этиш имкониятини беради.

Марказий Осиё давлатлари ўртасида архив маълумотларини ўрганиш ва улардан маданий меросни тарғиб қилишда фойдаланиш бўйича ҳамкорликни кучайтириш лозим. Қўшма тадқиқот дастурлари ва илмий конференциялар орқали минтақанинг умумий маданий мероси ҳақида чуқурроқ маълумот олиш мумкин.

Маданий меросни ўрганиш марказларини ташкил этиш;

Халқларнинг маданияти ва тарихини ўрганиш бўйича махсус марказларни ташкил этиш ва уларни архив материаллари билан таъминлаш лозим. Бу марказлар маданий меросни ўрганиш, сақлаш ва келгуси авлодларга етказишда муҳим рол ўйнайди.

Илмий-тадқиқот ишлари ва нашрлар;

Марказий Осиё халқларининг маданиятига оид архив ҳужжатлари асосида янги илмий тадқиқотлар олиб бориш ва уларни нашр қилиш муҳимдир. Бу тадқиқотлар халқларнинг ўзига хос маданиятини чуқурроқ англашга, ўзаро маданий алоқаларни мустаҳкамлашга хизмат қилади.

Таълим тизимида фойдаланиш;

Архив ҳужжатларида ўз аксини топган маданий материалларни ўрганишни таълим тизимига киритиш керак. Бу, бир томондан, ёш авлодда минтақа халқларининг тарихий меросига бўлган қизиқишни оширади, иккинчи томондан эса, улар ўртасида маданиятга нисбатан ҳурмат ва тушунишни шакллантиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. ЎзР МА И 1-фонд, 1-рўйҳат, 1449-йиғма жилд, 12-варақ
2. ЎзР МА И 1-фонд, 4-рўйҳат, 1260-йиғма жилд, 101-варақ.
3. Правила для паломников, установленные приказом Туркестанского генерал-губернатора от 23 января 1901 года // Туркестанский ведомости, 1902 № 96. – С.583
4. Ҳожиларга хабар // Садои Фарғона.1914. №35. Б.15
5. ЎзР МА И 126-фонд, 1-рўйҳат, 1925-йиғма жилд, 138-варақ.
6. ЎзР МА И 126-фонд, 1-рўйҳат, 1925-йиғма жилд, 138-варақ
7. ЎзР МА И 126-фонд, 1-рўйҳат, 1925-йиғма жилд, 138-139-варақ.
8. ЎзР МА И 1-фонд, 20-рўйҳат, 6785-йиғма жилд; Ю.Казбековъ
9. Мусулманский праздник Иди-шарифи Рамазан или Ийд-ул-кабир //Туркестанский ведомости, 1987 № 4 С.1-3.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992-йил 27 мартдаги ПФ-368-сон Фармони
11. ЎзР МА И 126-фонд, 1-рўйҳат, 1925-йиғма жилд, 138-варақ.
12. ЎзР МА И 126-фонд, 1-рўйҳат, 1925-йиғма жилд, 139-варақ.
13. ЎзР МА И 126-фонд, 1-рўйҳат, 1925-йиғма жилд, 77-варақ.

MANBALARDA TURKIY XALQLARINING ISTEMOL TAOMLARI VA ULARNING ANTROPOLOGIYASI.

Zufarov Muhammadjon Ravshan o‘g‘li
Toshkent davlat Yuridik universiteti
E-mail: muhammadjonzufarov2@gmail.com

Kalit so‘zlar: *Avesto, Chjan syan 張,Kuaizi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola manbalaridagi turkiy xalqlarni hayot tarzi hamda xo‘jalik faoliyati va oziq-*

筷子, Yenesey qirg‘izlari, 契骨 Tsigu, Lu Yu 陸游,Tay-Szun 太宗, Saklar, daxturxon diplomatiyasi.

ovaqati hamda istemol mahsulotlarida bo‘g‘liq masalalarga bag’ishlanadi. Shuningdek, unda turkiy xalqlarni ijtimoiy-iqtisodiy va s iyosiy hayoti haqida xitoy manbalarida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanadi.

CONSUMER DISHES OF TURKISH PEOPLES IN SOURCES AND THEIR ANTHROPOLOGY.

Zufarov Muhammadjon Ravshan ugli
Tashkent state university of law
E-mail:muhammadjonzufarov2@gmail.com

Key words: *Avesta, Zhang sian zhāng, Kuaizi kuàizǐ, Yenisei Kyrgyz, qìgǔ Tsigu, Lu Yu lùyóu, Tai-Szun tàizōng, Saklar, Dakhturkhan Diplomacy.*

Abstract: *This article is dedicated to issues related to the lifestyle, economic activities, food, and consumption products of Turkic peoples as reflected in the sources. Additionally, it is based on the information found in Chinese sources regarding the social, economic, and political life of Turkic peoples.*

Bizga ma’lumki inson hayot ekan uni asosiy tiriklik manbayi bu u iste’mol qiladigan taomlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Insoniyat taraqqiyotidagi dastlabki iste’mol turi bu ovchilik va termachilik bo‘lgan ya’ni inson tabiatdan nima topsa shuni tanovul qilgan. Vaqt o‘tishi bilan kishilik jamiyati ham rivojlana boshladi bunga mutanosib ravishda u iste’mol qiladigan taomlar ham o‘sib bordi. Bizga ma’lumki inson dastlab sun’iy olovdan foydalanishni so‘ngi paleolit davrida o‘zlashtirdi, bu ayni paytda taomlar sohasini ham rivojlantirdi, chunki inson endi ovqatni va o‘z iste’mol qilayotgan mahsulotlarni pishirishi mumkin bo‘ldi.

Dunyo xalqlarining taom tayyorlash an’anasi va madaniyati ko‘p asrlik tarixga ega. Taom tayyorlashda xalq turmush tarzi, urf-odatlari, mehnat faoliyati xususiyatlari va iqlim sharoitlari o‘z aksini topgan. Shu bois taom va yemaklar umumxalq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Binobarin, ovqatlanishning o‘ziga xos xususiyatlarini, taom tayyorlashdagi milliy an’analarni bilish xalqlarning o‘zaro jipsligi va do‘stligini mustahkamlash imkonini beradi[50].

An’anaviy taomlar moddiy madaniyatning ajralmas qismidir. Xalq an’anaviy taomlari turli omillar ta’sirida uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib boradi. Oziq-ovqatning moddiy tabiati uni ishlab chiqaradigan jamiyat qo‘llaydigan bilim va texnologiyalarni shakllantiradi. Boshqa tomondan, ovqatlanish - bu shaxs boshqaradigan va davlat tartibga soladigan tana parvarishi san’atidir. Jamiyatning qadriyatlari va biosiyosiy

[50]Худойшукуров.Т., МаҳмудовО., УбайдуллаевР. Ўзбек миллий таомлари. – Т.: Фан. 1995. – Б. 4.

boshqaruvini tushunishning bir usuli - oziq-ovqat mahsulotlarini eng muhim moddiy resurslar sifatida ishlab chiqarish va iste’mol qilishni, shuningdek, bu jarayonlarga jalb qilingan insoniy va noinsoniy omillarni o‘rganishdir.51Turkiy xalqlar oshxonasi va oziq-ovqat muhitidagi hozirgi kungacha bo‘lgan o‘zgarishlarni yanada tizimli ravishda tahlil qilish, shuningdek, "an’anaviy" deb hisoblanuvchi zamonaviylikka qadar bo‘lgan oziq-ovqat madaniyati haqidagi jamoaviy xotiraning zamonaviy bilim va amaliyotlarga ta’sirini baholash vaqti keldi. Bu qisman oziq-ovqat sanoatlashtirish va globallashuvining tobora muammoli bo‘lib borayotganiga javob tariqasida amalga oshirilishi lozim. Biz an’anaviy Turon ovqatlanish tizimlarini ko‘rib chiqishdan boshlaymiz. Bu tizimlar mahalliy oziq-ovqat ekinlariga asoslangan bo‘lib, ulardan go’sht va bug‘doyni alohida ta’kidlaymiz. Bu ikki ozuqa qadimdan Turkiylarning beshta asosiy ozuqalaridan hisoblanadi, ammo ular o‘zlarining moddiy tabiati jihatidan juda farq qiladi va Turkiy xalqlar oziq-ovqat dunyosida turli rollarni o‘ynaydi. Go‘sht Turkiy xalqlar oziq-ovqatida asosiy oziq-ovqat mahsuloti hisoblansa, bug‘doy o‘ziga xos ahamiyatga ega ekin hisoblanadi.52 Nihoyat, boshqa ovqatlanish madaniyatlari bilan taqqoslaganda, biz Turkiy xalqlarning “an’anaviy” ovqatlanish bilimlari va usullari oziq-ovqatning tarixi va zamonaviy sharoitida qay darajada dolzarb ekanligini tushunishga harakat qilamiz.

Yurtimiz hududida yashagan qadimiy turklar va ularning oziq-ovaqatlari haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot mavjud bo‘lmasa ham manbalarda ularga ayrim ishoralar mavjud. Jumladan, “Avesto”ning eng qadimgi qabilalari chorvachilik bilan hayot kechirganlar. Kitobda chorvachilik hayotida oid ma’lumotlar juda ko‘p saqlanib qolgan: Ahuramazdaga murojat qilib, payg‘ambar ayturki: “Sen o‘sha, kim bizga hayot manbai bo‘lgan charvani hayotga keltirib yaratgansan”.53 Bunndan ko‘rinadiki turklarning asosiy ozuqasi eng avvalo qadim zamonlardan chorva va uning go‘shti hamda suti hisoblangan. Turkiylar Markziy Osiyo tekisliklarida chorva haydab uni asosiy iste’mol vositasi sifatida ko‘paytirganlar.

Yasna kitobida shunday chorlov bor: “Ahuramazda yaratgan hamma narsaning ichida birinchi o‘rinda chorva turadi. Biz chorvaga tinch o‘tlov va yemish ta’minlashga chaqiramiz” deyiladi 24-got chorlovida.54 Darhaqiqat turkiylar dasturxonining asosini chorva go‘shti mahsulotlari tashkil etadi.

[51] Angela K.C. Leung. Food in Chinese Culture: The Past in the Present. Hong Kong Institute for the Humanities and Social Sciences. April, 2021.

[52] The Golden Peninsula: Culture and Adaptation in Asia. Charles F.Keyes. New York: Macmillian. 1977. XIV. 370 pp.

[53] А.Садуллаев. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Т: Ўқичувчи., - 1996. 23-б.

[54] А.Садуллаев. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Т: Ўқичувчи., - 1996. 24-б.

Go‘sht mahsuloti har bir mehmonga tortiq etilgan, bu haqida yunon muarrixlarining asarlarida ham keltirib o‘tiladi. Geradod Melopomena tarix IV kitobida Saklar do‘stlik va qo‘noqlik shartnomasini dasturxon boshida katta tovoqda pishirilgan go‘sht va sut qarshisida o‘zaro ahdlashib tuzilishini aytib o‘tadi. Tovoqdagi go‘sht yeyilgach uniga shartnoma ishtrokchilarining qoni qo‘shilgan vino quyiladi. Keyin tovoqqa qilich, o‘qlar va oyboltalar cho‘miltiriladi. Uzundan-uzoq qasam, duo so‘zlari o‘qilganidan so‘ng shartnoma a’zolari va yig‘indagi eng atoqli shaxslar tovoqdagi qonni ichishadi.55 Shu asnoda do‘stlik shartnomasi muhirlanish tartibi Saklarda saqlangan. Bunudan ko‘rinadiki, qadimdan taom nafaqat kundalik iste’mol vositasi balki, o‘ziga xos diplomatik retualning bir qismi hisoblangan, bugungi kunda ham muhim masalalar davlat rahbarlarining o‘zaro kelishuvi dasturxon atrofida sodir bo‘ladi.

Turonda qadimdan chorvachilik bilan hamohang dehqonchilk ham taraqqiy etgan, bu haqida qadimgi Xitoy manbalari qimmatli ma’lumotlari beradi. Miloddan avvalgi II asrda Farg‘onaga kelgan Chjan syan 張仙 [Zhāng xiān] Farg‘ona vodiysida olti yuz ming kishi yashagani, oltmish minglik qo‘shini mavjudligi yetmishdan ortiq shahari mavjudligi, butun vodiyda dehqonchilik uzumchilik va bog‘dorchilik qilishlari, sifatli vino tayyorlab, uni ko‘p yillar saqlashlari bu vinolarning mazasi vaqt o‘tishi bilan yanada xushta’m bo‘lishida haqida yozib qoldirilgan.56Yurtimiz hududida dehqonchilik qadimdan rivojlanganligini arxeologik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Jumladan neolit davrida Amudaryo va quyi Zarafshon vohalarida sug‘orma dehqonchilik rivojlanib, unumdor yerlar kengayib bordi. Manzilgohlardan arpa, bug‘doy va javdar qoldiqlari topilgan. Sug‘orma mirishkorlik hosildorlik oshishiga hamda Marakziy Osiyo aholisi dukkakli mahsulotlar iste’moliga o‘tganligini e’tiroflaydi. Miloddan avvalgi III ming yillikka kelib ota urug‘ patriaxat davri boshlandi. Avvalgidek, oila jamoasi jamiyatning iqtisodiy asosi bo‘lgan. Ota urug‘ tarkibi tarkib topgandan keyin odamlarning ijtimoiy hayotida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.57 arxeolog olimlarning fikricha dunyodagi eng dastlabki taom bu “yasmiq sho‘rva”58 hisoblandi.

Turkiy xalqlarning dasturxoning uy hayvonlarining etlar hamda dehqonchilik ne’matlaridan tashqari yovvoyi hayvon etlari ham tashkil

---

[55] Зоҳир Аълам. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё хақида. Т: Юрист медиа маркази., - 2008. 24-б.

[56] Qozoqboy Mahmudov. Qadimgi Turkiston. T: Ijod dunyosi.,-2003. 55-b.

[57] А.Садуллаев. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Т: Ўқичувчи., - 1996. 8-б.

[58] Yasmiq Gretsiyadagi Franxti g‘orining paleolit va mezolit qatlamlarida (bundan 9500-13000 yil avval), Suriyadagi Mureibet va Tell-Abu-Xureyrada mezolitning oxirgi davrida, shuningdek, miloddan avvalgi 8000-yillarga oid Yerixon atrofidagi manzilgohlarda topilgan. Aristofan uni “eng shirin noz-ne’matlardan biri” deb ta’riflagan. Yasmiq qoldiqlari miloddan avvalgi 2400-yillarga oid Fiva nekropolidagi fir’avnlar maqbaralaridan ham topilgan. Milodiy I asrda tuzilgan “Apitsiy to‘plami” nomli Rim oshxona kitobida yasmiq va kashtan qo‘shilgan sho‘rva tayyorlash usuli keltirilgan.

etgan. Xitoy manbalarining takidlashida turkar mohir ovchi bo‘lib, kamon va qobqon yordamida katta va kichik hayovonlarni ovlashgan. Turkiy hukumdorlar mehmonlari bo‘lgan Xitoy elchilari xoqon dasturxonidagi yovvoyi qushlardan 野味汤 [Yěwèi tāng] tayyorlangan shorvani alohida e’tirof etishgan. Shuningdek elchilar turklarini Xitoyliklarni osh qoshig‘i kuaizini [Kuàizǐ] ishlatmasliklarini ovqat suzishda esa 木碗 [mù wǎn]59 xitoyni yog‘ochdan yashalgan kosalariga emas balki, sopol idishlarga ovqat suzilishini takidlaganlar. Bu ma’lumotlarni turkiy hukumdorlar dafn etilgan qadimiy qo‘rg‘onlar ham tasdiqlaydi. Turkiy xalqlar ichida eng qadimiylardan biri bu so‘zsiz Qirg‘izlardir, Xitoy manbalarida ularni 契骨 Tsigu nomida tilga olinadi. Turondagi eng qadimgi xalqlardan bir bo‘lmish Qirg‘izlarni kelib chiqish haqida 周書Chjou Shuda alohida bir qissa bor, bu qissada 契骨 tsigu etnonimi eslanadi, aynan 契骨 tsigularda Yenesey qirg‘izlari kelib chiqilgani aytiladi. Asarni 50- bobida shunday deyiladi: “周書Chjou Shuda aytilishicha突厥[tujue] tukrlarning ajdodlari 匈奴 [Xiongnu] Xunnlarni shimolidagi So nohiyasidan kelishgan. Ularni qabila boshlig‘i 阿熱 Apanbu edi. Ularning 17 aka-uka edilar. Kattasini ismi Nishidu edi, uning onasi bo‘ri bo‘lgan. 阿熱 Apanbuning qabila ittifoqi noto‘g‘ri siyosat olib borgani uchun uning mulklari tez orada honavayron bo‘ladi. Nishidu g‘ayri odddiy qobilyatlar egasi edi. U tabbiyat kuchlarini o‘ziga bo‘yinsundira olar hamda shamol va yomg‘irni chorlay olardi. Uning ikkita xotini bo‘lib bir yoz ruhining qizi ikkinchisi esa qish ruhining qizi edi. Birinchi xotini to‘rtta o‘g‘il tug‘adi, ulardan biri 大天鹅 [Dà tiān'é] oqqushga aylanadi, boshqachi esa 阿福水 Afushui va 建水 Jianshui daryolari orasida yashab 契骨 tsigu (Qirg‘iz) nomi ostida hukumronlik qiladi.” Millodan avvalgi III asrda Qirg‘izlar Xunlarining shimolida ko‘chmanchi hayot tarzida yashab kelaganlar. Shu davr haqida xabar berguvchi 《史記》Shi ji “Tarixiy xotiralar” asarida ularni 鬲昆 Gu Kun shaklida yozilgan. Milodiy VI asrda turk xoqonligi 泰山 Tangritog‘ yon bag‘larini egallaydi.60

Turkiy xalqlar taomlarining zamonaviy o‘ziga xos xususiyatlari shakllanishida VII-XIII asrlar muhim o‘rin egallaydi, chunki aynan shu davrda qadimgi turkiy ovqatlanish me’yorlaridan bugungi kunga yaqin bo‘lgan yangi holatga o‘tish yuz bergan. Ba’zi tadqiqotchilarning Islom davrida biz bugun turkiy xalqlar oshxonasi deb ataydigan taomlar tizimi

[59] 木碗 – Mu wan kosasining ikkita turi mavjud: qimmatbaho darxt ildizidan tayyorlangani hamda oddiy yog‘ochligi, Oddiy tur odatda rododendron ildizlaridan yoki aralash ildizlardan bezaksiz tayyorlanadi, Qimmatbaho tur parazit o‘simlikdan, Penni ildizida parazitlik qiluvchi o‘simlikdan tayyorlanadi. Sian daraxtidan yasalgan yog‘och kosa qora yarim shaffof, soch kabi mayda donali bo‘ladi, kosaga quyulgan zahar o‘z hususiyatini o‘zgartirib zaharni kesadi.

[60]И.В.Стеблева. Жизнь и литература доисламских тюркох.М:”Восточная литература”РАН.,- 2007.94с.

shakllangani haqidagi fikri asosli bo‘lsa-da, bu fikr ba’zi aniqliklar kiritilishini talab qiladi.

Turli davrlarda Turon xalqlarining taomolanish madaniyatiga boshqa madaniyatlarni kirib kelish jarayoni sodir bo‘lgan. Buning asosiy sababi Turon qadimgi Buyuk ipak yo‘lining qoq markazida joylashganligida, shunindek bizning hududda ijtimoiy siyosiy rivojlanish tez sodir bo‘lishi natjasida amalga oshgan. Shuni alohida takidlash keraki, Turonliklar nafaqat o‘zga madaniyatlar taomlarini qabul qildi balki o‘z madaniyatlarini boshqa xalqlarga ham eksport qildi. Shu o‘rinda shakar hamda patir non tayyorlash texnologiyasi anan Turondan Xitoyga kirib boradi. Bizga ma’lumki shakarni vatani Hindiston bu mahsulotni aynan Turonliklar Xitoyga olib borganlar. Bu keltirilgan faktik ma’lumotlar tahlili VII asr o‘rtalarigacha Xitoyda shakar noma’lum bo‘lgan, degan ishonchli xulosaga olib keladi. Shoir Lu Yu 陸游 shunday ta’kidlagan: “Dastlab Markaziy davlatda shakar qumi yo‘q edi. Tan sulolasi imperatori Tay-Szun 太宗 hukmronligi davrida uni chet mamlakatlardan o‘lpon sifatida olib kelishgan. Bu nima o‘zi? deb so‘radi Tay-Szun 太宗 g‘arbiy mamlakatdan kelgan elchidan. Bu qamish sharbatidan tayyorlanadi, degan javob oldi.” Uni qaynata boshladilar va shunday bo‘ldiki, “Bu qamish sharbatidan tayyorlanadi, - degan javob bor edi. Uni pishira boshladik va shunday bo‘lib chiqdi mahsulot chet eldan keltirilganidan qolishmadi. Faqat shu paytdan boshlab Markaziy davlatda shakar qumi paydo bo‘ldi.” Xitoyga IX asr oxirigacha shakarni Turonlik tujjorlar yetkazib berishgan faqat IX asrdagina shakar ishlab chiqarish texnologiyasini xitoyliklar topadi.61 Bizga ma’lumki, xitoy o‘zining boy va turfa taomlari bilan butun dunyoni o‘ziga jalb etib kelmoqda. Bunda buyuk davlatda VI asrgacha temir qozonlar mavjud bo‘lmagan, shuning uchun ko‘p taomlar xom holida iste’mol qilingan. VI-VII asrlarga kelib Xitoyga metal oshxona buyumlari kirib kela boshladi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiy xalqlarning taomlari ularning tarixiy, madaniy, ijtimoiy va ekologik sharoitlariga ta'sir qilgan. Ularning taomlarini o‘rganish nafaqat o‘sha xalqlarning gastronomiyasini, balki ularning hayot tarzi, qadriyatlari va madaniyatlarini ham yaxshi tushunishga yordam beradi. Qadimgi turklarning diniy e'tiqodlari ham oziq-ovqat madaniyatiga ta'sir ko‘rsatgan. Ular o‘zlarining diniy e'tiqodlariga ko‘ra, muayyan hayvonlar go'shtini iste'mol qilmaslikka harakat qilishgan. Shuningdek, ko'pincha ovqatni toza va an'anaviy usullarda tayyorlashgan, bu esa ularning diniy qadriyatlariga mos kelgan. Qadimgi turklarning taomlarining yana bir muhim xususiyati shundaki, ular ko'plab yangi oziq-ovqat madaniyatlarini o‘zlashtirganlar. Misol uchun, Xitoy va Fors madaniyatlari bilan savdo va

[61] М. В. Крюков, В. В. Малявин, М. В.Софронов. Китайский этнос в средние века.М:“НАУКА”.,-1984. 149 с

aloqalar orqali yangi ziravorlar, donli mahsulotlar va tayyorlash usullari turklarning taomlariga ta'sir ko'rsatgan. Bu, ayniqsa, qadimgi turklarning oziq-ovqat va gastronomiyaga bo‘lgan yondashuvini kengaytirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Angela K.C. Leung. Food in Chinese Culture: The Past in the Present. Hong Kong Institute for the Humanities and Social Sciences. April, 2021.
2. А.Садуллаев. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Т: Ўқичувчи., - 1996. 23-б
3. Бичурин Н.Я. Собрание сведений…, I ж. – Б. 292. // Liu Mau-tsai, Die chinesischen Nachrichten – B. 8.
4. Бичурин И. История Китая. Рукопись. ЛОИНА. Ф.7; В История Тибета и Хухунора. Спб., 1833. Т. 1. 476 с.
5. Gumilyov L.N. “Qadimgi turklar” –T:. Fan, 2007. – B. 79.
6. Qozoqboy Mahmudov. Qadimgi Turkiston. T: Ijod dunyosi.,-2003. 55-b.
7. Зоҳир Аълам. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё хақида. Т: Юрист медиа маркази., - 2008. 24-б.
8. Xo‘jayev.A, K.Xo‘jayev Qadimgi manbalarda xalqimiz o‘tmishi. – T.: “Ma’naviyat”, 2001. 8-bet.
9. Xo‘jayev A. Markaziy Osiyo xalqlariga oid ma’lumotlar (qadimiy hamda ilk o‘rta asr Xitoy manbalaridan tarjimalar va tadqiqotlar). – T.: Navruz, 2015. – B. 31 – 32.
10. Хуан Фенлин. “Теория биполярного мира: Путь к коммунизму, найденный в эволюционной структуре мировой истории” -П:.2020-с 45.
11. M. Zufarov.//Classification of customs of turkic peoples in chinese sources.
12. H. Turdikulov, M.Zufarov.//Chinese sources on ancient turanian history.

ABU RAYHON BERUNIYNING HAYOTI VA IJODI HAMDA ETNOGRAFIYAGA QO’SHGAN HISSASI HAQIDA

Sanjar Bazarbaev
JDPU, Ijtimoiy-gumanitar fanlarda
masofaviy ta’lim kafedrasi o’qituvchisi
Elektron pochta: sanjarbekbazarbayev@gmail.com

Kalit so‘zlar: *"Osor al-boqiya" asari, etnografiya, antropologiya, Xorazm-shohlar, G’azna shahri, “Tahdid nihoyot al-amoniya li tas’hidi masofat al-masokin” asari, “Hindis-ton” asari, Abu Sahl Iso al-Masihiy, “Qonuni Ma’su-diy” asari.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniyning hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar bilan bir qatorda, bobokalonimizning etnografiyaga qo’shgan hissasi haqida ba’zi ilmiy mulohazalar keltirilgan.*

ABOUT THE LIFE AND WORK OF ABU RAYHAN BERUNI AND HIS CONTRIBUTION TO ETHNOGRAPHY.

Sanjar Bazarbaev
JDPU, in social and humanitarian sciences
teacher of the distance education department
Email: sanjarbekbazarbayev@gmail.com

Key words: *"Osor al-boqiya," ethnography, anthropology, Khwarezm-shahs, city of Ghazna, "Tahdid nihoyot al-amoniya li tas'hidi masofat al-masokin," "India," Abu Sahl Iso al-Masihiy, "Qanuni Ma'sudiy."*

Abstract: *This article provides information about the life and work of the great encyclopedic scholar Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Biruni, along with some scientific reflections on our ancestor's contributions to ethnography.*

O'rta asrlarning buyuk ensiklopedik olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy ko'plab fanlar, jumladan, astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya va tarixni chuqur o'rgangan. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kat shahrida tug'ilgan va bolaligidan ilm-fanga bo'lgan qiziqishi ortib borgan. Beruniy, shuningdek, mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroqdan ta'lim olgan. Turkiy tildan tashqari, u arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini o'rgangan. Hindiston safari davomida esa sanskrit tilini o'zlashtirgan.

Beruniy o'z ilmiy asarlaridan birida Xorazmda, 990-yildan boshlab, Kat shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazganini yozadi. Bu kuzatishlar uchun u yangi astronomik asboblar ixtiro qilgan. Xorazm zodagonlari orasidagi taxt uchun kurashlar uning ilmiy faoliyatini davom ettirishga imkon bermadi va 22 yoshida vatanini tark etishga majbur bo'ldi. U bir muddat Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. Keyinchalik qadimgi Ray shahriga yo'l oldi, 998-yildan so'ng esa yana Jurjonga qaytib keldi. Bu yerda u tabib, astronom va faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oldi.

Beruniy, Jurjonda muhojirlik davrida "Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarini yozishni boshladi va 1000 yilda uni tamomladi. Ushbu asar Beruniyga katta shuhrat keltirib, uning fanning turli sohalariga qiziquvchi buyuk olim ekanligini namoyon etdi. Shuningdek, u Jurjonda astronomiya va metrologiya tarixiga oid o'n dan ortiq asar yaratdi.

Keyinchalik, Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbos Ma’mun II ibn Ma’mun tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Urganchga chaqirildi va

ulkan izzat-ikrom bilan kutib olindi. Beruniy Urganchda Ma’munning rahnamoligida tashkil etilgan ilmiy markazda faoliyat yuritdi.

Abu Rayhon Beruniy etnografiya sohasida ham muhim hissalar qo'shgan olimlardan biridir. U o'z asarlarida turli xalqlarning madaniyati, urf-odatlari va an'analari haqida batafsil ma'lumotlar keltirgan. Beruniyning "Osor al-boqiya" asarida qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar va ularning tarixiy kontekstini o'rganish bilan birga, u turli xalq va madaniyatlarning xususiyatlarini taqdim etgan.

U xalq ma'naviyatini va an'analarini o'rganish bilan birga, etnografik tafakkurni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynadi. Beruniy etnografik ma'lumotlarni tarixiy faktlar bilan bog'lab, xalqning ijtimoiy tuzilishi, iqtisodiy faoliyati va diniy qarashlari haqida chuqur fikr yuritgan. U turli xalqlar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni tahlil qilib, madaniyatlararo munosabatlarni yoritishga ham intildi.

Beruniyning bu sohadagi ishlari nafaqat o'z zamonidagi ilm-fanga, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qildi. U etnografiya va antropologiya sohalarining rivojlanishida o'z o'rnini topgan buyuk mutafakkir hisoblanadi.

Xorazmning Mahmud G‘aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo‘yadi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G‘azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017–1048-yillarda G‘aznada kechirgan hayoti, bir tomondan nihoyat og‘ir kechgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo‘dsi. Beruniyning “Xorazmning mashhur kishilari” asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomik-geografik asari “Tahdid nihoyot al-amoniya li tas’hidi masofat al-masokin” (“Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash” – “Geodeziya”) 1025 yilda yozib tugatilgan. Beruniyning “Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar” asari ham 1029 yil G‘aznada yozilgan. Asarning forscha, arabcha nusxalari bizgacha yetib kelgan. Unda o‘sha zamon astronomiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha fanlar haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Beruniyning “Hindiston” nomli mashhur yirik asari “Tahqiq mo li-l-Hind min ma’-quda maqbula fi-l-aql av marzula” (“Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi”) 1030 yilda yozilgan bo‘lib, bu shoh asar G‘arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Aka-demik V. R. Rozen “Sharq va G‘arbning qadimgi va o‘rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo‘q”, deb baho bergan. Mahmud G‘aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida shohga hamroh bo‘lgan Beruniy, u yerda sanskrit tilini puxta o‘rganishi hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o‘sha davr olimlari bilan yaqindan

tanishishga hamda bu mamlakat haqida o‘lmas asar yaratishga imkon berdi. “Hindiston” asari yozib tugatilgan yili Mahmud G‘aznaviy vafot etdi va uning o‘rniga taxtga o‘g‘li Mas’ud o‘tirdi. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshilandi. Astronomiyaga oid “Mas’ud qonuni” asarini sulton Mas’udga bag‘ishladi. O‘sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha: “Mas’ud qonuni” kitobi matematika va astronomiya bo‘yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o‘chirib yuborgan”.

Beruniy o‘z asarlari ro‘yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri “Mineralogiya”dir. Bu risola o‘z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro‘poda ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo‘q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari – “Dorivor o‘simliklar haqida kitob”ining qo‘lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar “Saydona” nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning to‘la tavsifini beradi.

Beruniy shogirdi Abul Fadl as-Seraxsiy ma’lumoti bo‘yicha 11 dekabr 1048-yilda vafot etgan.

Vatanimizda Beruniy ijodiga katta e’tibor berib kelinmoqda. H. M. Abdullayev, I. M. Mo‘minov, V. Yu. Zohidov, Ya. G‘. G‘ulomov, U. Karimov, S. A. Bulgakov kabi atoqli olimlarimiz Beruniy faoliyati haqida qator risola, asarlar yaratdilar. Toshkentda unga bag‘ishlangan qator xalqaro ilmiy konferensiyalar o‘tkazildi. Birinchi bor Beruniyning “Qadimgi yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mas’ud qonuni”, “Geodeziya”, Saydona” kabi asosiy asarlarini o‘z ichiga oluvchi ko‘p tomli saylanma asarlari o‘zbek va rus tillarida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etildi. Ko‘chalar, institutlarga uning nomi berilgan. Fan sohasida Beruniy nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. A.Eshmuxammatov “Sharq uyg’onish mutafakkirlarining ilmiy merosi”, Toshkent – 2016.
2. B.Eshov “O’zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi”, Toshkent - 2012
3. N.Jo’rayev “O’zbekiston tarixi”, Toshkent – 2013
4. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov “Vatan tarixi” I tom, Toshkent - 2010

QADIMGI MIGRATSIYALARNING MARKAZIY OSIYODAGI ETNOTURIZM VA URBANIZATSION (SHAHARLASHISH) JARAYONLARGA TA’SIRI.

Akmal Ismoilov
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi
*E-mail: **akmalismoilov1994@gmail.com***

Kalit so‘zlar: *Migratsiya, aridizatsiya, Markaziy Osiyo, turizm, etnoturizm, aholi manzilgohlari, urbanizatsion jarayonlar, hunlar, yuechjilar (ruziyelar).*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada insoniyatning qadimgi davri va unda migratsion jarayonlarning ro‘li hamda Markaziy Osiyoga ko‘chgan xalqlarning joylashgan hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy jarayonlar holatlari yoritiladi. Ko‘chib kelgan ko‘chmanchilar va o‘troq aholining mintaqadagi urbanizatsion jarayonlarda faolligi hamda o‘zaro assimilyatsion almashinuvlar haqida ham fikrlar yuritiladi.*

THE IMPACT OF ANCIENT MIGRATIONS ON ETHNOTOURISM AND URBANIZATION PROCESSES IN CENTRAL ASIA

Akmal Ismoilov
Kimyo International University in Tashkent.
teacher
E-mail: akmalismoilov1994@gmail.com

Key words*: Migration, aridization, Central Asia, tourism, ethnotourism, settlements, urbanization processes, Huns, Yuezhi (Rouzhi).*

Abstract*: This article highlights the role of migratory processes in the early history of humanity and examines the socio-economic and ethnocultural dynamics in the regions settled by migrating peoples in Central Asia. It discusses the active participation of nomads and sedentary populations in the region's urbanization processes, as well as their mutual assimilation and cultural exchanges.*

Kirish

Tarixdan ma’lumki, yer yuzida tarqalagan har bir xalq o‘z boshidan “ibtidoiy davr”, deb atalgan qadimgi bir tuzumni o‘tkazgan. Bevosita, u zamonlarda insoniyat uchun hali juda ko‘p va qiziqarli ixtirolar begona edi. Sekin-asta vaqt o‘tishi bilan insoniyatning zehni va tafakkuridagi o‘zgarishlar uning olamini qulaylik sari yetakladi. Bugungi kunda tarixchi olimlar nazaricha, insoniyatning ilk makoni sifatida Afrika qit’asi tilga olinadi. Keyingi davrlarda esa asta-sekinlik bilan odamzot shimol bo‘ylab, shimoli-sharq bo‘ylab, g‘arb va janub tomonlarga ham tarqalishi, o‘zidagi odatlarni borib joylashgan yerlarida yoyishi, parallel ravishda mahalliylardan o‘rganganlarini o‘z kundalik hayotida qo‘llashlari ham qiziq hodisalar bo‘lib qoldi. Shu kabi qiziq hodisa va jarayonalar qadimgi davrlardan boshlab markaziyosiyoliklar ijtimoiy turmushini bezagiga aylanib keldi. Aynan Markaziy Osiyo hududlaridan boshlangan dastlabki ko‘chishlar hatto Yevropa tomonlargacha cho‘zildi. Bunga tarix guvoh.

Umuman olganda, bugungi kunda ommalashgan tushunchalar “turizm”, “etnoturizm”, “urbanizatsiya” kabi terminalarning ildizi juda qadimga borib taqaladi. Va, ayniqsa, bu kabi ijtimoiy sohalarning rivojlanishida migratsiya tushunchasi juda muhim o‘rin tutadi. Qo‘shimcha qilib, suv havzalari, o‘z mudofaa devorlariga ega bo‘lgan hududlar va aholisi gavjum bo‘lgan yerlar ham bu kabi ijtimoiy turmushning rivojida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Aslini olganda, **Turizm** termini **(**fransuzcha**:** our – sayr, sayohat), sayyohlik–sayohat (safar) qilish, faol dam olish turlaridan biri, degan ma’nolarda qo‘llaniladi. To‘g‘ri, turizmning tarixi dastlab, fanda XIX asrning boshlarida yuqori saviyada alanga oladi. Biroq uning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Shu bilan bir qatorda urbanizatsion jarayonlar ham qadimgi xalqlarning gavjumlashuvi natijasida, ishlab chiqarishga ehtiyojning oshishi oqibatida jadallashgan.

Hozirgi vaqtda Turizm sohasi dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida ommaviy tus olgan. Xususan, bugun O‘zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O‘zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasini rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib, zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat.

Tarixan, Markaziy Osiyo mintaqasi odamlarning migratsiyaga uchrashlari uchun o‘zida bir qancha qulayliklarni qamragan hudud bo‘lgan.

Odamlar o‘zlari kelib o‘rnashgan hududlarning tabiiy boyliklarini o‘rganib, ishlab chiqarish va hunarmandchilikning yangi tarmoqlarini rivojlantirishdi. Xususan, tog‘oldi va tog‘li hududlar (Chotqol-Qurama, Hisor, Zarafshon, Qizilqum, Farg‘ona vodiysi) metallurgiya taraqqiyoti natijasida mis, qalay, qo‘rg‘oshin, oltin va kumush kabi konlar o‘zlashtirilib, nodir metallardan shuningdek, lojuvard, feruza kabi qimmatbaho toshlardan foydalanish xo‘jalik yuritishning va migratsiyalarning asosiy sabablaridan biriga aylandi.

Markaziy Osiyoning qadimgi davlatlaridan bo‘lgan Baqtriyaning iqtisodiy, siyosiy jihatdan rivojlanishi bevosita Amudaryo va uning havzalaridagi suvlarning yo‘nalishi bilan bog‘liq holda kechgan.

Qadimgi aholi daryo irmoqlari va kanallarning sohillarida yashab, dehqonchilik vohalarini shakllantirishadi. Albatta, har bir dehqonchilik vohasining madaniy va iqtisodiy markazi bo‘lgan. Markaziy qal’aning tashqarisida 8-12 tagacha qishloq va katta patriarxal oila qo‘rg‘onlari topilgan[62]. Bunday siyosiy davlat tuzilmasi “Avesto” ma’lumotlarida berilgan ta’riflarga mos keladi[63].

[62] Shirinov T., Shaydullayev Sh. Baqtriya ming shaharli mamlakat. // “Termiz: tarixiy tadqiqotlar, ilmiy xulosalar”. 10-bet. Toshkent, 2021.
[63] Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. 202-bet. Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

XX asrning 70-80-yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida shimoliy Baqtriya hududi madaniy-xo‘jalik hududlarga ajratish orqali tahlil qilingan. Ilk temir davri 5 ta madaniy xo‘jalik rayonlarga ajratilib o‘rganilgan: Ulanbuloq, Sherobod, Bandixon, Mirshodi, Vaxshuvar[64] va 4 ta madaniy-xo‘jalik hudud keng o‘zlashtirilganligi aniqlangan. A.S.Sagdullayev bu davrni Qizil II davri bilan bog‘lab. 14 ta yodgorlikni ro‘yhatga olgan[65].

Mil.avv. III-II asrlarda Ichki Osiyo (Mo‘g‘uliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, shimoliy-g‘arbiy Xitoy) hududlarida aholining haddan ziyod ko‘payib borish jarayoni kuzatiladi. Aynan ushbu ko‘payish jarayonida son jihatdan ko‘chmanchi **hun**lar ko‘pchilikni tashkil etardi. Aynan ular o‘z yerlarida juda bir urushqoq holda kun ko‘rishardi. Ayniqsa, o‘zlariga umuman begona va uzoq qarindosh bo‘lganlarni ham ayashmagan.

Ma’lumki, hun qavmlarining tarixi, ularning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi qadimgi va ilk o‘rta asrlar davri tarixi uchun alohida o‘rin tutgan. Bu qabilalarning kelib chiqishi, azaldan qaysi hududlarda yashab kelganligi, ularning siyosiy tuzumi haqida xitoy manbalarida bir qancha ma’lumotlar saqlangan. Tarixiy manbalar *shyungnu* (ruscha transkriptsiyasida *syunnu*, yevropada *gun*) deb nomlangan hunlar Markaziy Osiyoning qadimgi qabilalaridan biri edi[66]. Sima Szyanning “Shiszi” asarining 110-bobida keltirilishicha, mil. avv. XIII-III asrlarda bir necha urug‘ va qabilalardan iborat hunlar son jihatidan ko‘paygan. Ular Tuman Tangri qut (xit. Touman) davrida (mil.avv. 240-210) bir necha yirik va mayda qabilalar ittifoqiga birlashgan. Ular Ichki Mo‘g‘uliston, Ordos[67] va hozirgi XXRning Shensi viloyatlari hududida yashagan. Shu bois, hunlar asrlar davomida xitoy qabilalari va elatlari bilan yonma-yon yashab kelganlar. Mil. avv. II ming yillikdan boshlab xitoy manbalari hun (yun, kyun) lar haqida ma’lumotlar bera boshlashgan[68].

Tarixchi, arxeolog F. Maqsudovning ta’kidlashicha, mil.avv. III-II asrlardan boshlanib, milodning taxminan VI asrlarigacha davom etgan Yevropa xalqlari tarixshunosligidagi “Xalqlarning buyuk ko‘chishi”, deb nom olgan yirik jarayon bevosita hunlarning ko‘chish bosqichlari bilan ham bog‘liq. Aynan shu bosqich davomida Markaziy Osiyoning shimoli-sharqiy

[64] Сагдуллаев А. С. Усадьбы древней Бактрии. –Toshkent: Fan, 1987. –139b.
[65] Сагдуллаев А. С. Усадьбы древней Бактрии. 12-bet. –Toshkent: Fan, 1987.
[66] Xo‘jayev A. Markziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma’lumotlar (qadimiy hamda ilk o‘rta asr xitoy manbalaridan tarjimalar va tadqiqotlar. – 201-204 betlar.
[67] Ordos – Xuanxe daryosining “П” shaklidagi qismida yarim cho‘l butazor hududidan iborat. Hozirgi kunda uning bir qismi Xitoyning Ichki Mo‘g‘uliston, bir qismi Shensi va Gansu viloyatlari hududiga to‘g‘ri keladi. Qadimda bu hudud iqlimi chorvachilik uchun qulay bo‘lgan. Uzoq yillar davomida hun qabilalari shu yerda qo‘nim topgan. Mil.avv. III asrda Xitoy hukmdori Sishixuan (mil.avv. 246-208) tomonidan egallandi. Qarang: Ходжаев А. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). -Ташкент: “Tafakkur”,2010. –С. 117.
[68] Сведения древнекитайских источников по этнической истории Централной Азии. Ташкент: Навруз, 2017. – С.130-131.

hududlaridan Buyuk Dasht orqali Yevroosiyoning markaziy va sharqiy mintaqalariga ko‘plab chorvador qabilalarning, jumladan hunlar (gunlar)ning migratsiyasi kuzatiladi[69]. Bu qabilalarning ayrimlari Volga-Ural oralig‘idagi *ugor*lar bilan aralashib borgan bo‘lsa, ayrimlari (eftallar, hioniylar) janubiy yo‘nalish bo‘ylab harakatlanib, O‘rta Osiyoga kirib kelganlar. Bu yerda o‘z davlatchiligini qayta tiklash barobarida, mahalliy davlatchilik an’analariga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmadilar. Ko‘chmanchi-chorvador odatlari bo‘ycha mahalliy hokimliklardan olinadigan soliqlar va aholidan undiriladigan tushumlar bilan cheklandilar. Eng asosiysi, eftaliylar mintaqani Sosoniylar tajovuzidan saqlab qoldi. Qolaversa, hun qabilalarining bir qismi yanada janubga va janubiy-g‘arb (Eron, Hindiston, Yaqin sharq tomonlar)ga ko‘chib o‘tdilar.

Yuechjilar (Ruzyelar) ning ilk davlati Gansu viloyatining g‘arbiy qismida tashkil topgan edi. Xitoy tilli manbalardan biri mil.avv. XI asrga oid Si podsholigiga oid “Guanszi” asarining muallifi Guan-Chjun aytishicha, nefrit toshi yuechjilar davlatidan keltirilgan. Boshqa bir manba “Shanxay-tsin” (“Tog‘lar va dengizlar haqida risola”) da keltirilishicha esa, mil.avv. IV-III asrlarda Yuechjilar davlatida zotdor otlar, dumbali qo‘ylar va yirik echkilar ko‘p bo‘lgan. Bu davrda Xitoyning Mu-tyanszi ismli hukmdori yuechjilar huzuriga o‘z elchisini yuborgan. Shitszining 123-bobida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Lyan, Gan, Su, Gua, She kabi viloyatlar Yuechjilar davlati hududi hisoblangan.

Day-yuechjilar davlati Xitoyning Xan sulolasi bilan ham diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Mil.avv. 119-yilda Usun davlatiga Chjan Chjyan boshchiligida 300 kishilik elchilar guruhi kelgan. Bu guruhning bir qismi Qang‘, Farg‘ona, Shendu qatori Dayuechjilar davlatiga ham savdo aloqalarini o‘rnatish uchun jo‘natilgan. Bu elchilar g‘arbdagi davlatlarga borganda qo‘llarida hukmdorining maxsus elchilik yorlig‘i (jie) bo‘lgan. Ular o‘zlari bilan oltin, kumush, temir, lak, qimmatbaho buyumlar, ipak matolar, olib borishgan. Ular o‘z mahsulotlarini mahalliy mahsulotlar: qo‘y, qoramol, tuya, ot, uzum(mayiz) kabilarga ayriboshlab, Xitoy poytaxti Chanan (Shian)ga olib ketishgan. Bu kabi elchiliklar tomonlar o‘rtasida savdo-sotiqni ancha rivojlantirgan. Xususan, Da-yuechjilar Baqtriyaga kirib kelishidan oldin ham Yunon-Baqtriya hukmdori Yevtidem davrida (mil.avv. 230-190) ham baqtriyalik savdogarlar Taklamakon cho‘li orqali Xitoy saroyiga etib borishgan. Ular o‘sha davrda ham Xitoyning oltin, kumush va nikel (nie) metall mahsulotlariga o‘zlarining mahalliy buyumlarini ayriboshlashgan. Yuechjilar Amudaryo bo‘ylariga kelib o‘rnashgach, o‘zlarining chorva mahsulotari bilan Baqtriyaning savdo imkoniyatlarini

[69] https://youtu.be/b0UF6ZZb4K8?si=9ueFxQ2DEi1TLyZG

yanada oshirgan. Ayni paytda Baqtryada dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari ma’lum va mashhur edi. Usun, Qang‘ davlatlari qatori Da-yuechjilar hukumronligi ostidagi Baqtriya ham dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik (gilam, gul solingan jun mato) mahsulotlari bilan Xitoy bozorlariga kirib borgan.

Tarixiy manbalarda yuechjilarning dastlabki makonlari va migratsiya jarayonida ko‘chib borgan joylarida yuritgan xo‘jalik sohalari haqida ma’lumotlar keladi. Xessi yo‘lagi va Ili vodiysida topilgan qabrlardagi ashyolar ichida ko‘plab ot, qoramol, qo‘y topilgan. Shuningdek, Gansudagi yuechjilarga tegishli Xeyshan qoyatosh suratlarida ular otlar, qoramollar, tuyalar, qo‘ylar, eshshakalar va itlar bilan tasvirlangan. Shuningdek, qabrlardan kamon o‘qlari, egar-jabduqlar, qoyatoshlardagi suratlarda ov manzaralari aks etgan tasvirlar aniqlangan. Bundan tashqari, mil.avv. I mingyillikka oid topilmalar orasida yog‘ochga, suyakka va metallga ishlov berib yasalgan hunarmandchilik ashyolari va sopol buyumlar ham topilgan. Ayniqsa, oltin, kumush va misdan turli hil zeb-ziynat buyumlari topilgan. Bu buyumlar o‘z yasalish uslubi va ko‘rinishiga ko‘ra, Ichki Mo‘g‘ulistondan topilgan hunlarga tegishli buyumlarga juda o‘xshash bo‘lgan. Ruziyelar orasida charm ust-boshdan tashqari jundan, zig‘ir tolasidan matolar to‘qilgani aniqlangan[70]. Bu ma’lumotlar dastlabki vaqtlarda yuechjilarning asosan, chorvachilik va ovchilik bilan shug‘ullanganligini, ko‘plab jangovor qurollarga ega bo‘lganligini isbotlaydi.

Qolaversa, bu davrda Baqtriyada shaharlar soni ko‘payib, bu mazkur viloyatda urbanizatsion jarayonlarning jadal kechganligini ko‘rsatadi. Da-yuchjilar davlati davomchisi bo‘lgan Kushon imperiyasi (Day yuchi guo) davrida Xitoyga chorva mahsulotlariga qaraganda, hunarmandchilik mahsulotlari ko‘proq olib borilgan. Xatto kushonlik hunarmandlar Vey hukmdori Shi-zu (408-452) saroyida ham shishasozlik (shisha – xitoycha buoli, turkcha bolor / bilur) bilan shug‘ullanishgan[71].

Kushonlar va Xitoy o‘rtasidagi savdo va madaniy munosabatlari mintaqadagi integratsion jarayonlarga ijobiy ta’sir qilgan. Umuman olganda, Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi munosabatlarda mil.avv. II asrga qadar hunlar va yuechjilar muhim bosqich vazifasini bajargan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sagdullayev A. va boshqalar. Markaziy Osiyoda tarixiy-madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari. Monografiya. Toshkent: Universitet, 2020.

[70] Ходжаев А. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). -Ташкент: “Tafakkur”,2010. –С.147-148.

[71] Azimov X. Qadimgi Xitoy va Markaziy Osiyo munosabatlari (xitoy manabalari asosida). – Toshkent: Fan ziyosi, 2024. – 118-124-betlar.

2. Ataxodjayev A. Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug‘d munosabatlari. Monografiya. Toshkent: ART-FLEX, 2010.
3. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati. (Mil.avv. VIII-MILODIY IV asrlar). Monografiya. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
4. Azimov X. Qadimgi Xitoy va Markaziy Osiyo munosabatlari. (Xitoy manbalari asosida). Monografiya. Toshkent: Fan ziyosi, 2024.
5. Asqarov A. Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. Monografiya. Toshkent: Fan nashriyoti, 2023.
6. Maqsudov F. O‘rta asrlarda tog‘li Ustrushona ko‘chmanchi madaniyati. (DSc) Dissertatsiya. Toshkent, 2020.
7. Shirinov T., Shaydullayev Sh. Baqtriya ming shaharli mamlakat. // “Termiz: tarixiy tadqiqotlar, ilmiy xulosalar”. Toshkent, 2021.
8. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
9. Ходжаев А. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). -Ташкент: “Tafakkur”,2010.
10. Xo‘jayev A. Markziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ma’lumotlar (qadimiy hamda ilk o‘rta asr xitoy manbalaridan tarjimalar va tadqiqotlar.

SHIMOLIY SURXON VOHA AHOLISINING AN’ANAVIY TURARJOYLARIDA MINTAQAVIY VA ETNIK XUSUSIYATLAR

Abdigapparov O.A.
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Kalit so’zlar: *Shimoliy Surxon vohasi, Tog‘li hudud, Sho‘rchi tumani, Obodon, To‘la qishloq, Oltinsoy tumani Ipoq, Qumpaykal, Qarluq, Chep qishloq.*

Annostatsiya: *Shimoliy Surxon vohasining tog‘li hududlarida ham mavsumiy va vaqtinchalik turarjoylar qurilgan. Vohaning ko‘pchilik chorva mollarini boqish uchun tog‘ ustidagi yaylovga chiqib mavsumiy uylardan bo‘lgan qora uy, o‘tovlar qurib yashaganlar.*

REGIONAL AND ETHNIC CHARACTERISTICS IN THE TRADITIONAL DWELLINGS OF THE POPULATION OF THE NORTHERN SURKHAN OASIS

Abdigapparov O.A.
Teacher of Jizzakh State Pedagogical University

Key words: *Northern Surkhan oasis, Mountainous area, Shorchi district, Abadon, Tola village, Altinsoy district,*

Abstract: *Seasonal and temporary settlements are also built in the mountainous regions of the Northern Surkhan oasis. Most of the people of the oasis went to the pasture on the mountain to graze their cattle and lived in black houses, which were seasonal houses.*

Ipoq, Kumpaykal, Qarluq,
Chep village.

O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda moddiy madaniyatning shakllanishi, taraqqiy etishi, rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Tarixiy-etnografik adabiyotlardan ma’lumki, moddiy madaniyat manbalari asosida o‘tmish ajdodlarimizning turmush tarzi, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotdagi o‘rni, jahon sivilizatsiyasi tarixiga qo‘shgan munosib hissasini bilib olamiz. O‘zbekiston hududida uy-joylar qurilishi qadimiy tarixga ega bo‘lib, Shimoliy Surxon vohasida qadimgi turarjoylar tabiiy sharoitni hisobga olgan holda barpo qilingan. Shuningdek, har bir qurilgan bino qurilishida undan foydalanish manfaatlari to‘liq hisobga olingan. Sharq mutafakkiri Abu Nosir Farobiy uy-joy qurilishi ko‘pdan-ko‘p geometrik uslublarga bo‘lishini, ular ichida «quriladigan me’moriy obida tarhini tuzish san’ati» mavjudligini ta’kidlagan. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino turarjoy me’morchiligida qurilajak uyning joyini, uning shamol yo‘liga nisbatini, quriladigan uy-joy yonidan o‘tadigan suvning tarkibini, yaqin atrofda turmush sharoitiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi manbalarning bor-yo‘qligini nazarga olish zarurligini uqtirib o‘tadi. O‘rta Osiyoda har bir shahar, turarjoy me’morchiligi joyning tabiiy sharoiti, ob-havosi, xalqning iqtisodiy, ijtimoiy hayoti ta’siri asosida rivoj topgan.

Shimoliy Surxon vohasi aholisining an’anaviy uy-joylari, madaniy-maishiy inshootlarining qurilish tarhi, dizayni, me’morchilik kompozitsiyalarida so‘nggi o‘rta asrlar davrida bunyod etilgan madaniy-maishiy inshootlarning qurilish an’analari izlarini kuzatishimiz mumkin. D. Nozilovning fikricha, o‘rta asrlarda bu yerda o‘ziga xos Tohariston (Baqtriya) me’morchilik maktabi shakllangan[1.b.144]. Xususan, bunga Shimoliy Surxon vohasidagi Denov markazida XVI asrda ikki qavat qilib qurilgan Sayid Otaliq madrasasi va Katta Vaxshivor qishlog‘ida 1713 yilda avliyo, shoir So‘fi Olloyor tomonidan qurdirilgan masjidni misol keltirishimiz mumkin. Masjid xonaqoh, ikki tomoni ayvon va qo‘shma xonalardan tashkil topgan. Xonaqoh va ayvon tomi to‘sin bilan yopilgan bo‘lib, sinchli paxsadan qurilgan. Shimoli-sharqiy tomoni hashamatli bo‘lib, mehrobsimon ravoqlar ishlangan. Xonaqohdagi mehrob ravoqi ancha chuqur bo‘lib, uning ikki tomonidagi to‘rt ravoqqa bo‘rtma chiziqlar tortilgan. Bunday bezaklar janubi-g‘arbiy ayvon devorida ham mavjud. Ayvondagi yettinchi va xonaqohdagi oltinchi ustun o‘yma va rangli naqshlar bilan bezatilgan. Bunday inshoatlardagi qurilish uslublari Denov, Yurchi kabi beklik markazlarida hamda Vaxshivor, Sina, Sangardak kabi o‘troq aholi yashaydigan qishloqlardagi uy-joylar qurilishida aks etganligini ko‘rishimiz mumkin. Aholining doimiy turarjoy, uy tomi paxsa, xom g‘isht, guvala ya’ni «bo‘rikalla», shapati, tog‘li hududlarda sinch devor, tosh

devordan iborat bo‘lgan. Dastlab bir xonali, ikki xonali XX asr boshlariga kelib «xo‘rjin tom», «bomi tom», «obdovli tom» va boloxonali uylar vujudga kela boshlagan.

Tog‘li hududlarda doimiy turarjoylar asosan soy bo‘ylarida, anhor yoqalarida bunyod etilgan bo‘lib, uylarni qurishda hududning tabiiy-geografik xususiyatlari e’tiborga olingan. Xususan, uy-joylar quriladigan hududga quyosh yorug‘ligi tushish holati, daradan o‘tadigan sovuq shamol yo‘lidan saqlash, yomg‘ir va selning soyga tez oqib tushishi, uylarni suvga va dehqonchilik qiladigan hududlarga yaqinroq joylarda qurish, qolaversa tabiiy ofatlardan saqlanish kabi masalalarga e’tibor qaratilgan.[2.b.68]

Vohada uy qurishda asosan mahalliy qurilish ashyolaridan foydalanilgan. Tog‘li hududlarning yuqori qismini o‘rmonzorlar tashkil etganligi sababli bu hududda paxsa devor o‘rniga sinch devor keng qo‘llanilgan. Sinch devor juda qulay va mustahkam bo‘lganligi bilan ajralib turgan. Sinch devorda tokcha, taxmon o‘rnatish qulay bo‘lgan. Tog‘li hudud aholisi shamol esadigan va sel keladigan tomoniga tosh devor yoki qo‘sh sinchli devor qurishgan. Shuningdek, sinch devorli uylarning xonalari keng va baland bo‘ladi. Sinch devor tagsinch, kallak, ustun, zabarrav, ustungo‘sha, qalama, xovonda, pushtak, bachki kabi qismlardan tashkil topgan. Vohaning tog‘li hududlarida sinch devordan tashqari kesak, ya’ni guvala devorlardan ham foydalanishgan. Bu holatni vohaning tog‘ oldi qishloqlarida kuzatishimiz mumkin. O‘rganilayotgan davrda Shimoliy Surxon vohasining yarim o‘troq lalmi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi chorvador aholisining asosiy turarjoylari mavsumiy va vaqtinchalik bo‘lib, ularni lochiq, kapa, chum, chayla, chodir, yer tom, to‘la, cho‘pon to‘la, bog‘ tom, o‘tov, qora uy, oq o‘tov, qizil o‘tov kabilar tashkil etgan. Bu davrda mavsumiy va vaqtinchalik turarjoylar ichidan eng ko‘p tarqalgani o‘tov (qora uy) bo‘lib, uning vujudga kelish tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi V asrda Gerodot o‘zining «Tarix» nomli asarida argipplarning mavsumiy va vaqtinchalik turarjoy sifatida qurgan uy joy uchun qurilish ashyosi tabiiy o‘sib turgan daraxtlardan foydalanganliklari haqida to‘xtalib: «Har bir oila daraxt tagida yashaydi. Qishda daraxt qalin oq qigiz bilan yopiladi, yozda esa kigiz olib tashlanadi,»-deb qayd etgan[3.b.28].

O‘g‘izlarga o‘tov bir minginchi yillikning oxirlarida kirib kelgan. Muallifi noma’lum «Hudud al- olam» nomli asarda Irtish bo‘ylarida istiqomat qilgan qalmoqlar haqida to‘xtalib: «Qishin yozin kishilar qora uylarda yashab, yaylov va suv axtarib, ko‘chib yuradilar» deyilgan [4.b.184] Demak, o‘tov ko‘chmanchi xalqlarning asosiy turarjoy vositasi sifatida milodning birinchi ming yilliklari o‘rtalarida vujudga kelgan.

O‘zbekistonning turli hududlari aholisining o‘tovlari ba’zi bir elshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan[5.b.29]. Ammo Shimoliy Surxonvohasi aholisining o‘tovlari esa o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Voha aholisining «qora uy» - o‘tovlari ikki qismdan; a) tol (sariq tol)[6.b.355]novdalaridan qilinib, bu uyning suyagi deb ataluvchi keraga, uvuq va chang‘aroqdan; b) uyning ustini yopuvchi jihozlar – to‘rliq, uzuk va tuynukdan tashkil topgan. Uyning panjara qismi keraga bo‘lib, keragalar 48 boshdan 74 boshgacha bo‘ladi. Asosan bitta o‘tovda to‘rtta keraga bo‘lib, har bir keraga uyning to‘rtdan bir qisimni egallagan hamda bu «qanot» deb nomlangan. Qanotlarning birlashgan joyini «jafsar» deb atashgan. Jafsarlarga balandligi olti yarim, sakkiz yarim qarich uzunlikdagi jafsar qoziqlar qoqilgan va keragalarga jafsar ip (bov)lar bilan jafsar qoziqlarga mahkamlangan. To‘rtala keraga birlashtirilib, o‘tovning panjara qismini tashkil etgan. Keragalardan hosil bo‘lgan panjara kataklari «ko‘zanak» deb atalgan. Ko‘zanaklarning keng ya’ni «el ko‘zanak» hamda «tor ko‘zanak» kabi turlari bo‘lib, Shimoliy Surxon vohasining o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholisi asosan tor ko‘zanakli uylar qurishgan. Vohaning yarim o‘troq aholisi esa yel (keng) ko‘zanakli uylar qurishgan. Chunki yel (keng) ko‘zanakli uylar nisbatan yengil va ixcham bo‘lib, ko‘chish chog‘ida ulov (tuya, ot yoki eshak)ga ixchamgina joy bo‘lgan. Har bir qanotda 12 tadan «chinoq», ya’ni «quloq» bo‘lsa, o‘tov «48 boshli», 16 tadan chinoq bo‘lsa, «64 boshli» o‘tov deb atalgan134. Keraga panjaralari «keraga ko‘ki», ya’ni ho‘kiz yoki tuya terisidan maxsus tayyorlangan tasmalar bilan bog‘langan. Shuningdek, keraga ko‘ki qora uyning «oshiq-moshig‘i» sifatida ham ishlatilgan. Xo‘jamulki, Shaldiroq, Obodon qishloqlarida keragalar yoyilganda 7-8 qarich balandlikdagipanjaralarni tashkil etsa, Qumpaykal, Qarluq qishloqlarida esa 6 qarichni tashkil etgan. Yig‘ishtirib olinganda balandligi 12-14 qarichni, eni esa 3-4 qarichni hosil qilgan[7.b.95].

Shimoliy Surxon vohasida qora uyning uvuqlari tol novdasidan yasalib, Sho‘rchi tumani Obodon, To‘la qishloqlarida, Uzun tumani Chaqar qishlog‘ida o‘n qarichdan o‘n to‘rt qarichgacha bo‘lsa, Oltinsoy tumani Ipoq, Qumpaykal, Qarluq, Chep qishloqlarida sakkiz-to‘qqiz qarich uzunliknitashkil etib, diametri qo‘l o‘rta barmog‘ining bir yarim, ikki bo‘g‘in uzunligini tashkil etgan. Uvuqning egilgan joyi keraga «chinoq» (quloq)lariga mahkamlangan. Uvuqlarning soni uyning necha boshli bo‘lishligiga bog‘liq bo‘lib, qora uy 52 boshli bo‘lsa, uvuq 52 ta, yoki 74 boshli bo‘lsa uvuq ham 74 ta bo‘lgan. Albatta, yetim uvuqlar bunga kirmagan. Yetim uvuq deb ustki bo‘sag‘aga, ya’ni eshik ustiga o‘rnatiladigan beshta uvuqqa aytilgan. Chunki yetim uvuqlarning egilgan

joyi qisqaroq bo‘lib, bir qirichdan oshmagan. Uchi esa chang‘aroq teshiklarga kiritilgan138. Qora uyning «chang‘arog‘»i toldan doira shaklida egib qilinib, uning aylanasi 8-9 qarichni, qalinligi esa bir qarichni tashkil etgan. Bu «qasqoq» deb atalgan. Chang‘arog‘ qasqog‘ining ustki qismiga toldan tayyorlangan tayoqlar gumbaz shaklida egilib chang‘aroq teparog‘idan o‘yilgan birinchi qator teshiklariga tiqilgan. Tayoqlar xoch shaklida kesishib, o‘rta qismi esa tuya yoki ho‘kiz ko‘ni (terisi)dan tayyorlangan tasma bilan bog‘langan. Chang‘aroqning asosi bo‘ylab «chang‘aroq solma» deb nomlangan qizil ip (bov) aylantirib tutilgan[8.b.357].

O‘tovning ustki qismi kigiz (namat)dan tayyorlangan ikkita «uzuk» hamda to‘rtta «to‘rliq»141 bilan yopilgan. Bunda ikkita uzuk bilan uyning ustki qismini chang‘aroqqacha bo‘lgan joyini yopishgan. Uzukning yuqori qismi chang‘aroqqa moslab aylana holatda kesilgan. Oldingi 6-8 ta po‘pakli qizil bov bilan orqa tomonga tortilgan. 8-10 ta bov bilan esa orqa uzukda uyning oldingi qismiga qarata uvuqlar ustidan tortiladi hamda oldini uzukning ustki qismidan bir-biri bilan kesishgan holatda uyning beldoviga bog‘langan. Uzuk oq bovi bir qarich enlikda bo‘lgan. Shuningdek, eni yarim qarich bo‘lgan, 38 tadan 64 tagacha oq tag‘obchilari bo‘lgan. Bu tag‘obchilar pastga tortib olib kelinib, ola beldovga mahkamlangan. Tag‘obchilar uyning chiroyli va oq bo‘lib ko‘rinishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Qadimiy turarjoylardan biri kamarlar bo‘lib, XIX – XX asr boshlarida ham odamlarning ma’lum qismi hashamatli uylar qurish uchun imkoniyati bo‘lmaganligi sababli tabiiy holatdagi tepaliklardan sun’iy ravishda tayyorlangan kamarlarning yonlariga sovuq, bo‘ron hamda yomg‘irdan saqlanish uchun «to‘g‘ora»151 to‘qib tutganlar va to‘g‘ora ustini loysuvoq qilib yashaganlar. Axborotchilarning ta’kidlashicha, XX asrning 50-80-yillarida ham chorvadorlar yem xashagini to‘plab, uzoq yaylovlarda yomg‘ir va qorlardan saqlanish uchun kamarlarda yashaganlar[9.b.99].

Shimoliy Surxon vohasining tog‘li hududlarida ham mavsumiy va vaqtinchalik turarjoylar qurilgan. Vohaning ko‘pchilik qishloqlari har bir xonadondan ikki-uch kishi chorva mollarini boqish uchun qo‘ni-qo‘shnilari bilan birgalikda tog‘ ustidagi yaylovga chiqib mavsumiy uylardan bo‘lgan qora uy, o‘tovlar qurib, 3-4 oy yashaganlar. Albatta, o‘tovlarda dam olishgan, issiq ovqat tayyorlashgan va shaxsiy buyumlari turgan. Bunday qishloqlar yaylov deb atalgan. Har bir qishloqning o‘z yaylovi bo‘lib, ular har yili o‘z yaylovlariga chiqqanlar. O‘zbekistonning ayrim hududlarida cho‘ponlarning o‘tov tiklagan joylari «qo‘sh joy» yoki «qo‘shxona» deb atalgan. Umuman olganda ushbu qism yakunida xulosa tarzda shuni ta’kidlash mumkinki, Shimoliy Surxon vohasi an’anaviy turar joylari

shakllanishi etnik, ijtimoiy-iqtisodiy, qisman siyosiy omillar bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Boshqacha aytganda, mintaqa aholisining an’anaviy turar joylari O‘zbekiston xalqlari moddiy madaniyatining umumiy rivojlanish xususiyatini ham ko‘rsatdi. O‘zbekistonning uzoq asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jihatdan umumiy taraqqiyoti yo‘nalishlari hamda hudud aholisining xo‘jalik turlari, turmush tartiblari va mahalliy tabiiy shart-sharoitlar ta’sirida shakllanishiga sabab bo‘lgan. Shu jihatdan voha aholisining an’anaviy turarjoylari O‘zbekistonning boshqa viloyatlari bilan ko‘plab umumiylikka ega bo‘lish barobarida, o‘ziga xos lokal an’anaviy xususiyatlarni ham kasb etgan. Chunonchi bu o‘ziga xoslikeng avvalo ushbu hududning o‘ziga xos tabiiy-geografik sharoiti va xo‘jalik-madaniy hamda etnik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Xususan, vohadagi yarim o‘troq chorvador qo‘ng‘irotlar, yuzlar, do‘rmonlar, kenagaslarning doimiy turdagi uy-joylari o‘zining tuzilishi va ichki ko‘rinishi jihatidan o‘troq - chig‘atoylar, xo‘jalar, hardurilar va tojiklarnikidan farq qilgan.

Xulosa qiladigan bo’lsak, XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmida Shimoliy Surxon vohasi aholisining turarjoylari taraqqiyotiga etnoijtimoiy jarayonlar ham ta’sir qilgan. Mazkur jarayonlar birinchi navbatda o‘lkada ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Aynan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar voha aholisi an’anaviy turar joylarining o‘ziga xos transformatsiyalashuviga sabab bo‘lgan. Transformatsion jarayonlar ko‘proq aholi badavlat qatlamining turarjoylarida o‘z aksini topgan. Shuningdek chorvador aholining uy-joylari o‘troq aholi madaniyati ta’sirida o‘zgacha ko‘rinish oldi, ya’ni, uy qurilishi, jihozlanishi va arxitekturasi o‘troq aholi madaniyatining ta’siri ostida qoldi. Yarimko‘chmanchi xalqlarning hayot tarzining o‘zgarishi, xo‘jalik an’anaviy sohasining yemirilishi, turarjoylarning juda tez vaqt ichida o‘zgarishiga olib keldi. O‘troqlashish jarayoni dastlab kambag‘al chorvadorlar orasida boshlangan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Нозилов А.Д. Мастера школ горного зодчества Средней Азии. –Ташкент, 2001. –С. 144.
2.Воронина В.Л. Узбекское народное жилище // СЭ. –М., 1949. –№2. –С. 68.
3.Геродот. История в девяти книгах. –Л., 1972. –С. 21.
4.Агаджанов С.Г. Огузские племена Средней Азии IX-XIII вв. // Страны и народы Востока. Вып. X. –
М., 1971. –С. 184-185.
5.Прошлое Казахстана в источниках и материалах. –Алма-Ата, 1935. –С. 29.
6.Вайнштейн С.И. Проблемы истории жилища степных кочевников Евразии // СЭ. –М., 1976. –№4. –С.50.
7.Шаниязов К. Узбеки-карлуки. –Ташкент, 1964. –С. 95-100; Шаниязов К.Ш., Исмаилов Х.И.

8.Задыхина К.Д. Узбеки дельты Амударьи // Труды ХАЭЭ. –М., 1952. Т. I. –С. 357.
9.Муканов М.С. Халык мурасы. –Алма-Ата, 1974. –С. 99.

DASHTI QIPCHOQDAN KELGAN ELATLAR ETNIK TARIXI (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)

To‘rayev Sh.G.
Termiz davlat universiteti
Tayanch-doktorant
E-mail manzili: sherzodtorayev193@gmail.com

Kalit so’zlar: *Shayboniyxon, etnonim, Bobotog‘, Surxon vohasi, qo‘ng‘irotlar, qang‘lilar, B.X. Karmisheva, urug‘, qatag‘onlar.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XVI asr boshlarida Janubiy O‘zbekiston hududiga Shayboniyxon bilan birga kirib kelgan elatlarning kelib chiqish tarixi, Surxon vohasi bo‘ylab joylashuvi, urug‘ tarkibi kabi masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada ushbu hudud aholisi etnik tarkibi va soni, ularning joylashuv hududlari, Dashti Qipchoq urug‘-qabilalarinning kirib kelish sabablari va oqibatlari ko‘rsatib berilgan.*

ETHNIC HISTORY OF THE PEOPLE FROM DASHTI KIPCHOK (SOUTHERN UZBEKISTAN AS AN EXAMPLE)

Turaev Sh.G.
Termiz State University
PhD student
E-mail address: sherzodtorayev193@gmail.com

Key words: *Shaibanikhan, ethnonym, Bobotog, Surkhan oasis, kungirats, Kanglis, B.Kh. Karmisheva, clan, katagans.*

Abstract: *In this article, the history of the origin of the peoples who entered the territory of South Uzbekistan with Shaybani Khan at the beginning of the 16th century, their location along the Surkhan oasis, and the composition of the clan are analyzed. Also, the article shows the ethnic composition and number of the population of this region, their locations, the reasons and consequences of the arrival of Dashti Kipchak clans and tribes.*

Kirish

Turli davrlarda Janubiy O‘zbekiston hududiga ko‘plab etnik guruhlar kirib kelib mahalliy aholi bilan etnik madaniy munosabatlarda bo‘lganlar. Ularning ko‘pchiligi vaqt o‘tishi bilan o‘troq aholiga aralashib etnik

nomlarini unutib yuborganlar. Lekin ayrim etnik guruhlarning nomlari ular yashagan joy nomlariga o‘tib qolgan. Turli etnik guruhlarni ma’lum bir hududda uzoq yashab, bu joylardan ko‘chib boshqa mintaqalarga borib joylashib qolish hollari ham bo‘lgan.

Shunga qaramay ularning etnik nomi avvalgi yashagan joylarida uzoq vaqt mobaynida saqlanib qolavergan. K.Shoniyozovning yozishicha, Dashti qipchoqdan Movarounnahrga ko‘chib kelgan etnoslarning hammasi ham ko‘p sonli bo‘lavermagan[9; 41]. Ularning ayrimlarigina, masalan, qipchoq, saroy, qo‘ng‘irot, yuz, ming, nayman, mang‘itlar boshqalarga nisbatan yirik etnik guruh hisoblangan. Mazkur etnoslar ichida eng ko‘p sonlisi qipchoqlar edi. XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida qipchoqlar 270 ming atrofida bo‘lgan[10; 110]. Ta’kidlash joizki Dashti Qipchoq ko‘chmanchi qabilalarining hammasi ham Movarounnahrga ko‘chib kelmagan. Aynan shu davrdan e’tiboran Surxon vohasiga ham ko‘plab turkiy guruhlarining kirib kelishi kuzatiladi. Surxon vohasining o‘ziga xos tabiiy iqlimi etnik jarayonlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Uning mo‘tadilligi, bahor faslining erta kelishi, yoz faslining uzoq davom etishi va qish faslining iliqroq kelishi etnik guruhlarning voha bo‘ylab keng joylashuvi imkoniyatini yuzaga keltirgan[1; 275].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharqiy Buxoro tarkibida bo‘lgan Surxon vohasi aholisi uch qatlamni tashkil qilgan. Bular qabila bo‘linishiga ega bo‘lmagan o‘troq aholi — chig‘atoylar, xo‘jaliklar va qarshiliklar hisoblanadi. Qabila bo‘linishini saqlab qolgan qabilalar sirasiga Mo‘g‘ullardan oldingi hamda mo‘g‘ullar hukmronligi davridagi turkiy-mo‘g‘ul qabilalarining Movarounnahr o‘troq aholisi orasida singib ketmagan, yarim ko‘chmanchi turmush tarziga ega bo‘lgan turklar, qarluqlar, xalachilar, mo‘g‘ullar, merishkarlar va boshqalar kiradi. Keyingi qabilalar- XV asr oxirida XVI asr boshlarida Shayboniyxon bilan birga Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga ko‘chib kelib o‘rnashgan o‘zbek qabilalarining avlodlari qo‘ng‘irot, yuz, laqaylar, semiziylar, kesamirlar, qatag‘onlar, durmenlar va boshqalar hisoblanadi.

O‘zbek xalqi tarkibidagi qipchoq komponentli subetnik guruhlari XVI asr boshlaridan Dashti qipchoqdan Movarounnahr hududlariga joylasha boshlagan etnik birliklardir. Ular yarim o‘troq turmush tarzini uzoq vaqt saqlab qolgan bo‘lib, chorvachilik hamda dehqonchilik xo‘jaligini birga olib borgan subetnoslardir. Ma’lumki, mazkur qatlamning o‘ziga xosligi irqiy tuzilishida mongoloid belgilarning ancha sezilarli ekanligi, tilida “jo‘qchilar” shevasi kuchli va o‘z nomini “o‘zbek” deb nomlashidadir. Bu qatlam turli katta-kichik etnik guruhlardan iborat: qo‘ng‘irot, mang‘it, qipchoq, nayman, kenagas, saroy, xitoy, ming, yuz, qirq, qatag‘on va hokazolar. Bu etnik guruhlarda ko‘pincha o‘zbek-qo‘ng‘irot, o‘zbek-

qipchoq, o‘zbek-qatag‘on kabi qo‘sh etnonimli tizim qo‘llanilgan. Demak, boshqa subetnoslarga qaraganda ular o‘zlarini o‘zbek titul nomi bilan qo‘shib ataydilar va aynan shu nom ularni ham siyosiy, ham ijtimoiy tomondan birlashtiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi[6; 219].

Sharqiy Buxoro hududida XIX asr oxiri-XX asr boshlarida kelib chiqishi Dashti qipchoqlik bo‘lgan qabilalar qo‘ng‘irotlar, yuzlar, laqaylar, semiziylar, kesamirlar, qatag‘onlar, durmenlar va boshqalar bor edi. Qo‘ng‘irotlar Sharqiy Buxoroning eng ko‘p sonli o‘zbek qabilasi va butun o‘zbeklar orasida mang‘itlardan keyin ikkinchi o‘rinni tashkil qilgan. XX asr boshlarida ularning asosiy yashash joylari G‘uzordan Termizgacha va Bobotog‘ tizmasining g‘arbiy yon bag‘irlarini o‘z ichiga olgan ulkan hudud hisoblanar edi. Qo‘ng‘irotlar- o‘zbek xalqining qadimiy tarixiga va o‘ziga xos madaniy turmush tarziga ega bo‘lgan muhim tarkibiy qismi, bo‘lagi bo‘lib, o‘tmish tariximizning turli davrlarida xalqimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat namunalariga baxoli qudrat o‘z hissasini qo‘shib kelgan urug‘lardan biridir. Qator adabiyotlarda Qo‘ng‘irotlar qo‘ng‘ir ot mingani uchun qo‘ng‘irot deb atalgan, deyilgan[7; 270]. Qo‘ng‘irotlarining qabilaviy tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni dastlab N.V.Xanikov, so‘ngra N.F.Sitnyakovskiy, inqilobdan keyingi yillarda esa Vasilev materiallari asosida I.P.Magidovich nashr etgan. Qo‘ng‘irotlarining shajaraviy sxemasi T. Nafasovning dissertatsiyasida ham bor. Xorazm qo‘ng‘irotlarining urug‘ tarkibi va ularni ko‘chishi K.L.Zadixina tomonidan o‘rganilgan. T. Nafasovning dissertatsiyasidan ba’zi ma’limotlarni olgan Karmisheva qo‘ng‘irotlarni quyidagi guruhlarga bo‘ladi: *tilyaumat, bandikuchuk, maulish, chullik va karagursak.*

Qo‘ng‘irotlarning fikricha, Ko‘hitang tizmasining ikki tomonidagi dashtlar ularning ajdodlarining asl joylashuvi bo‘lgan. So‘ngra ular asta-sekin g‘arb va sharqqa tarqalib, Sherobod vohasi va Boysun tog‘lari ostidagi adirli dashtlarni egallagan. Atrofdagi tog‘lar ular uchun yozgi lager bo‘lib xizmat qilgan. N. A. Maevning yozishicha, 1868-yilgacha Sherobodning janubidagi Amudaryoning butun sohilida qo‘ng‘irotlar yashagan. 1868 yilda otasidan ajralgan Abdulmalik to‘ra qo‘ng‘irotlarning turar-joylarini yoqib yuborib, vayron qildi va ular tog‘larga qochishga majbur bo‘ldilar. Asosan hozirgi Dehqonobod janubidagi G‘uzor tog‘larida yashagan qo‘ng‘irotlarning qonjig‘ali urug‘i yaylov va ekin maydonlarini izlab ancha sharqqa ko‘chib o‘tgan. Qo‘ng‘irotlarning bir guruhi asta-sekin bu hududning shimoli markazi Xo‘jamulkida, qo‘ldovlilar esa janubda markazi Bobotog‘dagi Qoragaza hududiga joylashganlar.

Surxonning chap qirg‘og‘idagi baland, suvsiz, chuqur jarlar bilan kesilgan Bobotog‘ning yon bag‘irlarida qo‘ng‘irotlar o‘rnashib olganlarida, asosan yuzlar ularga bu yerdagi sug‘oriladigan yerlarni bermagan. Shuning

uchun ular Bobotog‘ yerlarida ekinlarni ekishni boshlaydilar. Keltirilgan materiallar o‘zbeklarning Dashtqi Qipchoqdan kelgan etnik guruhlarning asl o‘zagini qo‘ng‘irotlar tashkil etgan degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Karmishovaning asarida keltirilgan qo‘ng‘irotlarning genealogik jadvalida bu qabilaning beshta: *vaxtamg‘ali, qo‘shtamg‘ali, qonjig‘ali, oyinli* va *tortuvli* kabi urug‘lardan iborat ekanligi ko‘rsatiladi. Qo‘ng‘irotlar orasida eng katta guruh vaxtamg‘ali bo‘lib, u 20 ta katta urug‘ga bo‘linadi. Bular: *ochamayli, baymoqli, taroqli, chiniqli, qazayoqli, cho‘michli, qaychili, ishqili, qiyg‘ochli, jilontamg‘ali, bolg‘ali, qoraqo‘ng‘irot, bo‘gajeli, o‘yuvli, xandaqli, irg‘oqli, aboqli, kesovli, gilambobli* va *ushkili* urug‘laridan iborat[5; 111].

Yuzlar Surxon vohasining o‘rta va yuqori qismlarida qo‘ng‘irotlarning bevosita qo‘shnilari sifatida yashaganlar. Ularning yashash joyi hududi Hisor vodiysining sharqiy chekkasigacha cho‘zilgan. B.X. Karmisheva yuz urug‘larini tadqiq etar ekan o‘z navbatida ularning ichki tarmoqlanishi borasida ham fikr bildirib yuzlar *marqa, kitay yuz, qorapchi* urug‘lariga bo‘linishini ko‘rsatib o‘tgan. Shu tadqiqqa asosan ularning joylashuv o‘rinlari haqida to‘xtalib o‘tamiz. *Marqa* va *ktay yuzlar* asosan Tojikiston hududida keng tarqalgan bo‘lsa, *qorapchilar* Surxondaryoning yuqori oqimlarida keng tarqalgan. Manbalarda 2715 kishi yashaganligi qayd etilgan. Biroq, Karmisheva tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, Surxon vohasida yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari yana bir yirik yuzlar bo‘linmasi-*turkman-juz* urug‘i mavjud. B.X. Karmisheva, I.P.Magidovich tomonidan noma’lum deb tasniflangan Mirshod volostidagi 23 580 kishidan mutlaq ko‘pchiligi turkman yuzlari deb o‘z taxminini bildirib o‘tgan [8; 44-51].

Durmenlar yirik va zich joylashgan o‘zbek qabilalaridan biri edi. Ular Kofirnihonning o‘rta va quyi oqimi vodiysini va Bobotog‘ tog‘larining shimoliy qismini egallagan. Bu hududlarda 7979 ta durmenlar mavjud bo‘lgan. Sherobod bekligida Sheroboddaryoning o‘ng irmog‘i havzasida Xojigi qishlog‘ida yashagan. Bu qishloqning qolgan aholisini mang‘it va qo‘ng‘irotlaring ko‘ktiriak urug‘i tashkil etgan. Yashash joyiga ko‘ra durmenlar ikki katta guruhga – Hisor va Qo‘bodiyonga bo‘lingan. Ularning qabila tuzilishi keksalar xotirasida aniq saqlanib qolmagan. *Alagunan va qo‘sh* nomlari bilan qayd etilgan. Laqaylar Sharqiy Buxoroda umimiy soni 25400 kishini tashkil etadi. Laqaylarning *esonxo‘ja, badragli, bayram va tortoul* urug‘lari mavjud[3; 97].

Laqaylarning kelib chiqishi va Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘iga joylashuv vaqti to‘g‘risidagi masala tarixiy-etnografik tadqiqotlarda ham mashhur. 1950-yillarning boshlariga kelib, Laqaylarning kelib chiqishi va ularning joylashish vaqti haqida ikkita faraz paydo bo‘ldi. Birinchi gipotezaga amal qilgan tadqiqotchilar Laqaylarni XVI asr boshlarida

Amudaryoning o‘ng irmoqlari havzasiga, hozirgi Tojikistonning janubiy viloyatlariga Shayboniyxon bilan birga kelgan Dashti qipchoq o‘zbeklarining urug‘laridan biri deb hisoblaganlar[2; 11-12]. Shu bilan birga, ba’zi mualliflar Lokaylarning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlariga asoslanib, ularning Chingizxon sarkardalaridan birining Laqaydan kelib chiqqanligi haqidagi farazni ilgari surishgan. Ikkinchi farazni ilgari surgan tadqiqotchilar Laqaylarning Dashti qipchoq o‘zbeklariga mansubligini rad etib, ularning kelib chiqishini qarluqlar bilan bog‘lab, Amudaryoning o‘ng irmoqlari havzasida paydo bo‘lishini arablar tomonidan O‘rta Osiyoni bosib olishdan oldingi davrga bog‘laganlar. Laqaylar orasida eng ko‘p o‘xshash etnonimlar qozoqlar, xususan, O‘rta Juz tarkibiga kirgan arg‘in, nayman, kerey, qipchoq qabilalari bilan bo‘lgan. Katta va Kichik yuzlar tarkibiga kirgan qozoq urug‘larining nomlarini sinchiklab tahlil qilganda, ularning ba’zilari Laqay urug‘lari bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelib, O‘rta yuzni tashkil etgan shu to‘rt qabiladan ham chiqqanligi ma’lum bo‘ldi. Binobarin, laqay etnonimlari bilan O‘rta juz qabilalarining, xususan, arg‘inlarning etnonimlari o‘rtasida haqiqatda ko‘proq mos kelishi mumkin[4; 121].

Qatag‘onlarning kelib chiqishi borasidagi fikrlar turlichadir. Ch.Valixonov Katta juz qozoqlarining afsonaviy ajdodi haqidagi qozoq xalq rivoyatiga tayanib, uning o‘g‘illarining biridan qatag‘onlar, ikkinchisidan uysunlar, uchinchisidan qang‘lilar chiqqanligini aytgan. U, shuningdek, qatag‘onlar keyinchalik Dashti Qipchoq ko‘chmanchi o‘zbeklari tarkibiga kirib, ularning “asosiy urug‘ini” tashkil etganligini qayd etgan. Ch.Valixonov qatag‘onlarning Janubiy Qozog‘iston va O‘rta Osiyo hududida yashagan qadimiy qabila bo‘lganligini ta’kidlagan. Ular Toshkent hukmdori Tursunxonning asosiy kuchini tashkil qilgan va XVII asr o‘rtalaridan boshlab ularning bir qismi o‘zbek xalqi tarkibiga kirdi, bir qismi qozoqlarning Chanishqli qabilasiga qo‘shilib ketdi. Tadqiqotchilar odatda o‘zbeklar orasida qatag‘onlarning paydo bo‘lishini 1628-yilda qozoq xoni Ishimning Toshkent xo‘jayini Tursunxonni o‘ldirib, Toshkent hududida sodir bo‘lgan fojiali voqea bilan bog‘laydi. Olimlarning fikricha, bu janglarda qatag‘onlarning bir qismi qirib tashlangan, Chanishqli deb atalgan qismi Qang‘li tarkibiga kirgan, bir qismi esa Sirdaryodan narigi janubi-g‘arbiy tomonga qochib o‘zbeklar tarkibiga kirgan. V.P.Yudin ushbu voqeaga ishora qilib, Qatag‘onlarni qozoqlar deb ataydi, ammo tadqiqotchilar ishiga tayangan Abulg‘ozi ularning etnik kelib chiqishini ko‘rsatmaydi. U shunday yozadi: “Ishimxon Tursunxonni o‘ldirdi, qatag‘onlarni qirib tashladi” I.P.Magidovich 1924-yilda rayonlashtirish komissiyasi materiallarini tahlil qilar ekan, qatag‘on o‘zbeklari bilan shu nomdagi qirg‘iz guruhi o‘rtasida genetik bog‘liqlik bo‘lishi mumkinligini aytdi. I.P.Magidovich qirg‘izlar orasida qatag‘on guruhi sayoq qabilasining

bir bo‘lagi ekanligini ta’kidlab, shunday deb yozgan edi: “Afg‘onistonning shimoli-sharqiy qismida yashovchi qatag‘on urug‘iga mansub qirg‘izlar ham sayoqlar qatoriga kiradi. Ba’zi tadqiqotchilar qatag‘onlarni qirg‘izlar tarkibidan kelib chiqqan deb hisoblashgan”[5; 103].

Xulosa shuki, Surxon vohasidagi etnik guruhlarning yuzaga kelish tarixi etnik shakllanishi uzoq davom etgan murakkab jarayondir. Tarixiy taraqqiyot davomida vohada etnik birliklar tarkib topdi va ular o‘ziga xos turmush tarzi, xo‘jalik mashg‘uloti va urf-odatlarni yuzaga keltirdi. Yuqorida tadqiq etilgan etnik guruhlarning xo‘jalik faoliyatlari bir-biridan deyarli farq qilmagan va ular o‘ziga xos urf-odat, etnomadaniyat, marosimlarni yuzaga keltirishdi. Bir so‘z bilan aytganda bu etnik guruhlar Surxon vohasi etnografiyasini yuzaga keltirishdi. Ularni xolisona tahlil qilib, tadqiq etish muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногнези ва этник тарихи // Тошкент., Университет. 2007. Б. 275.

2. Кармышева Б.Х. К вопросу происхождении локайцев // **Советская этнография М. 1952. С. 11-16.**

3. Кармышева Б.Х. Узбеки-локайцы Южного Таджикистана // ТИИАЭ АН Тадж.ССР. Сталинабад. 1954. Т.XXVIII. Вып.1. С. 97 – 100.

4. Кармышева Б.Х. Локайские мапрамачи и илгичи Сообщения республиканского историко краеведческого музея.//История и этнография. 1955. Вып.2. С. 121 – 145.

5. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. // М., 1976. С. 301.

6. Кармышева Б.Х. Узбеки // Расы и народы. Ежегодник «Современные этнические и расовые проблемы». М., 1984. Вып. 14. С. 219 28

7. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun // T. Akademnashr. 2011 B. 270.

8. To‘rayev Sh., Rahmonov M. B.X. Karmisheva tadqiqotlarida Surxon vohasi yuz urug‘larining etnik tavsifi. https://cyberleninka.ru/article/n/b-x-karmisheva-tadqiqotlarida-surxon-vohasi-yuz-urug-larining-etnik-tavsifi 2022. B 44-51.

9. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни // Тошкент., Шарқ 2001. Б 41.

10. Шониёзов К. К этнической истории узбекского народа // Тошкент., Фан. 1974. Б 110.

MARKAZIY OSIYOGA KOREYSLAR MIGRATSIYASI

Jo’rayev B.A.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Kalit so’zlar: *Koreyslar, diaspora, sovet qishloq xo’jaligi, koreyslarning kolxozlari*

Annostatsiya: *Koreys millatining diasporasining paydo bo’lishi haqidagi ma’lumotlar yoritib borilgan.*

MIGRATION OF KOREANS TO CENTRAL ASIA

Jurayev B.A.
Graduate student of Tashkent State University of Oriental Studies

Key words: *Koreans, diaspora, Soviet agriculture, collective farms of Koreans.*

Abstract: *Information about the emergence of the diaspora of the Korean nation has been covered*

KIRISH

Ma'lumki, koreyslar dunyoning turli mintaqalarida yashab kelmoqdalar, bir tomondan hozirgi integratsiya asrida bu odatiy holdek tuyular, ammo ularning diaspora bo'lib shakllanishining o'ziga xos tarixi mavjuddir. Ushbu maqolamda koreys xalqining Markaziyo Osiyo hududlariga migratsiya tarixini yorib bermoqchiman. Xususan koreyslarning Markaziy Osiyoga ko'chishini ko'plab axbotor vositalari va ko'rsatuvlarda 1937-yilga borib taqaladi deyiladi. Ushbu ma'lumot mutloqo xatodir.

XIX asrning 60-70-yillarida Rossiya imperiya Markaziyo Osiyo hududlarini zabt etdi va bu bosib olingan hududlarda harbiy boshqaruvni joriy etib, Turkiston general-gubernatorligini tuzdi. Mahalliy aholining etnik tarkibidan xabardor bo'lgan imperiya ma'murlari bu hududlarga Rossiya imperiyasining ichki hududlaridan aholini ko'chirib kelish siyosatini boshlab yuborishdi.

1897-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, ya'ni imperiyaning aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra Farg'ona hududida koreys millatiga mansub aholi borligi bayon qilinadi. Chunki, imperiya doimo yangi hududlarga ko'chirish siyosatini dolzarb vazifa sifatida baholab kelgan.[72]

XX asr boshlarida ayniqsa Rossiya imperiyasining halokatidan so'ng, koreyslar, umuman olganda hokimiyatga kelgan bolsheviklar qarshilik harakatlarini sindirish va bunday qarshilik harakatlarini takroran bo'lmasligi uchun ham, uning ustiga ocharchilik yillaridan tezroq o'tish niyatida Markaziy Osiyo hududlariga mehnatkash bo'lgan koreys xalqi ko'chirishda davom etdi. 1921-yilda Turkiston Xalq Komissarligining tarkibida milliy ozchilik bo'limida koreys bo'limi tashkil etildi. Bu bo'limning asosiy vazifasi koreys millatiga mansub sovet fuqarolalarning manfaatlarini himoya qilish edi. O'sha davrda ushbu bo'lim orqali 120 ga yaqin sug'oriladigan yerda qishloq xo'jaligi tuziladi. 1924-yil 26-avgust kunida

[72] Всесоюзная перепис населения 1926 года. М.Издание ЦСУ Союза ССР

Turkiston respublikasi NKVDda Turkiston respublikasi koreyslar ittifoqi ro'yxatga olinib, uning tarkibiga 28 kishi kiritiladi. Bu raqamlar o'sishda davom etib, 1926-yilda ularning tarkibi 33 kishiga yetgan edi. Koreyslarning diasporasi o'sishda davom etdi. Jumladan, 1933-yilda Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani hududlarida 22 ta, 1934-yilda 30 ta koreys xo'jaligi tashkil etilgan va ushbu xo'jaliklar asosan sholikorlik bilan shug'ullangan. [73] Bu davrda Qozog'iston hududlarida guruch eposi boshlandi, uning doirasida keng ko'lamli vazifalar qo'yiladi.Guruch yetishtirish uchun optimal variant sifatida koreys navlari tanladi. Ayni shu tanlov tufayli 117 ta oila shu hududga olib kelinadi. [74]

O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi xalq komissarligi ham respublika hududida sholi yetishtirishni faol tashkil etishni so'rab markazga murojaat qiladi. Shu taklifga binoan 1929-yilning kuzida Vladivastokda ko'chishga rozi bo'lib ariza bergan 80 va 100 kishilik guruh O'zbekiston SSRga yuboriladi. Sholichilarning 3-4 ta artellari paydo bo'ladi.[75]

1939-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston SSR hududida 72 mingdan oshiq koreyslar istiqomat qilayotganligi keltirilgan. Ularning yashash sharoitlari esa ixcham va maxsus fermalarda bo'lgan, oddiy xalq orasida ular "Koreys kolxozlari" nomi olgan bo'lgan.[76]

1937-yilning 21-avgust kuni SSSR Xalq Komissarlari Soveti va Bolsheviklar Kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasining "Koreys aholisini Uzoq Sharq o'lkasining chegaradosh rayonlaridan ko'chirish to'g'risida" gi qo'shma qarori qabul qilindi. Aslida Yaponiya imperiyasining tajovuzkorona siyosati tufayli, hamda Yaponiya imperiyasi Koreya yarimorolini mustamlaka qilib, boshqa koreyslar yashaydigan mintaqalarga ko'z olaytirmasligi uchun ham shunday qarorga kelingan. Ushbu qarordan so'ng 172 ming koreys millatiga mansub sovet fuqarolari Markaziyo Osiyo hududlariga ko'chirib keltirilgan.[77]

Qozog'iston SSR hududida har gektardan 25-40 sentnerdan hosil olish reja qilingan bo'lsa, koreys millatiga mansub mehnatkash sovet fuqarolari bu raqamni 120 sentrnergacha ko'tara olgan. Bu o'sha davrdagi SSSR qishloq xo'jaligi uchun rekord darajada edi. 1942-yilda Qozog'iston SSR ning "Avangard" kolxozi Kim Man Sam gektaridan 150 sentnergacha sholi olgan. O'zbekiston SSR ning O'rta Chirchiq tumanidagi "Polyarnaya zvezda" kolxozi 1941-yildan paxta yetishtirishga kirishadi. [78]

[73] Совуров М.Д. Современные этнические процессы у национальних групп Узбекистана.. Ташкент: ИИ АН УзССР, 1986
[74] Квон Жооуинг. Структура и деятельность корейских колхозов в Центральной Азии(1924-1950 гг) 2020
[75] Квон Жооуинг. Структура и деятельность корейских колхозов в Центральной Азии(1924-1950 гг) 2020
[76] Квон Жооуинг. Структура и деятельность корейских колхозов в Центральной Азии(1924-1950 гг) 2020
[77] Белая книга . О депортации корейского населения России в 30-40 –х годах.
[78] Квон Жооуинг. Структура и деятельность корейских колхозов в Центральной Азии(1924-1950 гг) 2020

SSSR ustiga Gitler Germaniyasining bostirib kirishidan so’ng SSSR uchun boshlangan Ikkinchi jahon urushi yillarida ham koreys xalqi o’zining mehnatkashligi bilan urushga hissasini qo’shdi. Natijada 135 kishi – Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi.[79]

1959-yilda O’zbekiston SSRda taxminan 138 mingdan oshiq koreys millatiga mansub sovet fuqarolari istiqomat qilishi keltirib o’tilgan. Bu raqamlar yildan-yilga ko’payavergan.[80]

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Всесоюзная перепис населения 1926 года. М.Издание ЦСУ Союза ССР
2. Совуров М.Д. Современные этнические процессы у национальних групп Узбекистана.. Ташкент: ИИ АН УзССР, 1986
3. Квон Жооуинг. Структура и деятельность корейских колхозов в Центральной Азии(1924-1950 гг) 2020
4. Белая книга . О депортации корейского населения России в 30-40 –х годах.
5. Шин Д.В. Советские корейцы – Герои Социалистического Труда. – Ташкент. Замир нашр 2019
6. Опибликованы данные об этническом составе населения Узбекистана

TOSHKENT VILOYATI O’ZBEKLARIDA JUFT TANLASH AN’ANASI VA UNING O‘ZIGA XOS “MEZON”LARI

Davronbek Qo‘shmonov
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Magistratura, 2-bosqich talabasi
E-mail manzili: davronbekqoshmonov@gmail.com

Kalit so’zlar: *Jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, psixologik yetuklik, din, sog’liq, kasb, yashash joyi, sevgi, sovchilik.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hozirgacha qilingan dala va etnografik tadqiqotlarga tayangan holda o’zbeklarning juft tanlash an’anasi, urf-odatlari va ularning o‘ziga xos “mezon”lari yoritilgan. Shuningdek, qanday umr yo’ldosh tanlash borasida dinning tavsiyasi va turli soha vakillarining fikr – mulohazalari bayon etilgan.*

THE TRADITION OF CHOOSING A LIFEMATE AMONG THE UZBEKS OF TASHKENT REGION AND ITS SPECIFIC “CRITERIA”

Davronbek Kushmonov
Tashkent State University of Oriental Studies

Master's degree, 2nd year student
E-mail: davronbekqoshmonov@gmail.com

Key words: *Physical (physiological), sexual, legal, economic, spiritual-moral, psychological maturity, religion, health, profession, place of residence, love, sovchilik.*

Abstract: *This article, based on field and ethnographic research conducted so far, explores the Uzbek tradition of choosing a lifemate, its customs, and its unique "criteria." It also presents religious advice and the opinions of representatives of various fields on how to choose a life partner.*

Kirish

Har bir o‘zbek oilasida asta-sekinlik bilan uzoq vaqt to‘y taraddudiga kirishish qizning bo‘yiga yoki yigitning er bo‘lib yetishi bilan tugaydi. Chunki endi bo‘lajak kelin va kuyov uchun katta sarf-xarajatni tashkil qiladigan kiyim-kechak, ko‘rpa-to‘shak, uy-joy, ro‘zg‘or ashyolari, to‘y xarajatlari, mahr xarji tayyorlashga kirishiladi. Bir vaqtning o‘zida qiz tanlash (“qiz ko‘rdi”, qiz ko‘rish) hamda sovchi kutish rasm-rusumlari bajariladi.

Ammo bu rasm-rusumlarni bajarishdan oldin qiz va yigit nikoh uchun yetuk bo‘lishlari lozim. Nikohga yetuklik deyilganda oila quruvchi yoshlarning: *jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, psixologik*[81] kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Bular orasida huquqiy, jinsiy yetuklik ko‘rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlarga, belgilarga ega va ular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik jihatlar mavjud. Iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, psixologik jihatlar esa bir oz murakkabroq, qat’iy bir ko‘rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Oila qurilayotganida bu xususiyatlar hal qiluvchi bo‘lib hisoblanadi. Masalan, jinsiy yetuklik (balog‘atga yetish) hozirgi zamon qizlarida 12–14 yoshgacha, o‘g‘il bolalarda 14–16 yoshga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar +/- 2 yoshga farq qilishi mumkin. Ayrim tibbiyot olimlari bolalarni to‘la jinsiy yetilishlari uchun yana 2–3 yil kerak bo‘ladi, deb hisoblaydilar[82]. Jinsiy yetuklik odam anatomiyasi va fiziologiyasi nuqtai nazaridan yetarlicha aniq va ravshan bo‘lgan hodisadir. Biroq uning psixologik, axloqiy jihatlari o‘ta murakkab. Shuning uchun ham nikohga jinsiy yetuklik deyilganda odamning fiziologik jihatdangina yetilishini nazarda tutish jinsiy yetuklikning to‘liq mohiyatini bildirmaydi. Bundan tashqari odam jinsiy hayot psixogigiyenasi borasida ham zarur bilimlarga, to‘g‘ri tasavvurlarga ham ega bo‘lmog‘i zarur. Bu esa alohida e’tibor, maxsus tayyorgarlik, o‘qitishni talab qiladigan jarayondir. Har bir yetuklik jihatlariga to‘xtalib o‘tishni joiz deb topmadik. Ammo shuni aytib o‘tish

[81] Qarang: Гребенников И.В. Основы семейной жизни… – С. 60-65; Oila psixologiyasi… – B. 91-97.
[82] Qarang: Oila psixologiyasi… – B. 91.

joizki, “yetuklik” tushunchasi, albatta ma’lum bir hayotiy tajriba bilan, ya’ni “hayotiy bilimlar” bilan uzviy bog‘liq. Bu borada o‘ziga xos individual xususiyatlar mavjud. Kimdir 20 yoshidayoq “hayotni yaxshi bilib oladi”, kimdir 30 yoshida ham bolaligicha qolaveradi[83].

Shariat bo‘yicha nikoh yoshi o‘g‘il bolalar uchun 12 yosh, qizlar uchun 9 yosh belgilangan. Islomga ko‘ra, shunda ular jinsiy jihatdan voyaga yetgan bo‘lishlari lozim. Bu yillar nikoh bobida voyaga yetganlikni belgilashda so‘nggi pog‘ona hisoblangan[84]. Amalda esa o‘g‘il bolalar − 14−15, qizlar – 12−14 yoshga to‘lganda nikoh tuzganlar. Lekin qizlarning 9−11 yoshda turmushga berilgani ham ma’lum[85]. V. Jokelson boy yigitlarning ota- onasi ularni 15–16 yoshidan uylantirgan, qizlar esa 11 va 15 yosh oralig‘ida turmushga chiqqan, deb yozadi[86]. Katolik cherkovi qizlarga 12 va o‘g‘il bolalarni 14 yoshdan nikohga kirishuviga rozilik bersa, protestantlar cherkovi esa har ikkala jinsda 14 yoshda oila qurishni ravo hisoblaydi. Diniy e’tiqodlarga ko‘ra, jahon miqyosida turli mamlakatlarda turmush qurish yoshi 9–14 dan 21–22 gacha namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, BMT o‘ziga a’zo bo‘lgan mamlakatlar uchun 1962-yilda buni 15 yoshdan deb belgilagan[87]. Lekin bu barcha aynan shu yoshdan nikoh qurishi kerak degani emas. Bu shu yoshdan oldin turmushga chiqish mumkin emasligini ko‘rsatadi.

Shariat nikoh yoshi chegarasini belgilamagan bo‘lsa ham, o‘tmishda oilada 20 yoshli “bo‘ydoq” bo‘lish isnod hisoblangan. Nikoh yoshini belgilashda asosan fiziologik asoslarga tayanilgan. Ayollarning tug‘ish qobiliyati shakllanganligi inobatga olingan. Aqliy jihatdan ular yetarli rivojlanmaganligi, yoshligining ahamiyati esa bo‘lmagan.

Psixologlar tavsiyasiga binoan va umuman, tibbiyotda[88] nihoyatda erta (16– 17 yoshda) va kech (qizlar uchun 28–30 dan keyin) oila qurish maqsadga muvofiq emas. Nihoyatda erta oila qurish va ikkinchisining ham yoshi 17–18 bo‘lishi yigitni oila boshlig‘i sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Qiz bola 17, ba’zan 16 yoshda ham onalik, uy bekalik vazifalarini bajarishga tayyor bo‘lishi mumkin. Ammo 18 yoshdagi yigit hali to‘laqonli oila boshlig‘i bo‘lishga tayyor bo‘lmaydi. U qiz tomondan yosh bola sifatida tasavvur qilinadi. Natijada bu tasavvur ular orasidagi oilaviy munosabatlarida ham ifodalanib, kelin-kuyovni yetarli darajada hurmat qilmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Shunga ko‘ra, erta nikohdan

[83] Oila psixologiyasi… – B. 91-97.
[84] Otaxo‘jayev F.M. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi... – B. 37.
[85] Народы Средней Азии и Казахстана… – С. 325; Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи... – С. 31.
[86] Jochelson W. Peoples of Asiatic Russia... – P. 99.
[87] Safarov O., Mahmudov M. Oila ma’naviyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – B. 77
[88] Qarang: Гребенников И.В. Основы семейной жизни…; Станков А.Г. Что надо знать до брака и в браке…; Shoumarov G‘.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila... – B. 81; Oila psixologiyasi… va b.

o‘tish sobiq Sovet davrida ham, hozirda ham[89] qarshilikka uchramoqda. Lekin kech oila qurish ham maqsadga muvofiq emas. Tibbiyotda ta’kidlanishicha, yosh ulg‘aygan sari (aynan, qizlarda) oil qurish imkoniyatlari pasayadi, ammo turmush o‘rtog‘i tanlashdagi mezonlar soni keskin ortadi. Har bir “nomzod”dan turli kamchiliklar topilaveriladi. Bu esa oila qurishni murakkablashtiradi. Shu sababli oila qurishdagi ma’qul yosh davrni o‘tkazib yubormaslik kerak[90]. Shunga qaramay, o‘tmishda kambag‘al yigitlar iqtisodiy ahvollari, to‘y xarajatlarining haddan tashqari og‘irligi sababli, ko‘pincha 30–40 yoshlarda uylanar edilar yoki uylana olmay bir umrga bo‘ydoq o‘tardilar[91]. Sovet davrida “bu yo‘qolib ketdi”, deyilgan bo‘lsa ham, aslida hayotda hozirgacha ham uchrab turadi[92].

N.P. Lobachyova qayd qiladiki, 1985-yilda A. Djikiyev tadqiqotiga binoan, 88 % o‘zbeklar qiz va yigitni ota-ona tanlashi kerak desalar, yoshlarning 12 % o‘zi tanlashlari kerak, deydi[93]. Sovet davridan boshlab onalar nafaqat maslahat, balki to‘yni o‘zlari xohlaganday o‘tkazishlari, shuningdek, qiz tanlashni o‘z qo‘llariga olishlari kuzatiladi. Hozirda ham Toshkent viloyatida ota-onasi istagi bilan uylanadigan yigitlar va uzatiladigan qizlar bilan birga, o‘zaro muhabbat yoki o‘zi tanlash huquqiga ega bo‘lgan yigit-qizlar bor. Bu nafaqat Toshkent viloyatiga, balki boshqa viloyatlarga ham tegishlidir[94].

Turkistonda hukmron bo‘lgan odatga ko‘ra, ota-onalar o‘z o‘g‘illariga kelinni uning yoshlik vaqtidan tanlab berganlar[95]. Shariat bo‘yicha voyaga yetmaganlar nikohi masalasini ularning ota-onalari hal qilishi mumkin bo‘lgan.

Qiz tanlash g‘oyat ma’suliyatli ish. Oldin kelinni ona, yigitning turmushga chiqqan opasi yoki xolasi tanlagan. Kelin ko‘pincha qarindoshlarning qizi bo‘lgan[96]. Keyinchalik XX asrning o‘rtalaridan boshlab, yoshlar (ota-onasi tanlab beradiganlari bilan bir qatorda) o‘qishda, ishlayotgan joyida, sayohat

---

[89] Qarang: Jabborov I.M. Turmush tarzi, urf-odat va odob...; Народы Средней Азии и Казахстана… T. I; Oripov F. O‘zbek ishchilarining turmushi va moddiy madaniyati...; Otaxo‘jayev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi...; Safarov O., Mahmudov M. Oila ma’naviyati... va b.

[90] Shoumarov G‘.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila... – B. 81.

[91] Qarang: Народы Средней Азии и Казахстана… T. I. – C. 325; Oripov F. O‘zbek ishchilarining turmushi va moddiy madaniyati... – B. 91; Otaxo‘jayev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi… – B. 37. va b.

[92] Dala ma’lumotlari: Toshkent sh., Uchtepa t., Qoryog‘di mahallasi, 2002-y.

[93] Qarang: Лобачёва Н.П. Брак… – C. 452.

[94] Dala ma’lumotlari: Toshkent sh, 2002-2007-y.; Toshkent v. (Bo‘stonliq t.), 2004-y.; Samarqand sh., 2001-2002y.;
Andijon v. (Andijon sh., Buloqboshi va Xo‘jaobod t.), 2004-2006-y.; Farg‘ona v. Qo‘qon sh., 2004-y.; Namangan v.
(Namangan sh., Pop t., Pop sh.), 2006-y.; Qashqadaryo v. (Kitob va Shahrisabz t.), 2004-y.; Sirdaryo v. (Sardoba t.),
2005-y.; Xorazm v. (Urganch sh.., Xiva sh., Yangi ariq t., Qo‘shko‘pir t.), 2005-y.; Buxoro v. (Buxoro sh., Shofirkon t., Uchon q.) 2007-y.

[95] Qarang: Народы Средней Азии и Казахстана… T. 1. – C. 325.

[96] Dala ma’lumotlari: Toshkent sh., 2001-2007-y.; Bo‘riyev O., Shoymardonov I., Nasriddinov Q. O‘zbek oilasi tarixidan... – B. 87.

va dam olish uylarida bir-biri bilan tanishadilar, bir necha vaqt kino, teatr, konsert, klublarda, hatto ulfatchiliklarda birga bo‘ladilar[97]. Bu odat hozirgacha ham saqlanib[98], dastlab juda ko‘p ota-onalarning noroziligiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik an’ana tusiga kirgan. Shunga qaramasdan yoshlar bir-birini topib, sevishib turmush qurmoqchi bo‘lsalar, qiz yigitning onasiga yoqmasa, ona qanday qilib bo‘lsa ham shu to‘yning bo‘lmasligiga harakat qiladi va bunga erisha oladi ham. Bundan ko‘rinib turibdiki, ona qiz tanlashda juda muhim o‘rin tutadi. Xulosa qilish mumkinki, yigitlar va qizlar o‘zlari erkin tanlash huquqiga ega bo‘lgan oilalarda ham ona yoki otaning rozi-rizoligi ko‘p narsani hal qilgan. Albatta, bundan istisno oilalar ham mavjud bo‘lib, Sovet davridagi adabiyotlarda yozilganidek, bularning soni ko‘p emas edi va bu oilalar ko‘pincha zamonaviy oilalar qatoriga kirar edi. Bu narsa hozir ham saqlangan[99].

O‘zbek xalqida sovchilik orqali nikoh qurish odati mavjudligi uchun ko‘pchilik o‘zbeklarda sevgi orqali nikoh qurilmaydi, deb o‘ylaydi. Ammo o‘tkazilgan tadqiqotlar[100] buning aksini ko‘rsatdi. Ya’ni, sevgi orqali nikoh qurishlar 59 % holatda uchradi. Ayollarda sevgi bilan yoqtirish bir xil ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, erkaklarda sevgi va sevmasdan uylanish bir xil ko‘rsatkichga ega. Yoqtirib nikoh qurish, odatda sovchilikda bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, sevmasdan turmush qurish ham sovchilikka to‘g‘ri keladi. Tadqiqotdan kelib chiqib, xulosa qilsa bo‘ladiki, sovchilikda, umuman olganda, o‘zbeklar ko‘pincha yoqtirib emas, sevmasdan nikoh quradilar. Sevgi orqali nikoh qurish, tadqiqotga binoan, birinchi o‘rinda tursa ham, ularning asosiy qismi 1980-yillarga to‘g‘ri keladi. Ya’ni bugungi kunda nikoh qurishda sevgi birinchi o‘rinda emas. Lekin u oxirgi o‘rinda ham emas.

Umr yo‘ldoshi tanlashda din masalasi juda nozik hisoblanadi. Din ibtidoiy jamoa tuzumidan hozirgacha o‘zbek xalqi ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida jamiyatning, oila va shaxs hayotining barcha hujayralarigacha singib ketgan[101]. Shunday ekan, din o‘zbeklarning hayotida juda muhim o‘ringa ega.

Islom diniga qadar O‘zbekiston hududida asosiy diniy e’tiqod zardushtiylik bo‘lgan. Ammo o‘sha davrda zardushtiy mahalliy xalqning boshqa din vakillari bilan nikoh qurish masalasi qanday o‘ringa ega bo‘lganligi haqida bilish qiyin. Chunki bu masala bo‘yicha biz yetarlicha ma’lumotga ega emasmiz. “Avesto”ning bizga yetib kelgan qismida ham bu masalaga bag‘ishlangan band uchramadi. Ammo tegishli adabiyotlarni

[97] Qarang: Oripov F. O‘zbek ishchilarining turmushi va moddiy madaniyati...; Лобачёва Н.П. Брак … ва б.
[98] Dala ma’lumotlari: Toshkent sh., Shayxontahur t., Yangiobod mahallasi, 2002−2003-y.
[99] Dala ma’lumotlari: Toshkent sh., Shayxontahur t., Yangikamolon mahallasi, 2002−2003-y.
[100] Etnosotsiologik tadqiqot: Toshkent sh., 2007-y.
[101] Jabborov I.M. O‘zbek xalqi etnografiyasi… – B. 226.

o‘rgangan holda, shuni aytish mumkinki, qadimgi davrdan to O‘rta Osiyo va Eron hududida islom dinining tarqalguniga qadar zardushtiylar orasida boshqa din vakillari o‘rtasida nikoh ancha erkin va majburiyatsiz bo‘lgan[102]. Islom dinida esa musulmon erkak ko‘p xudolilikka, butparastlikka e’tiqod qiluvchi yoki hech qanday dinga mansub bo‘lmagan ayol bilan nikoh tuzish huquqiga ega bo‘lmagan. Agar xristian yoki yahudiy islom diniga kirsa, u holda musulmonlar bilan nikoh ahdini tuza olgan[103]. Musulmon ayollar faqat musulmonlarga turmushga chiqishlari kerak edi. Demak, er-xotinning ikkalasi ham musulmon bo‘lishlari shart hisoblangan[104]. Ammo shuni qayd qilish lozimki, odatda er-xotin islom dinining bir mazhabiga tegishli bo‘lgan, ya’ni sunniy mazhabdagi musulmonshia (shiiy) mazhabidagi musulmon bilan nikoh qurmagan. Bunday nikohlar bo‘lsa ham, hayotda kam uchragan. Islom dini qonun-qoidalari bugungi kunda ham o‘zgarmagan, ammo o‘zbeklarning qarashi ruslar kelishi bilan o‘zgaradi[105].

Umr yo‘ldoshi tanlashda uning qayerdanligiga ham e’tibor beriladi. Sobiq Sovet davrida ta’kidlanganidek, hech qachon qizning yoki yigitning qayerda tug‘ilib, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Bular hozirda ham mavjud. Masalan, xorazmliklar hamisha xorazmliklarni o‘zidan qiz olishga va berishga harakat qiladilar[106]. Boshqa viloyatlarda bunga bunday darajada ahamiyat bermasalar-da, umumiy olganda regional jihatdan e’tibor beradilar. Masalan, Farg‘ona vodiyliklar boshqa viloyatliklar bilan bo‘lgan nikohda ko‘proq o‘zlarining vodiyliklarini ma’qul ko‘radilar[107], qashqadaryoliklar esa surxondaryoliklar bilan hech qanday muammosiz nikoh quradilar[108], Sirdaryo, Jizzax ham bir[109] va h.

Umr yo‘ldoshi tanlashda sog‘liqqa ham e’tibor beriladi. Shariatda ruhiy nosog‘lom ayollarga uylanish man etilgan. Dala tadqiqoti jarayonida olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki[110], aholi nosog‘lomlarning

---

[102] To‘liq qarang: Rasulova Z.A. Qiz tanlashda dinning ahamiyati // Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000-yilligiga bag‘ishlangan yosh olimlarning xalqaro ilmiy konferensiyasi tezislar to‘plami. – Xiva, 2006. – B. 353-355.

[103] Otaxo‘jayev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi… – B. 40.

[104] Marg‘inoniy B. Hidoya... I jild. – B. 735-744.

[105] To‘liq qarang: Rasulova Z.A. O‘zbeklar nikohida dinning tutgan o‘rni // Mustaqillik: intellektual potensial va taraqqiyotning dolzarb muammolari. “XXI asr – intelektual yoshlar asri” mavzuidagi iqtidorli talabalarning mintaqaviy III ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2005-yil 25-mart (II qism). – Navoiy: NDPI, 2005. – B. 26-28.

[106] Dala ma’lumotlari: Xorazm v. (Urganch sh.., Xiva sh., Yangi ariq t., Qo‘shko‘pir t.), 2005-y.

[107] Dala ma’lumotlari: Andijon v. (Andijon sh., Buloqboshi va Xo‘jaobod t.), 2004-2006-y.; Farg‘ona v. Qo‘qon sh., 2004-y.; Namangan v. (Namangan sh., Pop t., Pop sh.), 2006-y.

[108] Dala ma’lumotlari: Qashqadaryo v. (Kitob va Shahrisabz t.), 2004-y.

[109] Dala ma’lumotlari: Sirdaryo v. (Sardoba t.), 2005-y.

[110] Dala ma’lumotlari: Toshkent sh, 2001-2007-y.; Toshkent v. (Bo‘stonliq t.), 2004-y.; Samarqand sh., 2001-2002y.;
Andijon v. (Andijon sh., Buloqboshi va Xo‘jaobod t.), 2004-2006-y.; Farg‘ona v. Qo‘qon sh., 2004-y.; Namangan v.
(Namangan sh., Pop t., Pop sh.), 2006-y.; Qashqadaryo v. (Kitob va Shahrisabz t.), 2004-y.; Sirdaryo v. (Sardoba t.),

sog‘lomlar bilan qurgan nikohini ma’qullamaydi. “Agar bir inson qandaydir kamchilikka egami, demak u o‘zining tengini topishi kerak. “Teng tengi bilan, tezak qopi bilan” deganlaridek, nosog‘lom o‘ziga o‘xshagan, u-bu kamchiligi bor odam bilan nikoh qurishi kerak”, deb deyarli barcha axborotchilar javob berishdi.

Bugungi kunga kelib umr yo‘ldoshi tanlashda uning qaysi kasbda ishlashi ham ahamiyatli bo‘lib qolgan. Buni nafaqat dala ma’lumotlari[111], balki etnosotsiologik tadqiqot[112] ham tasdiqlaydi.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillarning hammasi umr yo‘ldoshi tanlashda juda muhim hisoblanadi. Ammo ularning barchasini hisobga olgan holda umr yo‘ldoshi tanlash qiyin. O‘tmishda umr yo‘ldoshi tanlashda, bugungi kundan farqli tarzda, diniy qadriyatlar yetakchilik qilgan. A. Fitrat[113] Muhammad Payg‘ambar (s.a.v.) hadislariga tayangan holda uylanish uchun 4 narsaga e’tibor berish lozimligini uqtiradi. Bu mol, nasab, husn va imonu e’tiqod.

O‘z navbatida, umr yo‘ldoshi tanlashda nikohgacha uchrashuvning ham ahamiyati kattadir. XX asr boshlarigacha o‘zbeklarda odatda nikoh uchrashuvsiz qurilar edi. Ammo islomda, xususan shariatda bo‘lg‘usi kelin bilan kuyovning turmushlari mustahkam bo‘lishi uchun nikohdan avval bir-birlarini ko‘rishga ruxsat etiladi. Mug‘ira ibn Shu’ba degan sahobiy bir ayolga uylanmoqchi bo‘lganligini Muhammad Payg‘ambar (s.a.v)ga aytganida, Janob u kishidan: “Uylanayotgan ayolni ko‘rdingmi?” deb so‘radi. U kishi esa: “Yo‘q”, deb javob qildi. Shunda Rasulullоh (s.a.v.): “U ayolni ko‘rgin. Chunki uni ko‘rsang, o‘rtalaringda muhabbat, ulfatlik paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi”, dedi. Biroq bir-birini ko‘rishlik shariatga muvofiq har ikki tomon vakillari nazorati ostida bo‘lishi shart. O‘zlarini yolg‘iz, alohida qoldirish yoki nikohdan oldin yakka holda uchrashib turishlari man etiladi. Muhammad Payg‘ambar (s.a.v): “Mahram bo‘lmagan bir kishi ila bir ayol hech kim yo‘q yerda xoliy bo‘lishsa, ularning uchinchisi shaytondir”, dedi. Zero, bunday uchrashuvlarda islom dinida gunoh bo‘lishidan tashqari har ikki tomon uchun hunuk, ayniqsa, qizlar uchun tuzatib bo‘lmas xato, oila a’zolarining obro‘si oyoqosti bo‘lishdek ko‘ngilsiz voqea yuz berishi mumkin[114].

O‘tmishdan farqli o‘laroq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bugungi kungacha yoshlar turli shart-sharoitlarda tanishmoqdalar. Kimdir o‘qish, ish joyida yoki o‘zi, kimdir biron-bir do‘sti, qarindoshi yo sovchilar yordamida, kimdir ko‘chada, jamoatchilik joylarida, transportda, turli marosimlar,

2005-y.; Xorazm v. (Urganch sh.., Xiva sh., Yangi ariq t., Qo‘shko‘pir t.), 2005-y.; Buxoro v. (Buxoro sh., Shofirkon t.) 2007-y.

[111] Dala ma’lumotlari: Toshkent sh, Shayxontahur t., Gulzor mah., Sergeli t., Nilufar mah., 2002-2007-y.

[112] Etnosotsiologik tadqiqot: Toshkent sh., 2007-y.

[113] Qarang: Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari…

[114] Qarang: Salohiddin Muhiddin. Oila va sha’riy nikoh odoblari... – B. 10; Dinda savolim bor... 3-kitob. – B. 66.

to‘ylar, kechalar, o‘tirishlar va hokazo shart-sharoitlarga ko‘ra tanishishlari mumkin. O‘zbek oilasining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh oilaning yuzaga kelish shartlari orasida keng tarqalganlaridan biri sovchilik orqali tanishishdir[115]. Sovchilik ham azaldan shakllanib kelgan o‘zbek xalqining qadriyatlaridan biridir. Uning ham o‘ziga yarasha talablari, shartlari, mas’uliyati mavjud. Sovchilikka borilganda sovchilar bo‘lajak er-xotinlar, qudalarni har tomonlama o‘rganib, ularning bir-birlariga qay darajada mos kelish jihatlarini puxta o‘rganib chiqishga harakat qiladilar. Sovchilikda surishtirish orqali bo‘lajak kelin-kuyov, uning oilasi, avlodi haqida har tomonlama ma’lumotlar olishga harakat qilinadi. Umuman sovchilikning milliy, etnik, an’anaviy amallariga, talablariga rioya qilish ham nikoh mustahkamligining muhim shartlaridan hisoblanadi. Shuning uchun ham sovchilik masalalariga o‘tmishda katta e’tibor berilgan va sovchilikka eng tajribali, mulohazakor, oqil odamlar tanlangan[116].

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi kunda umr yo‘ldoshi tanlashda quyidagi jihatlarga o‘z ahamiyatiga ko‘ra o‘rin berib chiqish mumkin: birinchi o‘rinda – oilaning umuman yaxshi-yomonligi, oilaning moddiy tarafi, qiz, ayniqsa yigitning qayerda ishlashi (umuman ishlaydimi yo yo‘qmi), qanday kasbdaligi, sog‘ligi, yomon xislatlarining bor-yo‘qligi (ichish, qiz yo yigitlar bilan yurish, giyohvandlik), ikkinchi o‘rinda –sevgi, oilaning qayerdanligi, yigit, ayniqsa qizning tashqi ko‘rinishi, ma’lumoti bor-yo‘qligi, oxirgi o‘rinda – nasl-nasabi, ijtimoiy tabaqasi, diniy e’tiqodi va millati.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo‘riyev O., Shoymardonov I., Nasriddinov Q. O‘zbek oilasi tarixidan. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.
2. Dala ma’lumotlari: Toshkent sh, 2002-2007-y.; Toshkent v. (Bo‘stonliq t.), 2004-y.; Samarqand sh., 2001-2002y.; Andijon v. (Andijon sh., Buloqboshi va Xo‘jaobod t.), 2004-2006-y.; Farg‘ona v. Qo‘qon sh., 2004-y.; Namangan v. (Namangan sh., Pop t., Pop sh.), 2006-y.; Qashqadaryo v. (Kitob va Shahrisabz t.), 2004-y.; Sirdaryo v. (Sardoba t.), 2005-y.; Xorazm v. (Urganch sh.., Xiva sh., Yangi ariq t., Qo‘shko‘pir t.), 2005-y.; Buxoro v. (Buxoro sh., Shofirkon t., Uchon q.) 2007-y.
3. Dala ma’lumotlari: Toshkent sh., 2001-2007-y.;
4. Dala ma’lumotlari: Toshkent sh., Shayxontahur t., Yangiobod mahallasi, 2002−2003-y.
5. Dala ma’lumotlari: Toshkent sh., Uchtepa t., Qoryog‘di mahallasi, 2002-y.
6. Etnosotsiologik tadqiqot: Toshkent sh., 2007-y.
7. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / Mas’ul muharrir D.A. Alimova. Tarj. va izohlar muallifi Sh. Vohidov – 2-nashr. Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 112 b.

[115] Etnosotsiologik tadqiqot: Toshkent sh., 2007-y.

[116] Qarang: Rasulova Z. Sovchi tanlash // Magistratura talabalarining ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent: O‘zMU, 2004. – B. 285-287.

8. Jabborov I.M. O‘zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 320 b.
9. Jabborov I.M. Turmush tarzi, urf-odat va odob. – Toshkent: O‘zbekiston, 1983. – 112 b.
10. Jochelson W. Peoples of Asiatic Russia. – The American Museum of Natural History, 1928. – 156 p.
11. Marg‘inoniy B. Hidoya / Tarj.: S. Muhiddin (bosh tarj.) Taloq kitobi: B. Soipov – Tahorat kitobi. S. Is’hoqov – Namoz kitobi va boshq. / Ma’s. muharrir: A.X. Saidov, M. Nuriddinov. – Toshkent: Adolat, 2000. I jild. – 848 b.
12. Oila psixologiyasi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun / Shoumarov G‘.B. tahr. ost. – Toshkent: Sharq, 2001. – 272 b.
13. Oripov F. O‘zbek ishchilarining turmushi va moddiy madaniyati. – Toshkent: Fan, 1978. – 144 b.
14. Otaxo‘jayev F.M. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 172 b.
15. Rasulova Z. Sovchi tanlash // Magistratura talabalarining ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent: O‘zMU, 2004. – B. 285-287.
16. Rasulova Z.A. O‘zbeklar nikohida dinning tutgan o‘rni // Mustaqillik: intellektual potensial va taraqqiyotning dolzarb muammolari. “XXI asr – intelektual yoshlar asri” mavzuidagi iqtidorli talabalarning mintaqaviy III ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari 2005-yil 25-mart (II qism). – Navoiy: NDPI, 2005. – B. 26-28.
17. Rasulova Z.A. Qiz tanlashda dinning ahamiyati // Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000-yilligiga bag‘ishlangan yosh olimlarning xalqaro ilmiy konferensiyasi tezislar to‘plami. – Xiva, 2006. – B. 353-355.
18. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma’naviyati. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – 160 b.
19. Salohiddin Muhiddin. Oila va sha’riy nikoh odoblari: Ma’naviy meros. – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – 80 b.
20. Shoumarov G‘.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. – Toshkent: Ibn Sino, 1994. 2-nashri. – 120 b.
21. Гребенников И.В. Основы семейной жизни. Учеб. пособие для пед. инс-тов. – М.: Просвещение, 1991. – 156 с.
22. Лобачёва Н.П. Брак / Семейный быт народов СССР / Отв. ред. Т.А. Жданко. – М.: Наука, 1990. – С. 448-461.
23. Ташбаева Т.Х., Савуров М.Д. Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков. – Тошкент: Фан, 1989. – 163 с.

ETNOLOGIYADA GENDER TADQIQOTLAR TARIXI: FEMINISTIK YONDOSHUV VA JAMIYATDAGI JINSIY ROLLAR

Shohsanam Toshtemirova
Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti magistranti
Email manzil: toshtemirovashohsanam606@gamil.com

Kalit so'zlar *gender, etnologiya, feministik yondoshuv, Margaret Mead, Eleanor Leacock, Annette Weiner, jins va ijtimoiy ro'llar, gender tahlili, madaniyat va gender, jamiyatdagi gender tengsizlik, feminist etnologiya, ijtimoiy adolatsizlik, genderning madaniyatdagi roli, gender va jamiyat.*

Annotatsiya*: Ushbu maqolada etnologiyada gender tushunchasi, uning rivojlanishi, etnologiyada genderni o'rganishga qaratilgan dastlabki yondoshuvlar va ilk namoyondolari, shuningdek, etnologiyada feministik yondoshuv haqida muhokama qilinadi. Gender tushunchasi ijtimoiy va madaniy shakllanish sifatida ko'riladi va biologik jinsdan farq qiluvchi o'zgaruvchan ijtimoiy ro'l sifatida talqin etiladi. Etnologiyaning ilk gender tadqiqotchilari, jumladan Margaret Mead, Eleanor Leacock va Annette Weiner kabi olimlarning asarlari orqali gender masalalarining tahlili ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada feministik etnologiya yondoshuvining rivojlanishi va uning jamiyatdagi gender taqsimotiga bo'lgan ta'siri hamda feminist tadqiqotchilar tomonidan genderga nisbatan olib borilgan tanqidiy tahlillar ko'rsatiladi.*

HISTORY OF GENDER STUDIES IN ETHNOLOGY: FEMINIST APPROACH AND GENDER ROLES IN SOCIETY

Shahsanam Toshtemirova
Master's student, Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail address: toshtemirovashohsanam606@gamil.com

Key words: *gender, ethnology, feminist approach, Margaret Mead, Eleanor Leacock, Annette Weiner, gender and social roles, gender analysis, culture and gender, gender inequality in society, feminist ethnology, social injustice, the role of gender in culture, gender and society.*

Abstract: *This article discusses the concept of gender in ethnology, its development, early approaches to the study of gender in ethnology and its first manifestations, as well as the feminist approach in ethnology. The concept of gender is seen as a social and cultural formation and is interpreted as a changing social role that differs from biological sex. An analysis of gender issues is examined through the works of ethnology's early gender researchers, including Margaret Mead, Eleanor Leacock, and Annette Weiner. In addition, the article shows the development of the feminist ethnology approach and its impact on gender distribution in society, as well as critical analyzes of gender by feminist researchers.*

O'zbekistonda gender sohasiga qaralayotgan munosabat so'nggi yillarda sezilarli darajada o'zgarib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muhim o'rin egalladi. Mamlakatimizda gender tengligi va ayollar huquqlari sohasidagi yangilanishlar, davlatning ijtimoiy siyosatida o'zgarishlarni ko'rsatmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning gender tengligini ta'minlashga qaratilgan tashabbuslari, jumladan, ayollar va erkaklar

o‘rtasidagi tenglikni mustahkamlash, ularning iqtisodiy va siyosiy ishtirokini oshirishga doir bir qator qaror va qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, davlat rahbari gender masalalariga alohida e’tibor qaratib, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta’kidlagan. 2021-yilda qabul qilingan **“**Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, gender tengligi masalasini mamlakat rivojlanishining muhim qismiga aylantirdi. Bu tashabbuslar jamiyatda gender o‘rtasidagi muvozanatni yaratishga, ayollarning huquqlarini himoya qilishga, ularning jamiyatdagi faol rolini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, gender tengligini ta’minlashda etnologiya va jamiyatshunoslik sohalarining ahamiyati, bu masalalarning ilmiy jihatdan o‘rganilishi, kelajakdagi ijtimoiy o‘zgarishlarga katta ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda.

Gender (lotincha genus, inglizcha gender) so’zi o’zbek tilida “jins” ma’nosini anglatadi. Fanga genderlik tadqiqotlari tushunchasi XX asrning o’rtalarida kirib kela boshladi. Gender terminini ilk bor 1952-yilda Yangi Zelandiyalik ruhshunos olim Jon Mani o’z ilmiy tadqiqotlarida qo’llagan. Keyinchalik, 1963-yilda Stokgolmda ruhshunoslarning xalqaro anjumanida AQShlik olim Robert Stoller jamiyatdagi ijtimoiy jinsning o’z-o’zini anglash tushunchalarini taqdim etib, gender terminini ilmiy jamoatchilikka tanishtirdi va jinsni biologik hamda madaniy turlarga ajratib o’rganishni taklif qildi. Stoller biologik jins (inglizcha sex)ni biologiya va fiziologiya, madaniy jins (gender)ni esa ruhshunoslik va jamiyatshunoslik sohalari tadqiqot ob’ekti sifatida ko’rishni maqsadga muvofiq deb hisoblagan.

Bundan tashqari, 1972-yilda ingliz sotsiologi Enn Oukli ham Jins, gender va jamiyat nomli ilmiy ishida bu terminni izohlab, jins va gender tushunchalari o’rtasidagi farqni tushuntirgan. Gender konsepsiyasi biologik jins va ijtimoiy jins o’rtasidagi farqni anglatadi, shuningdek, jinslar orasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat erkaklar va ayollarning biologik farqlariga asoslanmaydi, balki ularning ijtimoiy rollari ham fiziologik farqlardan sezilarli darajada kengroqdir.

Etnologiyada gender masalalari o‘rganila boshlagan davr 20-asrning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda feminist antropologiya va gender tadqiqotlarining rivojlanishi, ayol va erkaklar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni chuqurroq o‘rganish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Buning asosiy sabablaridan biri, etnologiyada ilgari faqat erkaklar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va genderni ijtimoiy institut sifatida emas, balki biologik fakt sifatida qabul qilish edi.

Genderning etnologiyada vujudga kelishi, ko‘pincha ijtimoiy tizimlar va strukturalar bilan bog‘liq. Etnologiyada gender o‘rganishda, ayollarning

va erkaklarning ijtimoiy rollari va bu rollarning jamiyatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Etnologik tadqiqotlarda, ayniqsa, oila tuzilmalari, qarindoshlik tizimlari va iqtisodiy rol o‘ynashdagi farqlar o‘rganiladi. Claude Lévi-Strauss va Victor Turner kabi antropologlar genderni ijtimoiy tizimlarning ajralmas qismi sifatida ko‘rganlar. Ular genderning turli jamiyatlardagi shakllarini va qanday qilib jamiyatda o‘zaro munosabatlar shakllanishini o‘rgandilar.

Lévi-Straussning “The Elementary Structures of Kinship” (1949) asari, genderni qarindoshlik tizimi orqali tahlil qilishga asoslangan. Bu asarda, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi munosabatlar, oila va qarindoshlik tizimlaridagi o‘zgarishlar va ularning jamiyatga ta’siri o‘rganiladi. Lévi-Strauss uchun, gender faqat biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy tizimning bir qismi sifatida tahlil qilinishi kerak edi[5].

Etnologiyada genderning shakllanishi, madaniyat va ijtimoiy tizimlar bilan chambarchas bog‘liq. Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi farqlar, ko‘pincha madaniy qadriyatlar va ijtimoiy normalar orqali ifodalanadi. Gender tahlilida madaniyatning ahamiyati, Mead, Benedict va Leacock kabi tadqiqotchilar tomonidan ta’kidlangan. Ular genderni faqat biologik farqlar sifatida emas, balki madaniy va ijtimoiy normalar sifatida tushuntirishni o‘rgandilar.

Etnologiyada feministik yondoshuv 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlandi. Etnologiya, xalqning turmush tarzini, madaniy va ijtimoiy tizimlarini o‘rganadigan soha sifatida ko‘plab yondoshuvlarni qamrab olgan. Feministik etnologiya esa gender, ayol va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda o‘zgacha va mustaqil yondoshuv sifatida shakllandi. Feministik yondoshuvning etnologiyadagi rivoji, avvalgi yondoshuvlarning an’anaviy va erkaklar markazli nuqtai nazarlarini tanqid qilishga, jamiyatlarning gender taqsimotiga, ayollarning ro‘li va ahamiyatiga yangi qarashlar kiritishga yo‘naltirilgan edi.

Margaret Mead (1901-1978) amerikalik antropolog, gender tadqiqotlari sohasida etnografik uslublarni birinchi bo‘lib samarali qo‘llagan va jinsiy rollarning madaniyatga bog‘liqligini ilmiy asoslab bergan eng mashhur tadqiqotchilardan biridir. Meadning ishlarida jinsiy rollar va ularning jamiyatdagi o‘rni keng tadqiq qilingan, ayniqsa, uning Yangi Gvineya jamiyatlari bo‘yicha olib borgan ishlari gender tadqiqotlarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Meadning gender tadqiqotlari odatda madaniy antropologiya kontekstida ko‘rib chiqiladi. U jinsiy rollarning faqat biologik omillar bilan emas, balki madaniyat va jamiyat tomonidan belgilanganligini ta’kidladi. Meadning eng mashhur va muhim asarlaridan biri 1935-yilda nashr etilgan “Sex and Temperament in Three Primitive Societies” (Uch Ibtidoiy

Jamiyatda Jins va Temperament) nomli kitobidir. Bu asar Meadning gender tadqiqotlari sohasida kashshof sifatida e’tirof etilishiga sabab bo‘lgan[1].

Meadning “Sex and Temperament in Three Primitive Societies” kitobida u Yangi Gvineyada yashovchi uchta jamiyatni tadqiq qildi: Arapesh, Mundugumor va Chambuli. U bu jamiyatlarning har birida erkaklar va ayollarning o‘zaro munosabatlarini, ularning ijtimoiy roli va mehnat taqsimotini o‘rgandi. Meadning natijalari shuni ko‘rsatadiki, jinsiy rollar jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va madaniy me’yorlariga asoslangan, shuning uchun bu rollar jamiyatdan jamiyatga farq qiladi[10].

Arapesh jamiyatida ayollar va erkaklar bir-biriga o‘xshash, tinchliksevar va mehribon xarakterlarga ega bo‘lib, ularning faoliyatlari o‘rtada deyarli farq qilmasdi. Mundugumor jamiyatida esa jinslar o‘rtasida tajovuzkorlik va agressivlik belgilari mavjud bo‘lib, bu jamiyatda erkaklar ham, ayollar ham bir-biridan farq qiladigan tarzda yuqori darajada raqobatchi va agresiv edi. Chambuli jamiyatida esa, ajoyib bir holat kuzatiladi: erkaklar ayollarga qaraganda hissiyotga boy va mehribon bo‘lishadi, ayollar esa ularning ayollik rolidan farqli o‘laroq kuchli va hukmron pozitsiyada bo‘lishadi.

Mead bu tadqiqotlar orqali jinsiy rollarning biologik emas, balki madaniy va ijtimoiy o‘zgaruvchanligini isbotlashga muvaffaq bo‘ldi. U, shuningdek, ayollar va erkaklar o‘rtasidagi an’anaviy rollarni jamiyatlar tomonidan qanday shakllantirilganligini ko‘rsatdi. Meadning bu ishlari gender rollarini faqat biologik emas, balki madaniy konstruktsiya sifatida qarashga imkon yaratdi.

Margaret Meadning yana bir muhim asari “Growing Up in New Guinea” (Yangi Gvineyada O‘sish) 1928-yilda chop etilgan. Ushbu asarda u bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini va ularning jinsiy identifikatsiyalarining qanday shakllanishini o‘rgangan. Mead, bolalar o‘zlarining gender rolini qanday o‘zlashtirishi va bu jarayonni qanday ijtimoiy muhit shakllantirishi haqida muhim tahlillar olib boradi[9].

Meadning bu asarida gender stereotiplari va ijtimoiy muhitning bolalar ta’limidagi o‘rni katta ahamiyatga ega. Uning fikricha, bolalar jamiyatdan o‘rgangan qadriyatlar va me’yorlar orqali o‘zlarining jinsiy identifikatsiyalarini shakllantiradilar. U o‘zining tahlilida jamiyatlarning ayol va erkaklarning rollarini qanday belgilashini, shuningdek, bu rollarning bolalar o‘sishida qanday muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Meadning ishlarida jinsiy ro‘l va identitetlarning madaniyatga bog‘liqligi asosiy tezis sifatida keltiriladi. Uning tadqiqotlari, shuningdek, jinsiy rollarning ijtimoiy me’yorlar tomonidan shakllanishini va jamiyatga xos o‘zgaruvchanligini ko‘rsatdi. Mead jamiyatlarning jinsiy ro‘llarni

qanday tasniflashlarini, ularning individlar hayotiga qanday ta’sir qilishini va bu rollarning o‘zgarishini chuqur o‘rgandi.

Uning gender haqidagi ilmiy qarashlari o‘z davrida revolyutsion bo‘lib, an’anaviy antropologik qarashlarga qarshi chiqqan. Meadning genderni faqat biologik tabiatan belgilangan emas, balki ijtimoiy va madaniy ta’sirlar natijasida shakllangan bir konsept sifatida ko‘rgan yondoshuvi, uning tadqiqotlarini zamonaviy gender tadqiqotlari uchun muhim asos bo‘lib qoldi.

Yana bir tadqiqotchi Eleonor Leacock (1935–1987) amerikalik antropolog va etnolog, gender masalalari bo‘yicha qilgan tadqiqotlari bilan tanilgan. U feminist antropologiyaning rivojlanishida muhim o‘rin tutgan va gender, sinf, iqtisodiyot, hamda ayollarning jamiyatdagi o‘rni haqida yangi nazariyalar ishlab chiqdi. Leacockning asarlari, ayniqsa, patriarxal tizimning ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy holatiga ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ular zamonaviy gender tadqiqotlari uchun muhim nazariy asoslar yaratdi.

Leacockning gender bo‘yicha qilgan ishlari asosan “ayollar” va “erkaklar” o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tafovutlarni o‘rganishga asoslangan. Uning gender masalalaridagi ilg‘or yondoshuvi, ayniqsa, “erkaklar va ayollar” o‘rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni va ularning iqtisodiy holatlarini patriarxal tizimning asosi sifatida tahlil qilishga qaratilgan. Leacockning asosiy maqsadi, jinsiy rollar va ularning jamiyatdagi o‘rni haqidagi patriarchal yondoshuvlarni so‘ndirish edi[4].

Uning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lgan “Myth of the Male Breadwinner” (1971), jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning va patriarxal tizimning ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ushbu asarda Leacock erkaklar va ayollarning mehnat taqsimotidagi o‘zgarishlar, iqtisodiy rollar, va gender taqsimotiga bo‘lgan ijtimoiy qarashlarning patriarxal tuzilmalarga qanday asoslanganini ko‘rsatgan.

Leacockning “Myth of the Male Breadwinner” asari gender tengsizliklarini va ayollarning iqtisodiy ahvoli masalasini tahlil qilishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. U o‘z asarida, jamiyatda erkaklarning oilaning boshida turishi va ayollarning esa uydagi ishlarni bajarishi haqidagi an’anaviy fikrlarni so‘ndirishga harakat qilgan. Leacock bu mifni “e’tiborli” deb hisoblaydi va bu fikrning jamiyatdagi patriarxal yondoshuvlar tomonidan shakllanganligini ta’kidlaydi. U, shuningdek, ayollarning mehnatga bo‘lgan munosabatlarini va jamiyatdagi iqtisodiy roli haqida yangi yondoshuvlarni ishlab chiqqan[3].

Leacockning asosiy nuqtalaridan biri shundaki, erkaklar va ayollarning mehnat taqsimotidagi tafovutlar nafaqat biologik farqlar, balki tarixiy va madaniy omillar bilan belgilanadi. U, shuningdek, ayollarning uy

ichidagi mehnati va ularning iqtisodiy ahvoli jamiyatdagi patriarxal tizimning kuchli bo‘lishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bu yondoshuv, o‘z navbatida, gender o‘zgarishlari va tenglik uchun kurashda yangi fikrlar va strategiyalarni ilgari surishga imkon beradi[2].

Leacockning genderga oid tadqiqotlarida, patriarxal tizimning jamiyatdagi roli va uning ayollarning ijtimoiy pozitsiyalariga ta’siri asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. U, ayniqsa, patriarxiyaning ijtimoiy tizimga, iqtisodiyotga va jamiyatga qanday ta’sir qilishini o‘rganish bilan shug‘ullangan. Leacock, jamiyatdagi gender tengsizliklarining nafaqat iqtisodiy omillar, balki siyosiy, madaniy va diniy me’yorlar bilan bog‘liq ekanligini ta’kidladi. Buning ustiga, u patriarxal tuzilmalarning jamiyatdagi barcha jabhalarda, xususan, ayollarning ish va uy ichidagi roli orqali qanday iz qoldirganligini ko‘rsatdi.

Uning ishlari gender va sinf o‘rtasidagi aloqalarni, hamda patriarxal tizimning ijtimoiy va iqtisodiy asoslardagi o‘rnini o‘rganishdagi yangi fikrlarni ilgari surdi. Leacock, patriarxal tizimning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga qarshi turgan kuch sifatida ishlashini ko‘rsatib, ularni tizimli o‘zgarishlar bilan engish zarurligini ta’kidladi[3].

Leacockning gender bo‘yicha ilgari surgan yondoshuvlaridan biri – patriarxal tizimga qarshi kurashishda mehnat taqsimotining teng taqsimlanishini ta’minlashdir. Uning fikricha, ayollarning uy-ichki mehnatini qadrlash va erkaklar va ayollar orasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish zarurdir. Shuningdek, Leacock, gender tenglikka erishish uchun jamiyatning mehnat taqsimotini, iqtisodiy tizimini va siyosiy tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

Sohaga doir yana bir tadqiqotchi Annette Weiner (1933-1997) amerikalik antropolog bo‘lib, gender masalalariga oid ishlari etnologiya va antropologiyada yangi yo‘nalishlar yaratdi. Uning asosiy ilmiy hissasi, ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy roli, jamiyatdagi patriarxal tizim va ular orasidagi mehnat taqsimotini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘liq edi. Weinerning ishlari, ayniqsa, ayollarni antropologiyada “ko‘rmaslik” holatini tanqid qilgan va ularni o‘rganish uchun yangi metodologiyalar ishlab chiqqan. Weinerning ilmiy faoliyati antropologiyada genderni yangi nuqtai nazardan ko‘rishga imkon yaratdi. Uning ishlari, ayollarning tarixiy va madaniy ahamiyatini tahlil qilishda, ilmiy va antropologik tadqiqotlarda ular ko‘pincha e’tibordan chetda qolgani haqida gapiradi. Weiner o‘zining eng mashhur asarlarini, ayniqsa, Trobriand orollarida amalga oshirgan etnografik tadqiqotlarida genderning ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yangi o‘rni haqida fikr bildirdi[15].

Annette Weinerning “Women of Value, Men of Renown” (1976) asari uning eng muhim ishlardan biridir. Bu asar Trobriand orollarida o‘tkazilgan

tadqiqotlarga asoslanadi va ayollar va erkaklarning jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy rollari haqida yangi nazariyalarni ishlab chiqadi. Weiner Trobriand orollarida ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy roli, xususan, ularning mol-mulkni boshqarish va oilaviy biznesdagi ahamiyatini tahlil qiladi[17].

Weiner, o‘z asarida, patriarxal yondoshuvlarning ayollarni iqtisodiy va siyosiy jihatdan sustlashtirishi haqida gapiradi. U, shuningdek, Trobriand orollaridagi ayollarni “qadimgi va boy” va “boshqaruvchan” ko‘rinishda tasvirlaydi. Bu nuqtai nazar, ularning jismoniy va iqtisodiy pozitsiyalarining erkinligi va mustahkamligini ko‘rsatadi. Ayollarning uy-ichki va jamoatdagi roli, Weiner tomonidan ko‘rsatilganidek, patriarchal tizimning samarali qismi emas, balki bu tizimning asosi bo‘lib, ularga o‘z huquqlarini va erkinliklarini beradi.

Weinerning “The Trobrianders of Papua New Guinea” (1976) asari, Trobriand orollaridagi jamiyatni o‘rganishga qaratilgan. Ushbu asar, ayollar va erkaklarning jamiyatdagi roli, ularning mehnat taqsimotidagi o‘rni va iqtisodiy hayoti haqida yangi ma’lumotlar keltiradi. Weiner, Trobriand orollaridagi ayollarning deyarli barcha muhim iqtisodiy faoliyatlarni olib borishini ta’kidlaydi. Ayollar mol-mulkni boshqarishda, resurslarni taqsimlashda va oilaviy bizneslarni yuritishda muhim rol o‘ynaydi[16].

Uning asaridagi asosiy nuqtalardan biri shundaki, gender faqat biologik farqlardan emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy shartlardan ham shakllanadi. Weiner Trobriand orollaridagi ayollarni “mo‘’tadil va ayol” sifatida tasvirlaydi, lekin ularning iqtisodiy va siyosiy roli juda kuchli ekanligini ko‘rsatadi. U, shuningdek, gender tengligini jamiyatning bir qismi sifatida ko‘rsatadi, bu esa jismoniy va iqtisodiy imkoniyatlarni teng taqsimlashga olib keladi. Weinerning ilmiy yondoshuvi genderni faqatgina ijtimoiy rollar va hokimiyat o‘rtasidagi farqlar sifatida emas, balki jamiyatdagi asosiysizliklar va iqtisodiy ixtiloflar sifatida ham ko‘rsatadi. U, gender o‘rganiladigan faqat biologik yoki psixologik nuqtai nazardan emas, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy tuzilmalaridan kelib chiqqan holda o‘rganilishi kerakligini ta’kidlaydi. Bunday yondoshuv, antropologiyada gender masalalarining ilmiy tadqiqotlari uchun yangi yo‘nalishlar yaratdi va bu tendentsiyalar zamonaviy antropologiyada ko‘proq qabul qilinadi. Annette Weiner, genderning etnologik tadqiqotlarga ta’sirini ko‘rsatuvchi ilmiy yondoshuvlarni kiritish orqali antropologiyani zamonaviy va ko‘p qirrali ilmiy yo‘nalishga aylantirdi. U, o‘z asarlarida, genderni erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tengsizlikni faqat biologik farqlar bilan izohlashni rad etib, uni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yanada kompleks holatda ko‘rsatgan. Weinerning ishlari, gender o‘rganishining ijtimoiy va madaniy kontekstlarga bog‘liq holda o‘rganilishini ta’kidladi va bu, albatta, antropologiyaning kelajakdagi rivojlanishida muhim rol o‘ynadi[17].

Claude Lévi-Strauss (1908-2009) fransuz antropologi va strukturalizmning asoschilaridan biri bo‘lib, uning ishlari etnologiya va antropologiyada katta ta’sir ko‘rsatdi. Lévi-Straussning gender masalalariga bo‘lgan yondoshuvi antropologiyada an’anaviy yondoshuvlarni yangi shaklga keltirdi. Uning ishlarida genderning jamiyat tuzilmalari va madaniyatlarning asosiy tarkibiy qismlari sifatida qanday rol o‘ynashi tahlil qilindi.

Lévi-Strauss strukturalist yondoshuvni rivojlantirgan va bu yondoshuvni antropologiyada keng qo‘llagan. Strukturalizm, jamiyatlar va madaniyatlar o‘rtasidagi umumiy tuzilmalar va qoidalarni o‘rganishga asoslangan. Lévi-Straussning fikriga ko‘ra, madaniyat va ijtimoiy tuzilmalarda mavjud bo‘lgan barcha belgilar va kodlar bir-biri bilan bog‘langan. Genderni tahlil qilishda u ijtimoiy tizimlarni, oila tuzilmalari va turmush tarzini qadrladi, ayniqsa, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan. Lévi-Straussning genderga bo‘lgan yondoshuvi, ayniqsa, uning «kin» (ota-ona, aka-uka, er-xotin kabi qarindoshlik munosabatlari) va «to‘qnashuv» (ayollarni turmushga berish yoki ularning o‘zaro almashinuvi) kabi tushunchalar bilan bog‘liq. U, genderni biologik farqlardan ko‘ra ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning ajralmas qismi sifatida ko‘rgan. Lévi-Straussning strukturalist tafakkuri, genderning ijtimoiy tuzilmalar va madaniyatlarning asosiy qismlari sifatida shakllanishini ta’kidlagan[7].

Lévi-Straussning “The Elementary Structures of Kinship” (1949) asari, antropologiyada qarindoshlik va gender masalalariga oid qiyoslashni o‘zida mujassam etgan muhim asarlardan biridir. Bu asarda u, qarindoshlikni jamiyatning asosiy tuzilmasi sifatida ko‘rsatadi va genderni ijtimoiy rolar orqali tahlil qiladi. Lévi-Straussning fikriga ko‘ra, qarindoshlik tizimi nafaqat biologik, balki ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham shakllanadi. Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, qarindoshlik tizimining muhim jihatlaridan biridir. Gender, Lévi-Strauss uchun, faqat birovning jinsiga qarab belgilangan rol emas, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlar tomonidan shakllantirilgan roldir[5].

Lévi-Strauss, genderni ikki asosiy fikrga asoslanib tahlil qilgan: erkaklar va ayollar o‘rtasidagi asosiy ajratish, va ularning o‘zaro almashinuvi (ayollarni erga berish va qarindoshlik tizimlari orqali boshqa jamiyatlar bilan aloqalar). Lévi-Straussning strukturalist nuqtai nazari, genderni shunchaki biologik jihatdan emas, balki ijtimoiy aloqalar va madaniy kontekstda o‘rganishni ta’kidlagan.

Lévi-Straussning “Totemism” (1962) asarida gender va totemizm o‘rtasidagi aloqalar o‘rganiladi. Totemizm, bir qavm yoki jamiyatning muayyan hayvon yoki o‘simlik bilan aloqada bo‘lishi, ularni o‘zining

ajralmas qismi sifatida koʻrishi demakdir. Lévi-Strauss bu asarda, totemizmni ijtimoiy tuzilmalarning bir shakli sifatida koʻrsatadi va genderni, totemizm bilan bogʻliq ijtimoiy tizimlarda qanday rol oʻynashini tahlil qiladi[6].

Uning yondoshuviga koʻra, gender, totemizm kabi ijtimoiy tizimlar orqali jamiyatlarda tuziladi va oʻzaro aloqalar oʻrnatiladi. Ayollar va erkaklar oʻrtasidagi munosabatlar, totemizm orqali koʻrsatilgan diniy va ijtimoiy rolsiz, jamiyatni tashkil etuvchi elementlar sifatida ishlab chiqilgan. Lévi-Straussning bu asari, genderni faqat birovning jinsiga qarab belgilangan rol emas, balki ijtimoiy tizimning bir qismi sifatida tahlil qilishni ta'kidlaydi.

Lévi-Straussning genderga boʻlgan yondoshuvi, antropologiyada genderni ijtimoiy tuzilmalar va madaniyatning muhim qismlari sifatida koʻrishga olib keldi. U, genderni faqat biologik farqlar bilan izohlashni rad etgan va uni ijtimoiy rolar orqali, qarindoshlik tizimlari va totemizm kabi tahlil qilishni taklif qilgan. Lévi-Straussning bu yondoshuvi, antropologiyada gender masalalarining yanada chuqurroq oʻrganilishi uchun yangi yoʻnalish yaratdi[7].

Uning ilmiy merosi, genderni jamiyatlarning asosiy tuzilmalari sifatida koʻrishga imkon yaratdi va bu, zamonaviy antropologiya va etnologiya tadqiqotlariga katta ta'sir koʻrsatdi. Lévi-Straussning genderga oid ishlari, antropologiyada genderni faqat biologik farqlar bilan izohlanmaydigan, balki ijtimoiy va madaniy tizimlar bilan bogʻlangan murakkab bir tuzilma sifatida koʻrish zarurligini ta'kidlagan.

Feministik etnologiyaning rivojlanishi birinchi navbatda 1960-1970-yillarda feminist harakatning kuchayishi bilan bogʻliq. Bu davrda ayollar jamiyatdagi oʻz oʻrinlarini va ularning ijtimoiy rolini koʻrsatish zarurati yuzaga keldi. Feministik yondoshuvda genderni ijtimoiy va madaniy shakllanish sifatida tahlil qilish va ayollarning tarixiy rolini qayta baholashga alohida e'tibor berildi. Bunga qoʻshimcha ravishda, genderni faqat biologik farq sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlarning ajralmas qismi sifatida koʻrish kerakligi ta'kidlandi.

Etnologiyada feministik yondoshuv 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlandi. Etnologiya, xalqning turmush tarzini, madaniy va ijtimoiy tizimlarini oʻrganadigan soha sifatida koʻplab yondoshuvlarni qamrab olgan. Feministik etnologiya esa gender, ayol va erkaklar oʻrtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda oʻzgacha va mustaqil yondoshuv sifatida shakllandi. Feministik yondoshuvning etnologiyadagi rivoji, avvalgi yondoshuvlarning an'anaviy va erkaklar markazli nuqtai nazarlarini tanqid qilishga, jamiyatlarning gender taqsimotiga, ayollarning roʻli va ahamiyatiga yangi qarashlar kiritishga yoʻnaltirilgan edi.

Feministik etnologiyaning rivojlanishi birinchi navbatda 1960-1970-yillarda feminist harakatning kuchayishi bilan bog‘liq. Bu davrda ayollar jamiyatdagi o‘z o‘rinlarini va ularning ijtimoiy rolini ko‘rsatish zarurati yuzaga keldi. Feministik yondoshuvda genderni ijtimoiy va madaniy shakllanish sifatida tahlil qilish va ayollarning tarixiy rolini qayta baholashga alohida e’tibor berildi. Bunga qo‘shimcha ravishda, genderni faqat biologik farq sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlarning ajralmas qismi sifatida ko‘rish kerakligi ta’kidlandi.

Birinchi feministik yondoshuvlar etnologiyaga feminist antropologlar tomonidan kiritildi. Margaret Meadning “Coming of Age in Samoa” (1928) asari genderni faqat biologik jinsdan farq qiluvchi madaniy rol sifatida tasvirladi. Mead, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi rollarning madaniy farqliligini o‘rgandi va bu ishni genderni ijtimoiy shakllanish sifatida tushunishning yangi usuli sifatida ko‘rsatdi. Margaret Meadning bu asari, feministik yondoshuvning boshlanishiga asos bo‘ldi, chunki u genderni jamiyatning o‘zgarmas, biologik jihati sifatida emas, balki o‘zgaruvchan va madaniy shakllangan xususiyat sifatida taqdim etdi[13].

Feministik yondoshuv etnologiyaning maqsadi, genderning jamiyatdagi roli va uning tarixiy va madaniy kontekstda qanday shakllanishini o‘rganishdir. Feministik etnologiya, asosan, ayollarning madaniy va ijtimoiy tizimdagi ahamiyatini oshirishga qaratilgan. Ayollarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘rinlarini tahlil qilish, erkaklar markazli yondoshuvlarning tasavvuridagi inkor qilingan, e’tiborsiz qoldirilgan yoki pastga tushirilgan ayol ro‘llarini qayta tiklashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Feministik etnologiya, shuningdek, jamiyatlarning gender taqsimotini, o‘zgaruvchan gender rollarini va genderning jamiyatdagi tengsizlikka olib keluvchi jihatlarini o‘rganadi[12].

Feministik yondoshuv, shuningdek, etnologiyaning asosi bo‘lgan qadimiy va an’anaviy tadqiqotlar usullariga yangiliklar kiritadi. Ayollarning ro‘li va ahamiyatini jamiyatdagi boshqa ijtimoiy rollar bilan birga o‘rganish, genderni faqat biologik emas, balki madaniy va tarixiy shakllanish sifatida ko‘rish zarurati paydo bo‘ldi. Ayollarning ijtimoiy pozitsiyasini o‘rganish orqali, feminist etnologiya jamiyatlarning tengsizlik va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashish yo‘lida muhim hissa qo‘shdi.

Feministik etnologiya ba’zi asosiy xususiyatlarga ega. Ularning biri genderni ijtimoiy va madaniy shakllanish sifatida tahlil qilishdir. Feministik yondoshuv, genderni biologik jinsdan farqli o‘laroq, jamiyatdagi ijtimoiy ro‘llar, normativlar va qadriyatlar orqali tushunishni ta’kidlaydi. Etnologiyada gender o‘rganishda feminist yondoshuv ayollarning jamiyatdagi ahamiyatini qayta ko‘rib chiqadi va bu orqali jamiyatning genderga asoslangan tuzilishini tahlil qiladi.

Feministik etnologiya shuningdek, empatiya va metodologik yondoshuvlarni o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi. Yani, ayollarning tajribalari va qarashlarini ilmiy tadqiqotlarda asosiy ahamiyatga ega deb qarash. Feministik yondoshuv etnologiyada “erkaklarning” va “ayollarning” tajribalari va ijtimoiy pozitsiyalarini teng ravishda tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu yondoshuv, ayollarning “speak truth to power” (hokimiyatga haqiqatni aytish) va ularning madaniyatdagi o‘rni haqida yangicha fikrlarni rivojlantirdi[14].

Feministik etnologiya an’anaviy etnologiyaning kritikasi sifatida chiqdi. An’anaviy etnologiya, asosan, erkaklar markazida bo‘lgan va ayollarning jamiyatdagi rolini e’tiborsiz qoldirgan yondoshuvlarni qabul qilgan edi. Feministik etnologiya bu yondoshuvlarni tanqid qilib, ayollarning jamiyatdagi ahamiyatini qayta tiklashga harakat qildi. Feminist tadqiqotchilar, etnologiyaning erkaklar tomonidan olib borilgan ko‘p tadqiqotlarida ayollarni faqat ularning reproduktiv va oilaviy rollarida ko‘rsatganini tanqid qilganlar.

Bundan tashqari, feminist etnologiya, faqat ayollarni emas, balki erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ijtimoiy va madaniy farqlarni, ularning o‘rinlarini va pozitsiyalarini tahlil qilishga qaratilgan. U, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tengsizlikni, genderga asoslangan ro‘llarning jamiyatni qanday shakllantirishi va ajratishi mumkinligini o‘rganishga intildi. Shuningdek, feministik yondoshuv faqat genderni emas, balki boshqa ijtimoiy tengsizlik va diskriminatsiya shakllarini ham o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan.

Etnologiyada gender tushunchasi va uning tadqiqotlari so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Genderni faqat biologik jinsga asoslanmay, balki ijtimoiy va madaniy konstruktsiya sifatida qarash, jamiyatdagi erkaklar va ayollar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Margaret Mead, Eleanor Leacock va Annette Weiner kabi ilmiy yondoshuvlar genderning turli madaniyatlarda qanday shakllanishini o‘rganishda muhim rol o‘ynadi. Ularning asarlari genderning madaniyatdagi roli, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va erkaklar va ayollar o‘rtasidagi ijtimoiy taqsimotni qayta baholashga imkon berdi. Feministik etnologiya yondoshuvi esa, genderga oid ijtimoiy adolatsizliklarni tanqidiy ravishda tahlil qilishga, ayollarning ovozini eshitishga va jinsiy tengsizlikni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy harakat sifatida ajralib turadi. Etnologiyada gender tadqiqotlarining rivojlanishi, ayniqsa feministik yondoshuvning ta’siri, ijtimoiy adolat va tenglikni ta’minlash yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Bu soha, jamiyatdagi gender rollari va tengsizliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun o‘zining muhim metodologik va nazariy asoslarga ega bo‘lib, kelajakda ham o‘rganishni davom ettirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Freeman D. Margaret Mead and the Heresy of Anthropology. American Anthropologist, 101(3), 557-562.
2. Leacock E. The Myth of the Male Breadwinner: Women and Industrialization in the Third World. New York: Monthly Review Press. – 87 p.
3. Leacock E. Myths of Male Dominance: Collected Articles on Women Cross-Culturally. New York: Monthly Review Press. – 192 p.
4. Leacock E. Women and the Evolution of the Family. In M. G. M. (Ed.), Feminism and Anthropology (pp. 68-91). Boston: Beacon Press. – 354 p.
5. Lévi-Strauss C. The Elementary Structures of Kinship. Boston: Beacon Press. – 500 p.
6. Lévi-Strauss C. Totemism. Chicago: University of Chicago Press. – 184 p.
7. Lévi-Strauss C. Structural Anthropology. New York: Basic Books. – 432 p.
8. Mead, M. (1928). Coming of Age in Samoa. New York: William Morrow & Co. – 320 p.
9. Mead M. Growing Up in New Guinea. New York: William Morrow & Co. – 342 p.
10. Mead M. Sex and Temperament in Three Primitive Societies. New York: William Morrow & Co. – 423 p.
11. Moore H. Feminism and Anthropology. Minneapolis: University of Minnesota Press. – 230 p.
12. Ortner S. B., Whitehead, H. Sex and Gender: The Development of Feminist Anthropology. Annual Review of Anthropology, 10, 255-278.
13. Segal M. Margaret Mead and the Science of Gender. Women's Studies International Forum, 30(4), 313-323.
14. Turner V. The Forest of Symbols: Aspects of Ndembu Ritual. Ithaca: Cornell University Press. – 376 p.
15. Weiner A. Women of Value, Men of Renown: New Perspectives in Trobriand Exchange. Chicago: University of Chicago Press. – 246 p.
16. Weiner A. The Trobrianders of Papua New Guinea. New York: Holt, Rinehart and Winston. – 388 p.
17. Weiner A. Women of Value, Men of Renown: New Perspectives in Trobriand Exchange. Austin: University of Texas Press. – 264 p.
18. Stoler A. L. Carnal Knowledge and Imperial Power: Race and the Intimate in Colonial Rule. Berkeley: University of California Press. – 384 p.

ТУРКИЙ ҚАБИЛАЛАРНИНГ ЎЗБЕК ХАЛҚИ ЭТНИК ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ

Зухра Қ. Шоаслонова
Чирчиқ давлат педагогика университети талабаси
Е-маил манзили: шоаслоноваз@gmail.com

Калит сўзлар: *чигил, яғмо, қай, тангут, "панисломизм", Пантур-кизм, қарлуқ, ўғуз, этнос, советлаштириш, туркий ҳонлик, ҳалифалик, цивилизация, Бейши.*

Аннотация: *Мазкур мақола Ўрта Осиё ҳудудида қадимдан шаклланиб келаётган туркий қабилаларнинг ўзбек этногенезига қўшган таъсири ҳамда кўчманчи аҳолиларнинг этник аралашув натижасида маҳаллийлашиб кетиши оқибатида яҳлит бир этник бирлик-ўзбек халқининг шаклланиши ҳақида маълумот беради.*

THE PLACE OF THE TURKISH TRIBES IN THE ETHNIC HISTORY OF THE UZBEK PEOPLE

Zuhra Q. Shoaslonova
The student of Chirchik State Pedagogical University
E-mail address: shoaslonovaz@gmail.com

Key words: *Chigil, Yagmo, Kay, Tangut, Pan-Islamism, Panturkism, Qarluq, Oghuz, ethnos, Sovietization, Turkic khanate, caliphate, civilization, Beyshi.*

Abstract: *This article provides information about the influence of the Turkic tribes that have been forming in Central Asia for a long time on the Uzbek ethnogenesis and the formation of a single ethnic unit - the Uzbek people - as a result of the localization of the nomadic population as a result of ethnic mixing.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi, balki butun Markaziy va O'rta Osiyo mintaqasida eng ko'p tarqalgan etnik jamoalardan biri-o'zbeklar bo'lib, olimlar ularning etnogenezini o'rganishni juda murakkab deya baholaydilar. Ma'lumot berilishicha markaziy osiyo mintaqasining 35 foiz aholisini o'zbeklar tashkil etib ular son jihatidan; O'zbekistonda 37 million, Tojikistonda 1,700 ming, Qirg'izistonda 1 million, Qozog'istonda 600 ming, Turkmanistonda 900 ming kishini tashkil etadi Bundan tashqari, Afg'oniston, Rossiya, hamda Turkiya hududlarida ham ko'plab o'zbek aholisi istiqomat qiladi.

Dastlab o'zbeklar qadimgi Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, hamda Sharqiy Turkiston hududlarida istiqomat qilgan. Ularning asosini qadimgi baqtriyaliklar, sug'diylar, farg'onaliklar, xorazmliklar, sak-massagetlar va qang'liklar kabi etnik birliklar tashkil etgan. Bulardan tashqari

etnogenezning rivojlanishida o'g'uz, qarluq hamda turkiy qabilalarining ham o'rni alohida e'tiborga molikdir. Tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilish ishlari olib borilganda Movaraunnahr hududlarida so'nggi bronza davridayoq nomlari qayd etilgan elatlar orasida ilk etnik aralashuv jarayonlari sodir bo'lganligi aniqlashtirildi[117]. Undan tashqari yurtimiz hududlarida bir necha bosqinchilik harakatlarining olib borilishi ko'plab etnik yangilanishlarga olib keldi. Bularga mo'g'ullar va arablar bosqinini yaqqol misol sifatida olishimiz mumkin. Tarixda hech narsa bejiz bo'lmaydi. Har qanday bosqinchik yurishlari yohud har qanday inqilob yangi sivilizatsiya va yangi tuzumning shakllanishiga olib keladi. Endilikda yurtimiz hududida istiqomat qilgan etnik jamoalarning o'zbek xalqining shakllanishida tutgan o'rni haqida mulohaza yuritamiz.

Sobiq sovet hokimiyati respublikamiz hududida sovetlashtirish siyosatini olib borayotganda o'zbek xalqining shakllanishi va tarkibini o'rganishga ham kirishadilar. Etnograf olim Ahmadali Asqarovning ma'lumot berishich[118]; sovet olimlarining o'rganilish ishlari zamirida "panturkizm" "panislomizm" va "panironizm" kabi tushunchalar paydo bo'la boshladi. Ularning ta'limotiga ko'ra o'rta osiyo hududida qadimdan faqat turkiy qabilalar yashab kelgan, shuning uchun ham ular tuzgan diyor dastlab Turon keyinchalik esa Turkiston deya atala boshlagan deya hisoblaydilar. Hatto ba'zi bir olimlar o'zbek xalqining kelib chiqishini Nuh payg'ambarning o'g'li Yosafdan tug'ilgan farzand-Turkdan tarqalgan deb hisoblab "panislomizm" g'oyasini ilgari suradilar. O'zbek olimlarining ko'pchiligi esa xalqimizning kelib chiqish tarixini Turk xoqonligi davri bilan bog'laydilar. Biz bu qarashlarga albatta qarshi emasmiz ammo o'zbek xalqining shakllanishida turkiy bo'lmagan qavmlarning qatnashganligini va qadimdan shakllanish jarayoni boshlanganligini ham hisobga olishimiz zarur.

O'zbek etnografiyasi, balki butun Turkiy xalqlar tarixini o'rganishda o'rta asr mualliflaridan biri Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari alohida o'rin egallaydi. Mazkur asarda o'zbek qabilalarining qadimiy ajdodlari hisoblangan chigil, yag'mo, tangut, qipchoq va boshqa qabilalar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi. Endilikda bu qabilalar haqida ham biroz to'xtalib o'tamiz. Devonda dastlab Tangutlar haqida shunday ma'lumot beriladi: Tangutlar Chin yaqinida yashovchi toifa hisoblanib "ular asli turklar ammo o'zlarini arablar deya da'vo qiladilar deya fikr yuritiladi. Ularning lingvistikasi o'rganilganda, tillarida bir qancha nuqsonlar sezilarli darajada bo'lgan. Olimlar bu qabila juda qadimda yashagan xalqlarning turkiylashib ketgan qismi degan fikrga

[117] Ashirov A., Atadjanov Sh.; "ETNOLOGIYA" Toshkent. "IQTISOD-MOLIYA" 2008. B 96-97
[118] Asqarov A.; "O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi". Toshkent.,"Universitet" 2007. B 81-83

keladilar. Bundan tashqari ma’lumotlarga qaraganda Bilgaxonning tangutlarga qarshi jangi qarluqlar va bosmillarga qarshi olib borgan janglaridan oldinroq bo’lib o’tgan. Bundan ko’rinib turibdiki tangutlar eng qadimgi turkiy qabilalardan biri hisoblanadi.

O’zbek etnogenezida alohida o’rin egallagan qabilalardan yana biri Yag’molardir. “Yag’mo” so’zi Tiroz yaqinida joylashgan kichik bir shahar nomidan olingan bo’lib, uning aholisi ham dastlab “yag’molar” yoki “qora yag’molar” deya atala boshlangan.Yag’mo qabilalarining bir qismi Ili daryosi bo’ylarida, bir qismi esa Chigil qabilalari bilan birgalikda hayot kechirganlar. Ularning asosiy mashg’ulotlari savdo-sotiq bo’lib aholining katta qismi savdo-sotiq bilan shug’ullangan. Turkiy qabilalarning shakllanishida yamaklar va yaboqu qabilalarini sanab o’tmaslikning iloji yo’q. Yamak qabilalari ham turkiy qabilalarning shakllanishida jadal ishtirok etib, ular yashagan hududlar Irtish daryosi bo’ylarini ishg’ol etadi. Yamaklar Yaqubu, chigil, qay kabi qabilalar bilan bir davrda yashaganliklari ularning ligvistikasi va toponomikasi orqali aniqlashtirildi. Devonda keltirilgan Yaqobu qabilasi eng katta turkiy qabilalardan biri bo’lib ular egallagan hududlar Qashg’ardan O’zgangacha bo’lgan hududlarni qamrab oladi. Ular nafaqat turkiy qabilalar etnogenezi balki o’zbek xalqining shakllanishiga ham alohida hissa qo’shganlar. Mazkur qabila juda katta hududlarga egalik qilganligini O’zgan hududida joylashgan daryoga Yaqobu nomining berilishidan ham bilib olishimiz mumkin.[119]

Yuqorida nomi zikr etilgan qabila va elatlar qadimgi davrlarda etnogenezning rivojlanishiga poydevor bo’lgan bo’lsa, ilk o’rta asrlarga kelib Kidariylar Xioniylar, Eftaliylar hamda olimlarning mushohadasiga sabab bo’lgan Turk xoqonligi davlati o’zbek etnosining yanada chuqurroq shakllanishiga sarmoya bo’lib xizmat qildi. Dastlab kirib kelgan qabila Kidariylar, bo’lib, ko’pchilik tadqiqotchilarning fikricha ular eron tillarida so’zlashuvchi xalqlar bo’lgan. Ammo mavjud bo’lgan tarixiy manbalar asosida shuni aytishimiz mumkinki, Xioniylar va eftaliylar turk tilli xalqlar hisoblanganlar. Xitoy tarixchilari, jumladan Beyshining ma’lumotlarida berilishicha kidariy va xioniy qabilalari o’z hukmdorligi davrida Movaraunnahr hududiga bostirib kirayotgan Eron sosoniylariga qarshi chiqib Xuroson chegaralarida qattiq janglar olib borgan. IV asrda Movarounnahr hududida yashovchi yirik turkiy etnoslardan yana bittasi eftaliylar ba’zi manbalarda “xeptal”, “eptal”, “abdal” nomlar bilan atalgan qabila bo’lgan. Eftaliylar ham xunlardan ajralib chiqqan yirik etnoslardan biri hisoblanadi. Bularning ilk ajdodlari Oltoy va Sayon tog’oldi

[119] Mahmud Koshg’ariy “Devonu Lug’otit Turk” III tom, S.M. Mutallibov tarjimasi; “O’ZBEKISTON SSR FANLAR AKADEMIYASI NASHRIYOTI”; Toshkent., 1963. B 458-460

mintaqalarida yashaganlar. Milodiy II-III asrlarda ularning katta bir qismi g'arbga siljib III asr oxiri-IV asrda Volga daryo bo'ylariga, Qora dengiz yaqinidagi cho'llarga va Shimoliy Kavkaz mintaqalariga borib o'rnashgan. G'arbga qarab siljigan xunlar tarkibida abdal, eftal etnonimlari mavjud edi. Xunlar g'arbga ko'chish vaqtida ularning yirik bir guruhi milodiy III asrda janubga, Movarounnaxr xududiga kelib o'rnashgan degan taxminlar ham mavjud. Eftaliylarning ba'zi guruhlari tarixchi –geograf Gardiziyning yozishicha Xurosonda xam yashagan.

Movarounnahrda qolgan eftaliylar shu hududda yashayotgan qang'arlar bilan qo'shilib tub yerli turkiy zabon etnik qatlamga singib ketgan. Bularning avlodlari o'z etnik nomlarini bizgacha saqlab qolganlar. O'zbek va turkman xalqining tarkibida XX asr boshlarigacha abdal etnomini mavjudligi buning dalili bo'la oladi. Abdal etnik guruhi boshqird xalqining ichida xam mavjud bo'lgan. [120] Eftalitlar yirik davlat tizimini vujudga keltirdilar. Ular O'rta Osiyo, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos solib, Kushon davlati o'rnida undan ham kattaroq hududlarni birlashtirdilar. Eftalitlar Eronning sosoniylar davlatiga, uning harbiy harakatlariga qarshi tura oldilar hamda sosoniylarning O'rta Sharqdagi hukmronligiga chek qo'ydilar. Eftalitlarning uzoq yillik hukmronliklari davomida madaniy hayotda ham ko'plab yangilanishlar kiritildi. Buxoro, Termiz, Xorazm, Samarqand kabi yirik shaharlar hunarmandchilik, savdo-sotiq va me'morchilikning markazlariga aylandi. Bundan tashqari, davlat hududida dehqonchilikni rivojlantirish uchun bir qancha suv inshootlari qad ko'tardi. Dinga ham alohida e'tibor qaratildi. Aholining endilikda Movoraunnahr hududlarida yashab qolishlari etnik aralashuvni yuzaga keltirib, mahalliy etnogenez asosining bir qismiga aylandi.

O'zbek etnogenezining shakllanishida ilk o'rta asrlarda qabilalar birlashuvidan tashkil topgan Turk xoqonligi ham alohida o'rin egallaydi. Turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542 yilga to'g'ri keladi. Turli manbalarda turklar "turk el", "turk", "turkash", "tukdus", "tu-kyu", "tuk-yut" kabi nomlar bilan tilga olinadi. Kuchli, baquvvat, botir kabi ma'nolarni anglatuvchi "turk" atamasi dastavval etnik xususiyatga ega bo'lmay balki faqatgina ijtimoiy ma'noga ega bo'lgan. Turklarning kelib chiqishi xususida ko'plab afsonalar mavjuddir. Yuqorida sanab o'tganimizdek, ayrim afsonalarda turklarning kelib chiqishi Nuh paygambarga borib taqalsa, ayrimlarida ular o'n yashar bola va ona bo'ridan tarqalganligi ta'kidlanadi. Yana boshqa bir afsonaga ko'ra, turk qabilasining ajdodlari Oltoyning shimoliy yon bag'irlarida joylashgan So

[120] G'affurov Bekmurod G'ulomjon o'gli ."O'zbek xalqining etnogenezi" So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy uslubiy jurnali; 6-jild, 6-son 2023.

viloyatidan kelib chiqqan bo'lib, bu yerdagi qabila boshlig'i Abanbu ularning ilk yo'lboshchisi bo'lgan. Turk xoqonligining paydo bo'lishi 551-552 yillarga to'g'ri keladi. Turklarning Ashin urug'idan bo'lgan Asan va Tuu turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar.[121] Aynan shu davrdan boshlab o'rta Osiyo hududlariga yangi chin turkiy qabila ko'chib kela boshlaydi.Turklarning hududimizga bostirib kirishi ijtimoiy ahvolni ham bir muncha o'zgartirib yubordi. Xususan dastlab sug'diylar qo'lida bo'lgan Buyuk ipak yo'lining boshqaruvi endilikda turklar qo'liga o'tdi. Oradan vaqt o'tib Turk xoqonlari orasida ichki ziddiyatlarning kuchayib ketishi davlatni ikki qismga ajralib qolishiga sabab bo'ldi. Ayni shu ahvol xalqning turli xil zug'umlar ostida qolib ketishiga ham sabab bo'ldi. Ammo Turk xoqonligining mahalliy aholi bilan aralashuvi madaniy, ijtimoiy hamda siyosiy sohaga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Aholi bilan birga kirib kelgan din, urf odat yozuv hamda shu kabi madaniy tizimlar mahalliy xalq orasida yangi inqilob hosil qildi[122]. Jumladan Turk xoqonligi davrida me'morchilik, hunarmandchilik, savdo sotiq,va dehqonchilik ishlariga ham aholida e'tibor qaratildi. Madaniy sohalarga ham alohida e'tibor qaratildi. Ayniqsa aholi orasida turkiy yozuvning tarqalishi yangi bir til birligining shakkllanishiga asos bo'ldi. Mahalliy aholi Turkiy xoqonlik davriga kelib Vizantiya, Eron Xitoy, kabi yirik davlatlar bilan savdo aloqalarining yaxshilanishiga olib keldi O'rta osiyo aholisi Turkiy xoqonligi tarkibida bo'lishi o'sha davr davlatchilik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Avvalo, Turkiy xoqonligi juda katta hududlardagi turkiy qabilalarning birlashuvi va jipslashuviga keng imkoniyatlar yaratib, O'rta Osiyodagi ayrim turkiy xalqlar shakllanishiga asos soldi.

Turk xoqonligi boshqaruvidan so'ng Movaraunnahr hududlariga badaviy qabila-Arablarning kirib kelishi butun Osiyo mintaqasi hududi balki Afrika Yevropa tarixiga ham yangi bir inqilob "islom sivilizatsiyasi" tushunchasini kiritdi. Arablarga qadar bo'lgan davrlarda o'rta osiyo hududlarda zardushtiylik, buddaviylik, moniylik kabi dinlar hukm surgan bo'lsa VIII asr boshlariga kelib, mintaqamiz hududlarida ham yakka xudolikka asoslangan yangi din-Islom beshigining paydo bo'lishi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotga ham tub burilish yasab berdi. Xalifalar tomonidan dinning tez orada tarqatilishi qadimdan saqlanib kelgan animizm, totemizm qarashlarining butunlay yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'ldi. Ko'chmanchi arablarning keyinchalik Markaziy Osiyo hududlarida muqim o'rnashib qolishi boshqa turkiy qabilalar kabi o'zbek

[121] Eshov B.J., Odilov A. A. - O'ZBEKISTON TARIXI 1-jild; Toshkent 2013. B 172-175

[122] Akram Toshtemirov. Discovery and Interpretation of Early Medieval Murals in Central Asia. Web of Semantics: Journal of Interdiscliplinary Science. Vol.2. No 6 (2024). P. 380-385

etnogenezining yangilanishiga ham sabab bo’ldi. Endilikda xalq orasida yangicha diniy qarashlar paydo bo’lib “johiliya davri” ma’rifat davri bilan almashtirildi. Islom dini negizida hokimiyat boshqaruvida ham yangi boshqaruv va qonun tizimlari shakllantirildi. Aholi tabaqasiga bo’lgan qarashlar tenglashtirildi. Ayol hamda erkaklar huquqlari bir qolib solishtirildi. Umuman olganda VII-VIII asrlarda mamlakatimiz hududida sodir bo’lgan bu yangilanish XIX asrgacha hukmdorlik qilgan xonliklar davrida ham o’z qiymatini yo’qotmadi. Hattoki davlat boshqaruvi tizimlari ham islom dini asosida shakllantirildi.

Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida bosqinchilik yurishlari va mustamlakachilik tizimi oqibatida ko’chmanchi aholilarning mamlakatimiz hududida o’troqlashib qolishi o’zbek etnogenezining yaxlit bir holga kelishiga sabab bo’ldi. Tarixchi olim Ahmadali Asqarov ta’kidlaganidek, Xalq biologik hosila emas, balki ijtimoiy uyushmadir. U darhol hosil bo’lmaydi balki, uzoq davom etadigan etnogenetik jarayonlar yig’indisidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. Ashirov, Sh. Atadjanov; “ETNOLOGIYA”, Toshkent. “IQTISOD-MOLIYA” 2008.
2. A. Asqarov; “O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” Toshkent ., “Universitet” 2007
3. Mahmud Koshg’ariy “Devonu Lug’otit Turk” III tom, S.M. Mutallibov tarjimasi; “O’ZBEKISTON SSR FANLAR AKADEMIYASI NASHRIYOTI”; Toshkent 1963.
4. G’affurov Bekmurod G’ulomjon o’gli “O’zbek xalqining etnogenezi” So’ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy uslubiy jurnali; 6-jild, 6-son 13.06.2023.
5. B.J. Eshov, A. A. Odilov- O’ZBEKISTON TARIXI 1-jild; Toshkent 2013.
6. A.Asqarov. O’zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba’zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari//O’zbekiston tarixi 2002
7. K.Shoniyozov O’zbek xalqining shakllanish jarayoni. Toshkent, 2001
8. O’zbekiston etnologiyasi; yangicha qarashlar va yondashuvlar Toshkent 2004.
9. Markaziy Osiyoda an’anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar 1-qism Toshkent 2005.
10. A.Toshtemirov. Discovery and Interpretation of Early Medieval Murals in Central Asia. Web of Semantics: Journal of Interdiscliplinary Science. Vol.2. No 6 (2024).

ТАРИХЧИ ҒИЁСИДДИН ХОНДАМИРНИНГ БОБУРШУНОСЛИККА ҚЎШГАН КАТТА ҲИССАСИ

Абдумажид Мадраимов,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, тарих фанлари доктори, ЎзР ФА Темурийлар тарихи давлат музейи катта илмий ходими,

Аскарий Мадраимов,
Тошкент давлат шарқшунослик университети доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Калит сўзлар*: Темурийлар, Султон Абусаъид Мирзо, Умар-шайх Мирзо, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Алишер Навоий, Мирзо Муҳаммад Ҳайдар, “Ҳабиб ус-сайар”, “Хулосат ул-ахбор”, “Бобурнома”, “Тарихи Рашидий”, бобуршунослик.*

.

Аннотация: *Ушбу мақолада Темурийлар даври йирик тарихчиси Ғиёсиддин Хондамирнинг асосий “Ҳабиб ус-сайар”, “Хулосат ул-ахбор”, “Макорим ул-ахлоқ” асарлари ҳақида маълумотлар келтирилди. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳаёти ва фаолияти Мовароуннаҳр, Кобул ва Шимолий Ҳиндистонда 15 аср охири 16 аср бошларида бўлиб ўтган. Ғиёсиддин Хондамирнинг йирик “Ҳабиб ус-сайар” асарида Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳаёти ва фаолияти тўғрисида қимматли маълумотлар мавжуд. Буларни “Бобурнома” ва Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий” асарларидаги маълумотлар билан қиёсий ўрганиш асосида тарихчининг бобуршуносликка қўшган муҳим ҳиссасини аниқлашга ҳаракат қилинди.*

THE GREAT CONTRIBUTION OF THE HISTORIAN GHIOSIDDIN KHANDAMIR TO BABUR STUDIES

Abdumajid Madraimov,
Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences, Senior Researcher of the State Museum of the History of the Temurids of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

Askariy Madraimov,
Associate Professor of the Tashkent State University of Oriental Studies, Doctor of Philosophy in Historical Sciences

Keywords: *Timurids, Sultan Abusaid Mirza, Umarshaykh Mirza, Zahiriddin Muhammad Babur, Alisher Navoi, Mirza Muhammad Haydar, "Habib us-sayar", "Hulosat ul-akhbor", "Baburnama", "Tarihi Rashidi", Babur studies.*

Abstract: *This article presents information about the main works of the great historian of the Timurid era, Ghiyasuddin Khondamir, "Habib us-sayar", "Khulosat ul-akhbor", "Makarim ul-akhalakh". The life and activities of Zahiriddin Muhammad Babur took place in Transoxiana, Kabul and Northern India in the late 15th and early 16th centuries. Ghiyasuddin Khondamir's major work "Habib us-sayar" contains valuable information about the life and activities of Zahiriddin Muhammad Babur. Based on a comparative study of these works with the information in "Baburnama" and Mirzo Muhammad Haidar's "Tarihi Rashidiy", an attempt was made to determine the historian's important contribution to Babur studies.*

KIRISH

Темурийлар даврини тарихда жуда катта из колдирган, аникса Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) даври ва унинг асос солган давлатнинг тарихи. Шу боис тарихшуносларда бу давир катта қизикиш ўйготади.

Илк бобуршуносларлардан бири деб биз Темурийлар даври буюк тарихчи олим, ёши Заҳириддин Муҳаммад Бобур (1483-1530) дан саккиз ёш улуғ бўлган Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир (1475, Ҳирот-1534, Агра)ни айтишимиз мумкин. Бу тарихчи тўғрисида Б.Аҳмедов (Ахмедов, pp. 33-37), Н.Д.Миклухо-Маклай (Миклуха-Маклай, 1963), Д.Юсупова (Юсупова, 2006), афғон олими Абдуғаффор Баёний (Баёний, 2015), М.Аҳмедов, И.Бекжонов (Хондамир, 2013) ва бошқалар ўз асарларида маълумотлар келтиришган.

TADQIQOTNING USULLARI

Илмий мақсадга эришиш ва қўйилган вазифаларни ҳал этиш учун умумий фалсафий ва махсус тарихий тадқиқот усуллари: таҳлил, синтез, индукция, дедуксия, тавсифий, қиёсий, типологик ва тизимли, шунингдек, манбаларга муносабат бўйича тарихий-танқидий, шарҳлаш усулларидан фойдаланилган.

NATIJALAR

Хондамирнинг отаси Хожа Ҳумомиддин ибн Хожа Жалолиддин Муҳаммад ибн Бурхониддин Ҳиравий Бадахшон ҳокими Султон Маҳмуд Мирзо ибн Султон Абу Саъид Темурийнинг вазири бўлган. Унинг онаси ўз замонасининг таниқли тарихчиси ва машҳур етти жилдли китоб "Равзат ус-сафо" номли асарнинг муаллифи Муҳаммад Мирхонд (ваф. 1498) нинг қизи эди. Хондамир Ҳирот шаҳрида таваллуд топиб, асосан бобоси Муҳаммад Мирхонднинг вафотигача унинг тарбиясида бўлган. Болалик ва ўсмирлик даврларида тафсир,

адабиёт, тил ва тарихни ўқиб ўрганган. Хондамир Султон Ҳусайн Мирзо саройига, жумладан унинг вазири Амир Алишер (1441-1501)нинг ҳузурига йўл топади.

Амир Алишернинг ҳомийлиги ва рағбатлантириши билан тарихчи “Маосир ул-мулук” номли китобини ёзади. Ёш йигитдаги яхшигина истеъдодни кўриб, ўзининг кутубхонасини унинг ихтиёрига топширган эди. Тарихчи ўз ёшлиги тўғрисида “Хулосат ул-ахбор фи баён ал-аҳвол ал-ахёр” (“Яхши кишиларнинг ҳаётлари тўғрисида қисқача маълумотлар”) номли асари муқаддимасида ёзган эди: “Ҳаётимнинг тонги бўлган ёшлик даврим бошларидан улуғ кишиларнинг ҳаётлари тарихини ўрганиш ва тадқиқ этишга қаттиқ қизиқиб, эсимни таниган чоғларимдан бошлаб, азиз умрни китоблар ўқишга сарфладим ва ҳар доим аждодлар ҳаёт йўллари саҳифаларига ҳамда авлодларнинг улар тўғрисидаги қизиқарли ривоятларига кўз ташлаб келдим. Олам тўғрисидаги билимлардан хабардор бўлиб, умматларнинг ҳаётлари ва қилган ишлари тўғрисида бир озгина маълумотга эга бўлгач, шунингдек, ҳазрати Амир Алишернинг адолат ва иноят нурлари ушбу нотавоннинг юзига тушиб, бу ҳолат кун сайин кучайиб, лаҳза сайин такомиллашгач, ҳижратнинг 904 йили (мелодий 1498/1499 йилда) донишманд вазир ва фозил садр Низомиддин Алишер ўз китоблари хазинасини менинг ихтиёримга топшириб, мени ушбу нафис кутубхонадан фойдаланиш шарафига муяссар қилдилар. (Ул ҳазрат ўзларининг кутубхоналарида бўлган тарих ва ривоятларга бағишланган ҳар қандай китобни мендек бир нотавонга тақдим этиб, мени ушбу асарларни ўқиб-ўрганишга рағбатлантирдилар” (Баёний, 2015, 153 б.). Амалда тарихчи Амир Алишернинг китобдори вазифасини бажарар эди. Буюк шоир вафот этган ҳижрий 906/ мелодий 1501 йилигача унинг хизматида бўлган ва ўша йили Алишер Навоий тўғрисидаги “Макорим ул-ахлоқ” (Олижаноб хулқлар) номли китобини ёзади. Шундан сўнг Хондамир Султон Ҳусайн Мирзонинг катта ўғли Бадиуззамон Мирзо хизматига кириб, унинг вазири вазифасини бажаради.

1506 йил 4 майда Султон Ҳусайн мирзо вафот этгач, Бадиуззамон Мирзо ва Музаффар Мирзо иккаласи тахтга ўтиришади, аммо улар Муҳаммад Шайбонийхоннинг 1507 йилги Ҳирот ҳужумига қаршилик кўрсата олмай, мағлуб бўладилар. Хондамир ҳижрий 916 /1510-1511 йилларига қадар Ҳиротда бўлади. Шундан сўнг унинг дарбадарлик ҳаёти бошланади.

Ҳижрий 927/1520-1521 йили Сафавийларнинг Ҳирот шаҳридаги ҳокими Амир Ғиёсиддин Муҳаммад ал-Ҳусайний ал-Қози илтимосига биноан “Ҳабиб ус-сийар” асарининг 1 жилдини ёзиб беради. Шу вақтда

ҳомийси қатл этилади. Янги ҳоким Каримиддин Ҳабибуллоҳ Соважий тарихчини қўллайди ва тарихчи ҳижрий 930/1523-1524 йили ўз китобини унга бағишлаб ёзиб тугатади. Бунгача Хондамир маълум муддат Бадиуззамон Мирзо ўғли Муҳаммад Замон Мирзо хизматида бўлган ва шу йиллар орасида бир-икки марта Заҳириддин Муҳаммад Бобур билан учрашган.

Ҳижрий 932/1526 йили Хондамир Ҳиротда Қандаҳорга йўл олади. Ҳижрий 934/1528 йили у Ҳиндистон томон йўл олади ва ҳижрий 935/1528 йили Агра шаҳрига Бобур ҳузурига борган. “Бобурнома”да Хондамирнинг Ҳиндистонга келгани ҳақида маълумот берилган. Бобур у билан мулоқот қилиб турган. Бир марта у Хондамир, Шайх Зайн ва Мулло Шиҳобни ўз ҳузурига таклиф қилиб, қуйидаги байтни битиб юборган:

Шайху Мулло Шиҳобу Хондамир, Келинг уч-уч, икки-икки, бир-бир (Баёний, 2015, стр. 378).

Хондамир Бобурнинг Бенгалия ва Ганг дарёси соҳиллари бўйлаб қилган юришида унга ҳамроҳлик қилган. 1530 йили Бобур вафот этгач, унинг ўғли Ҳумоюн саройида хизмат қилган, унга бағишлаб “Қонуни Ҳумоюний” асарини ёзган ва “Амири ул-муаррихон” деган шарафли номга муяссар бўлади. Тарихчи ҳижрий 942/ 1535-1536 йили вафот этади ва уни Деҳлидаги Низомиддин Авлиё қабристонига кўмишади.

Темурийлар даврида (1370-1501, Мовароуннахр, 1507 йилгача Хуросон, 1530 йилгача Кобул) яшаб ижод этган йирик ва сермахсул тарихчи бўлган Хондамир ўз ижодини Алишер Навоийнинг ҳомийлигида бошлаган. “Маосир ул-мулук” дан ташқари «Хулосатул-ахбор фи аҳвол ул-ахёр», “Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афрод ул-башар”, «Дастур ул-вузаро», «Макорим ул-ахлоқ» (Алишер Навоийнинг ҳаёти ва фаолиятига бағишланган) сингари асарлар муаллифидир (Юсупова, 2006, стр. 27-60).

Шунингдек, у бобоси, йирик тарихчи олим Муҳаммад Мирхонд қаламига мансуб “Равзат ус-сафо фи сияр ал-анбиё ва-л-мулук ва-л-хулафо” (“Пайғамбарлар, подшоҳлар ва халифалар таржимаи ҳолларининг ям-яшил боғи”)” асарининг тамомланмай қолган еттинчи жилдини ниҳоясига етказган. Хондамир машҳур кишиларнинг мактубларидан “Номаи номий” тўпламини тузган. Ҳумоюн подшоҳ томонидан амалга оширилган давлат ишларидаги ўзгаришлар тўғрисида “Қонуни Ҳумоюний” асарини ёзган[123]. Бобоси Муҳаммад Мирхонднинг “Равзат ус-сафо” асари еттинчи жилдини қораламадан

[123] Яна тарихчининг тўрт асари номи зикр этилади, аммо уларнинг бизгача етиб келгани номаълум.

оққа кўчирган ва унга ўзгартиришлар киритган (Баёний, 2015, стр. 161).

“Маосир ул-мулук” (“Подшоҳларнинг улуғ ишлари”) номли китоби подшоҳ ва донишмандларнинг улуғ ишлари тўғрисидаги маълумотлар йиғилган бўлиб, уч бобдан иборат: 1 боб: Каюмарсдан Анушервонгача бўлган қадимги ажам шоҳлари; 2 боб: Одам алайҳиссаломдан то Бузургмеҳргача бўлган донишмандлар ва 3 боб: Муҳаммад с.а.в. ва покиза имомларнинг машҳур ишлари тўғрисида бўлган. Китоб матни 1993 йили Мирҳошим Муҳаддис томонидан нашр қилинган (Юсупова, 2006, стр. 27-33).

“Хулосат ул-ахбор фи баён ал-аҳвол ал-ахёр” (“Яхши кишиларнинг ҳаётлари тўғрисида қисқача маълумотлар”) асари ҳижрий 905/1499 йили умумий тарихга оид асар. Муқаддима, пайғамбарлар, подшоҳлар, илм-фан, адабиёт ва сиёсат арбобларининг ҳаёти ва фаолияти тўғрисида ўн мақоладан иборат китобдир. Унинг қўлёзмалари Калкутта, Истамбул, Тошкент ва Кобул шаҳарларида сақланади. Китоб француз ва инглиз тилларига таржима қилинган (Баёний, 2015, стр. 159). Китобдаги Алишер Навоийга оид маълумотлар Б.Аҳмедов томонидан ўзбек тилида нашр этилган (Хондамир, 1985).

«Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афрод ул-башар» -“Башар аҳлининг сийратидан хабар берувчи дўст” асари ҳам умумий тарихга бағишланган бўлиб, уни ҳижрий 927/1520-1521 йили ёзишга киришган. У муқаддима, хотима ва уч бобдан иборат. Ҳар бир боб тўрт қисмга бўлинади: 1 бобда жоҳилият, исломдан илгари ўтган пайғамбарлар ва араб халифалиги ташкил топгунча юз берган воқеалар баён қилинади. 2 боб шиа мазҳабидаги имомлар, умавия ва аббосия халифалари, бошқа сулолалар тоҳирийлар, саффорийлар ва сомонийлар ҳақида; 3 боб Чингизхон, унга замондошлар, Темурийлар, Сафавийлар, Шайбонийлар тўғрисида ҳикоя қилинади.

«Дастур ул-вузаро» (“Вазирлар учун қўланма”) асарида Ислом даврининг бошланишидан то ҳижрий 915/1509-1510 йилгача бўлган даврда яшаб ижод этган машҳур вазирлари тўғрисида маълумотларни ўз ичига олади. Унинг ҳижрий 906/1500-1501 йили Султон Ҳусайн Мирзо ва Камолиддин Маҳмуд исмли шахсга бағишлаб ёзилган. Муаллиф китобни ҳижрий 914/1508-1509 йили такомиллаштирган. Асар 1938 йили Саъид Нафисий томонидан Теҳронда нашр этилган (Баёний, 2015, стр. 159).

“Макорим ул-ахлоқ” (“Олижаноб сифатлар”) Алишер Навоийга бағишлаган бўлиб, 1501 йили ёзилган. У 10 боб (мақсад), муқаддима ва хотимадан иборат. Китоб ўзбек тилида М. Фахриддинов ва П. Шамсиев

таржимасии 1941, 1948 ва 1967 йиллари нашр этилган эди. 2015 йили 1981 йили А. Баёний нашри асосида К. Раҳимов таржимаси нашр этилди (Ғиёсиддин, 1981). “Номаи номий” (“Атоқли номалар”) асари қачон ёзилгани маълум эмас. Унда 1521-1524 йилги воқеалар ҳам эслатилган. У 9 бобдан иборат. Китобда иншо илмида фаолият олиб борган етук олим, фозил кишилар ҳақида маълумот бетиб, мактуб, ёрлиқ, фармон ва бошқа ҳужжатлар намуналари мавжуд (Ахмедов, 1994, pp. 358-363). “Қонуни Ҳумоюний” (“Ҳумоюн қонуни”) китоби Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ўғли Ҳумоюнга (1508, 1530-1540, 1543-1506) бағишлаб ёзган, унинг давлатни бошқаришда киритган янгиликлари тўғрисида. Китоб 1940 йили Калкуттада Ҳидоят Ҳусайн томонидан инглизча сўзбоши билан ва 1993 йили Мирҳошим Муҳаддис Теҳронда нашр этган, М. Аҳмедов унинг асосида номзодлик диссертация ёзган (Ахмедов, 1994, pp. 161-162).

Ушбу келтирилган Ғиёсиддин Хондамирнинг асарлари тўғрисидаги ихчам маълумотлар унинг сермахсул олим эканлигини кўрсатади. Тарихчининг «Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афрод ул-башар» - асари 3 бобида Темурийлар ва хусусан Бобур билан боғлиқ тарихий воқеалар ҳам ўрин олган бўлиб, уларни И.Бекжонов форс тилидан таржима қилиб «Буюклик хислати» номи остида 2011 йили Тошкентда нашр этди.

Тарихчи Ғиёсиддин Хондамирнинг бобуршуносликка қўшган ҳиссасини аниқлаш учун унинг “Ҳабиб ус-сийар” асарида мавжуд маълумотларни Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” ва Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий” асарлари билан қиёслаб ўрганишни мақсад қилдик.

MUHOKAMA

Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг аждодлари, Амир Темур ва Темурийлар тўғрисида тарихий асарлар талайгина, уларнинг ичидан Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн” асарида бу сулоланинг 1470 йилгача, яъни Султон Абу Саъид Мирзонинг ҳалок бўлиши ва Хуросон тахтига Султон Ҳусайн Мирзонинг ўтириши билан тугалланади. Дадил айтиш мумкинки, Ғиёсиддин Хондамир ўзининг “Ҳабиб ус-сийар” асарида Султон Абу Саъид Мирзо фарзандлари тўғрисидаги маълумотларни ёзиб, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асари учун асос яратгандай туюлади.

“Ҳабиб ус-сийар”дан танлаб олинган китобнинг бошида биз “мақтов хислатли Султон Абу Саиднинг шон-шавкатли ўғиллари аҳволининг қисқача зикри (11-32 саҳифалар)”да подшоҳдан қолган ўн бир нафар шаҳзодалар тўғрисида, жумладан Бобурнинг отаси

Умаршайх Мирзо тўғрисида (23-28 саҳифалар) ҳам маълумотлар келтирилган.

“Бобурнома” матнида биз асосан уч подшоҳ бўлган Султон Аҳмад Мирзо, Султон Маҳмуд Мирзо ва Умаршайх Мирзолар тўғрисида мукаммал, қолган Султон Абу Саъид Мирзо ўғиллари шунчаки зарур жойларда эслаб ўтилади, холос.

“Тарихи Рашидий” асарида фақат “Бобур подшоҳнинг насл-насаби, унинг мўғул хоқонлари билан қариндошлаги тасвири ва фаолияти аввали қисқача баёни” (248-254 саҳифалар) мавжуд бўлиб, унда Султон Абу Саъид Мирзонинг хонларни Чиғатой авлодидан кўтаришга барҳам бериб, Юнусхонни Мўғулистонга жўнатгани ҳамда Султон абу Саъид Мирзонинг уч ўғлига уч қизини никоҳлаб берган эслатилади: “Султон Абу Саидга замондош улуғ сайиид, машойих ва уламолар зикри” (32-35 саҳифалар) сарлавҳаси остида асосан Хожа Носириддин Убайдуллоҳ ва унга марҳум Султон Абу Саъид Мирзо муносабати ёритилган.

Шундан сўнг “Заҳириддин Муҳаммад Бобур подшоҳ ҳаёти, туғилишидан Самарқанд шаҳри томонга юриш қилиш замони”гача (36-49 саҳифалар), “Самарқанд томонга иккинчи марта юзлангани” (50-59), “Мирзо Бойсунғур ва Амир Хусравшоҳнинг Ҳисори Шодмон томонга қўшин тортгани” (59-61 саҳифалар), “Самарқанднинг Бобур тасарруфидан чиққани зикри” (61-89 саҳифалар), “Муҳаммад Мазид Тархоннинг Султон Али Мирзо билан ёвлашгани…зикри” (90-92 саҳифалар), “Муҳаммад Мазид Тархоннинг Бобур ҳузурига кетгани зикри” (92-96 саҳифалар), “Муҳаммад Шайбонийхон ҳаёти…зикридаги гаплар” (97-103 саҳифалар), “Муҳаммад Шайбонийхоннинг Самарқанд ва Бухоро томон юриши” (104-111 саҳифалар), “Султон Али Мирзо ва Хожа Яҳёнинг шаҳид бўлгани зикри” (111-117 саҳифалар), “Баъзи ёмон ишлар … зикри” (117-119 саҳифалар), “Бобур подшоҳ кўрган туш… зикри” (119-121 саҳифалар), “Самарқанд шаҳрининг фатҳ бўлгани” (122-134 саҳифалар), “Подшоҳнинг Самарқанд шаҳрига беркингани”…(135-145 саҳифалар), “Подшоҳнинг Самарқандни ташлаб чиққани зикри” (145-147 саҳифалар) каби Мовароуннаҳрдаги воқеалар баён этилган.

Буларнинг аксарияти “Бобурнома”да ҳам мавжуд. Лекин иккала манба маълум даражада бир бирини тўлдиради. Лекин Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг туғилиши тафсилоти “Бобурнома”да мавжуд эмас. Бироз қисқароқ таҳририда “Тарихи Рашидий”да мавжуд.

Умуман, Ғиёсиддин Хондамир маълум даражада Мовароуннаҳр тарихини имкони доирасида ёрита олган, деб хулоса қилиш мумкин.

Кобул воқеалари Султон Абусаъид Мирзонинг Улуғбек Мирзо Кўрагон исмли ўғли тарихи (28-29 саҳифалар) дан бошлаб ёритилган ва унинг ўғли Мирзо Абдураззоқ қисқа вақт подшоҳ бўлгани, кейинча Кобулни Мирзо Муқим томонидан эгалланиши, ундан сўнг Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳокимиятга келиши баён қилинган. “Кобулнинг Муқим Арғун тасарруфига киргани зикри” (147-148 саҳифалар), “Бадиуззамон Мирзонинг Шайбонийхонга қарши қўшин тортгани… ва орқага қайтгани зикри” (149-152 бетлар), “Бадиуззамон кишилари фитнаси ва Шайбонихоннинг Балхга йўналгани” (152-156 саҳифалар), “Шайбонийхоннинг... Балх мамлакат уфқида балқиб чиқиши” (157-163 саҳифалар), “Султон Маҳмудхон ва Олачахоннинг...Муҳаммад Шайбонийхон ўртасида рўй берган уруш” (164-166 саҳифалар), “Амир Муҳамад Боқирнинг... Бобур ҳузурига келгани” (167-170 саҳифалар), “Бобур подшоҳнинг Кобул шаҳрини тасарруфига киритгани зикри” (170-172 саҳифалар) иккинчи марта баён этилган.

Шу билан бирга Хуросон воқеалари ичида “Бадиуззамон Мирзонинг зикри” (173-175 саҳифалар), “Бадиуззамон Мирзонинг Шайбонийхонга қарши йўналгани” (175-178 саҳифалар), “Бадиуззамон мирзонинг...Балхоб томонга йўналгани” (179-180 саҳифалар), “Бадиуззамон Мирзони Қандаҳорга боргани (180-182 бетлар), “Хуросон султонларининг Шайбонийхон билан тўқнашиш... зикри” (182-186 саҳифалар), “Бобур подшоҳнинг Мурғоб дарёси бўйида Хуросон султонларига қўшилгани” (186-192 саҳифалар), “Балхнинг Шайбонийхон тасарруфига киргани” (192-196 саҳифалар), “Бадиуззамон Мирзонинг Яйлоқи Маралга кетгани зикри” (196-203 саҳифалар), “Хуросон ҳокимлари ва аскарларининг тарқалиб кетгани” (203-205 саҳифалар), “Ҳирот улуғларининг. Шайбонийхон ҳузурига етишгани” (205-208 саҳифалар), “Улуғ вазирларнинг Ҳирот шаҳрига киргани” (209-212 саҳифалар), “Ихтиёриддин қалъаси” (213-215 саҳифалар), “Хуросонда ҳодисалар” (216-220 саҳифалар), “Бадиуззамон ва Музаффар Мирзоларнинг Журжон вилоятига келгани” (221-224 саҳифалар), “Шайбонийхоннинг Эрон мамлакатига юриши” (224-229 саҳифалар), “Султон Ҳусайн Мирзо ўғиллари” (229-258 саҳифалар), “Шоҳ Исмоил Хуросон фатхи” (258-261 саҳифалар), “Ғалаба аломатли аскарларнинг йўналгани” (261-265 саҳифалар), “Султонлик жангининг рўй бергани” (265-273 саҳифалар), “Шоҳ Исмоилнинг овга чиққани” (273-275 саҳифалар), “Бобур Подшоҳ Мовароуннаҳрга юриш баёни” (276-283 саҳифалар), “Нажми Соний баёни” (284-290 саҳифалар), “Шоҳ қўшинининг Машҳад шаҳрига етишгани” (291-292 саҳифалар), “Қутлуғ Мавкабнинг Наҳжавон

қишловига кетгани” (292-294 саҳифалар), “Хуросон мамлакатларини бошқарувчи Амир Султон аҳволи” (294-297 саҳифалар), “Шу кунларда рўй берган воқеалар (298-302 саҳифалар) баёнидан иборат.

Ушбу китобдаги воқеалар баёни ҳудудлар, ва сулолалар Темурий, Шайбоний ва Сафавийлар тарихига дахлдор жуда кўплаб маълумотларни қамраб олгани ҳамда таржимон томонидан танлаб олинган маълумотлар қисман Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳаёти, қариндошлари, уч сулола вакилларининг ўзаро курашлари тафсилоти мавжудлини билан ажралиб туради. Хондамир асаридаги маълумотлар маълум даражада “Вақойиъ”-“Бобурнома” китобида мавжуд бўлмаган бир қисм воқеаларни ёритгани билан қимматлидир.

Ғиёсидддин Хондамирнинг “Ҳабиб ус-сийар” асаридаги Хуросон ва Кобулда бўлган воқелар тафсилоти Мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий” асарида ҳам мавжуд эмас. Фақат Мовароуннаҳрдаги Бобурнинг сўнгги юришига оид маълумотлар иккала китобда мавжуд бўлиб, алоҳида “Бобурнома”да ёритилган эмас.

Ғиёсиддин Хондамирнинг Бобуршунос сифатидаги хизмати тўғрисида шуни айтиш керакки, уларнинг ёши улуғ ва тажрибаси Заҳириддин Муҳаммад Бобурдан кўп бўлишига қарамай, ижодда маълум даражада ўзидан ёш замондошининг янгиликларини ўзлаштириш ҳамда унинг ҳаётини ҳам ёритишга интилгани диққатга сазовор.

XULOSA

Ғиёсиддин Хондамирнинг “Ҳабиб ус-сийир” ва “Хулосат ул-ахбор асарларидаги Заҳириддин Муҳаммад бобур ҳаёти ва унинг замондошлари тўғрисидаги “Бобурнома” асари ва мирзо Муҳаммад Ҳайдарнинг “Тарихи Рашидий” асаридаги маълумотларни қиёсий ўрганиш қуйидаги хулосаларга келиш мумкин: 1. Ғиёсиддин Хондамирнинг Заҳирид дин Муҳаммад Бобурнинг ҳамма амакилари, Султон Абу Саъид Мирзо ўғиллари тўғрисидаги маълумотлар “Бобуронма” ва “Тарихи Рашидий” асарида мавжуд эмас.

2. Заҳирддин Муҳаммад Бобурнинг туғилиши ва ёшлиги тўғрисидаги маълумотлар “Тарихи Рашидий”га нисбатан тўлиқ, улар “Бобурнома”да умуман йўқ. Демак Ғиёсиддин Хондамир асаридаги Бобурнинг болалиги тўғрисидаги маълумотлар бобуршуносликка қўшилган ҳисса дейиш мумкин.

3. Ғиёсиддин Хондамирнинг “Хулосат ул-ахбор” ва “Макорим ул-ахлоқ” асарларидаги Алишер Навоий ва унинг замрндошлари тўғрисидаги маълумотлар, “Бобурнома”, “Тарихи Рашидий” асарида янги таҳрирла қисқароқ қилиб қайта баён этилади. Бундай

маълумотлар Хондамирда батафсил, аммо “Бобурнома” жуда ихчам. “Тарихи Рашидий” улар баёнида айрим ўзгаришлар мавжуд.

4. Ғиёсиддин Хондамирнинг 15 аср охири Ҳиротдаги ўз замондошлари ва Алишер Навоий тўғрисидаги маълумотлар жуда мукаммаллиги билан ажралиб туради. Бобур Мирзо уларни ихчам, лекин ўзига хос тарзда энг муҳим хусусиятларини баён этиш билан чекланади. “Тарихи Рашидий”да Хуросон маданий ҳаётида имкон даражасида ёритилган. Умуман, уччала тарихчилар асарлари 15 аср охири Ҳирот маданий ҳаёти ва унда Алишер Навоийнинг ҳомийлик фаоилиятини ёритишда бир-бирларини тўлдиради, деган хулосага келиш мумкин.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ахмедов Б. Историко-географическая литература Средней азии 16-18 веков, -Ташкент: “Фан”, 1986, -стр. 33-37;
2. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар, -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1994, Б. 337-363.
3. Миклухо-Маклай Н. Д. Хондамир и “Записки Бабура” // Тюркологические исследования.-Москва-Ленинград, 1963, -С. 237-249; Редакция по всеобщей истории Хондемира (“Хабиб ас-сийар”) // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов востока: Тез.докл. 3 годоч.науч.сес. ЛОИНА, май 1967.-Ленинград, 1967, Б. 23-24.
4. Юсупова Д. Ю. Жизнь и труды Хондамира.-Ташкент: “Фан”, 2006, -328 с.
5. Баёний А. Хондамирнинг ҳаёти ва ижоди / Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015, Б.151-166.
6. Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир. Буюклик хислати.-Тошкент: “Sharq”, 2011, Б. 3-10.
7. Баёний А. Хондамирнинг ҳаёти ва ижоди/ Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул ахлоқ. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015, 153 бет.
8. Юсупова Д. Жизнь и труды Хондамира, 27-60 бетлар.
9. Баёний А. Хондамирнинг ҳаёти ва ижоди, 161 бет
10. Юсупова Д. Жизнь и труды Хондамира, 27-33 бетлар;
11. Баёний А. Хондамирнинг ҳаёти ва ижоди, 158-159 бетлар.
12. Баёний А. Хондамирнинг ҳаёти ва ижоди, 159 бет
13. Хондамир. Хулосат ул-ахбордан /Б. Аҳмедов таржимаси/ Навоий замондошлари хотирасида.-Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985, -58-152 бетлар.
13. Баёний А. Хондамирнинг ҳаёти ва ижоди, -159 бет.
14. Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ /1981 йилги А. Баёний нашри асосида К. Раҳимов таржимаси. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, -208 бет.
15. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар, 358-363 бетлар.

AZERBAYCAN SEYYAHI ABDURAŞİT EL-BAKUVİ VE ONUN "TELHİSU'L-ÂSAR VE AJAİBU'L-MELİKİ'L-KAHHAR" İSİMLİ SEYAHETNAMESİ HAKKINDA

Tahir S. Şahbazov
Azerbaycan Milli İlimler Akademisi A.A.Bakihanov adına Tarih ve Etnoloji Enstitüsü, Doçent Doktor.
E-маил манзили: tshahbazov.65@gmail.com

Anahtar Kelimeler: *Bakuvi, seyyah, Harezm, Bakü, Mekke*

Annotasiya: *XIV əsrin sonu - XV əsrin əvvəllərində yaşamış Əbdür Rəşid əl-Bakuvi orta əsrlər Azərbaycanın görkəmli alim və coğrafiyaşünas-səyyahlarından biri olmuşdur. Ömrünün çox hissəsini səyahətdə keçirən A.Bakuvi hicri təqvimi ilə (1403) 806-cı ildə "Telhisul-Asar və Əcəybul-Meliki'l-Kəhhar" ("Abidələr haqqında qısa məlumat və qüdrətli hökmdarların möcüzələri"). Kitabda dünyanın yeddi möcüzəsinə aid ölkələr, şəhərlər, dənizlər və çaylar haqqında məlumatlar, eləcə də geniş coğrafi ərazidə yaşayan xalqlar haqqında tarixi-etnoqrafik məlumatlar yer alıb.*

ABOUT AZERBAIJAN TRAVELER ABDURAŞİT EL-BAKUVI AND HIS TRAVEL NAMED "TELHISU'L-ÂSAR VE AJAIBU'L-MELİKİ'L-KAHHAR".

Tahir S. Shahbazov
Azerbaijan National Academy of Sciences, Institute of History and Ethnology named after A.A.Bakikhanov, Associate Professor
E-mail address: tshahbazov.65@gmail.com

Key words: *Bakuvi, traveler, Khorezm, Baku, Mecca*

Abstract: *The article describes the history of the development of pilgrimage tourism, which is considered a special branch of tourism in Uzbekistan in recent years. Also, the opportunities and problems of the industry are considered in the article.*

Hayatının büyük bir kısmını seyahatlerde geçiren ünlü Azerbaycan coğrafyacısı ve seyyahı Abdürrâşit b. Saleh b. Nuri el-Bâkuvî, XIV. yüzyılın ikinci yarısı-XV. yüzyılın başlarında yaşamıştır. O, batıda Endülüs'ten (İspanya) doğuda Cin'e, Batı Afrika'dan Kuzey İrlanda'ya ve Rusya'ya kadar geniş bir coğrafiyada yolculukta bulunmuşdur. Bu sırada seyyah, çok sayıda ülke ve şehirlerin tasvirini vermiş, muhtemelen bu ülke ve şehirlerin

haritasını da düzenlemiştir. Lakin şimdilik bu konuda elimizde kesin bilgi bulunmamaktadır.[124]

A.Bakuvî'nin bize ulaşan "Telhîsu'l-Âsâr Ve Acâibu'l-Meliki'l-Kahhâr" isimli seyahatnamesinin tek ve tam nüshası, Paris Milli Kütüphanesi'nde saklanan yazmadır (No: 585). 1683 yılında Baküye getirilen bu yazmanın, hicri 806 veya bir süre sonra fakat 816 yılından geç olmayarak kaleme alındığını düşünülmektedir.[125] Giriş ve yedi bölümden oluşan seyahatname, Allah ve Hz. Peygamberi övgüyle başlamaktadır. Seyyah, burada eseri başarıyla tamamlaması için Allah'tan kendisine güç vermesini istemektedir.[126] Daha sonra o, "Tekrar Üretimle İlgili" ve "İklimlere Ayırma İle İlgili" başlıklı bölümlerde bazı mineraller ve ekvatorun dünyayı ikiye bölmesi, bunların kuzey ve güney olarak isimlendirilmesi, kutuplar, paraleller ve meridiyenler, dünyanın meskun arazilerinin "iklim" olarak isimlendirilen 7 kısma bölünmesiyle ilgili bilgiler vermiş, her bir iklimin coğrafi özelliklerini, uzunluk ve en derecelerini göstermekle, bu iklimlere dahil olan ülkeleri, şehirleri, coğrafi objeleri (ada, nehir, göl, deniz vs.) vs. takdim etmiştir.[127]

A.Bakuvî'nin seyahatnamesi yalnız coğrafi eser gibi değil, tarihi-etnoloji ve folkloristik açıdan da dikkat çekmektedir. Şöyle ki, burada muhtelif şehirlerin mimarisi, üretim faaliyeti, yaşantısı, gelenek ve görenekleri vs.'den de bahsedilmektedir. Bunların tamamından bir makalede bahsetmek imkansız olduğundan, yalnız seyyahın bizim için daha fazla ilgiçekici olan Türk-Müslüman ülkeleri ve halklarıyla ilgili verdiği bilgilerin bir kısmının üzerinde duracağız.

Böylece, Bâkuvî üçüncü iklime ait kıldığı İran vilayetlerinden olan Fars'la ilgili yazıyor: *"Fars, doğuda Kirman, batıda Huzistan, kuzeyde Horasan çölü, güneyde ise denizle sınır olan ünlü bir vilayettir.[128] Şiraz ise bu vilayetin en büyük şehridir. Sağlıklı iklime, tatlı suya, verimli topraklara sahiptir. Şafiî mezhebinden olan ünlü müçtehid Kadı Ebu'l-Abbas Ahmed b. es-Surayc, Şeyh Ebu Abdullah Muhammed b. Hafis ve ünlü alim Kutbuddin Mahmud b. Mesud eş-Şirazî bu topraklarda yetişmiştir. Fakat nedense Bâkuvî, Şiraz'da yaşamış olan ünlü Azerbaycan şairi ve seyyahı Şeyh Muhammed Ali Baba Kûhî'yi (933-1051) zikretmemektedir."*[129]

İsfahan'dan bahsederken ise seyyah şehrin eski isminin "Nehr" olduğunu ve asıl kısmının (Büyük Şehr) "Yahudiyye" olarak isimlendirildiğini kaydetmektedir. Şöyle ki, Buhtunnasr Kudüs'ü işgal

[124] Eybalı Mehreliyev, Abdüreşid Baküvi, Bakü, Elm, 1985, s. 5-6.
[125] Ziya Bünyadov, "Mukaddime", Telhisu'l-Asar ve Acaibu'l-Meliku'l-Kahhar, (Abdürraşit El-Bâkuvî), Bakü, Şur Nəşriyyatı, 1992, s. 3.
[126] Abdürraşit Bakuvi, Telhisu'l-Asar ve Acaibu'l-Meliku'l-Kahhar, Bakı, Şur nəşriyyatı, 1992, s. 5.
[127] Bünyadov, Mukaddime, s. 5.
[128] Bakuvî, a.g.e., s. 57-58.
[129] Bakuvî, a.g.e., s. 52-53.

ederken esir olarak aldığı halk arasında sanatkarları seçmiş ve İsfahan'a getirmiştir. Buranın suyu, havası ve toprağı Kudüs'e benzediğinden, onlar da burayı mesken edinmişlerdir.[130] Bâkuvî'nin ayrıca Fars'ın Saburd, Sicistan, Hemedan, Kabil, Abadan vd. şehirleriyle ilgili verdiği bilgiler de dikkat çekiyor.

Seyyah Irak'ı Mavsil'den Abadan'a, Kadisiyye'den Hulvan'a kadar genişliği olan ünlü nahiye olarak takdim etmekte ve buranın Allah'ın en mutedil iklimi olan arazisi olduğunu anlatiyor. *"Çok verimli toprağı ve çok tatlı suyu vardır. Yer iklimlerinin dahilinde Irak en büyük incidir. Halkı dinç, akıllı ve sağlam düşüncelidir. Onlar her bir sanatta ustadırlar. Lakin oldukça sinsidirler ve yabancılara karşı nefret beslemektedirler."*[131]

Bağdat'tan bahseden ünlü seyyaha göre, *"Şehri Mensur Ebu Cafer Abdullah b. Muhammed b. Ali b. Abdillah b. Abbas inşa ettirmiştir. Halkı son derece kalabalıktır, mahsulü ve bereketi fazladır. Orada Muktedir Billah'ın inşa ettirdiği binalardan, üzeri örtülü bahçe (daruş-şecere) ve medrese bulunmaktadır. Şimdiye kadar böyle güzel bir yapı görülmemiştir. Medrese kapısının üzerinde, eyvan ve onun ortasında, kutu içerisinde ilginç bir saat vardır. Liyakatli, geniş bilgili ve tabiatına göre becerikli bir insan olan Kadı Yahya b. Aksam ve Ebu Abdullah Ahmet b. Muhammed b. Hanbel, Ebü'l-Kasım Cüneyd b. Muhammed ve dayısı ve öğretmeni Ebu'l-Hasan es-Sâri b. el-Müteali es-Sakatî, İbnu'l-Bevvab ismiyle ünlü üstat Ali b. Hilal el-Hattat ve diğer ünlüler bu şehirdendirler."*[132]

Samarra'yı, Bağtat'la Tikrit arasında, Dicle Nehri'nin doğu kıyısında bulunan dev bir şehir olarak tasvir eden Bâkuvî, bu şehrin hicri 281 (m. 835-836) yılında Mutesim Billah tarafından inşa edildiğini yazıyor: *"Mutesim, şehirdeki caminin yapımına beşyüz bin dinar harcamış ve şehrin mücizelerinden olan minareyi inşa ettirmiştir. Sonra şehzadeler, emirler, halifeler de burada acaib saraylar inşa ettirmişlerdir. Halife el-Mütevekkil ise Dicle'den kış ve yaz arkı olmakla iki ark kazmış, bunları Cuma Camii tarafına yönlendirmiş ve bu arklar şehrin sokaklarından geçmektedir."*[133]

Dımaşk'ın (Şam) tasvirine Bâkuvî, Ebu Bekr Harezmî'nin şu sözleriyle başlamaktadır: *"Yer yüzünde dört cennet vardır: Dımaşk'ın Guta'sı, Semerkand'ın Soğd'u, Bevva'nın Şib'i ve Basra'nın Ubulla'sı. Lakin bunların en güzeli Dımaşk'ın Guta'sıdır."* Daha sonra ünlü seyyah, Dımaşk'ın çok büyük ve sağlam duvarlarla çevrilmiş bir şehir olduğunu kaydetmektedir. *"İç kalesi vardır ve çevresi baştan başa evlerdir. Evleri*

[130] Bakuvî, a.g.e., s. 74.
[131] Bakuvî, a.g.e., s. 56-75.
[132] Bakuvî, a.g.e., s. 40-41.
[133] Bakuvî, a.g.e., s. 50.

bahçeler içindedir. Burada yanında su akmayan ev, kervansaray, cami veye medrese bulunmamaktadır."[134]

Şam ise Fırat nehrinden Eriş'e kadar uzanan bir ülkedir. Seyyahın yazdığına göre, *"Burası kutsal topraktır. Allah burayı peygamberler yurdu ve vahyin nazil olduğu yer kılmıştır. Havası hoş, suyu tatlıdır. Bu ülkenin şimdilerde ekseriyeti mevcut olmayan Basra, Bağdat, Kufe, Hadr, Deru'l-Keyyare, er-Rusafe, Sıffin, Fume'd-Dik, el-Kadisiyye (Kufe yakınlığında), Kalatu'n-Nücum, Vâsıt vs. gibi şehir ve köyleri bulunmuştur."*[135]

A.Bakuvî'nin Beytu'l-Mukaddes (Küdus)'le ilgili verdiği bilgiler de dikkat çekmektedir: *"Bura peygamberler yurdu, şeriatin kıblesi ve vahyin nüzul yeridir. Şehrin temelini Davut (a.s.) atmış, inşası ise Süleyman (a.s.) zamanında tamamlanımıştır. Ayrıca Süleyman burada acaip binalar ve sallanan zinciri olan kubbe yaptırmıştır. Bu zincire mürteddin değil, yalnız dindar insanın eli ulaşabilir. ...Burada, şehrin doğu tarafında Mescid-i Aksa bulunmaktadır. Caminin içinde 684 direk bulunmaktadır. Tavanlarında 4 bin kalas, çatılarında ise 45 bin kurşun levha vardır. Camide 1500, kayanın üzerinde ise 450 lamba yakılmaktadır. Beytu'l-Mukaddes'te Kumame vardır. Bu da merkezde bulunan Hıristiyanların dev kilisesidir. Lakin kilise binasının ve süslerinin tasviri iyi değildir."*[136]

Seyyah Mekke'yi Allah'ın muhafaza ettiği ve yücelttiği şehir olarak isimlendirmekte ve şehrin vadide bulunduğunu, her taraftan dağlarla çevrildiğini, binalarının ise siyah ve beyaz pürüzsüz taşlardan olduğunu kaydetmektedir: "*Yazın buranın havası sıcak, geceleri ise hoş geçmektedir Burada ne su kuyuları, ne de nehirler vardır. Buranın suyu göktendir. Kabe-i Müşerrefe'ye (Allah Teala onun şerefini artırsın!) geldikte ise, O, Allah'ın kutsal evidir...Allah önce yer yüzünde Kabe'nin yerini, sonra ise kendisini onun altına sermiştir. Bura yerin merkezidir. Kabe'yi Halil ile İsmail (a.s.) yükseltmiştir. Kabe mescidin ortasındadır. Siyah taş mescidin Şam tarafındadır. Taş tamamen siyahtır. Dış ve iç taraftan mescid altın ve gümüş işlemeli kumaşla örtülmüştür. Kabe'nin örtüsü her yıl ziyaret zamanı değiştirilir. Makam'a geldikte ise, bu üzerinde Halil'in (a.s.) durduğu taştır ve o bu yerden insanlara ziyaretten haber vermektedir. Mekke'de Zemzem kuyusu vardır. Bu, Kabe'nin yakınlığında olan ünlü kuyudur. Kuyuyu mermerle kaplatan çevresini döşeyen ilk kişi Ebu Cafer el-Mensur'dur. Zemzem üzerinden kubbe vardır. Bu da Kabe kapısının önünde, mescidin ortasındaki dolanma kapısının yanındadır."*[137]

Medine'yi "Medine en-Nakkaş" ve "Medinetü's-Sefer" olarak isimlendiren A.Bâkuvî yaziyor: *"Bu şehirle ilgili acaip ve karışık ünlü*

[134] Bakuvî, a.g.e., s. 46-47.
[135] Bakuvî, a.g.e., s. 51-52.
[136] Bakuvî, a.g.e., s. 38-39.
[137] Bakuvî, a.g.e., s. 29-31.

hikaye nakledilmektedir. Bu hikayeye göre Medine'yi İskender Zülkarneyn inşa ettirmiş ve hazinesini burada saklayarak şehri büyülemiştir. Hiçkimse bu hazinenin nerede olduğunu bilmemektedir. Şehirde "el-Bahta" isimli taş konulmuştur ve eğer bir kimse o taşla yüz yüze dursa, taş onu sanki bir demir gibi kendine çekmekte ve insan ondan ayrılamayıp ölmektedir. Bu taş Endülüs çöllerinde bulunmaktadır."[138]

Ayrıca A. Bâkuvî, uzun süre yaşadığı Mısır'la ilgili bilgiler de vermektedir. Seyyahın kaydettiğine göre, bu ülkenin arazisinin uzunluğu 40 gecelik yoldur. Genişliği de bir o kadardır. Uzunluğu Eriş'ten Asuan'a, genişliği ise Berka'dan Eyla'ya kadardır. Buraya Mısır b. Misraim b. Ham b. Nuh'un (a.s.) ismi verilmiştir. Yeryüzüne insan geldikten sonra burada daima bolluk yaşanmıştır. Mısır ülkesinin mucizelerinden biri de burada yağmurun yağmamasıdır. Eğer yağarsa, bu durumda ürün azalır. İlginç olan şudur ki, yazın sonunda tüm nehirlerin suyu azalırken, Nil'in suyu çoğalmaktadır.

Mısır'ın mucizelerinden biri olan iki piramit hakkında bilgi veren bir seyyah şunu belirtiyor ki, "*Piramitler kare temel üzerinde dev koniye benzer taşlardan inşa edilmiştir. Perpendiküler yüksekliği 317 dirsekktir. Piramitin dört ikizkenar üçgen biçimli tarafı vardır ve temeli de 460 dirsektir. Böyle bir hacmi, sağlamlığı, dış ahenği ve dakikliğe sahip piramit, güçlü rüzgarlara, sürekli yağan yağmurlara ve depreme karşı dayanıklıdır.*[139] *...Kahire bu ülkenin başkenti ve bolluk açısından Mısır'ın en ünlü şehridir. Burada tarifi mümkün olmayan iki büyük saray vardır. Bunlardan aşağı, sağ ve sol tarafda ülkede benzeri olmayan Pazar vardır. İmam Şafiî'nin (r.a.) medresesi ve mezarı ile Musa (a.s.) kayası da buradadır. Musa burada Firondan korkup saklanıyordur."*[140]

Lakin bu konuda kısmen farklı iddialar da vardır. Şöyle ki, XIX. yüzyıl Azerbaycan tarihçisi Abbasgulu Ağa Bakıhanov, "Gülüstan-ı İrem" eserinde Arap yazarlara dayanarak Musa Kayası'nın Azerbaycan'ın Şirvan vilayetinde olduğunu kaydetmektedir. Bakıhanov'a göre, Kur'an'da ismi geçen "Mecmau'l-Bahreyn" (iki denizin kavşağı) Şirvan vilayetinde olmuştur. Musa ve Hızır Peygamberlerin sakrası (kayası) da buradadır. İsmine ve alametlerine göre bu kaya Hızır-Zinde olabilir.[141]

Bâkuvî'nin Türkistan ve Türk halklarıyla ilgili verdiği bilgiler de oldukça ilgi çekicidir. Seyyah haklı olarak Türkistan'ın türklerin yaşadığı ülkelerin ortak adı olduğunu yazar: *"Türkistan'ın sınırı birinci iklimde başlar ve Meşrik'e dahil olup yedinci iklime kadar uzanır. Halkının ekseriyeti çadırlarda yaşamaktadır. Bununla birlikte köylerde yaşayanları*

[138] Bakuvî, a.g.e., s. 115.
[139] Bakuvî, a.g.e., s. 64-66.
[140] Bakuvî, a.g.e., s. 60.
[141] Abbasgulu Ağa Bakıhanov, Gülüstan-ı İrem, Bakü, Mümin, 2001, s. 37.

da varıdır. Diğer halklardan çoklukları, mertlikleri, dayanıklı olmaları ve geniş yüzleri, yastı burunları, büyük elleri ile seçilmektedirler. Onların yaşamı bitmeyen baskınlardan, korkan ceylanları ve uçan kuşları izlemekten ibarettir. Adamların yorulduğunu düşünürsün. Fakat yinde de aynı durumda olduklarını, atlarını kovduklarını, dağlara tırmandıklarını görürsün."[142]

Daha sonra seyyah, Bacanaklar (Peçenekler), Bacaklar, Buğraçlar, Tatarlar, Toğuzğuzlar, Hukaklar, Hatiyanlar, Karluklar, Hirhizler, Hazarlar, Hutalahlar, Kuzalar, Kimekler, Bahralar, Başkıtlar ve diğer Türk boyları ve ülkeleriyle ilgili geniş bilgiler vermektedir. Örneğin o Hazar ülkesiyle ilgili şunları kaydetmektedir: *"Hazar ülkesi, Babu'l-Ebvab'dan o tarafa yaşayan çok sayıda Türk halkıdır. Onlar iki boydurlar: biri Beyaz Hazarlar, diğeri ise Esmer Hazarlar'dır. Çadırlarda yaşamaktadırlar. Lakin çamurdan yapılmış evleri de vardır. Pazar ve hamamları vardır. Itıl Nehri'nin kıyısında yaşamaktadırlar. Onların çok büyük padişahları vardır ve kendisini melik olarak isimlendirmektedirler. Aralarında çok sayıda Müslüman, Hıristiyan, Yahudi ve Ateşperest vardır. Padişahlarının kırk yaşı tamamlandığında halk onu tahttan indirip öldürüyor."* [143]

Bâkuvî'nin söz konusu seyahetnamesinde Merkezi Asya halkları, ülkeleri ve şehirleriyle ilgili bilgiler de yer almaktadır. Bu açıdan onun Harezm ülkesi, Şaş (Taşkent), Soğd, Buhara, Semerkant ve Taraz'la ilgili yazdıkları dikkat çekicidir. Örneğin seyyah, Harezm ülkesini şöyle tasvir etmektedir:

"... Harezm çok sayıda şehir ve köyü olan ünlü ve geniş bir bölgedir. Halkı cesur yürekli ve inatkardır. Onlar soğukkanlı, dindar, sözlerine sadık ve samimidirler. Onların inamı hayırseverlik ve nefreti her türlü kötülüğe karşıdır. Yabancılara karşı cömert, zayıflara karşı merhametlidirler.[144]*...Soğd, Buhara ile Semerkant arasında bir vilayettir. Dünyanın cennetlerinden biridir. Bahçeler içinde bulunan ve arkası kesilmeyen köylerden oluşmaktadır. Çok sayıda ağacı, birbirini sesleyen kuşları ve suyu bol nehirleri olan, Allah'ın en iyi bölgesidir. Orada yeşillikler, bahçeler, çimenler, akar sular ve kıyıları boyunca buğday tarlaları bir birini izlemektedir. Bahçeler içinde havuzlar vardır. Bura Türklerin en vermili ve iyi ülkesidir."*[145] *"Buhara ise fakihlerin merkezi, en liyakatlilerin, medeni ve mücerred bilimlerin kaynağıdır. Dünayda, halkı Buharalılar kadar ilim adamlarına saygı gösteren ikinci bir şehir yoktur. "Sahih" isimli eserin yazarı İmam Muhammed b. İsmail el-Buhârî, buradandır. Bu eser hadislerin toplandığı en eski ve güvenilir eserdir."*[146]

[142] Bakuvî, a.g.e., s. 106.
[143] Bakuvî, a.g.e., s. 120-121.
[144] Bakuvî, s. 103-104.
[145] Bakuvî, s. 111.
[146] Bakuvî, s. 103-104.

Nihayet Bâkuvî, Azerbaycan'la ilgli bilgiler vermekte ve bu ülkeyi çok sayıda şehir, köy, dağ ve nehirleri olan geniş bir nahiye şeklinde takdim ettikten sonra, Tebriz, Sultaniyye, Bâkûye (Bakü), Berde, Beylegan, Urmiye, Babu'l-Ebvab (Derbend), Nahçivan, Gence vd. şehirleri geniş bir şekilde tasvir etmektedir.[147]

Böylece, Abdürreşit Bâkuvî'nin seyahatnamesi, dünyanın birçok ülkesi, şehri, halkı vs. ile ilgli zengin coğrafi, tarihi ve etnografik bilgileri ihtiva etmekle, son derece önemli bir kaynak olduğunu ispatlamaktadır. Lakin şunu da kaydedelim ki, o dönemin ve Bâkuvî öncesi ve sonrası dönemlerin diğer kaynakları gibi, bu seyahatname de kusur, noksan ve bazen ciddi hatalardan hali değildir. Söz konusu hataların kökeninde ise seyyahın diğer kaynaklardan aldığı bilgileri kontrol etmeden eserine kaydetmesi, çeviriler sırasında yapılan yanlışlıklar ve diğer etkenler de durabilir. Örneğin, Kuzey Afrika'daki el-Mehdiye ve Merakeş şehirleriyle ilgili yazarken Bâkuvî, "şimdi bunların sahibi Abdülmumin'in soyudur" demektedir. Oysaki Muvahhidler sülalesinin hakimiyeti 1269 yılında, yani Bâkuvî'den yüz yıl önce sona ermiştir. [148]

Yine Azerbaycan'ın Tebriz şehrinden bahsedeken seyyah, *"...müneccimler diyorlardı ki, şehir Türkler tarafından işgal edilmeyecektir. Çünkü şehre Akrep burcu yardım etmekte ve şehrin sahibi Cadiyye burcundan olan Merih yıldızıdır"*.[149], diye yaziyor. Oysaki Tebriz'in tüm dönemlerde Türk şehri olduğu ve halkının da çoğunluğu Azerbaycan türklerinden oluştuğu bilinen bir gerçektir.

Seyyahın Bakü'den bahsederken, *"Bakü yakınlığında çok sayıda köy vardır ve bu köylerin tüm sakinleri Hıristiyandır"* iddiası da tamamen yanlıştır. Bakü köylerinde XVIII-XIX. yüzyılın başlarına kadar neredeyse hiç Hıristiyan yaşamamıştır.[150]

Fakat Ateşgah'ın bulunduğu yere XVII. yüzyıldan itibaren ziyarete gelen Hintlilerin burada kendileri için küçük bir kasaba inşa etmeleri mümkündür. Onların da çoğunluğu Hindistan'ın Multan şehrinden olduklarından yerli halk kendilerini "Multani" veya "Moltani" olarak isimlendirmişlerdir ki, bu da daha çok "kafir" anlamına gelmekteydi. Lakin bilindiği gibi Ateşperestler, Hıristiyan değllerdir.

Tüm bunların dışında Bâkuvî'nin seyahatnamesinde takdim olunan bazı bilgiler, kesin tarihi kaynaklara, gerçeklere ve rakamlara değil, efsane, rivayet ve hadislere dayandığı için, tabii olarak doğru olmaya bilir. Fakat tüm bunlar, eserin değerini, kıymetini kesinlikle azaltmamaktadır.

---

[147] Bakuvî, 79-80.
[148] Bünyadov, Mukaddime, s. 5-6.
[149] Bakuvî, a.g.e., s. 79-80.
[150] Azerbaycan Tarih Üzre Kaynaklar, Bakü, ADU Neşriyyatı, 1998, s. 182.

KAYNAKÇA

Azerbaycan Tarihi Üzre Kaynaklar (2007). Bakü, ADU neşriyyatı

Bakihanov, Abbasgulu Ağa (2001). Gülüstan-ı İrem, Bakü, "Mümin" neşriyatı

Bakuvi, Abdürraşit (1992). Telhisu'l-Asar ve Acaibu'l-Meliku'l-Kahhar (1992), Bakü, "Şur" neşriyyatı

Bünyadov, Ziya (1992). "Mukaddime", Telhisu'l-Asar ve Acaibu'l-Meliku'l-Kahhar, (Abdürraşit El-Bâkuvî), Bakü, "Şur" Nəşriyyatı

Mehreliyev, Eybalı (1985), Abdüreşid Baküvi, Bakü, "Elm" nəşriyatı

MARKAZIY OSIYO RESPUBLIKALARNING IQTISODIY MUNOSABATLARI TARIXIDAN

Xaydarov Izzatilla Maxmutaliyevich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dots.nti
Tarix fanlari doktori (DSc)
E-mail: izzatillakhon@gmail.com

Калит сўзлар: *Markaziy Osiyo, Sovet iqtisodiyoti, iqtisodiy rayonlashtirish, O'zbekiston, rejalashtirilgan iqtisodiyot, xomashyo yetkazib berish, iqtisodiy qaramlik, ma'muriy siyosatlar, resurs taqsimoti, iqtisodiy integratsiya.*

Аннотация: *Ушбу мақолада Жиззах вилояти мисолида Туркистон ижтимоий ҳаётида таомлар ва меҳмончилик анъаналари тўғрисида сўз боради. Маълумки, Жиззах воҳаси 1866 йилда Россия империяси томонидан босиб олингунига қадар Бухоро амирлиги таркибида бўлганлиги сабабли мазкур масалани амирлик ижтимоий тарихига оид маълумотлар контекстида кўриб чиқишга ҳаракат қилинди.*

FROM THE HISTORY OF ECONOMIC RELATIONS OF CENTRAL ASIAN REPUBLICS

Khaydarov Izzatilla Makhmutalievich
Tashkent State University of Oriental Studies Assoc. Prof.
Doctor of Historical Sciences (DSc)
E-mail: izzatillakhon@gmail.com

Key words: *Central Asia, Soviet economy, economic zoning, Uzbekistan, planned economy, raw material supply, economic dependency, administrative policies, resource allocation, economic integration.*

Abstract: *This article explores the economic relations between the Central Asian republics during the Soviet era. It highlights how the Soviet government integrated national republics into a unified economic system to maintain control over them. The paper discusses economic zoning policies, administrative decisions, and their impact on regional economies, including Uzbekistan. The study also examines how*

centralized planning limited economic independence, turning Uzbekistan into a raw material supplier for the USSR. Furthermore, it sheds light on inefficiencies in resource allocation, forced economic exchanges, and the long-term consequences of Soviet economic policies on the region.

Sovet hukumati milliy respublikalarni bir-biriga bog‘lash va ularni markazga bo‘ysundirish maqsadida yagona xalq xo‘jaligi kompleksi tashkil qilgan. SSSRning yagona xalq xo‘jaligi kompleksi shunday bir sistema ediki, unda umumxalq mulki va ijtimoiy mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish, ayirboshlash, ijtimoiy mahsulotni taqsimlash va o‘zlashtirishning hamma bo‘g‘inlari majburiy birlashtirilgan edi. Bu kompleks butun mamlakat hududida ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha bo‘g‘inlarini, shuningdek, ittifoqdosh respublikalar va iqtisodiy rayonlarning xalq jo‘jaligini qamrab olgan edi .

SSSRning hududi bir qancha iqtisodiy rayonlarga bo‘lingan bo‘lib, iqtisodiy rayonlashtirish masalasiga sovet hukumati o‘rnatilgan dastlabki yillardan boshlaboq alohida jiddiy e’tibor berilgan. Avvalo, sovetlarning Butunrossiya VII s’ezdi (1919-yil) mamlakatning ma’muriy-hududiy bo‘linishini tartibga solish haqida maxsus qaror qabul qildi. Ana shu vazifani amalga oshirish maqsadida 1920-yil boshida ma’muriy komissiya tuzildi va u bir necha yil davomida faoliyat yuritdi.

Iqtisodiy rayonlashtirish masalasini hal etishda kommunistik partiyaning yo‘lboshchisi tomonidan olg‘a surilgan GOELRO (1920-yil) rejasi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu reja asosida birinchi marta mamlakat sakkizta iqtisodiy rayonga ajratilgan edi. Bu iqtisodiy rayonlar asosan Rossiyaning Evropa qismi, G‘arbiy Sibir va Turkistonni o‘z ichiga olgandi. Mamlakatning eng sharqiy qismidagi joylar bu rayonlashtirishga kirmadi ham.

Iqtisodiy rayonlashtirish masalasiga bolshevizm namoyandalaridan biri M.I.Kalinin ham katta ulush qo‘shdi. Uning raisligi ostida komissiya tuzilib, mamlakatni iqtisodiy rayonlarga bo‘lishning asosiy prinsiplari ishlab chiqilgan. Mazkur komissiyaning bir qarorida shunday deyiladi: “Mamlakatning iqtisodiy jihatdan o‘ziga xos va mumkin qadar tugal bo‘lgan hududlari rayon shakliga ajratilishi lozim. Tabiiy xususiyatlarning, o‘tmish davrdagi madaniy boyliklarning, aholisining bir-biri bilan muvofiqligiga ko‘ra bu hudud xalq xo‘jaligi umumiy zanjirining halqalaridan biri bo‘lmog‘i lozim... Shu bilan birga, boshqa muhim natijalarga ham erishiladi: rayonlar o‘zlarida muvaffaqiyatli taraqqiy ettirilishi mumkin bo‘lgan sohalarda ma'lum darajada ixtisoslashtiriladi, rayonlar o‘rtasidagi ayirboshlash esa, maqsadga muvofiq tovarlarning g‘oyat zarur miqdori bilan cheklanadi”.

1921-1922-yillarda Davlat reja komissiyasi iqtisodiy rayonlashtirishga oid bir qancha ishlarni amalga oshirib, bu masala bo‘yicha kichik komissiya tuzdi. Mazkur komissiya mamlakatni 21 iqtisodiy rayonga bo‘lish fikrini ilgari surdi. Bu rayonlashtirish butun mamlakat hududini o‘z ichiga olgan bo‘lib, 21 iqtisodiy rayonning 13 tasi mamlakatning Evropa qismini, 8 tasi esa Osiyo qismini o‘z ichiga olgan edi. Iqtisodiy rayonlarga taqsimlash vaqtida mamlakatning siyosiy-ma'muriy jihatdan bo‘linishi maqsad qilib olinib, milliy xususiyatlarga deyarli e'tibor berilmadi .

Butun sosialistik jamiyatning, umuman butun mamlakatning ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq vazifalarni hal qilishda, eng avvalo, har bir hududning roli va tutadigan o‘rniga urg‘u berilgan edi. Shunga binoan, iqtisodiy hududning xo‘jalik kompleksidagi ixtisoslashtirilgan tarmoqlari, ya’ni xo‘jalikning umumittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan asosiy bo‘g‘ini belgilangan. Masalan, Moskva viloyatida asosiy tarmoqlar – mashinasozlik va elektrotexnika, Uralda – metallurgiya va mashinasozlik, Ozarbayjonda – neft sanoati va paxtachilik, Ukrainada – ko‘mir sanoati, metallurgiya, don xo‘jaligi va qand sanoati, ittifoqning shimoliy rayonlarida – o‘rmon xo‘jaligi, Markaziy Osiyo respublikalarida – paxtachilik, ipakchilik, qorako‘lchilik, Qozog‘istonda – rangli metallurgiya, chorvachilik, don xo‘jaligi va boshqalar.

1922-yil 30-dekabrdagi Sovetlarning I s’ezdi qaroriga ko‘ra SSSR tashkil etilib, uning tarkibiga RSFSR, Ukraina SSR, Belorusiya SSR, ZSFSR kirgan bo‘lsa, 1924-yilda Markaziy Osiyoda o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish natijasida 1925-yil fevraldan yangi “milliy”, “teng huquqli” respublikalar – O‘zbekiston SSR va Turkmaniston SSR tashkil etidi. O‘zbekiston SSR tarkibidagi Tojikiston Avtonom Sovet Respublikasi 1929-yilda alohida respublika sifatida tashkil etilib, SSSR tarkibiga kiritildi. SSR Ittifoqiga yangi a'zolarning qo‘shilishi 1936-yildan davom ettirildi. 1936-yilda SSSR tarkibiga Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya SSR kiritildi. 1936-yilda SSSR Konstitusiyasining qabul qilinishi bilan RSFSR tarkibidagi Qozog‘iston va Qirg‘iziston Avtonom Sovet Respublikalari ittifoqdosh respublika sifatida qayta tashkil etilib, SSSR tarkibiga kiritildi. Shunday qilib, 1936-yildagi konstitusiyasining qabul qilinishi bilan SSSR tarkibida respublikalar soni 11 taga etdi.

SSSR tarkibi kengayishining keyingi bosqichi 1939-1940-yillarni o‘z ichiga oladi. 1939-yilda Ukrainaning g‘arbiy qismi Ukraina SSRga, Belorusiyaning g‘arbiy qismi Belorusiya SSR tarkibiga qo‘shildi. Shu yili Ukraina tarkibida bo‘lgan Moldaviya Avtonom Respublikasi Bessarabiyaning qo‘shilishi munosabati bilan Sovet Ittifoqi tarkibiga Moldaviya SSR sifatida kiritildi.

1940-yilda Latviya, Litva, Estoniyada sovet hokimiyati o‘rnatildi va Latviya, Litva, Estoniya Sovet Sosialistik Respublikalari “ixtiyoriy” ravishda SSSR tarkibiga kirdi. Mazkur respublikalarning SSSR tarkibiga kiritilishi SSR Ittifoqi Oliy Sovetining 1940-yil 5, 6 va 7 avgustda qabul qilingan qonunlari bilan mustahkamlandi.

SSSR tarkibiga yangi respublikalar kiritilishi bilan konstitusiyaning bob va bo‘limlariga ham o‘zgartirishlar kiritildi. SSSR tarkibiga yangi, avtonom respublika va avtonom viloyatlar kiritilishi keyinchalik ham davom etdi. Ikkinchi jahon urushining yakunida SSSRning tarkibida 16 ittifoqchi respublika bor edi.

Iqtisodiy rayonlar xo‘jaligini komplekslashtirish masalasiga partiyaning XVIII s’ezdida (1939-y.) katta e’tibor qaratildi. Keyinchalik iqtisodiy rayonlar xo‘jaligini kompleks rivojlantirish masalasiga navbatdagi jiddiy e’tibor partiyaning XXI (1959-y.), XXII (1961-y.), XXIII (1966-y.) va XXIV (1971-y.) s’ezdlarida berildi.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan avvalroq xalq xo‘jaligini rivojlantirishning 15 yillik istiqbolli rejasini tuzishga kirishilgan edi. Ana shu paytlarda SSSR hududi 13 ta iqtisodiy rayonga bo‘lingan bo‘lsa, 1957-yilda mamlakatda o‘tkazilgan sanoat va qurilishni boshqarishni hududiy ishlab chiqarish prinsipi asosida tashkil etish munosabati bilan SSSRda 104 ta iqtisodiy-ma'muriy rayon vujudga keltirildi. Mazkur rayonlarning har birida xalq xo‘jalik kengashlari tuzildi.

Iqtisodiy-ma'muriy rayon xalq xo‘jaligining ma'lum bir hududiy qismi hisoblanib, faqat iqtisodiy birlikka ega bo‘lib qolmasdan, balki ma'muriy birlikka ham ega edi .

Ammo iqtisodiy rayonlashtirishning bu turi ham keyinchalik talabga javob bermay qoldi va 1960-yilga kelib SSSR hududi 16 ta iqtisodiy rayonga bo‘lindi. Keyingi paytlarda bo‘lsa, xalq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar, ayrim ittifoqdosh respublikalarning ba’zi sohalar bo‘yicha ixtisoslanishining ma’lum darajada o‘zgarishi natajasida mamlakatning 16 iqtisodiy rayonga bo‘linishi ham maqsadga muvofiq topilmadi. Shuning uchun 1961-yilda mamlakatni 17 iqtisodiy rayonga bo‘lish haqida qaror qabul qilindi.

1963-yilda iqtisodiy rayonlashtirishga yana ba’zi o‘zgartirishlar kiritildi va SSSR hududidagi iqtisodiy rayonlar soni 18 taga etkazildi. Bu o‘n sakkizta iqtisodiy rayonning o‘ntasi RSFSRda, uchtasi Ukrainada joylashdi. Ayrim iqtisodiy rayonlar bittadan respublikani o‘z ichiga olgan (Belorusiya, Qozog‘iston) bo‘lsa, ayrim hollarda bir necha respublika birlashib, bitta iqtisodiy rayonni tashkil etgan. Masalan: uchtadan respublikani o‘z ichiga olgan Zakavkaze iqtisodiy rayoni, Boltiq bo‘yi iqtisodiy rayoni; to‘rt respublikani o‘z ichiga birlashtirgan Markaziy Osiyo iqtisodiy rayoni.

Markaziy Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibiga O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalari kiritildi. Shu o‘rinda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo tarkibidagi alohida iqtisodiy rayon sifatida hamda butunittifoq mehnat taqsimotida tutgan o‘rni va ahamiyati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Markaziy Osiyo iqtisodiy rayoni tarkibidagi O‘zbekiston hududi tabiiy-iqtisodiy jihatdan o‘ziga xos bo‘lib, u 6 ga – Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, Qarshi, Buxoro–Qizilqum (tarkibiga Buxoro hamda yangi tuzilgan Navoiy viloyati kirardi), Quyi Amudaryo–Surxondaryo iqtisodiy rayonlariga bo‘lingan edi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan iqtisodiy rayonlar bo‘yicha ishlab chiqarish vositalarini joylashtirishda ilmiy asoslanmagan yo‘l bilan olib borilgan idoraviy buyruqbozlik, aholining ijtimoiy ehtiyojlarini mensimaslik hollari xalq xo‘jaligining hududiy tuzilishida katta tafovutlarga olib keldi. Buning oqibatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar iqtisodiy imkoniyatlarida katta farq vujudga bo‘ldi.

1984-yilga borib SSSR hududidagi iqtisodiy rayonlar soniga qo‘shimcha kiritilib, ular 20 taga etkazildi. Ittifoq hududidagi iqtisodiy rayonlar soniga qo‘shimcha kiritilsa-da, ularning ishlab chiqarish ixtisosligi kompleks tarzda u yoki bu xilda o‘zgarishlarga uchrasa-da, O‘zbekistonning undagi o‘rni eskidagidek – o‘sha-o‘sha holatda qolaverdi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti bir necha o‘n yillar davomida markazdan boshqariladigan yagona xalq xo‘jaligi majmuining tarkibiy qismiga aylantirilgani bois, Markaz amri bilan qabul qilinadigan ko‘pgina qarorlarning iqtisodiy negizi va huquqlari keskin toraygan bo‘lib, ular O‘zbekistonning manfaatlaridan yiroq edi. Respublika hududida joylashgan aksariyat yirik korxonalar bevosita markazga bo‘ysunib, ular ko‘proq xom ashyo qazib olish va dastlabki ishlov berish bilan shug‘ullanardi, amalda respublika ularni boshqarmas, bu korxonalar faoliyatining pirovard natijalaridan manfaatdor emasdi. Qisqasi, respublika ittifoq iqtisodiyotining arzon xom ashyo bazasiga aylanib qolgan edi. Bu esa respublikaning mavjud imkoniyatlarini va huquqlarini keskin cheklar, ijtimoiy hayotda esa milliy va millatlararo munosabatlar murakkablashuvining bosh sabablaridan hisoblanardi. Respublikalarning iqtisodiy mustaqilligi integrasiyaga, u esa – gorizantal iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga, hududlararo ayrboshlashning darajasi va sifatiga bog‘liq bo‘lishi kerak edi. Markazlashtirilgan rejalashtirish hukm surgan sharoitda respublikalar uchun tashqi shartnomalar izlashga imkon qoldirilmasdi, zero, mamlakatning yagona xalq xo‘jalik kompleksi doirasida hududlararo aloqalarni o‘rnatish ishlab chiqaruvchini iste'molchiga (yoki aksincha) zo‘raki biriktirib qo‘yish yo‘li bilan hal etilardi. Xo‘jalik yuritishning bunday holatida mahsulot

ayirboshlashning teng hajmli yoki ekvivalent qiymat prinsiplari xususida gap ham bo‘lishi mumkin emasdi. Chunki qat'iy rejali tartib va majburiy narx-navolar siyosati respublika (region)larni bir-biri bilan biriktirib qo‘yilishini ta’minlar, Markazdan esa faqatgina “bajarilsin!” degan buyruq berilardi. Yuzaga kelgan hududlararo bu iqtisodiy aloqalar bir necha o‘n yillar davomida yangilanmadi, ular atrofida tor amaliyotchilik ruhi hukum surdi. Bularning hammasi esa texnika-texnologiyalarni takomillashtirishga, ijtimoiy ishlab chiqarishning pirovard natijalariga o‘ta salbiy ta'sir ko‘rsatdi.

XX asr 70-80-yillarida mamlakatda shunday holat yuzaga keldiki, bunda har tomonlama ilmiy asoslangan rejalar o‘rniga xalq xo‘jaligi tarmoqlarini ma’muriy-buyruqbozlik hukmronligi asosida ko‘r-ko‘rona rivojlantirish avj oldi. Mamlakat ulkan, biroq aksariyat keraksiz qurilishlar maydoniga aylantirilib, bir-biridan yirik inshootlar loyihalarini tuzish va amalga oshirish kundalik ishga aylanib qoldi. Mavjud resurslardan oqilona foylanishdagi uquvsizlik, keraksiz harajatlarni foydalisidan ajratishga noqobillik, doimiy isrofgarchilik tufayli yuzaga kelgan kamomad, jismoniy va aqliy mehnatning unumsizligi, xo‘jalik yuritish usullari hamda mehnatni rag‘batlantirish tizimining samarasizligi natijasida turmushning barcha sohalarida, ayniqsa, millatlararo munosabatlarda muammolar to‘plana bordi. Millatlararo munosabatlarda mavjud jarayonlarni tahlil qilish ishi xalqlar do‘stligi, millatlarning gullab-yashnashi va ravnaqiga hamda o‘zaro yaqinlashishiga bag‘ishlangan quruq, balandparvoz nutqlar bilan almashtirilib, ziddiyatlar, noxush holatlar, kamchilik va qiyinchiliklar xususida deyarli hech narsa deyilmas edi.

Xullas, XX asrning birinchi choragida tashkil topgan sovet respublikalari 74 yil bolsheviklar ta’siri ostida bo‘lishi butun mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sohalardagi hayotini nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada inqirozga olib keldi. Mamlakatda “yagona iqtisodiy makon”, “yagona sovet xalqi”, “sosialistik madaniyat”ni qaror toptirish bahonasida butun boshqaruvni qo‘lga olgan markazning respublikalar manfaatlarini hisobga olmay yurgizgan si yosati xalq turmush tarzini, respublikalardagi iqtisodiy ahvolni og‘irlashtirib yubordi. Partiyaning “rahnamoligi” ostida shaxsiy mulk umumiy tarzda “xalq mulki”ga aylantirilgandek tuyulsa-da, bu hol amalda mavhum, hech kimniki bo‘lmagan mulk hukumronligiga tayanuvchi sosializmda tashkil topgan iqtisodiy munosabatlarning aks etishi edi. U 74 yil hukmronlik qilib, haqiqiy mehnatkashga emas, davlat va uning boshqaruvchilariga xizmat qilishi, ular mehnatining juda katta ulushining o‘zlashtirilishi va xo‘jasizlarcha sarflanishi bilan o‘zining bir yoqlamaligi hamda yaroqsizligini yaqqol ko‘rsatdi. Davlat mulkining asosiy nuqsoni – uning negizida iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruchi kuchi bo‘lmish shaxsiy va

jamoaviy manfaatlarning yo‘qligi edi. Ana shu sabab jamiyatning aksariyat tabaqalari, turli guruhlar davlat tasarrufi ostida qolgan edi. Oqibatda SSSRda millatlararo munosabatlar tobora keskinlashib, 80-yillarga kelganda milliy to‘qnashuvlarga aylanib ketdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sovet hokimiyati o‘rnatilgan dastlabki kunlardan boshlangan yagona xalq xo‘jalik kompleksini yaratish hamda keyingi yillarda uni mustahkamlash uchun olib borilgan siyosat ittifoq tarkibiga kirgan respublikalarni bir-biriga chambarchas bog‘lab, ularning iqtisodiy jihatdan Markazga to‘la bo‘ysundirilishiga olib keldi. Buning natijasida, ulkan tabiiy boylik va ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan O‘zbekiston o‘ziga xos sharoit va imkoniyatlaridan chinakam manfaati uchun foydalana olmadi. Bunga bir necha o‘n yillar davomida respublika iqtisodiyotini yuqoridan boshqariladigan yagona xalq xo‘jaligi kompleksi tarkibiy qismiga aylantirilgani sababli yo‘l qo‘yilmadi.

TASAVVUF ALLOMALARI ASARLARIDA DAVLATCHILIK BOSHQARUV G ‘OYALARI VA ULARNING AHAMIYATI

Izzatilla M. Xaydarov
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, tarix fanlari doktori

Mekhribanu B. Turdimuratova
Tarixshunsolik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari yo’nalishi 2-kurs magistranti
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Email: missmekhribanu@gmail.com

Kalit so’zlar *Adolat, manaviy yetakchilik, qonun ustuvorligi, xalqqa xizmat, xalq bilan muloqat, adolatli sudlov*

Annotatsiya *Tassavvuf inson ruhiyati, nafs pokligi, nafsni poklash axloqni sayqallash va nafsni tarbiyalsh kabi insonning nozik qirralarini o’ragnish bilan birga tasavvuf ulomalari o’z asarlarida davlat boshqaruvi g'oyalarini ma'naviy prinsiplar va ahloqiy qadriyatlar asosida shakllantirganlar.Tasavvuf shayxlarining asarlari, odamlarga diniy va axloqiy jihatdan yordam berish bilan birga, jamiyatni o’zgartirishga, hukmdorlarni adolatli boshqarishga undash maqsadida yozilgan. Ushbu maqolada tasavvuf alomalari asarlaridagi davlat boshqaruv g'oyalari va ularning zamonaviy hayotimizdagi ahamiyati tahlil qilinadi.*

STATE ADMINISTRATION IDEAS AND THEIR SIGNIFICANCE IN THE WORKS OF MYSTICAL LOGISTICS

Izzatilla M. Khaydarov
Associate Professor, Tashkent State University of Oriental Studies, Doctor of Historical Sciences

Mekhribanu B. Turdimuratova
2nd year master's student majoring in historiography, source studies and historical research methods
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: missmekhribanu@gmail.com

Key words: *Justice, spiritual leadership, rule of law, service to the people, communication with the public, fair judiciary.*

Abstract: *Sufism explores the subtle aspects of human nature, such as spiritual purity, the cleansing of the self, ethical refinement, and moral upbringing. Alongside this, Sufi scholars have formulated ideas about state governance in their works, based on spiritual principles and ethical values. The writings of Sufi shayhks are intended not only to provide religious and moral guidance to individuals but also to encourage societal transformation and the just governance of rulers. This article analyzes the concepts of state governance found in the works of Sufi scholars and their significance in our contemporary lives.*

Kirish

Tasavvuf, inson ruhiyatining chuqur qirralarini o'rganish bilan birga, ijtimoiy hayot va davlat boshqaruvi masalalariga ham katta e'tibor qaratadi.Tassavvuf inson ruhiyati, nafs pokligi, nafsni poklash axloqni sayqallash va nafsni tarbiyalsh kabi insonning nozik qirralarini o’ragnish bilan birga tasavvuf ulomalari o’z asarlarida davlatchilik boshqaruvga oid o’z qarashlarini ham bayon etib, hukumdorni adolatli bo’lishga, xalq bilan muloqat qilishga har doim o’z manfaatidan ko’ra xaqlni foydasini ustun qo’yishga, adolat mezonlariga amal qilishga chaqirgan.

Tassavvuf ta'limotining shakllanishi va taraqqiyoti uzoq davr davom etgan bir hodisa bo'lib, o'ziga xos mustahkam mafkura kuchiga aylangan. Markaziy Osiyoda tassavvuf X-XII asrlarga kelib nazariy va amaliy jihatdan takomillashdi. "Tassavvuf va uning tariqatlari ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan. Taraqqiyot asosida tassavvufning yaxshi, ideal jamiyat haqidagi qarashlari vujudga kelgan. Tassavvuf bunday

jamiyatga zo'ravonlik inqilob yo'li bilan emas, balki har insonni axloqiy tarbiyalash orqali yetishish mumkin deb o'ylagan. Insonning mutlaq haqiqat, mutlaq adolat va poklikka erishish istaklari aynan tassavvufda mujassam bo'lgan."

Islom dini ma'naviyatining muhim tarkibiy va ajralmas qismi bo'lgan tassavvuf o'z tarixi, shakllanishi va takomillashuvi jarayoniga ega. Tassavvuf musulmonlik ma'naviy hayotining e'tiqod, axloq, huquq, falsafa, adabiyot, san'at kabi turli-tuman jabhalaridan chuqur joy olib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy hayotida islom dini va tassavvuf ta'limoti muhim o'rin tutadi. Har bir xalqning tarixida barcha ijtimoiy-ma'naviy hodisalar o'zining turli darajadagi ta'siriga ega bo'lgan va bu hol shu xalqlarning keyingi hayotida ham yetarli ahamiyat kasb etadi. Tarix o'tmish bilan kelajakni bog'lab turuvchi ko'prikdir.

Tasavvufning muhim jihatlaridan biri, uning jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ahillikni ta'minlashdagi roli hisoblanadi. Masalan, Ahmad Yassavi va Bahauddin Naqshband kabi mashhur tasavvuf allomalari, o'z asarlari va ta'limotlari orqali xalqqa o'z-o'zini anglash, ma'naviy rivojlanish va ijtimoiy adolat g'oyalarini tarqatdilar. Ularning asarlarida aks etgan falsafiy va diniy g'oyalar, o'zbek xalqi uchun nafaqat ma'naviy yo'l-yo'riq, balki tarixiy voqealarga baho berish mezoni sifatida ham xizmat qilgan.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsadlaridan biri komil inson tarbiyasidir. Jamiyat rivojlanishida barkamol inson, har jihatdan yetuk shaxslar hal qiluvchi omil vazifasini bajaradi. Tassavvuf ta'limotining ham diqqat markazida komil inson g'oyasi turadi. Yosh avlodni tarbiyalash jarayonida tassavvuf ta'limotidagi g'oyalardan hozirgi davr nuqtai nazari bilan baholagan holda foydalanish mumkin. “Komil inson uchun xalqga naf keltirishdan ko'ra foydaliroq ish va yaxshiroq toat yo'qdir. Va uning uchun eng ulug' rahat biror ish, biror so'z bilan bu dunyoda kishilarning mushkulini oson qilish, olamning balo-fitnalaridan saqlanishga yordam berish, oxiratda esa mag'firat topishga ko'maklashishdir.”

Tarixda o'tgan buyuk shaxslarning hayot yo'li har doim kishilar uchun ibratlidir. Bahouddin Naqshbandning mehnatsevarligi, Najmiddin Kubroning vatanparvarligi, Yassaviyning insoniylik jihatlarini ko'rsatuvchi ularning hayotidagi ma'lum bir ibratli tomonlardan yosh avlodni tarbiyalash davomida foydalanish mumkin. Ularning hayoti haqida hikoya qiluvchi ommabop va badiiy asarlar yaratishning ham amaliy-tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Shu sababli, biz tassavvuf ta'limotining faqat tor doirada ilmiy o'rganilishi bilan cheklanmasdan, uning tarbiyaviy jihatlariga ham ko'proq e'tibor berishimiz lozim. Demak, fuqarolik jamiyati va bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirish jarayonida ma'naviy yetuk komil insonni tarbiyalashda, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik tamoyilining

ustuvorligiga erishishda tassavvuf ta'limotini o'rganishning amaliy-tarbiyaviy ahamiyati imkoniyatlari kengdir.

Tasavvuf alomalari asarlari, davlatchiligi tarixida muhim rol o'ynab, faqat ma'naviy va diniy ta'lim berish bilan chegaralanib qolmagan. Ular davlatchilik g'oyalari shakllanishiga, hukmdorlarning siyosatini shakllantirishga, qonunlarni yaratishga, jamiyatning umumiy qarashlarini o'zgartirishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Tasavvuf alomalari asarlarining davlatchilik g'oyalari bilan bog'liqligi quyidagilarga asoslanadi:

1. **Adolatli Boshqaruv:** Tasavvuf shayxlarining asarlari, hukmdorlarni adolatli boshqaruvga chaqiradi. Ular davlatning vazifasi barcha fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash, zulmdan tiyilish, adolatni o'rnatish va xalqning ehtiyojlarini qondirish ekanligini ta'kidlashgan. Jumladan quydagi tasavvuf namyondalarining asarlaridan ehtibozlar keltirsak ularning davlat boshaqruvidagi asosiy o'rin egallagan adolatni birinchi o'ringa qo'yganligiga guvoh bo'lamiz.

Shu o'rinda :

Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" asaridan: "Adolat - podshohning taxtining poydevori". Bu hikmat, hukmdorlarning adolatli boshqarishga javobgarligini ta'kidlab, adolatsizlikning jamiyat uchun xavfli ekanligini ko'rsatadi.

Navoiyning "Hayrat ul-abror" asaridan: "Adolatli hukmdor xalqning o'ziga xos haqiqiy "ota"sidir." Haqiqatdan ham adolat davlatning asosiy poydevori, xaqlning faravon va baxtini asosiy kalitidir.

2. **Xalqqa Xizmat:** Tasavvuf shayxlarining asarlarida hukmdorlarning xalqqa xizmat qilishi, ularning farovonligi uchun harakat qilishi g'oyasi muhim o'rin egallaydi. **Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'ot-i turk" asaridan:** Turkiy xalqlarning turmush tarzi, madaniyati va urf-odatlarini tasvirlab, ularning farovonligini ta'minlashning ahamiyatini ta'kidlagan. **Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" asaridan:** Farhodning xalq farovonligi uchun qilgan mehnati, xalqqa xizmat qilishning ahamiyatini ko'rsatadi. **Ahmad Yassaviyni "Hikmatlar" asarida** hukmdorlarning xalqqa xizmat qilishi, ularning farovonligi uchun harakat qilishi g'oyasi muhim o'rin egallaydi. **"Hukmdor xalqga xizmat qilish uchun yaratilgan."** Bu hikmat, hukmdorlarning xalqga xizmat qilishini ta'kidlab, podshohlarni xalqning ehtiyojlarini qondirishga, ularning farovonligini ta'minlashga javobgar ekanligini ko'rsatadi.

"Xalqning farovonligi - hukmdorning farovonligi." Ahmad Yassaviy bu hikmatda, xalqning farovonligi bilan hukmdorning farovonligi o'rtasidagi

bog’liqlikni ko’rsatib, hukmdorlarni xalqning manfaatlarini o’z manfaatlaridan ustun qo’yishga undagan.

3. **Qonun Ustuvorligi:** Tasavvuf shayxlarining asarlarida qonun ustuvorligi, barcha fuqarolar uchun teng bo’lgan adolatli sudlov tizimini shakllantirishning ahamiyati ta’kidlangan.**“Hikmatlar” asaridan:** “Qonun hamma uchun bir xil bo’lishi kerak.” Ahmad Yassaviyning hikmatlarida qonun ustuvorligi, barcha fuqarolar uchun teng bo’lgan adolatli sudlov tizimini shakllantirishning ahamiyati ta’kidlangan. **“Qonun hamma uchun bir xil bo’lishi kerak.”** Bu hikmat, qonunning teng ravishda qo’llanilishi, hukmdorlarni xalq oldida javobgar qilish va adolatsizlikka qarshi kurashishga undagan. **“Qonun - jamiyatni boshqarishning asosiy omilidir.”** Ahmad Yassaviy bu hikmatda, qonunlarning jamiyatni barqarorlashtirishdagi rolini ko’rsatib, qonun ustuvorligini ta’kidlagan. **“Qobusnoma” asaridan:** “Qonun - jamiyatni boshqarishning asosiy omilidir.
4. **Ma'naviy yetakchilik**: Tasavvuf alomalari, davlat rahbarining ma'naviy yetakchiligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, rahbar ma'naviy jihatdan kamol topgan bo'lishi kerak, chunki bu xalqqa to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun zarur.
5. **Xalq bilan muloqot**: Davlat rahbarlari va xalq o'rtasidagi muloqot, tasavvufda muhim ahamiyatga ega. Alomalar, rahbarlarning xalqi bilan samimiy va ochiq muloqotda bo'lishini va xalqning fikrlarini inobatga olishini tavsiya etadilar.
6. **Tinchlik va Hamjihatlik:** Tasavvuf shayxlarining ko’pchiligi tinchlik va hamjihatlikka chaqirganlar, urush va nizolarni oldini olishga harakat qilishgan. **“Hikmatlar” asaridan:** “Tinchlik - jamiyatning eng katta ne’mati.” Ahmad Yassaviyning hikmatlarida tinchlik va hamjihatlikka chaqiruvi uchraydi. U urush va nizolarni oldini olish, jamiyatda tinchlik va xotirjamlikni o’rnatishga harakat qilishgan. **“Tinchlik - jamiyatning eng katta ne’mati.”** Bu hikmat, tinchlik va xotirjamlikning ahamiyatini ta’kidlab, jamiyatni barqarorlashtirishning asosiy shartlaridan biri ekanligini ko’rsatadi. **“Hamjihatlik, jamiyatni barqarorlashtirishning muhim omilidir.”** Ahmad Yassaviy bu hikmatda, jamiyat a’zolarining bir-biriga bo’lgan hurmat va muhabbatining ahamiyatini ta’kidlab, jamiyatni birlashtirishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko’rsatadi. “Qobusnoma” asaridan “Hamjihatlik, jamiyatni barqarorlashtirishning muhim omilidir.”

Tasavvuf alomalari asarlaridagi davlat boshqaruv g'oyalari zamonaviy hayotda ham o'z ahamiyatini saqlaydi. Ularning ta'limotlari, davlat rahbarlariga ijtimoiy va ma'naviy masalalarga e'tibor berish zarurligini

ko'rsatadi. Adolat, ma'naviyat va ijtimoiy mas'uliyat tushunchalari, zamonaviy jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.Shuningdek, tasavvufning ijtimoiy tarbiyasi, rahbarlarni o'z xalqiga yaqinlashtiradi va xalqni davlat boshqaruviga jalb qiladi. Bu esa ijtimoiy kelishuv va barqarorlikni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf alomalari asarlaridagi davlatchilik boshqaruv g'oyalari, adolat, ma'naviyat va ijtimoiy mas'uliyatni o'z ichiga oladi. Davlatning farovan va xalqni yaxshi yashashi hukumdorning adolatliligiga, manaviy yukasak tarbiyaga ega ekanligiga har tamonlama bilimli va har qanday holatda ham xalq manfaatini birinchi o’ringa qo’yishligiga bog’liq ekanligi bilan izohlaydilar. Ularning ta'limotlari, zamonaviy davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo'lib, adolatli va ma'naviy jihatdan boy davlat tuzilmasini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa, oxir-oqibat, jamiyatning farovonligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Tasavvuf va she’riyat” Ibrohim Haqqul, G’afur G’ulom nomidagi Nashiyot-matbaa birlashmasi,Toshkent -1991.
2. “Tasvvuf alomalari” Xamidjon Xodimiy, "SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA AKTSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT - 2004

ROSSIYA IMPERIYASI TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN JANUBIY VILOYATLAR AHOLISINING ETNIK TARKIBI VA JOYLASHUVI MASALASINING O‘RGANILISHI

Alisher Nasimov
Qarshi xalqaro universiteti
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Kalit so’zlar: *Aholi, etnik tarkib, 92 ta o‘zbek urug‘i, shovinistik, shahar aholisi, o‘troq aholi, yarim-ko‘chmanchi va ko‘chmanchi aholi, janubiy hududlar.*

Annotatsiya: *XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoning uchta mustaqil davlati Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi. Ulardan Qo‘qon xonligi 1876 yilda butkul tugatilgan bo‘lsa, Buxoro va Xiva 1920 yilgacha amalda to‘liq imperiya protektoratiga aylantirildi. Bosqinchilik arafasi va undan keyingi davrda bu davlatlar hududlariga bir necha marotaba turli elchilik va sayyohlik tashriflari kuzatilgan. Aynan shu davrdan boshlab, ya’ni XIX asrning ikkinchi yarmidan, bosib olingan hudud aholisi, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayoti, harbiy salohiyati va boshqa jihatlari tizimli ravishda o‘rganila boshlandi.*

STUDY OF THE ETHNIC COMPOSITION AND DISTRIBUTION OF THE POPULATION OF THE SOUTHERN REGIONS BY RESEARCHERS OF THE RUSSIAN EMPIRE

Alisher Nasimov,
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,
Karshi International University

Key words: *Population, ethnic composition, 92 Uzbek families, chauvinistic, urban population, sedentary population, semi-nomadic and nomadic population, southern regions.*

Abstract: *In the second half of the 19 th century, three independent states of Central Asia were conquered by the Russian Empire. Of these, the Kokand Khanate was completely liquidated in 1876, and Bukhara and Khiva were actually turned into a full imperial protectorate until 1920. During the period before and after the invasion, various embassy and tourist trips were repeatedly made to the territories of these States. It was from this period, that is, from the second half of the XIX century, that the systematic study of the population, socio-economic and spiritual life, military potential and other aspects of the occupied territory began.*

Ma’lumki, XX asrga qadar Sharqiy Buxoro aholisi etnik tarkibi va joylashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlar rossiyalik sayyohlarning asarlari va harbiy to‘plamlarida juda kam uchraydi[151]. Taniqli major sayyohi H.Vamberi 1863 yilda Qarshiga keladi va shahar aholisining aksariyat qismini o‘zbeklar tashkil etishini, shuningdek, shaharda tojiklar, afg‘onlar, hindular, yahudiylar ham istiqomat qilganliklariga to‘xtalgan. Olim

[151] Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – 280 с.; Бёрнс А. Путешествие в Бухару. – М., 1849. Ч. III. – 628 с.; Вамбери А. Путеществие по Средней Азии (из Тегерана через туркменскую пустыню по восточному берегу к Каспийского море в Хиву, Бухару, и Самарканд. – М., 1867. – 188 с.; Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М. Наука, 1875. – 180 с.; Кун А.Л. Очерки Шахрисабзского бекства // ЗРГООЭ, т.VI. – СПб., 1880.; Белявсий А.М. Описание обрекогносцированного участка, заключающего пройденные пути в пределах Шаар–Бабиз Гузарского бекства и части нагорной Дербентсой возвышенности // СГТСМА. вып. – СПб., 1894. Вып. 57.; Галкин М.Н. Военно-Статистический очерк средней и южной частей Сурханской долины // СГТСМА. вып. – СПб., 1894. Вып. 57. – С. 385–393.; Кап. Васильев. Статистические материалы для описания Бухары. Бекство Ширабадское и част Байсунского // СГТСМА. – СПб., 1894. Вып. 57. – С. 399–402.; шунингдек, XX асрнинг бошларига оид Manbалар: Липский В.И. Горная Бухара. Результаты трехлетних путешествий в Среднюю Азию, ч. I, Гиссарская экцпедиция в 1896. – СПб., 1902.; O‘sha muallif. Горная Бухара. Результаты трехлетних путешествий в Среднюю Азию, ч. III. Хребет Гиссарский и Восточная Бухара: хребет Дарвазский, Мазарский и Петра Великого. 1899, – СПб., 1905.; Снесарев А.Е. Восточная Бухара (военно–географический сборник) // Сб. геог. топог. и статис. мат. по Азии. вып. – СПб., 1906. Вып. 79.; Рожевиц Р.Ю. Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г. Известия Русского географического общества. – СПб.: тип. М.М. Стасюлевича, 1908. - 64 с.

yahudiylar Qarshida deyarli barcha huquqqa ega bo‘lganliklarini ta’kidlaydi[152].

N.V.Xanikov o‘z asari ilovasida 92 ta o‘zbek urug‘ining ro‘yxatini keltirib[153], ulardan 28 tasi Buxoro amirligida, aynan mang‘itlar, saroylar, qo‘ng‘irotlar, orlotlar va qovchinlar Qashqadaryoda yashaganligi[154] to‘g‘risida habar beradi. A.N.Mayev 1878 yilda Sherobod va Boysun bekliklariga uyushtirilgan ekspeditsiyaga rahbarlik qilgan va ekspeditsiya natijasida yozilgan bir qancha lavhalarida Surxon vohasi va Sherobod bekligida yashovchi o‘zbeklarning qo‘ng‘irot, marka, kutchi, yuz, laqay, do‘rmon, qatag‘on kabi urug‘ va qabilalari to‘g‘risida, mahalliy aholining geografik joylashuvi, xo‘jalik turmushiga oid ma’lumotlar keltiradi[155].

XX asr boshlarida tadqiqotchi I.F.Sitnyakovskiy o‘zbek qo‘ng‘irotlarining shajaraviy jadvalini tuzgan. Uning «К генеалогисческой таблице узбекского рода Кунград» asarida birinchi marta G‘uzor, Boysun, Sherobod va Karki bekliklarida yashagan qo‘ng‘irotlarning shajaraviy ro‘yxati keltirilgan[156]. I.F.Sitnyakovskiy o‘zining yana bir asarida Zarafshon vohasida yashaydigan qo‘ng‘irotlar va ularning urug‘, shajara bo‘limlari haqida ma’lumotlarni keltirgan[157]. Jumladan, ular bundan 400 yil avval Shayboniyxonning (1451–1510) Movarounnahrga yurishlari davrida Xivadan kelib qolishganligi to‘g‘risidagi ma’lumotni keltiradi. Bundan tashqari, Denov va Sarijo‘y amloklaridagi Tortuvli va Gazarak qishloqlarida yashagan kam sonli kenagas urug‘i haqidagi ma’lumotlarni ham qayd etgan[158].

XX asrning birinchi o‘n yilligida janubiy viloyatlar aholisining etnik tarkibi haqidagi ma’lumotlar D.N.Logofetning asarida ham uchraydi[159]. Asar shovinistik ruhda yozilgan bo‘lib, unda aholining etnik tarixi qisqa tarzda, ayrim tarixiy jarayonlar esa buzib ko‘rsatilganini ko‘rish mumkin. Ya’ni, muallif Oks (Amudaryo) va Zarafshon havzalarida yashagan qadimiy qabilalar ahamoniylar bosqini ostida forslashib, hind-oriylar tarkibiga butunlay singib (assimilyatsiyalashib) ketganlar degan fikrni aytadi[160]. Akademik K.Shoniyozov esa O‘rta Osiyoda ariy tilli jamoalardan ajralib chiqqan eron tilli qabilalar miloddan avvalgi II minginchi yillarda mavjud

---

[152] Вамбери Ҳ. Бухоро ёҳуд Мовароуннаҳр тарихи. – Т., 1990. – 96 с.

[153] Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843 –С.58–63.

[154] Ханыков Н.В. Описание... –С.63–65.

[155] Маев Н.А. Очерк Гиссарского края. Очерки горных бекств Бухарского ханства // Материалы для статистики Туркистанского края. –Бпб., 1879. Вып. V;

[156] Ситняковский Н.Ф. К генеалогической таблице узбекского рода Кунград // Известия Туркестанского отделения Русского географического общества, т. VII. СПб., 1907.

[157] Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зарафшана // Известия Туркестанского отделения Русского географического общества, – Т., т. I, 1899; т. II, 1900.

[158] Ситняковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зарафшана. Т. I. – Т., 1899. – С. 166.

[159] Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханства и его современное состояние. – СПб., 1909.

[160] Логофет Д.Н. Страна бесправия... – С. 149.

bo‘lganligini ta’kidlagan[161]. Bundan tashqari, muallif arablar O‘rta Osiyoga V asrda istilochilik yurishlarini boshlaganlar desa[162], yana bir joyda u arablar Buxoro xonligida VI asrga kelib joylashganlar[163], деган haqiqatga zid keluvchi fikrlarni bildirgan.

D.N.Logofet asarida Buxoro amirligida XX asr boshlarida quyidagi qabilalar (elatlar) yashaganligini qayd etadi: o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, turkmanlar, arablar, g‘alchalar, xazorlar, afg‘onlar, yahudiylar, hindlar, ruslar va lo‘lilar. Janubiy vohalarda esa o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, arablar, afg‘onlar, yahudiylar, hindlar, ruslar va lo‘lilarning yashaganliklari haqida ma’lumotlar beradi[164].

Tadqiqotchi o‘z fikrlarini davom ettirib, Buxoro amirligida joylashgan bekliklar aholisini yashash tarziga qarab to‘rtga bo‘ladi: shahar aholisi, o‘troq aholi, yarim-ko‘chmanchi va ko‘chmanchi aholi. Aholining taxminiy sonini 300 ming nafar kishi deb ta’kidlaydi[165]. Ko‘rinib turibdiki, Logofet amirlikning umumiy aholisi sonini aniqlashda ham katta chalkashlikka yo‘l qo‘ygan. Natijada uning bu ma’lumotlaridan keyinchalik hech kim qayta foydalanmaganini ko‘rish mumkin.

B.X.Karmisheva Logofetdan farqli ravishda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sharqiy Buxoroning (Tojikistonning janubi va O‘zbekistonning janubi) o‘zbek aholisini uch guruhga ajratadi: ular urug‘ va qabilalarga bo‘linmaydigan o‘troq aholi – chig‘atoylar, xo‘jalar va qarshiliklar; avvalgi yoki burungi qabilalar – ya’ni, Movarounnahrning o‘troq aholisi tarkibiga singib ketmasdan, yarim o‘troq turmush tarzini saqlab qolgan va urug‘-qabilalarga bo‘lingan turk-mo‘g‘ul qabilalari bilan bu yerlarga mo‘g‘ullar istilosi davrida ko‘chib kelib qolgan qabilalar – turklar, qarluqlar, xalachlar, mo‘g‘ullar, mirishkorlar va h.k.; keyingi qabilalar – Movarounnahrga XV asr oxirida Dashti Qipchoqdan Shayboniyxon bilan kelgan va XVI asr boshlarida bu yerlarda batamom o‘rnashib qolgan o‘zbek qabilalarining avlodlari – qo‘ng‘irotlar, yuz (juz) lar, laqaylar, semizlar, kesamirlar, qatag‘onlar, mang‘itlar, jaloirlar, do‘rmonlar va boshqalar[166].

Nafaqat umumiy aholi soni, balki kichik hudud aholi sonini aniqlashda ham chalkashliklar davom etadi. Masalan, D.N.Logofet Qarshi shahrida XX asr boshlarida 70 ming nafar kishi, Shahrisabzda 30 ming nafar kishi, G‘uzorda 20 ming nafar kishi yashaganligini qayd etadi[167]. Ammo XX asrning 20-yillaridagi aholi ro‘yxatiga ko‘ra Qarshida (Behbudiy) 11 979

[161] Qarang. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 108.
[162] Логофет Д.Н. Страна бесправия... – С. 3.
[163] O‘sha joyda. – C. 174.
[164] O‘sha joyda. – C. 151, 153–186.
[165] O‘sha joyda. – C. 186–188.
[166] Qarang: Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – С. 66; Yana qarang: Қаюмов А. XIX аср охири – XX аср бошларида Сурхон–Шеробод водийсидаги этник жараёнларнинг баъзи омиллари // O’zbekiston tarixi, 2001. –№ 4. –Б. 28.
[167] O‘sha joyda. – Б. 186.

nafar kishi, Shahrisabzda 15 972 nafar kishi, G‘uzorda 8 500 nafar kishi yashaganligi ko‘rsatilgan[168]. Albatta, bu ro‘yxat Logofet tadqiqotidan o‘n-o‘n besh yil keyin o‘tkazilgan, ammo, aholining doimiy o‘sib borishini hisobga olganda ham raqamlar ikki barobarga farq qilishi bu jiddiy kamchilikka yo‘l qo‘yilganidan dalolat beradi.

Aholi soni masalasida O.A.Suxareva ham o‘z raqamlarini keltirib o‘tadi. Uning yozishicha, XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Qarshi shahrida 2,5–3 mingtagacha xonadon mavjud bo‘lib, uning har birida o‘rtacha olti nafar jon yashagan bo‘lsa, jami 15–18 ming nafar kishi istiqomat qilgan. 1926 yilgi aholi ro‘yxati ma’lumotlariga ko‘ra shaharda 3007 ta xo‘jalik va 4062 ta oila yashagan. Aholining umumiy soni 15198 nafar kishini tashkil etib, shundan 11267 nafar kishi o‘zbeklar, 3097 nafar kishi rus, ukrain va boshqa xalqlar edi[169].

Asarda muallif Buxoro amirligida yashaydigan o‘zbeklarning 102 ta urug‘ini sanab o‘tadi[170]. Ammo bu ma’lumotlar ham izohga muhtoj. Chunki N.V.Xanikov XIX asrning birinchi yarmida amirlikda 92 ta o‘zbek urug‘idan 28 tasi Buxoro amirligida yashaganligi haqida ma’lumotlar keltiradi[171]. Keyinchalik elshunos olima B.X.Karmisheva ham D.N.Logofet keltirgan o‘zbeklarning 92 ta urug‘i emas, balki muallifning Buxoro amirligi va Shimoliy Afg‘oniston bo‘ylab qilgan sayohati davomida qayd etgan urug‘ va qabilalar nomini hech bir tahlilsiz ro‘yxatga kiritganligini ta’kidlaydi[172]. Asardagi mavjud bu kabi kamchiliklar ishning fan uchun beradigan XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi janubiy hududlar aholisi etnik tarixi yoritishdagi ahamiyatini kamaytirmaydi.

D.N.Logofetning boshqa bir asarida Surxondaryo vohasida yashagan o‘zbek urug‘lari va ularning geneologiyasi haqida qiziqarli ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Shuningdek, u vohadagi etnografik guruhlarning tutgan mavqeiga qarab ro‘yxatini keltirgan. Xususan, Surxondaryo vohasida istiqomat qiladigan qo‘ng‘irot, qatag‘on, yuz, do‘rmon, turk kabi urug‘larning nafaqat voha bo‘ylab, balki Buxoro amirligi hududi bo‘yicha ham ro‘yxatini bergan[173].

Rossiya imperiyasi davri olimlarining sa’y-harakatlari bilan janubiy vohalarda yashagan aholining shakllanish jarayoni tadqiq etildi. Ayrim tadqiqotlarda (D.N.Logofet[174]) Rossiya imperiyasining shovinistik ruh va rus mafkurasining salbiy ta’siri kuzatilsa-da, bu kamchiliklar mazkur davrda

[168] Материалы по районированию Средней Азии. Кн. I. – Территория и населения Бухары и Хорезма. – Т., 1926. Ч. 1. Бухара. – С. 149.
[169] Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Т., 1958. – С. 118.
[170] Логофет Д.Н. Страна бесправия... – С. 155–156.
[171] Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С.63–65.
[172] Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – С. 104.
[173] Логофет Д.Н. Бухарское ханства под русским протектаратом, Т.1. – СПб., 1911. – С.91, 96–99, 104–105.
[174] Логофет Д.Н. Страна бесправия. Бухарское ханства и его современное состояние. СПб., 1909. 239 с.

bajarilgan ilmiy tadqiqotlar va yaratilgan manbalarning ilmiy-amaliy qimmatini kamaytirmaydi.

XIVA XONLIGI VA USMONLILAR IMPERIYASI: TARIXIY ALOQALAR VA O'ZARO TA'SIRLAR

Tadjiyeva F.J.
Ma'mun universiteti NTM dotsenti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: ftj85@mail.ru

Kalit so'zlar: *iqtisodiy munosabatlar, siyosiy munosabatlar, savdo munosabatlari, elchi, zobit, missiya.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Xiva xonligi va Usmonlilar imperiyasi o'rtasidagi tarixiy aloqalar va o'zaro ta'sirlarni o'rganadi. Xiva xonligi Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan davlat bo'lib, Usmonlilar imperiyasi esa o'z davrida dunyoning eng kuchli imperiyalaridan biri hisoblangan. Maqolada ikki davlatning tengdoshlik aloqalari, savdo-sotiq, madaniyat, din va siyosat sohalaridagi o'zaro ta'sirlar yoritiladi. Shuningdek, Usmonlilar va Xiva xonligining harbiy, diplomatik va madaniy munosabatlarining rivojlanishi ko'rib chiqiladi. Muallif tarixiy manbalarga tayangan holda, bu aloqalarning ikki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga qo'shgan hissasini tahlil qiladi. Maqola tarixchilar va tadqiqotchilar uchun Xiva xonligi va Usmonlilar imperiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.*

KHIVA KHANATE AND OTTOMAN EMPIRE: HISTORICAL RELATIONS AND MUTUAL INFLUENCES.

Tadzhiyeva F.J.
Associate Professor of the Department of History of the Mamun University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
E-mail: ftj85@mail.ru

Key words: *economic relations, political relations, trade relations, ambassador, officer, mission*

Abstract: *This article examines the historical connections and interactions between the Khanate of Khiva and the Ottoman Empire. The Khanate of Khiva was an important country in the history of Central Asia, and the Ottoman Empire was considered one of the most powerful empires in the world in its time. The*

article covers peer relations, trade, culture, religion and political interactions between the two countries. The development of military, diplomatic and cultural relations between the Ottomans and the Khanate of Khiva is also considered. Based on historical sources, the author analyzes the contribution of these relations to the socio-economic and cultural life of the two countries. The article will help historians and researchers to better understand the relationship between the Khanate of Khiva and the Ottoman Empire.

Xiva xonligi va Usmonlilar imperiyasi hukmdorlari o‘rtasidagi ilk aloqalar XVI asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu haqda shuningdek, 19-asrning birinchi yarmiga oid, u yoki bu tarzda Xiva va xonlar hukmronlik qilgan sulola bilan bog‘liq bo‘lgan arxiv hujjatlardagi ma’lumotlarni ko’rishimiz mumkin.

19-asrning birinchi yarmida Xiva Rossiyaning asosiy savdo sherigi edi. Biroq, faol savdo aloqalariga qaramay, bu davrda Xiva va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar ancha tarang edi. Tomonlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni tartibga soluvchi davlatlararo kelishuvga erisha olmadilar. Xiva Amudaryo deltasini nazorat qilganligi sababli Rossiya hukumati uchun alohida qiziqish uyg'otgan va O'rta Osiyo bilan savdoda aloqa yo'llariga katta e'tibor berilgan. Bu holatda Amudaryo hududga yuk yetkazib berish uchun juda qulay edi. O‘rta Osiyo geografiyasini yetarlicha bilmaganligi sababli Amudaryoning yuqori oqimi Hindistonda deb hisoblangan. Angliya bilan ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda Hindistonga qo'shinlarni etkazib berish uchun undan foydalanish imkoniyati ham ko'rib chiqildi. Shuning uchun ham Orol dengizi va Amudaryo deltasining gidrografiyasini o‘rganishga katta e’tibor berildi. Bu Xiva xonlarini xavotirga soldi, ular Rossiya shu yo‘l bilan xonlikni egallashga hozirlik ko‘rmoqda, deb hisoblardi. Tanglikning asosiy sabablaridan biri qozoq aholisi yurgan bahsli hududlar masalasi edi. Sirdaryoning quyi oqimi va Orol dengizining shimoliy sohillari o‘rtasida, bir tomondan, Emba daryosi va Kaspiy dengizi qirg‘oqlari, ikkinchi tomondan, qozoqlar yashaydigan keng maydon bor edi. Darhaqiqat, bu makon na Rossiya, na Xiva tomonidan nazorat qilinmagan, ammo Xiva xoni mahalliy qozoqlarni o‘ziga qaram deb hisoblagan. U Rossiyaga qo‘shib olingan hududlardan ko‘chib kelgan qozoq ko‘chmanchi zodagonlarining vakillarini qo‘llab-quvvatlab, homiylik qilgan. O'zaro munosabatlarning keskinlashishiga Mang'ishloq yarim orolida Novo-Aleksandrovskiy istehkomining qurilishi, shuningdek, xivaliklarning savdo karvonlariga hujumlarining kuchayishi va rus savdogarlarini tortib olishlari yordam berdi. Rossiya vakillari qo‘lga olingan va O‘rta Osiyodagi eng yirik

qul bozorlaridan biri hisoblangan Xivaga sotilgan rus fuqarolarini ozod qilishga erisha olmadilar. Shuning uchun 1836 yilda rus hukumati barcha xivalik savdogarlarni hibsga olib, ularning mol-mulkini musodara qiladi. Xon va Rossiya hukumati o‘rtasida 1837-1838 yillarda bo‘lib o‘tgan muzokaralar natijasiz tugadi. 1839 yilda Orenburgdan Xivaga qarshi general V.A. Perovskiy boshchiligidagi 5 minglik otryad yuborildi. Biroq 1839-1840-yillarning qattiq qishi, yuk hayvonlarining o'limi va kasallik uni orqaga qaytishga majbur qildi. Rossiya yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchraganiga qaramay, Xiva xoni Olloqulixon chor hukumatining da'volaridan xavotirda edi. O'sha paytda Xivada bo'lgan ingliz zobitlari Shekspir va Abbotning maslahati bilan xon rus asirlarini ozod qilishga qaror qiladi. Shuningdek, ularning maslahati bilan xondan Hindiston noibi huzuriga elchi yuboriladi. Bunga javoban ingliz zobitlari mayor Stoddart va Konolli xonga O‘rta Osiyoning boshqa hukmdorlari bilan Rossiyaga qarshi ittifoq tuzishni maslahat berdi. Bu zobitlarning vazifasi rus ekspansiyasidan himoya qilish uchun Xiva, Buxoro va Qo‘qon ittifoqini tuzish edi, biroq ularning urinishlari besamar ketdi.

Biroq Xiva xonlari Rossiyaga qarshi yordam so‘rab Usmoniylar hukumatiga murojaat qilishga urindilar. 1840 yilda Olloqulixon Usmonli sultonidan yordam olish uchun Istanbulga elchilarni yuboradi. Elchilarga Xiva ulamolaridan kelgan Qutbiddin afandi boshchilik qilgan. 1841 yilning bahorida uning boshchiligidagi delegatsiya Istanbulga yetib keldi. 24 iyun kuniyoq elchi sultonga tanishtirilib, Xiva xonining “kofirlar” ustidan qozongan g‘alabasi haqida gapirdi. Unga sovg'alar berildi. Elchi vataniga qaytishdan oldin o‘ziga ruxsat berilgan Makkaga haj ziyoratini ado etishni orzu qiladi. Uning sayohat xarajatlari ham to'langan.

1842-yilda Olloqulixon vafot etdi va uzoq davom etgan kurashlardan so‘ng taxtga yangi xon Muhammadamin o‘tirdi. Rossiya-Xiva munosabatlarining quyidagi keskinlashuvi uning nomi bilan bog'liq. Muxammadaminxon odatda, o‘zidan oldingilarning tashqi siyosat yo‘nalishini davom ettirdi. Xiva tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri Sirdaryoning quyi oqimi va Orol dengizining shimoliy qirg‘og‘idagi ko‘chmanchi aholi ustidan ularning ta’sirini kuchaytirishga intilish edi. Lekin bu yerda mahalliy hukmdorlarning intilishlari ruslarning dashtda olg'a siljish siyosati bilan to'qnash keldi.

1847 yilda rus hukumati Sirdaryoning og'zida Raim istehkomini qurdi va bu mahalliy ko'chmanchi aholini Rossiya nazorati ostiga olib keldi. Ilgari bu makon na Rossiya, na Xiva tomonidan nazorat qilinmagan, ammo Xiva xoni bu hududlarni o‘ziniki deb hisoblagan. Shuning uchun 1848-yilda Xivadan Istanbulga yana elchilar yuboriladi, unga avvalroq Usmonlilar davlati poytaxtiga tashrif buyurgan Qutbiddin hoji va Shukrulla boy

boshchiligida bo‘ladi[vamberi]. Elchilar Istanbulga 1848-yil dekabr oyi boshida yetib keldi va odatda O‘rta Osiyodan rasmiy missiya bilan kelganlar joylashadigan Hoshim og‘a mulkida joylashgan edi. Elchilar xon nomidan rus hokimiyatining xon mulki va daromadiga zarar yetkazgan harakatlaridan sultonga shikoyat qiladilar. Shuningdek, Rossiyaning xatti-harakatlari Xiva manfaatlari va musulmonlar manfaatlariga zid ekani qayd etildi, ular Usmonli hukumatidan Rossiyaga bosim o'tkazishni va uni tinchlik o'rnatishga majbur qilishni so'radilar. Usmonli hokimiyatlari, o'z navbatida, Rossiyani Xiva bilan tinch va do'stona munosabatlar o'rnatishga diplomatik yo'l bilan ko'ndirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Shu bilan birga, maktubda Rossiyaning Usmonlilarning barcha diplomatik sa’y-harakatlariga qaramay, ularning maslahatlariga quloq solmasligi ta’kidlangan. Maktubda Rossiya hukumati bilan do‘stona aloqalar o‘rnatish xonning o‘zi manfaatdor ekanligi ham qayd etilgan. Xonga atrofdagi barcha hukmdorlar bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatish, o‘z fuqarolarining xavfsizligi va mamlakat ravnaqi uchun g‘amxo‘rlik qilish tavsiya qilindi.

1855 yil aprel oyining oxirida Makkaga yo'l olgan Shukrulloh og'a Istanbulda paydo bo'ldi. U Xiva xonidan sovg‘a sifatida sulton otlarini olib kelib, muqaddas joylarga sajda qilish uchun Makkaga safarini davom ettirishga ruxsat so‘radi. Yil fasli haj ziyoratiga mos kelmagani uchun unga Istanbulda qolishga ruxsat berildi. Shu davrdan boshlab Shukrulloh og‘a Usmonlilar saltanati poytaxtida Xiva xonligi vakili bo‘lgan. Elchi sultonga Xiva xonining vazirining chig‘atoy tilida yozilgan xatini beradi. Bu maktubda Xiva amaldori Xiva xonligiga hujum qilish bilan bir vaqtda xon nazoratidagi hududlarni egallab, u yerda istehkomlar qurgan rus podshosining qilmishlaridan sultonga shikoyat qiladi. Oxirida u xonlik va Usmonli imperiyasi o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni eslab, sultondan Rossiyadan tushuntirish talab qilishni so‘raydi. Xivanliklarning sultonga bunday murojaati Xivaga Eron va Hindistondan kirib kelgan Qrim urushining borishi haqidagi xabarlar bilan bog'liq edi. Ma’lumki, Afg‘oniston va Hindistondagi inglizlar Turkiyaning harbiy muvaffaqiyatlarini bo‘rttirib mish-mishlar tarqatgan. Ko'rinib turibdiki, aynan shu paytda Xiva hukmdorlari Turkiyaning harbiy va tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatlaridan o'z muammolarini hal qilish uchun foydalanishga qaror qilishgan.

1859 yil oxiri - 1860 yil boshida Xivadan Feyzulla Bey ismli yangi elchi Istanbulga keldi. U Xiva hukmdorlaridan Xivaga yordam so‘rab xat olib kelib, zudlik bilan vataniga qaytishni so‘rab ariza yozadi. Ular ruxsat olishdi. Biroq Usmonlilar hukumatida yordam masalasining muhokamasi deyarli 8 oy davom etdi. Bu xat chag‘atoy tilida yozilgan. 1860-yil 18-yanvarda tarjima qilinib, sultonga taqdim etilgan. Javob xatida Usmoniylar

yordam berish istagidan qaytmaganligini, lekin ayni damda bu yordamni amalga oshirishning imkoni yo‘qligini yozishga qaror qilindi. Natijada maktub matni nihoyat kelishib olindi va Xiva xoni elchisi Shukrulloh og‘aga faqat 1861-yil o‘rtalarida topshirildi. 1873-yilgacha Xiva elchilarining Istanbulga kelishi haqida hech qanday ma’lumot yo’q.

Munosabatlarning keyingi bosqichi Rossiyaning Xivaga nisbatan tashqi siyosatining faollashuviga to‘g‘ri keldi. 1873 yilda Rossiya tomonidan Xivaga qarshi jangovar harakatlar boshlanganligi munosabati bilan Xiva hokimiyati turk sultoniga yordam so‘rab murojaat qiladi. Bu iltimos Usmonlilar tomonidan olti oy — 1873-yilning 20-martidan 17-dekabriga qadar muhokama qilingan. Rus manbalariga ko‘ra, ayni vaqtda Xivada Usmonli elchisi bo‘lgan. Xiva xoni xivanliklarning ma’naviyatini saqlab qolish uchun turk elchisi sifatida bir qancha Usmonli qo‘lidan o‘tib, Turkiyaga ittifoq va yordam va’da qilgan. Uning vazifasi Rossiyaga qarshi Buxoro, Xiva va Fors ittifoqini tuzishdan ham iborat edi. Bundan tashqari, u fors mahbuslarini ozod qilish uchun vositachi sifatida o'z xizmatlarini taklif qilishi kerak edi.

Buxoro elchisi Xiva xoniga amirning Hisorni zabt etishi haqida xabar berib, Rossiya bilan tinchlik o‘rnatish faqat vaqtinchalik chora ekanligini, u Qur’on amrlarini unutmaganligini, shuning uchun vaqti kelganda ishga kirishishini e’lon qildi.

1871 - 1875 yillarda hisobga olingan holda Turkiya va Rossiya o‘rtasida yaqinlashish kuzatildi, Istanbulda Rossiya elchisi N.P. Ignatievning ta’siri kuchaydi, taxmin qilish mumkinki, u rasmiy elchi emas, balki ko'proq shaxsiy shaxs bo'lgan. Agar diplomatik vakil yuborilsa, Rossiya-Turkiya munosabatlarida jiddiy asoratlar paydo bo'lardi. Shunday qilib, Xiva xonligi tarixidagi burilish pallasida Usmonli imperiyasi o‘zini faqat hamdardlik va qo‘shnilar bilan tinchlik o‘rnatish istagi bilan cheklanib, samarali qo‘llab-quvvatlay olmadi.

Usmonlilar arxividagi Xiva haqidagi navbatdagi xabar 1875 yilga to‘g‘ri keladi. Bu yil Xiva xoni Muhammad Rahimning ukasi Ahmad Istanbulga yetib keldi. Usmonlilar hukumati uning barcha xarajatlarini va ijara uy-joylarini to'lashni o'z zimmasiga oldi. 1887 yilda Usmonli dengiz vazirligi uning Istanbuldagi kemasozlik korxonalariga tashrifi haqida hisobot tayyorladi. Ushbu hisobotda u ko'rgan narsasidan katta taassurot qoldirgani aytilgan.

Turkiyaning turli arxivlarida o‘rganilayotgan davrga oid hujjatlar Xiva xonligi bilan Usmonli davlati o‘rtasidagi munosabatlar, elchilik munosabatlari, Usmonlilar rahbariyatining Xivaga nisbatan siyosiy yo‘nalishining mohiyatini ko‘rsatadi. Qizig‘i shundaki, Xiva xonlarining sultonlarga yo‘llagan barcha maktublarida Usmonlilar sulolasining biron bir

aniq vakilining ismi va unvoni emas, balki “Rum sultoni” unvoni tilga olinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xiva xonlari sultonga yozgan maktublarida musulmonlar manfaatlarini “kofirlar” manfaatlariga qarama-qarshi qo‘yib, himoya qilishni so‘raganlar. Ular nazarida eng qudratli mustaqil musulmon hukmdori bo'lgan Sultonga murojaat qildilar. Ammo bunday so'rovlar Usmonli imperiyasining o'zida hokimiyat tomonidan olib borilayotgan siyosatga zid edi. Usmonli ma’muriyati yevropalashtirish va islohotlar yo‘nalishiga sodiq bo‘lib, siyosiy sabablarga ko‘ra, dinidan qat’i nazar, o‘z fuqarolarining tengligini izchil ta’kidlab, xivanliklarning talablarini qondira olmadi. Xivaning Rossiyaga qo‘shilishi chog‘ida harbiy mag‘lubiyatga uchragach, uning xorijiy hukmdorlar bilan tashqi aloqalari Xiva xoni va general K.P. fon Kaufmann tuzgan tinchlik shartnomasi shartlariga ko‘ra taqiqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии, С. 299.
2. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии. М., 1958, С. 170.
3. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии, Т.П, С.66.
4.Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последние 300 лет. Пг., 1913. С. 178-183.
5. Васильев Александр Дмитриеви. Взаимоотношения Османской империи и государств. Центральной Азии в середине XIX - начале XX вв. **(**Диссертация**)**. Москва, 2007
6. Таджиева, Ф. Дж. (2022). Социально-экономическая жизнь в период правления династии кунгирадов и роль в ней ремесел. In *Дискуссионные вопросы развития науки и образования* (с. 119-122).

USOMA IBN MUNQIZNING “KITAB AL-E’TIBAR” (الاعـ تـ بار كـ تاب) (XII ASR) ASARIDA “O‘ZBEK” ATAMASI VA UNING TAHLILI

Xudaynazarov Isobek Boysoatovich
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
katta o‘qituvchi (isobek@inbox.ru)

Kalit so‘zlar: *Kafartob, Bursuq ibn Bursuq, sarkarda O‘zbek, Ispa-ka, Ishkuza, Ossur klino-pislari, amir Kuntug‘di, Ismoil al-Balxiy*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “o‘zbek” atamasining o‘rta asrlar arab tarixchisi va sarkardasi Usoma ibn Munqizning “Kitab al-e’tibar” asarida qo‘llanishi hamda 1115 yilda Suriyaning Kafartab shahri yaqinida salibchilarga qarshi jangda qatnashgan Xuroson qo‘shini va uning O‘zbek ismli qo‘mondoni jasorati*

voqealari tarixiy manbada ketirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi.

"UZBEK" NAME AND ITS ANALYSIS IN HISTORICAL SOURCE "KITAB AL-E'TIBAR" BY USAMA IBN MUNQIZ (IN XII CENTURY)

Khudaynazarov Isobek Boysoatovich
Tashkent State University of Oriental Studies
Senior teacher (isobek@inbox.ru)

Keywords: *Kafartab, Bursuq ibn Bursuq, warlord Uzbek, Ispaka, Ishkuza, Assyrian cunei-forms, amir Kuntug-di, Ismail al-Balxi*

Abstract: *This article analyzes the use of the term "Uzbek" in the book "Kitab al-E'tibar" by the medieval Arab historian and general Usama ibn Munqiz, and based on this historical source the bravery of the Khorasan army and its commander named Uzbek, who participated in the battle against the Crusaders near the Syrian city of Kafartab in 1115.*

O'zbek xalqining kelib chiqish tarixiga doir ma'lumotlar har doim muhim va keng jamoatchilikni qiziqtirib kelgan. Bu borada nafaqat arxeologik tadqiqotlar, balki yozma tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarni sinchkovlik bilan o'rganish, ilmiy tadqiqotlarga jalb etish hamon davom etmoqda. Natijada, xalqimiz tarixiga oid noto'g'ri ilmiy xulosalar adabiyotlardan chiqarib tashlanishi zarur. Jumladan, P.P.Ivanov. A.Yu.Yakubovskiylarning "o'zbek" atamasini O'zbekxon (1283-1341, taxtda o'tirgan yillari 1213-1241) nomi tufayli paydo bo'lgan degan da'vosini[14]. Aksincha, akademik A.Asqarovning "so'nggi bronza davridan boshlangan assimilyatsiya jarayoni antik davrga kelib, o'zbek xalqiga xos iqtisodiy xo'jalik, etnomadaniy va antropologik tip birliklarini o'zida mujassam-lashtiruvchi, o'troq hayotga moslashgan turkiy hududiy maydon tarkib topdi, o'zbek xalqiga xos antropologik tipning makon va zamoni aniqlandi. Bu hududiy maydon Sirdaryoning o'rta havzasi" xulosasi boy ilmiy asosga ega[2.4].

Saklar va massagetlar Orolbo'yi, Yettisuv, Tangritog' (Tyan-Shan) va Oltoy etaklarida yashagan turkiy tilli dinlinlar, xunnlar, tieklar, syanbiylar, uyg'urlar bilan yonma-yon yashaganini hisobga olib, N.Aristov, G.Grumm-Grjimaylo, A.Kononov, S.Malov, A.Gaben kabi tadqiqotchilar bu ko'chmanchi xalqlarning eron tilli guruhga kirishiga shubha bildirishgan. Gerodotning "Tarix" asarini tarjima qilgan I.V.Pyankov: "Massagetlar deganda faqat turkiylarni nazarda tutish kerak", - deb xulosa bergan[11.50].

Lekin, yana bir jihat ham bor qadimgi Ossuriya klinopislarida (1933 yilda R.Tomson tadqiq etib, nashr etgan[12].) ml.avv. 679-674 yillar

voqealari hikoya qilinib, unda Skiflar davlatining nomi ossurcha “Ishkuza” deb keltirilishi (“o‘g‘iz” yoki, “icho‘g‘uz” so‘zining buzib talaffuz etilish bo‘lishi mumkin) hamda uning miloddan avvalgi 720-669 yillarda yashagan hukmdori “Ispaka”[15]. nomini O‘g‘uzbek, yoki uning qisqargan shakli O‘zbek deb talqin qilishni taklif etgan Xurshid Davron fikri asosli bo‘lishi mumkin. Sababi, “Ishpak” so‘zining qadimgi eroniy tilda o‘qilishi “spaka” – “sobaka” tarzida o‘qilib, yovvoiy it, bo‘ri shaklida talqin etilgan[16]. Rus olimlari qadimgi xalqlarni varvar, itni qo‘lga o‘rgatib jangda foydalangan deb hisoblamasin bu mantiqdan ancha uzoq. Yana ushbu so‘zning “aspak” shakli “otliq” deb talqin etilgan, bu o‘rinda Tuproqqal’adan topilgan “aspabarak” otliq tasviri tushirilgan tangalarni yodga olish o‘rinli. Bu jihatdan ham ushbu Ossuriya sopol yozuvlarida keltirilgan nomlar hududimizga aloqador ekani anglashiladi. Tarixchi va filolog M.Mahmudov “massagetlar” so‘zini yunonchadan tarjima qilib “massa” - katta, “get” – g‘ut (-g‘uz), katta o‘g‘uzlar ma’nosini berishini, bu xulosani olimlar Z.Ziyotov, A.Shukurovlar tasdiqlashgan[10.15]. Shuningdek, “o‘zbek” so‘zi etimologiyasining o‘g‘uz so‘zi bilan bog‘liqligi xususida tarixchi olimlar N.Norqulov va O‘.Jo‘raevlar 8-sinf “O‘zbekiston tarixi” darsligida aytib o‘tgan nuqtai nazari ham mavjud.

Akademik Karim Shoniyozov asarlarida Turk hoqonligi (552-747) tarkibidagi yirik turkiy elatlar ro‘yxati keltirilib, “o‘zlar” yoki, yana boshqa “azlar” nomli xalqlar joylashgan mintaqa, ularning hoqonlikdagi ta’siri haqida ma’lumotlar berilgan[9.167]. Soha mutaxassislaridan ba’zi olimlar jumladan, M.M.Ermatov “o‘zbek” so‘zining paydo bo‘lishini yuqorida nomi keltirilgan turkiy qabilalardan bo‘lmish uz(o‘z)lar bilan bog‘laydi[8.9]. Lekin, ushbu olimning ilovada keltirilgan asarini sinchiklab qarasangiz u ham o‘zbeklarni qadimdan o‘troq xalq va sak-massagetlarning avlodi degan xulosani bergan.

O‘zbekxondan avval ham o‘zbek nomining hukmdorlar yoki, sarkardalar nomida uchrashiga oid misollar ko‘p, jumladan, tarixchi Rashdiddin Fazlullohning “Jome at-tavorix” asarida ilgezidiylar sulolasiga tegishli Tabriz hokimining ismi O‘zbek Muzaffar deb ma’lumot beradi[7.76]. Jaloliddin Xorazmshoh qo‘shinbosh-liqlaridan birining ismi ham Jahon Pahlavon O‘zbek bo‘lgani ma’lum.

Usoma ibn Munqiz (1095-1188) yillarda yashab o‘tgan, arab (suriyalik) yozuvchi, sarkarda. U Suriyadagi Sheyzar shahri hokimi Murshid xonadonida tavallud topib, yaxshi ta’lim olgan. Otasi ham o‘z davrining bilimli kishisi sifatida taniqli hattot, Qur’oni karimni ko‘chirgan olim, katta mavqega ega bo‘lgan Munqiziylar sulolasining vakili edi. Usoma ibn Munqiz 1110-yildayoq o‘z shahri himoyasi uchun salbchilarga qarshi jangda ishtirok etgan, Falastin, Quddus himoyasi janglarida qatnashgan. Olim o‘z

davrining yirik sayyohi, xususan 1144-1154 yillarda 10 yil Misrda yashadi, Damashq, Makka, Mosul shaharlarini kezib, Mosulda saljuqiylardan Imomiddin Zangi xizmatida, 1164-1174 yillarda Hasankeyfi shahrida Artuqiylar xizmatida va nihoyat 1174-yilda Damashq Salohiddin Ayubiy (1137-1193) qo‘l ostida bo‘lganida ona yurtiga qaytadi.

Turli manbalarda Usoma ibn Munqizining she’riy devoni va “Kitab al-e’tibar” (Ibratli kitob)dan tashqari, 10 ga yaqin asari borligi qayd etilgan. Lekin, bizgacha ulardan faqat 3 tasi yetib kelgan. Birinchi asari “Kitab al-manazil va-d-diyar” (Manzillar va maskanlar kitobi), ushbu kitobning yagona qo‘lyozmasi 1880-yilda Eskurial (Ispaniya) kutubxonasidan topilgan. Yana bir asari “Kitab al-a’sa” (Hassalar haqida kitob) deb nomlanadi. Salib yurishlari haqida yaratilgan ko‘plab tarixiy va adabiy asarlarning mualliflari Yevropa tarixchi va yozuvchilari bo‘lgan va ular bu jarayonni o‘z qarashlari va manfaatlariga muvofiq holda yoritganlar. “Kitab al-e’tibar” esa, salib yurishlarining bevosita shohidi bo‘lgan arab yozuvchisi qalamiga mansub. Usoma ibn Munqizning ushbu kitobi qiziqarli badiiy memuar asar bo‘lish bilan birga muhim tarixiy manba ham hisoblanadi: unda XII asrda yashagan arablarning turmush tarzi, o‘rta asr arab sharqining hayoti, arablarning salibchilarga munosabati aks ettirilgan[13]. Asarda yozilishicha, o‘zbek qavmiga mansub kishilar XII asrdayoq arab diyorlarida yaxshi mavqega ega bo‘lgan va salib yurishlarida musulmonlar tomonida turib janglarda ishtirok etishgan. Biz uchun ahamiyatlisi unda “O‘zbek” ismli sarkardaning 1115-yilda Suriyaning Kafartab shahri yaqinidagi jangda ishtirok etishidir. Jumladan, asarda quyidagicha keltirilgan:

“... men guvoh bo‘lgan shunga o‘xshash voqea hijriy 509-yilda (1115) sodir bo‘lgan. Sultonning buyrug‘i bilan qo‘shinga boshchilik qilishga sarkarda Bursuq ibn Bursuq yetib keldi, otam ham (Alloh rahmat qilsin) (shaharning hokimi sifatida) qo‘shinning old qismiga chiqqan edi. Sarkarda bilan birga bir guruh taniqli amirlar, jumladan Mosul hokimi va qo‘shini qo‘mondoni O‘zbek, Rahba hokimi Sunqur Diroz, amir Kuntug‘di va xos vakil Baktemur, qahramon jangchi Zangi ibn Bursuq, Tamirak, Ismoil al-Balxiy va boshqa amirlar. Ular Kafartab (Suriya) shahrida joylashib olgan (salibchilar) aka-uka Teofilos va franklar qarshisiga qarorgoh qurib, ularga hujum qilishdi. Xuroson qo‘shinlari chuqurga kirib handaq qazishdi. Franklar g‘alaba qozonishiga ko‘zi yetmay qal’aning tomiga o‘t qo‘yishdi, otlar, yuk tashish hayvonlari, qo‘ylar, cho‘chqalar hatto asirlar ham olov ichida qoldi [6.113]. Ammo, franklarning bir qismi qal’aning boshqa tomon devorlarini himoya qilishdi. Shunda hayolimga qazilgan yer osti yo‘lini ko‘rish keldi. O‘q va toshlar yomg‘iriga qaramasdan yer osti yo‘li (tunel)ga kirdim. Shunda aqlli bir ishni ko‘rdim, ular tuproq bosib qolmasligi uchun tunelni taxtalar bilan himoya qilishgan edi. Keyin ular qal’a devorlari

ostidan chuqur kavlab, handaq uzunligini minora devorlariga qadar yetkazdi. Yer osti yo‘lining shu qismi tor edi, lekin jangchilar uni kengaytirib, yog‘och bilan tiranch berib kengaytirdi. Xuroson askarlari meni tanidi, aks holda meni qo‘yib yubormagan bo‘lishardi. Minora tegidagi chuqurga o‘tin qalab yoqildi, ertasi kuni kuchli yomg‘ir ostida hujum qildik, minora qulab tushdi. Qal’a tepasidagi franklar kamondan o‘q otib bizning asrkarlarni yarador qildi. Biz tomosha qilib turgan payt, bir turk shiddat bilan devorga chiqib, shishada nafta bilan franklar ustiga yurdi, yonayotgan dushman yerga yulduzday qulashni boshladi. Yana bir turk qalqonsiz yuqoriga ko‘tarilib, eshikni himoya qilib turgan otliqqa nayza bilan tashlandi. So‘ngra qilichini shiddatli jang qildi, biz uning ortidan yurib ko‘pchilik bo‘lib hujum qildik, franklar ortga chekindi, ular qal’ani bizga topshirdi, asirlarni chodirga olib keldik. Frank asirlari orasida boya turk bilan jang qilgan zobit “Men uchun qancha dinor so‘raysizlar – dedi. Biz 600 dinor so‘raymiz, -dedik, shunda u masxara qilib, 1 oyda 2 dinor olsam, menda qayerdan shuncha dinor- deb asirlar yoniga o‘tirdi.”

....Xalabdagi qo‘shinimiz kuchsizlangani xabari keldi, salibchilar qo‘li baland kelayotgan ekan. Shunda sarkarda Bursuq qo‘shin qo‘mondoni O‘zbekni uch ming otliq askar bilan u yerga jo‘natdi. Shunda Rojer (xudo uni la’natlasin) ertalabdan ilohiy iroda ko‘rsatib, O‘zbek boshliq qo‘shinni mag‘lub qildi. Franklar Kafartabga qaytib kelib, qayta o‘rnashib olishdi. Bizda asir bo‘lgan franklarni amirlar o‘zaro bo‘lib olishdi, Xalabga ketishdan oldin sarkarda ixtiyoriga tushganlarni qatl qilishdi, chunki bu uning qarori edi. Qo‘shin tarqaldi, nima bo‘lganda ham o‘sha turk yolg‘iz o‘zi Kafartab minorasiga chiqib, uni egallashimizga sababchi bo‘lgandi” [6.116].

Xulosa qilib aytganda, ushbu “Kitab al-e’tibar” asari 1115 yil Suriyaning Kafartab shahri yaqinidagi salibchilarga qarshi jangda Xuroson qo‘shinlari tarkibida qo‘mondon O‘zbek, Sunqur Diroz (Surqur Baland yoki, “Oq lochin” laqabli amir), amir Kuntug‘di va jangchi Baktemur, Ismoil al-Balxiy kabi ota-bobolarimiz o‘zining sodiq askarlari bilan mardona jang qilganini tasdiqlaydi. O‘zbek ismli qo‘mondon qo‘shini jasorati XII asrdayoq o‘zbek qavmiga mansub kishilar arab diyorlarida yaxshi mavqega ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Albatta, ushbu manbada keltirilgan ma’lumotlar “o‘zbek” xalqi tarixini xolis o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:

(1) 247 pages تـوريب ةيملعلا بتكلا راد by 1999 .رابتعالا باتك .أ سامة بـ ن مـ نـ قذ

2. Asqarov A. O‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba’zi bir nazariy va ilmiy-metodologik masalalari // “O‘zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix” respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari, T., 2004. 19-20 noyabr 84 b.

3. Carl Brockelmann. History of the Arabic Written Tradition //Handbook of Oriental Studies//Handbuch der Orientalistik, volume 117/s1, “Brill”, Leiden-Boston, 1996. 1047p (P.570)
4. Carl Brockelmann. Geschichte Der Arabischen Litteratur. Leipzig, 1909. 280 pages (P.67)
5. Paul M. Cobb. Usama ibn Munqidh (Makers of the Muslim World) warior-poet of the Age of Crusades. “Oxford: One world”, London, 2012. 123 pages
6. Paul M. Cobb. Usama ibn Munqidh. The Book of Contemplation. Islam and the Crusades, Penguin books, London. 2008. 334 p.
7. *Рашид-ад-Дин*. Джами ат-таварих. *Сборник летописей*. Том-2, (перевод с персидского Ю.П.Верховского) М-Л. 1960, -210 с.
8. Эрматов М.М. Этногенез и формирование предков узбекского народа. — Ташкент : Узбекистан, 1968. -199 с.
9. Shoniyozov K. Qarluq davlati va qarluqlar. − T.: “Sharq”, 1999. 218 b.
10. Шукуров А. “Ўзбек” атамасининг келиб чиқиши ҳақида. “Насаф”, Т., 2010, 68 б.
11. Пьянков И.В. Массагеты Геродота. // Вестник древней истории. 1975. №2. С. 46-70.
12. Гутнов Ф.Х. Скифские портреты(https://www.darial-online.ru /material/19993-gutnov/)
13. https://uzsmart.uz/ensiklopediya/ensiklopediya/usoma-ibn-munqiz.html
14. Xurshid Davron. O‘zbek atamasining kelib chiqishi // http://www.khorezmiy.uz/uz/pages/view/295
15. https://ru.wikipedia.org/wiki/Ishpakay
16. https://traditio.wiki/w/index.php?title=Ishpakay&oldid=852112

XAEE MATERIALLARINI MUZEYLARDA TO‘PLANISHI (O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi misolida)

Mansur M.Safayev
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi kichik ilmiy xodimi
E-mail: safoyevmansur8@gmail.com

Kalit so’zlar: *muzey, fond, arxeologiya, etnografiya, etnomadaniy meros, kolleksiya, ekspeditsiya.*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi (XAEE) materiallarining to‘planishi, ekspozitsiyada namoyish etilishi va ularning ilmiy jihatdan tadqiq etilishiga oid masalalar tahlil qilingan. Maqola muzeylashtirish jarayonining tarixiy va ilmiy ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan*

COLLECTION OF KAEE MATERIALS IN MUSEUMS (on the Example of the State Museum of History of Uzbekistan)

Mansur M. Safayev

State Museum of the History of Uzbekistanjunior researcher
E-mail: safoyevmansur8@gmail.com

Key words: *museum, fund, archaeology, ethnography, ethnocultural heritage, collection, expedition.*

Abstract: *This article analyzes the collection of materials from the Khorezm Archaeological and Ethnographic Expedition at the State Museum of History of Uzbekistan, their display in the exhibition, and their scientific investigation. The article aims to highlight the historical and scientific significance of the museumization process of these materials.*

KIRISH

Xorazm, Markaziy Osiyo mintaqasining tarixiy-madaniy maskanlaridan biri bo‘lib, o‘zining qadimiy dehqonchiligi, shahar madaniyati va ko‘chmanchi chorvador qabilalar hayot tarzining uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Bu hudud o‘ziga xos etno-madaniy jarayonlar va xalqlar orasidagi o‘zaro ta’sirlar natijasida rivojlangan. Xorazm vohasida o‘tkazilgan turli arxeologik va etnografik ekspeditsiyalar natijasida olingan ashyolar va topilmalar hududning tarixiy va madaniy merosini yanada boyitdi. Shu nuqtai nazardan, Xorazmda o‘tkazilgan arxeologik va etnografik tadqiqotlar natijasida to‘plangan ashyolarni muzeylarda saqlash va o‘rganish, tarixiy merosimizni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu jarayon, shuningdek, O‘zbekistonning madaniy merosini saqlash va rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi mamlakatning eng qadimiy va yirik muzeylaridan biri hisoblanadi. Muzey Markaziy Osiyodagi dastlabki bo‘lib, 1876 yil Toshkent muzeyi sifatida tashkil etilgan [1]. Muzeyda O‘zbekiston tarixining barcha davrlariga oid nodir artefaktlar, moddiy va madaniy boyliklar mavjud. Ular orasida qadimiy qo‘lyozmalar, arxeologik topilmalar, etnografik materiallar, shuningdek Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy merosi, gilamdo‘zlik va boshqa xalq hunarmandchiligi buyumlari bor.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi – O‘zbekiston xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyat yodgorliklari jamlangan mamlakatdagi yirik maskan. Bugungi kunda uning fondlari 340 mingdan ziyod ashyolar, shu jumladan, 70 mingdan ortiq arxeologik, 100 mingdan ortiq numizmatik, 18 mingga yaqin etnografik ashyolar, o‘lkaning yangi va eng yangi davri tarixiga oid 120 mingdan ortiq fotosurat va hujjatlar, 18 mingdan ortiq moddiy yodgorliklar va boshqalarni o‘z ichiga olgan. Muzeyning arxeologiya fondi ibtidoiy, antik va o‘rta asrlar davriga oid 325 ta kolleksiyadan iborat [9, 14-15].

TADQIQOTNING USULLARI

Arxeologik va etnografik ashyolarni muzeylarda to‘planishi tarixi bo‘yicha tadqiqot metodologiyasi, bu fanning ko‘p qirrali va interdisiplinar xarakterini inobatga olgan holda, bir necha asosiy metod va yondashuvlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu yondashuvlar tarixiy, madaniy, arxeologik va antropologik aspektlarni o‘z ichiga oladi.

Bu metodologiya orqali arxeologik ashyolarni muzeylarda to‘plash va saqlash tarixini chuqur o‘rganish, shuningdek, arxeologik merosning zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini tushunish mumkin. Tadqiqot natijalari tarixiy va madaniy merosni saqlash, tadqiq etish va uning ahamiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR

Hozirga qadar Markaziy Osiyoda butun insoniyat madaniyatining shakllanish yo‘lida uzoq vaqt chuqur sir bo‘lib kelgan “Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi tarixini” o‘rganishdan to‘xtamayapti. Shubhasiz, XX asrning buyuk olimi Sergey Pavlovich Tolstov (1907-1976) bu sivilizatsiyaning paydo bo‘lishidan to yuksalishigacha bo‘lgan tarixiy jarayonlarni ochib berishda ulkan hissa qo‘shdi. Bugungi kunda Xorazm davlati tarixini qaysi nuqtai nazardan yoki qaysi jihatdan ko‘rib chiqmaylik, uni olim tomonidan 1930-yillarning ikkinchi yarmida tashkil etilgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi (bundan keyin - XAEE) bilan bog‘lamasdan tasavvur qilish mumkin emas. O‘z vaqtida ushbu ekspeditsiyaning ishtirokchisi bo‘lgan I.A.Arjansevaning “Хорезм история открытий и исследований” nomli fundamental asari XAEEning shakllanishi, kashfiyotlar va tadqiqotlar tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan[5]. Tarixshunos olim A.Doniyorov ushbu kompelks ekspeditsiya natijasida nashr etilgan turli adabiyotlarni tahlil qilib, tarixshunoslik nuqtai nazardan tizimlashtirib chiqadi. Shuningdek, tadqiqotlarining natijasini keyinchalik Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib ekspeditsiya tarixshunosligini fan tariqasida oliy ta’lim muassasasida tadbiq qilgan. Ushbu fan doirasida ishlab chiqilgan maxsus qo‘llanmada, tadqiqotchi tomonidan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspedisiyasi faoliyatini tarixiy umumlashtirishga va, umuman, Markaziy Osiyoda, shu jumladan O‘zbekistonda tarix fanining rivojlanishiga ushbu ekspedisiyaning ta’sirini ko‘rsatishga harakat qilingan [7].

S.P. Tolstov 1937-yildan to vafotiga qadar ekspeditsiyaga rahbarlik qildi. Uning xizmati, so‘zma-so‘z aytganda, “dunyoga Qadimgi Xorazm tamaddunini ochib bergan”. Hududiy qamrovi, o‘rganilgan yodgorliklar va nashr etilgan materiallar soni, arxeologik va etnografik izlanishlarni tashkil etishdagi murakkabligi hamda kompleks yondashuviga ko‘ra, ushbu ekspeditsiya o‘z ahamiyati jihatidan hanuzgacha tenggi yo‘q hisoblanadi[8, 205].

Xorazm ekspedisiyasi sobiq ittifoqdosh respublikalar Fanlar akademiyalari bilan doim uzviy aloqada faoliyat olib borgan [7, 5]. Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi mamlakatimiz muzeylari, jumladan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining fondlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ekspeditsiya davomida topilgan yodgorliklar tufayli Qadimgi Xorazmning islomgacha bo‘lgan davrdagi ijtimoiy tuzumi, xo‘jaligi va madaniyati, Amudaryo va Sirdaryoning qadimgi o‘zanlari hamda ular orqali Markaziy Osiyoda sug‘orish tizimining rivojlanishi o‘rganildi. Shu tariqa, muzey fondlari Xorazm dashtlarida istiqomat qilgan aholining ijtimoiy tuzumi va madaniy hayotiga oid tarixiy ma’lumotlar bilan to‘ldirilib, ularning ilmiy qiymati oshirildi [10, 176].

XAEE natijasida Tuproqqal’adan topilgan surat va haykallar, idishlarga tushirilgan yozuv namunalari, turli davr hamda uslubdagi ostadonlar, shuningdek, To‘qqal’a epigrafik ostadonlari, tangalar, xorazmliklarning kumush idishlari, Angqaqal’aning musiqa asbobi chalayotgan haykalchalari (CA-7133), Jonbosqal’aning ayol haykalchalari (CA-7117), Qo‘rg‘oshinqal’aning sher surati tasvirlangan suvdoni o‘rin egallagan [3, 19].

Muzey arxeologiya fondini to‘ldirish ishlarining aksariyat qismi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, taniqli arxeolog-olim Ya. G‘. G‘ulomov nomi va xizmatlari bilan bog‘liq. Ya. G‘. G‘ulomov respublikaning Xorazm, Buxoro, Toshkent va boshqa hududlaridagi qator muhim arxeologik ekspedisiyalarda qatnashdi va ularga bevosita rahbarlik qildi [9, 43]. U Arxeologiya institutining arxeologik ekspedisiyalari tarkibida ishlayotgan va Muzey fondini yangi materiallar bilan boyitayotgan qator arxeolog-olimlar, jumladan, Muzey xodimlarining ustozi va ilmiy maslahatchisi edi.

O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondini to‘ldirishda V. I. Sprishevskiy muhim rol o‘ynagan. U 1946-1974 yillar davomida muzeyda doimiy shtatda arxeolog sifatida ishlagan va O‘zbekistonning arxeologik merosini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan [9, 42]. V.I. Sprishevskiy 1946-yilda SSSR Fanlar akademiyasining Moddiy madaniyat tarixi instituti va Etnografiya instituti tomonidan Xorazmda o‘tkazilgan arxeologik-etnografik ekspeditsiyada ishtirok etdi. Ushbu ekspeditsiya natijasida ibtidoiy-jamoa bo‘limi uchun qimmatli materiallar qo‘lga kiritildi [2].

1946-yilda Y.G‘. G‘ulomov bilan Qoraqalpog‘istondagi Jonbozqal’a 4b, 5, 6 yodgorligini o‘rganish davomida topilgan 96 ta arxeologik topilma muzey Arxeologiya fondining 90 – sonli kolleksiyasidan joy olgan [3, 60]. Bu topilmalar qadimgi Xorazm hududining tarixini o‘rganishda muhim

manba bo‘lib, hududning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini yoritishga yordam beradi.

1965-yilda V. I. Sprishevskiy Moskva Etnografiya institutidan Muzeyga Xazoraspdan topilgan antik va o‘rta asrlarga oid kulolchilik kolleksiyasi; Yakkaporsondan topilgan ilk o‘rta asrlarga oid sopol idishlar; Angka-5 manzilgohidan topilgan bronza davriga oid sopol buyumlar; Qo‘yqirilganqal’adan topilgan antik davr yodgorligi sanalgan kulolchilik kolleksiyasi; Dingiljidan topilgan neolit davriga oid tosh qurollarni keltirib topshirdi[9, 43]. Ular orasida neolit davriga oid nodir sopol kosa, Qo‘yqirilganqal’adan topilgan o‘tirgan holatdagi ayolning bo‘rtma tasviri tushirilgan ostadon katta ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Qo‘yqirilganqal’adan topilgan o‘tirgan holatdagi ayolning bo‘rtma tasviri tushirilgan ostadon (muzeyning doimgi ekspozitsiyasi, 2024 yil may oyi)

Qo‘yqirilganqal’adan topilgan o‘tirgan holatdagi ayolning bo‘rtma tasviri tushirilgan ostadon (muzeyning doimgi ekspozitsiyasi, 2024 yil may oyi)

1958-1959-yillarda S.P. Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Xorazm vohasida olib borilgan izlanishlar natijasida qo‘lga kiritilgan bir nechta turdagi 2000 mingdan ziyod sopol buyum va ularning bo‘laklaridan iborat kolleksiya muzeyga keltirilgan [3, 63]. Sopol buyumlar va ularning bo‘laklari o‘sha davrning hunarmandchilik, xo‘jalik va kundalik turmush tarzi haqida chuqur bilim olishda muhim manba hisoblanadi.

Qoraqalpoqlarga oid etnografik ashyolarni to‘plashda hozirgi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyining ilmiy xodimi bo‘lgan, havaskor arxeolog va etnograf Turdi Mirg‘iyozovning (1896–1951) xizmatlari katta. Muzey fondlarini boyitish maqsadida u bir qancha arxeologik va etnografik ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etadi. 1946-yilda Turdi Mirg‘iyozov Qoraqalpog‘istonga etnografik ekspeditsiyaga boradi. Nukus va Chimboyda bo‘lgan safari davomida muzeyga paxta va shoyi matolardan tikilgan ayollar

va erkaklar kiyimlari, zargarlik buyumlari, bosh kiyimlar, kashtachilik namunalari va uy-roʻzgʻor buyumlari kabi ashyolar olib kelgan [4, 213-214].Ushbu toʻplamlar muzey fondini yanada boyitib, milliy madaniyat va tarixni oʻrganishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

E'tiborli jihati shundaki, Turdi Mirgʻiyozov 1936 yilda maslakdoshi Yahyo Gʻulomov bilan Xorazmda A.Y.Yakubovskiydan keyin ilk mahalliy oʻzbek arxeologlari sifatida tadqiqotini oʻtkazib istiqbolli fan-arxeologiya taraqqiyoti uchun katta ishlarni amalga oshirishdi. Turdi Mirgʻiyozovning tashkilotchiligi bilan 1942 yilda Oʻrta Osiyo xalqlarining turmushi va madaniyatiga bagʻishlangan koʻrgazma tashkil etiladi [6, 79].

Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi materiallarining muzeylarda toʻplanishi va ekspozitsiyalarda namoyish etilishi Markaziy Osiyo madaniyati va tarixi bilan bogʻliq noyob yodgorliklarni keng jamoatchilikka taqdim etish imkonini beradi. Bu materiallar qadimiy Xorazm sivilizatsiyasining turli qirralarini, jumladan, xalqning turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari va moddiy madaniyatini oʻzida aks ettiradi. Muzeylarda ushbu materiallarning maxsus ekspozitsiyalar orqali namoyish etilishi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan birgalikda milliy merosni asrash va uni keng tadqiq qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu jarayon xalqlarning tarixiy-madaniy aloqalarini oʻrganishda ham katta ahamiyatga ega boʻladi.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyida saqlanayotgan Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi materiallari Markaziy Osiyo madaniy merosining bebaho qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu materiallar nafaqat Xorazm tarixini, balki butun mintaqaning arxeologik va etnografik jarayonlarini oʻrganishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Muzeyda toʻplangan boy kolleksiya Oʻzbekistonning madaniy boyligini namoyish etish bilan birga, ilmiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu tariqa, muzeylashtirish jarayoni milliy madaniyatni asrash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim rol oʻynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI/ REFERENCES/ СПИСОК ИСТОЧНИКОВ

OʻzR MA T-72 jamgʻarma, 1-roʻyxat, 9-ish, 7-10-varaqlar.

OʻzR Fanlar akademiyasi Markaziy arxivi. 59-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 7-ish, 26-varaq.

Boymirzayev S. Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondining shakllanishi va rivojlanishi. Tar. f. b. f. dok. (PhD) diss. – т., 2023 – 158 b.

Safayev M. Qoraqalpoq xalqi madaniyatiga oid etnografik ashyolar (Oʻzbekiston tarixi davlat muzeyi toʻplamlari asosida). / Доно Зиёева

номидаги «Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари (XIX аср иккинчи ярми – XX аср охири)». – Тошкент: Nurafshon business, 2023. – 236 б.

Аржанцева И.А. Хорезм история открытий и исследований. Этнографический альбом. Ульяновск: ООО «Артишок», 2016. – 288 стр.,654 илл.

Бекмуҳаммад У. Хоразм ва хоразмликлар. Еттинчи китоб [Матн] : тўплам. - Бухоро: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2023.- 192 б.

Дониёров А.Х. Хоразм археология-этнография экспедицияси Ўзбекистон этнография фанида (Бакалавриатнинг 5220200-Тарих (мамлакатлар ва минтакалар буйича) таълим йўналиши талабалари учун ўкув қулланма). – Т., 2007. –84 б.

Доспанов О. Роль с.п.толстова и ХАЭЭ в формировании археологической коллекции Каракалпакского музея искусств имени И.В.Савицкого / «Muzeylar: an’ana, novatsiyava renovatsiya integratsiyasida» nomli xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. –Toshkent, 2024. - 445 b.

Минасянц В., Арипджанов О. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Ўзбекистон тарихи давлат музейи Археология тўплами // Ўзбекистон маданий мероси. Ўзбекистон тарихи давлат музейи. Биринчи қисм. Археология ва нумизматика. «SILK ROAD MEDIA» • «EAST STAR – Т., 2020. – 404 б.

Содиқова Н. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981. –270 б.

O‘ZBEKISTONDA NOMODDIY MADANIY MEROSGA NISBATAN DAVLAT SIYOSATINING SHAKILLANISH BOSQICHLARI (1991-2020-YILLAR).

Madiyor Turdiyev
Alfraganus university, Ijtimoiy fanlar fakulteti,
Xalqaro munosabatlar va
tarix kafedrasi katta o'qituvchisi

Kalit so‘zlar: *O'zbekiston, nomoddiy madaniy meros, davlat siyosati, madaniyatni saqlash, YUNESKO, globallashuv, milliy o'ziga xoslik, Qonunchilik.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 1991 yildan 2024 yilgacha O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosga oid davlat siyosatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zining boy madaniy merosini asrab-avaylash va targ'ib qilish, xususan, nomoddiy madaniy merosini asrab-avaylash safarini boshladi. Ushbu hujjat ICH siyosatini shakllantirgan asosiy Qonunchilik harakatlari, institutsional asoslar*

va xalqaro hamkorlikni o'rganadi. Tadqiqotda globallashuv va modernizatsiya sharoitida O'zbekistonning madaniy o'ziga xosligini saqlab qolish borasidagi yutuqlari va muammolari yoritilgan.

STAGES OF FORMATION OF STATE POLICY REGARDING INTANGIBLE CULTURAL HERITAGE IN UZBEKISTAN (1991-2020).

Turdiyev Madiyor
Alfraganus University, Faculty of Social Sciences, Senior Lecturer, Department of International Relations and History

Key words: *Uzbekistan, intangible cultural heritage, state policy, cultural preservation, UNESCO, globalization, national identity, Legislation.*

Abstract: *This article analyzes the stages of formation and development of state policy on intangible cultural heritage in Uzbekistan from 1991 to 2024. After gaining independence, Uzbekistan embarked on a journey to preserve and promote its rich cultural heritage, particularly its intangible cultural heritage. This paper explores the key legislative acts, institutional frameworks and international cooperation that have shaped ICH policy. The research highlights the achievements and problems of preserving the cultural identity of Uzbekistan in the context of globalization and modernization.*

Kirish:

Nomoddiy madaniy meros–bu madaniy faoliyatning an'anaviy shakllari va uning a'zolari orasida o'zlik va davomiylik hissini shakllantiruvchi inson jamoasining vakolatlari majmuidir. Globallashuv va ommaviy madaniyat sharoitida nomoddiy madaniy merosning tezda yo'qolib ketishi xalqaro hamjamiyatni uni saqlab qolish masalasini hal qilishga majbur etdi. An'anaviy nomoddiy qadriyatlar avloddan-avlodga, shaxsdan-shaxsga o'tib, institutlashgan shakllarni chetlab o'tadi, ular inson jamoasi tomonidan doimiy ravishda qayta tiklanishi kerak; merosning bu usuli ularni ayniqsa nozik va zaif qiladi. Xorij amaliyotida "nomaterial" ("non-material") atamasi bilan bir qatorda "nomoddiy" ("intangible") atamasi ham tez-tez qo'llanilib, predmet shaklida moddiylashmagan obyektlar haqida gapirayotganimizni ta'kidlaydi[175].

O'zbekiston o'zining ko'p asrlik tarixi va boy madaniy xilma-xilligi bilan Markaziy Osiyoda nomoddiy madaniy meros (ICH) bo'yicha muhim

[175] Axmedov Jasurbek Zokirjonovich. O'ZBEKISTONDA NOMODDIY MADANIY MEROS MUHOFAZASI. FarDU. Ilmiy xabarlar. Volume 30 Issue 3, 2024-yil DOI:10.56292/SJFSU/vol30_iss3/a67

mavqega ega. O'zbekiston 1991 yilda mustaqillikka erishganidan buyon an'anaviy musiqa, raqs, hunarmandchilik, og'zaki an'analar va ijtimoiy amaliyotlarni o'z ichiga olgan madaniy merosini qayta tiklash va himoya qilishga intildi. ICH bo'yicha izchil davlat siyosatini shakllantirish postsovet O'zbekistonda davlat qurishning hal qiluvchi yo'nalishi bo'ldi. Ushbu hujjatda 1991 yildan 2024 yilgacha O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosini asrab-avaylashga xizmat qilgan asosiy Qonunchilik, institutsional va xalqaro bosqichlarga bag'ishlangan siyosatning shakllanish bosqichlari bayon etilgan.

Tadqiqot usullari:

Ushbu tadqiqot hukumat hujjatlari, YUNESKO hisobotlari, ilmiy maqolalar va ommaviy axborot vositalari nashrlari kabi birlamchi va ikkilamchi manbalardan foydalangan holda sifatli yondashuvni qabul qiladi. Tadqiqot davlat siyosatining vaqt o'tishi bilan evolyutsiyasini kuzatish uchun alohida davrlarga bo'lingan—1991-2000, 2001-2010, 2011-2020 va 2021-2024. Ichga nisbatan davlat siyosati qanday rivojlanganligi va o'zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy kontekstlarga moslashganligini baholash uchun Qonunchilik matnlari, xalqaro shartnomalar va madaniy dasturlarning tarkibiy tahlili o'tkazildi.

Natijalar:

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. Mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosni, xususan, maqom va baxshichilik san’atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilish hamda milliy qadriyatlarimizni keng namoyon etish bilan bog‘liq faoliyatni yanada takomillashtirish, shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasida nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, keng jamoatchilikni jalb etgan holda uning namunalarini aniqlash, ro‘yxatlarga kiritish, raqamlashtirish, targ‘ib qilish va saqlash;

maqom va baxshichilik san’atini muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish, targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish;

nomoddiy madaniy merosning noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan namunalarining, shuningdek, merosni muhofaza qilish bo‘yicha ilg‘or tajribalarning Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya doirasida xalqaro ro‘yxatlarga kiritilishiga erishish;

nomoddiy madaniy merosni doimiy ravishda o‘rganishni yo‘lga qo‘yish maqsadida respublika va xalqaro miqyosda etnofolklor ekspeditsiyalari tashkil qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, fundamental va maqsadli grantlar ajratilishini ta’minlash;

nomoddiy madaniy meros ta’limning barcha bosqichlarida o‘rganilishini tashkil etish hamda soha uchun malakali kadrlar tayyorlash[176].

Parijda YUNESKO Bosh qarorgohida bo‘lib o‘tgan “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi konvensiyaga a’zo bo‘lgan davlatlar Bosh assambleyasining 9-sessiyasida O‘zbekiston Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitaga 4 yilga (2022-2026) a’zolikka saylandi. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mitaning asosiy vazifalari Konvensiya maqsadlarini ilgari surish, ilg‘or tajribalar bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish chora-tadbirlari bo‘yicha tavsiyalar berishdan iborat. Qo‘mita ishtirokchi davlatlar tomonidan nomoddiy merosni ro‘yxatga kiritish to‘g‘risidagi so‘rovlarni, shuningdek, dasturlar va loyihalar bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqadi. Qo‘mita xalqaro yordam ko‘rsatishga ham mas’uldir. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha hukumatlararo qo‘mita Konvensiyani amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘radi, asosan, operativ ko‘rsatmalar to‘plamini va Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish rejasini ishlab chiqish Konvensiyaning 25-moddasida belgilangan. U ushbu hujjatlarni Bosh Assambleyaga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

Konvensiya doirasidagi YUNESKO insoniyatning nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga “Boysun tumanining madaniy makoni” (Milliy nomzodnoma, 2008-yil), “Shashmaqom” (ko‘pmillatli nomzodnoma, 2008-yil – O‘zbekiston va Tojikiston), “Katta Ashula” (Milliy nomzodnoma, 2009-yil), “Askiya” (Milliy nomzodnoma, 2014-yil), “Palov madaniyati va an’analari” (Milliy nomzodnoma, 2016-yil), “Navro‘z” (ko‘pmillatli nomzodnoma, 12 davlat, 2009, 2016-yil), “Xorazm raqsi – Lazgi” (Milliy nomzodnoma, 2019-yil), “Miniatyura san’ati” (ko‘pmillatli nomzodnoma – Ozarbayjon, Eron, Turkiya va O‘zbekiston, 2020-yil), “Baxshi san’ati” (Milliy nomzodnoma, 2021-yil), “Ipakchilik va to‘quv uchun an’anaviy ipak ishlab chiqarish” (ko‘pmillatli nomzodnoma – O‘zbekiston, Ozarbayjon, Afg‘oniston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, 2022-yil), “Xo‘ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an’analari” (ko‘pmillatli nomzodnoma – O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston,

[176] PQ-405-сон 25.12.2023. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida https://lex.uz/uz/docs/-6713096

Turkiya, 2022-yil), “O‘zbekiston kulolchilik maktablari” (Milliy nomzodnoma, 2023-yil), “Naqqoshlik – tazhib bezak san’ati” (Milliy nomzodnoma, 2023-yil), “Iftorlik va uning ijtimoiy-madaniy an’analari” (Milliy nomzodnoma, 2023-yil), kiritilgan. Bundan tashqari 2018-yilda Marg‘ilon hunarmandchilik maktabi atlas va adras to‘qish texnologiyasi YUNESKOning Nomoddiy madaniy meros muhofazasi bo‘yicha eng yaxshi tajribalar reestriga kiritilgan[177].

1991 yildan 2024 yilgacha O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosga oid davlat siyosatining shakllanishini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin, bu xalqning boy madaniy an'analarini saqlash va targ'ib qilish borasidagi sa'y-harakatlarini aks ettiradi. Mana bu bosqichlarning umumiy ko'rinishi:

1. Mustaqillikdan Keyingi Dastlabki Davr (1991-2000)

- Kontekst: O'zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishgach, o'zining milliy o'ziga xosligini yana bir bor tasdiqlashga intildi. Bu davr madaniy merosning, shu jumladan ichning ahamiyatini tan olishni boshladi.

- Fokus: Sovet davrida bostirilgan yoki chetga surilgan an'anaviy urf-odatlar, san'at va madaniy amaliyotlarni tiklash va targ'ib qilishga ustuvor ahamiyat berildi.

- Siyosatni ishlab chiqish: shu vaqt ichida O'zbekiston madaniy merosni saqlash bo'yicha huquqiy asoslarni yaratishni boshladi. Biroq, nomoddiy amaliyotdan ko'ra ko'proq moddiy merosga (yodgorliklar, arxitektura) e'tibor qaratildi.

2. Madaniy merosni institutsionalizatsiya qilish (2000-2010)

- Asosiy Ishlanmalar:

- O'zbekiston 1993 yilda YUNESKO ga a'zo bo'lib, 2008 yilda YUNESKOning nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish Konvensiyasini imzolagan bo'ldi.

- Madaniyat vazirligi kabi muassasalarga milliy madaniyatni, shu jumladan folklor, musiqa va an'anaviy hunarmandchilik kabi nomoddiy elementlarni saqlash va targ'ib qilish vazifasi qo'yildi.

- Nomoddiy merosga e'tibor: hukumat nomoddiy madaniy merosga ustuvor ahamiyat berishni boshladi, uning milliy g'urur va uzluksizlikni rivojlantirishdagi rolini tan oldi.

3. Davlat siyosatiga rasmiy integratsiya (2010-2020)

- YUNESKOning tan olinishi: O'zbekiston ichning bir qancha elementlari YUNESKOning insoniyatning nomoddiy madaniy merosi, jumladan Shashmaqom musiqasi, Boysun madaniyati vaAskiya (o'zbek xalq hazili) vakili ro'yxatiga kiritilgan.

[177] https://uzbektourism.uz/news/view?id=22817

- Madaniy tadbirlar: davlat ichni ichki va xalqaro miqyosda targ'ib qilish uchun festivallar va madaniy ko'rgazmalar tashkil qila boshladi. Boysun Bahori festivali kabi tadbirlarda an'anaviy qo'shiqlar, hunarmandchilik va marosimlar namoyish etildi.

- Qonunchilik: moddiy va nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish va targ'ib qilishga qaratilgan aniq qonunlar bilan huquqiy asoslar mustahkamlandi.

4. Raqamli va Global integratsiya (2020-2024)

- Yangi tashabbuslar: madaniy merosni raqamlashtirish va uni global auditoriya uchun ochiq qilish yo'lida sezilarli siljish yuz berdi. Bunga an'anaviy musiqa, hikoya qilish va hunarmandchilikni targ'ib qilish uchun onlayn platformalar yaratish kiradi.

- Madaniy turizm: O'zbekiston hukumati ichni madaniy turizm strategiyalariga qo'shib kelmoqda, ayniqsa turizm asosiy iqtisodiy sohaga aylandi.

- Yoshlarni jalb qilish: so'nggi siyosat yosh avlodlarni ta'lim dasturlari, seminarlar va raqamli platformalar orqali ichni saqlashga jalb qilishga qaratilgan.

- Xalqaro hamkorlik: O'zbekiston xalqaro tashabbuslar va hamkorliklarda ishtirok etib, YUNESKO va boshqa davlatlar bilan jahon miqyosida ichni himoya qilishga ko'maklashish bo'yicha hamkorlik qilmoqda.

Asosiy muammolar va kelajakdagi Istiqbol:

- Urbanizatsiya va globallashuv: modernizatsiya, urbanizatsiya va globallashuv bosimlari ichni saqlab qolish uchun qiyinchiliklar tug'diradi. Biroq, davlat siyosati barcha ijtimoiy guruhlarda xabardorlik va ishtirokni rivojlantirish orqali ularni tobora ko'proq hal qilmoqda.

- Barqarorlik: ayniqsa, yosh avlodlar o'rtasida ICH amaliyotining dolzarbligini ta'minlash O'zbekiston madaniy siyosatining asosiy nuqtasidir.

O'zbekistonda ICH bo'yicha davlat siyosati madaniy amaliyot va bilimlarni milliy o'ziga xoslikni tarbiyalash va global madaniy xilma-xillikka hissa qo'shish vositasi sifatida himoya qilish muhimligi tobora ortib borayotganini aks ettiradi.

Muhokama:

O'zbekistonda ICH bo'yicha davlat siyosatining rivojlanishi sezilarli yutuqlar bilan ajralib turdi, lekin u ham qiyinchiliklarga duch keldi. Bir tomondan, O'zbekiston madaniy merosining ko'p qirralarini muvaffaqiyatli qayta tikladi va YUNESKO orqali xalqaro miqyosda tan olindi. Boshqa tomondan, modernizatsiyaning jadal sur'ati va globallashuvning kuchayib borayotgan ta'siri an'anaviy amaliyotlarni, ayniqsa yosh avlodlarni saqlab

qolish uchun xavf tug'diradi. Ichni himoya qilish va zamonaviy madaniy tendentsiyalarga moslashish o'rtasidagi muvozanat nozik masala bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, ichni saqlashda davlat siyosati Markaziy rol o'ynagan bo'lsa-da, mahalliy jamoalar va amaliyotchilarning roli hal qiluvchi bo'lib qolmoqda. Ushbu sa'y-harakatlarning barqarorligini ta'minlash uchun mahalliy tashabbuslar va madaniy merosni jamoatchilik asosida boshqarish qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Xulosa

1991 yildan 2024 yilgacha O'zbekistonda nomoddiy madaniy merosga oid davlat siyosatining shakllanishi Qonunchilik asoslarini yaratishdan tortib, xalqaro hamkorlik va raqamlashtirishga qadar bir necha bosqichda rivojlandi. O'zbekistonning ichni saqlab qolish borasidagi sa'y-harakatlari, xususan, YUNESKO va boshqa xalqaro hamkorlar bilan hamkorligi orqali maqtovga sazovor bo'ldi. Biroq, globallashuv va urbanizatsiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun keyingi qadamlar zarur.

Jamiyatni jalb qilish: davlat ichni kelajak avlodlarga himoya qilish va etkazish bo'yicha jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishi kerak.

Ta'lim va xabardorlik: yosh aholi orasida ICH haqida xabardorlikni oshirish uchun maktab va universitetlarda madaniy ta'lim dasturlarini kengaytirish kerak.

Xalqaro hamkorlik: O'zbekiston madaniy asrab-avaylash bo'yicha ilg'or tajribalarni almashish uchun YUNESKO va boshqa global institutlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirishi kerak.

Texnologik integratsiya: hukumat zamonaviy dunyoda omon qolishini ta'minlash uchun nomoddiy madaniy elementlarni hujjatlashtirish, raqamlashtirish va tarqatish uchun ilg'or texnologiyalarga sarmoya kiritishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro Konvensiya. 2-modda. – Parij. 2003.
2. Международная конвенция об охране нематериального культурного наследия. – Париж, 17 октября 2003 г. MISC/2003/CLT/CH/14. – С. 15.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-fevraldagi “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 47-son qaroriga 1-ilova. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-yil. 96-bet.
4. Ўзбекистон номоддий маданий мероси. 2017. 7-бет.
5. Toshmatov O‘.G‘., Isakulova N.J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2014. – B. 11.

6. Axmedov J. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishga doir mulohazalar // “O‘zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi va targ‘iboti” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2024. 97-101-bet.
7. https://uzbektourism.uz/news/view?id=22817.
8. https://lex.uz/docs/1282807?twolang=14
9. https://lex.uz/docs/66004138
10. https://lex.uz/docs/6713096

FAZLULLOH IBN RUZBEHONNING “SULUK AL-MULUK” ASARINING TADQIQI VA TASNIFI

Fayzullayev F.
O’zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktaranti

Kalit so’zlar: *Asar, bob, manba, nusxa, “Suluk al-muluk”, qism, tadqiqot, shayboniy, Shayboniyxon.*

Annotatsiya: *XVI asrda Movarounnahrda hokimyat tepasiga kelgan shayboniy hukmdorlarning aksariyati o‘z davrining nihoyatda o‘qimishli, oliy ma’lumotli kishilari hisoblangan. Bu haqida nafaqat Movarounnahr balki Eron Turkiyada yaratilgan yozma manbalarda ham ko‘plab etirof etiladi. Shayboniylar davriga oid manbalar yaxshi o’rganilgan. Tadqiqotlar olib borilgan. Biroq bu davrda yaratilgan, hozirgi kunga qadar juda kam o’rganilgan qo’lyozma asarlar ham talaygina. Mazkur maqolada shayboniylar davri tarixchisi Fazlulloh ibn Ruzbehonning “Suluk al-muluk” asarining yozilish tarixi, asarning nusxalari va mazmuni haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan.*

STUDY AND CLASSIFICATION OF THE WORK “SULUK AL-MULUK” BY FAZLULLAH BIN RUZBIHAN

Fayzullayev F.
PhD student, The Abu Rayhan Biruni Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Key words: *Work, chapter, source, copy, "Suluk al-muluk", part, study, Shaybani, Shaybani Khan.*

Abstract: *Most of the shayban rulers who came to power in Movarounnahr in the 16th century were considered extremely educated and highly educated people of their time. This is acknowledged not only in Movarounnahr, but also in written sources created in Iran and Turkey. The sources of the shaybani period are well studied. Studies have been conducted. However, there are only a few manuscript works*

created during this period, which have been studied very little until now. This article provides information about the history of the writing of the work "Suluk al-muluk", copies and contents of the work of the shaybanid era historian Fazlullah ibn Ruzbehan.

Shayboniylar davri tarixi ko‘plab muarrixlar tomonidan yaxshi yoritilgan. Shulardan biri 1457-1521 yillarda yashagan Fazlulloh ibn Ruzbehon al Isfahoniydir. U Mullo nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Fazlulloh ibn Ruzbehon Fors viloyatining Hunji qishlog‘ida tug‘ilgan [6: 149]. Shayboniylar davrining mashhur adibi, tarixchi, ilohiyot olimi. Fazlulloh ibn Ruzbehon temuriylar va shayboniylar tarixini yetarlicha batafsil yoritgan olim sifatida tanilgan.

Uning otasi ham Isfahon zodagonlaridan bo‘lib, tasavvuf namoyondasi va faqih Jamoliddin Ruzbehon bo‘lgan. U Isfahonda tahsil olib, shu shaharning nisbasini qabul qilib, keyinchalik Ruzbehon Isfahoniy nomi bilan mashhur bo‘lgan. U Hijozda, Makkada, Madinada va Qohira kabi shaharlarda tahsil olgan.

Safaviylarning shialik mazhabiga majburlash siyosatidan norozi bo‘lib Erondan Movarounnahrga qochib kelgan Fazlulloh ibn Ruzbehon Shayboniyxon (1451–1510, hukmronlik yillari 1500–1510), Ubaydullaxon (1487–1540, hukmronlik yillari 1533–1540), saroyida ijod qilib va shu hududda yashab, bir necha tarixiy va badiiy asarlar yaratdi [4: 10]. Umrining qolgan qismini Buxoro va Karmanada o‘tkazgan. U 1521-yilda Buxoroda vafot etgan, shu yerda dafn etilgan.

Fazlulloh ibn Ruzbehon ko‘plab she’rlar muallifi, islom ilohiyotiga, shuningdek, tarixga oid kitob va asarlar muallifi. Uning “Halli tajarrid”, “Taliqot bar muxolot”, “Tarixi olamoroyi Aminiy”, “Suluk al-muluk” “Mehmonnomayi Buxoro” nomli asarlarni yaratgan [6: 149]. Fazlulloh ibn Ruzbehonning “Mehmonnomayi Buxoro” va “Suluk al-muluk” asarlarida shayboniy hukmdorlar jumladan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon davri tarixini yaxshi yoritgan.

1509 yili yaratilgan “Mehmonnomayi Buxoro” asari Muhammad Shayboniyxonning qozoq sultonlari Jonish Sulton, Ahmad Sulton ulusi ustiga uyushtirgan harbiy yurishi tarixini bayon etadi. Muallif bu yurishda shaxsan ishtirok etgan, yuz bergan voqealarning ko’pchiligini o‘z ko‘zi bilan ko’rgan, Ba’zilarini esa xon va uning yaqin kishilaridan eshitgan. Dunyo kutubxonalarida “Mehmonnomayi Buxoro" asarining ikkita nusxasi borligi aniqlangan. Ulardan biri muallif dastxati bo’lib, O‘zRFA Sharqshunoslik institutida № 1414 raqam ostida va mazkur nusxadan ko‘chirilgan nusxasi Turkiyada, “Nuri Usmoniya” kutubxonasida saqlanadi. 1976 yili R. Jalilova tomonidan “Mexmonnomayi Buxoro”ning Toshkent nusxasi asosida fors-

tojik tilidan ruschaga tarjimasi va foto faksimil nashri amalga oshirilgan [8: 30].

Fazlulloh ibn Ruzbehon qalamiga mansub yana bir asar, “Suluk al - muluk” ya’ni “Podshohlarning xulq-atvori xaqida” shayboniy Ubaydullaxonga bag‘ishlab yozilgan. Asarning avtograf nusxasi Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. O‘zRFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida asarning 10 ga yaqin nusxasi saqlanadi. Qo‘lyozma nusxalarning barchasi fors tilida yozilgan.

Shulardan biri kitobat sanatining eng nodir namunasi aks etgan inventar raqami 10976 nusxasidir. Asar fors tilida, Buxoroda hijriy 920, milodiy 1514 yilda yozilgan. Asar 245 varaqdan iborat, 17 qator qilib, Sharq qo‘g‘ozida, Nastaliq xatida, kotib Muhammad Sharif Nasafiy tomonidan XVIII asrda ko‘chirilgan [1: 245]. Asar keng muqaddimadan iborat. Muqaddima 1 b varaqdan 20 b varaqgacha davom etib, unda asar yozilish sabablari keltirilgan. Qo’lyozmada Buxoro uslubida hoshiyalari mavjud [7: 145]. Matn va hoshiyalar oltin suvi bilan sayqallangan. Asar 15 bobdan iborat. Asar ayrim tadqiqotlarda qisman foydalanilgan bo‘lsada hech bir tilga to‘liq tarjima qilinmagan.

Ubaydullaxon taxtga yosh davogar bo‘lib shu sababli unga bir qo‘llanma zarur edi. Shuning uchun muallif bir asar yozishga qaror qiladi. Oltinchi bobga qadar Ubaydullaxonning Zahiriddin Muhammad Bobur munosabatlari va Shoh Ismoil Safaviy (1501-1524) qo‘shinlarining yengilishi, janglari, shayboniylarning Movarounnahr hududlarini qayta egallashi haqida ma’lumotlar berilgan. Asarning muhim ma’lumotlari 6 bobdan ya’ni 138 a- 164 b varoqqacha shariat asosidagi soliq siyosatiga bag‘ishlangan [6: 164].

Kitobning boshlanishi bor, xotimasi bor. Xotimani ilmiy tilda kalofon deymiz. Kolofon qismida asarning ko‘chirilgan yili, xattotning ismi qayerda ko‘chirilganligi haqidagi statistik malumotlar beriladi. Qo‘lyozma asarlar kolofon qismida odatda xattotning ismi va ko‘chirilgan yili beriladi. Biroq har doim ham xattot o‘z ismini yozmaydi. “O‘ng qo‘ling berganini chap qo‘ling bilmasin” deganlaridek har doim ham xattot o‘z ismini keltirmaydi. Bu bilan savobdan bebahra qolaman degan maqsadda o‘zini faqir, haqir yani bir bechora inson tomonidan yozildi deb qayd etadi.

Fazlulloh ibn Ruzbehon “Suluk al-muluk” asarini yozishiga nima turtki bo‘ldi?

Malumki 1510 yil Muhammad Shayboniyxon Shoh Ismoil Safaviy bilan to‘qnashuvda halok bo‘lgach, Shoh Ismoil Safaviy to‘g‘ridan to‘g‘ri Movarounnahr shaharlariga bostirib kirmaydi balki bu maqsadda Zahiriddin Muhammad Boburdan foydalanishga harakat qiladi. Bu yerda legitimlik masalasi ham mavjud bo‘lib, Movarounnahr taxtiga Zahiriddin Muhammad

Bobur temuriylarning vorisi sifatida haqli edi. Shoh Ismoil Safaviy Zahiriddin Muhammad Boburni Movarounnahrni shayboniylardan tortib olishga undaydi. Shu maqsadda Zahiriddin Muhammad Boburga Ahmadbek so‘fi o‘g‘li va Shohruhbek Afshor boshchiligida qo‘shin junatadi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1511 yil oktyabr oyida Samarqandni uchinchi bor egallaydi. Shayboniylar hukmronligiga chek qo‘yiladi. Shayboniylar Movarounnahrni butunlay qo‘ldan chiqaradi.

Shayboniylar qiyin ahvolda qoladilar. Shayboniylarning eng nufuzli sultonlari Toshkent hukmdori Muhammad Temur, Suyunchxojaxon, Farg‘ona hukmdori Jonibek sulton, Samarqandda hukmronlik qilib turgan Ubaydullaxon Turkiston shahriga qochib o’tadi. Bu vaqtda Turkiston hukmdori bo‘lib turgan shayboniy sultonlarning eng yoshi ulug‘i Ko‘chkunchixon tomonidan qabul qilinadi. Shu tariqa Movarounnahrda 10 yil davomida mavjud bo‘lgan Shayboniyxon qurgan davlat qulaydi.

Din arkonlarini yaxshi bilgan shayboniy sultonlar butun asosini islomning sunniy mazhabini tashkil etgan Movarounnahr aholisi etiqodidan foydalangan deyish mumkin. Movarounnahr taxti uchun kurash siyosiy ham diniy kurashga aylanib ketadi. “Suluk al-mulk” asarida keltirilishicha shayboniy sultonlar 1512 yil 7 aprelda Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasi oldida katta yig‘in o‘tkazadi. Unda Ubaydullaxon *“Agarda Movarounnahrni qo‘lga kiritsa butun umr dindor hukmdor bo‘lishga qasam ichadi…”*. U umr davomida bunga amal qilgan. Shayboniy sultonlarning Turkistondagi yig‘inidan so‘ng, Ubaydullaxon Movarounnahr taxtini qayta egallash uchun Zahiriddin Muhammad Boburga qarshi 1512 yil bahorida (taxminan 17 aprel – 16 may oralig‘i) urushga chiqadi.

Muhammadiyor ibn Arab Qatag’onning (XVI-XVII asr) “Musaxxir al-bilod” („Mamlakatlarni bo‘ysundiruvchi“) asarining Toshkent qo‘lyozma nusxasi hoshiyasida “Suluk al-muluk” asarining muqaddimasi kelgan bo’lib, uning qisqacha yozilish tarixi aks etgan [5: 393]. 1512 yilning aprel oyining oxirlarida Jonibek sulton, Muhammad Temur va Ubaydullaxon Yettiquduq va To‘rtquduq yo‘li orqali G‘ijduvonga keladi va uni egallaydi. Tez orada Buxoroga hujum qilib shaharni qamal qiladi. Ubaydullaxon atigi 2500- 3000 nafar askari bilan Malikrabot orqali Buxoroning hozirgi Jondor tumani (Xayrobod tumani) Malik ko‘li atrofiga yetib boradi va to‘satdan xotirjamlik bilan kelayotgan Bobur qo‘shiniga hujum qiladi 1512 yil 28 aprelda bo‘lgan bu jangda Bobur yengiladi. Samarqand masjidida Ubaydullaxon va g‘alabasi sharafiga xutba o‘qilgan. Ushbu jang turkiy xalqlar balki jahon tarixi jang sanatida munosib iz qoldirgan.

“Suluk-al muluk”da keltirilgan ma’lumotlar temuriylar yo‘nalishidagi tarixchilarning asarlarida yo‘q. Fazlulloh ibn Ruzbehon Zahiriddin

Muhammad Boburga qo‘shinining turfa xilligi, ularning soni to‘g‘risida ma’lumot beradi, Movaronnahrning turli ijtimoiy qatlamlari kayfiyatini tavsiflaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur esa qizilboshlilar yordamida Samarqand va Buxoroga yetib keldi. Uning qo‘shini Chig‘atoy, Mug‘ul, Turkman, Badaxshon va hatto hindistonliklardan iborat deb ma‘lumot beradi. Ularning soni 60 ming otliq edi deb keltiradi [1: 11]. Keyingi yilnomalar mualliflari Fazlulloh ibn Ruzbehon ijodidan asosiy manba sifatida foydalanganlar. Bunga temuriylar yo‘nalishidagi ilk tarixiy bitiklar ta’siridan chetda qolmagan Mahmud bin Valiyning "Bahr al-asror", Abdulloh Nasrullohiyning “Zubdat ul-osor” kabi asarlarini misol qilish mumkin. Bu mualliflar, ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Boburning shayboniylar bilan munosabatlarida nisbatan Fazlulloh ibn Ruzbehonning yondashuvini qabul qiladilar.

Fazlulloh ibn Ruzbehonning “Suluk al- muluk” asari XVI asr birinchi choragida Movarounnahrdagi voqealarni o‘rganishga muhim hissa qo‘shadi. Asarning keyingi davrlarda kotiblar tomonidan qayta qayta ko‘chirilishi Movarounnahr siyosiy-ijtimoiy muhitini o‘rganishda naqadar muhim manbalardan biri ekanligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. فضل الله بن روزبهان الاصفهانی سلوك الملوك O’z FASHI qo’lyozma Inv № 10976. 245 varaq.
2. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б.352.
3. Бобоев Ҳ., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи (II китоб). – Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2009. – Б. 175.
4. Замонов А. К. Тўхтабеков. Бухоро хонлигида ижтимоий, сиёсий-иқтисодий жараёнлар. - Тошкент: ТУРОН-ИҚБОЛ, 2018. – 10 б.
5. Муҳаммадёр ибн Араб Қатағон. Мусаххир ал-билод. (Мамлакатларнинг эгалланиши) / Форс тилидан тарж., изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Исмоил Бекжонов ва Дилором Сангирова. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 393.
6. Манбашунослик./ Тузувчилар: Абдумажид Мадраимов, Гавҳар Фузаилова. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2007. – Б. 149.
7. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР (СВР), т. 10. – Ташкент: 1987.- № 6884.
8. Фазлуллоҳ ибн Рузбеххон. Мехмонномаи Бухоро // Ўзбекистон тарихи Хрестоматия XVI-XIX асрлар. -Т.: Fan va texnologiya, 2014-5. 30.

TURKIYADA XX ASRDA MARKAZIY OSIYO TASAVVUF TARIQATLARI ALLOMALARI VA ULARNING ILMIY MEROSI BO‘YICHA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR

Shahzod Abdurasulov
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktoranti
E-mail manzil: abdurasulovshahzod944@gmail.com

Kalit so’zlar: *Tasavvuf, Turkiya, Turkiston, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Nashqband, Fuod Kupruli, Usmon Turar, Kamol Eraslon, Mahmud Asad Jo‘shon, Mehmed Zohid Qutqu*

Annostatsiya: *Ushbu maqola Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf tariqatlari – yassaviya, kubroviya va naqshbandiya tariqatlari kelib chiqishi va namoyondalari to‘g‘risida Turkiyada olib olib borilgan ilmiy izlanishlar va ularning natijalari bilan tanishtiradi.*

RESEARCH CONDUCTED IN TURKEY IN THE 20TH CENTURY ON THE SCIENTISTS OF CENTRAL ASIAN SUFIS AND THEIR SCIENTIFIC HERITAGE

Shahzod Abdurasulov
PhD student, Tashkent state university of oriental studies
E-mail address: abdurasulovshahzod944@gmail.com

Key words: *Sufism, Turkey, Turkestan, Ahmad Yassavi, Najmuddin Kubro, Bahauddin Nashqband, Fuad Kupruli, Osman Turar, Kamal Eraslon, Mahmud Asad Joshon, Mehmed Zahid Qutqu*

Abstract: *This article introduces the scientific research conducted in Turkey and their results on the origin and manifestations of Sufism sects widespread in Central Asia - Yassaviya, Kubroviya and Naqshbandi sects.*

Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari allomalari va ularning ilmiy merosi o‘rganilishi borasida Turkiyalik olimlarning xizmatlari beqiyosdir. XX asrga kelib tasavvufshunoslikda keskin bir o‘zgarish, ziddiyatli bir evrilish hosil bo‘ldi. Chunonchi, tasavvuf allomalarini olqishlash bilan birga tahqirlash ham boshlanib, bu hodisa sho‘ro davlati barham topguniga qadar davom qildi. Mana o‘shanday bir sharoitda qardosh Turkiya diyori Markaziy Osiyo tasavvuf allomlarining qutlag‘ nomi, sharafi va merosini muhofaza etishning daxlsiz qo‘rg‘oni bo‘lgandi. Jumladan, turkiy dunyodagi yirik

tasavvuf namoyondasi bo‘lmish Ahmad Yassaviyning ilmiy merosini o‘rganish ishlari ham aynan Turkiyada davom etdi. Bu ham tasodifiy hol emasdi. Zero, turk tadqiqotchilari takror-takror e’tirof etganlaridek, Onado‘lida islomning mustahkam qaror topishi, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotning o‘nglanishida Xoja Ahmad Yassaviy mafkurasi hamda yassaviya darveshlari faoliyati muhim rol o‘ynaydi.

Turkiyada tasavvuf tariqatlari allomalari, xususan Ahmad Yassaviyning ilmiy merosining o‘rganilishida Muhammad Fuod Kuprulizodaning[178] o‘rni beqiyosdir.

Ma’lumki, mashhur olim Muhammad Fuod Kuprulining 1918-yilda yozilgan «Turk adabiyotida ilk mutasavviflar»[179] kitobi yassaviyshunoslikda alohida hodisa bo‘lgandi. Tan olib aytish kerakki, hanuzgacha na Turkiyada, na turkiy xalqlar istiqomat qiladigan boshqa o‘lkalarda «Ilk mutasvviflar»ga teng keladigan va u qadar mashhur bo‘lgan ikkinchi bir tadqiqot yaratilgani yo‘q.

Mashhur usmonli turk shoiri Yahyo Kamol[180] atoqli olim Muhammad Fuod Ko‘prulizodaga: "Ahmad Yassaviy merosining sir-asrorini chuqur o‘rganing. Milliyatimizning asoslarini ana o‘sha joyda topursiz!", - degan xitoblari sababli Ko‘prulizoda Ahmad Yassaviy hayoti va ijodini tadqiq etishga kirishdi. Uzoq muddatli tadqiqotlari natijasida nihoyat 1919-yilda Fuod Ko‘pruli besh yildan ortiq ishlagan va unga xalqaro miqyosda shuhrat keltirgan “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar” nomli asarini nashr ettiradi. Bu asar nafaqat turk adabiyoti, balki turk tarixining ko‘plab muammolarini qamrab olgan turkologiya fanida ham yangi ufq ochdi. Xususan, ushbu asarda ikki buyuk siymoning hayoti va ijodi haqida keng ma’lumotlar berilgan. Shu jihatdan ushbu kitob ikki asosiy qismga bo‘lingan.

Birinchi qismda, Turk adabiyoti va turklar orasida Islom dini Ahmad Yassaviygacha va so‘fiylik harakati umumiy tarzda tushuntirilgandan so‘ng, Ahmad Yassaviyning afsonaviy va tarixiy hayoti, tariqati, xalifalari, ijodi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Ikkinchi qismda esa, mashhur turk shoiri Yunus Emro haqida so‘z boradi. Yunus Emroning afsonaviy hayoti, she’rlari ta'siri keng miqyosda tushuntirilgan. Bu kitobning hanuzgacha mashhurligi va qiziqish bilan o‘qib kelinayotganligi ham tasodif emas. Unda muallif Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar orasida ilk daf’a tasavvuf maslagini vujudga keltirib, asrlar

[178] Turkiyaning yetakchi olimlaridan biri Fuad Ko‘prulizoda 1890-yil 4-dekabrda Istanbulda tug‘ilgan. U turk davlat arbobi, Turkiya tashqi ishlar vaziri, filolog, tarixchi va publitsist sifatida faoliyat olib borgan. Oila nasl-nasabi o‘ninchi avlodda Sadr vazir Ko‘pruli Mehmed Poshoga borib taqaladi. Istanbulning Yerebatan tumanidagi Ayasofya markaziy o‘rta maktabini tugatgach, Merchan o‘rta maktabiga o‘qishga kirdi. U Merchan litseyi yillaridan boshlab fors, arab va fransuz tillarini o‘rgangan, shundan so‘ng, ayniqsa, G‘arb mutafakkirlari asarlarini mutolaa qilib, o‘zining intellektual dunyoqarashini kengaytirishga harakat qilgan. Olim 1966-yil 28-iyun, Istanbul shahrida vafot etgan.

[179] Ord. Prof. Dr. Fuad köprülü. Türk edebiyati’nda ilk mutasavviflar. Türk tarih kurumu basimevi - Ankara 1976.

[180] https://www.inkilap.com/blog/icerik/yahya-kemal-beyatli

mobaynida ruhoniyatda hukmronlik qilganligini yaxshi yoritib bergan4. Keyingi davrlarda ham Fuod Ko‘prulizoda islomshunoslik ilmiy dunyosida shov-shuvga sabab bo‘lgan bir qancha ishlarni davom ettirdi. Olim “Turk adabiyoti tarixi” asarini 1921-yilda yozgan. So‘ngra 1922-1923-yillarda “Anadoluda islom”, “Bektoshiylikning kelib chiqishi”, “Turk-mo‘g‘ul shomanizmining islom so‘fiylik mazhablariga ta’siri” nomli asarlari bilan turk diniy tarixiga asos soldi. “Turk-mo‘g‘ul shomanizmining islom so‘fiylik mazhablariga ta’siri” asarida Ko‘pruli musulmon turklarning milliy ruhlaridan biri bo‘lgan eski shomoniy tafakkur va e’tiqodning turkiy tasavvuf tushunchasiga ta’sirini ochib bergan.

Shuni aytib o‘tish joizki, o‘ttizinchi yillardan to yetmishinchi yillargacha Yassaviy ijodiyotini tadqiq etishda Turkiyada ham qandaydir turg‘unlik hukm surgandi. Ammo Turkiyada Ahmad Yassaviy ijodiga qiziqish va uni o‘rganish ishlari to‘xtab qolmadi. Shuning natijasi sifatida 1983-yil professor Kamol Eraslonning[181] "Devoni hikmat"dan sochmalar"[182] kitobi nashr etilgan. Kamol Eraslon «Devoni hikmatdan namunalar»ni tayyorlashda to‘qqizta qo‘lyozma va uchta bosma nusxadan foydalangan. Kitobga qariyb ellik sahifalik so‘zboshi yozilgan, ancha keng hajmli izoh va lug‘at berilgan. Hikmatlarda nomi uchraydigan shaxslar haqida bitilgan ma’lumotlarning o‘zi bir risola qimmatiga ega. 1991-yil o‘zbek adabiyotshunos olimi Ibrohim Haqqul tomonidan nashrga tayyorlangan "Ahmad Yassaviy hikmatlar"i kitobiga aynan K. Eraslon nashri asos qilib olingan.

Turkiyada keyingi davrda ham tasavvuf tarixini, jumladan, Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari allomalari ilmiy merosini o‘rganish ishlari to‘xtab qolmadi. Xususan, Mahmud Asad Jo‘shon[183], Mehmed Zohid Qutqu[184], Said al Jazariy[185], Usmon Turar[186] kabi olimlar tasavvufning asl mohiyati xususida ko‘plab kitoblar yozganlar. Bu kitoblarning ayrimlari o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. Bular orasida Usmon Turarning “Tasavvuf tarixi” kitobi tasavvufning paydo bo‘lishi haqidagi muhim qo‘llanma desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Asar 1999-yilda Istanbulda nashr etildi.

[181] Prof. Dr. Kamol Eraslan (1930-yil 30-oktabr, Diyarbakir - 2022-yil 13-iyul, Istanbul), turk adabiyoti professori. Kamol Eraslan Istanbul universiteti Adabiyot fakultetining nafaqadagi o‘qituvchisi va turkologiya olamida taniqli olimdir. Ahmad Yesevining Turkiya turkchasiga tarjima qilingan Divan-i Hikmat nomli asarining ilk namunalarini o‘z ichiga olgan va Ahmad Yesevini turk ilm olamiga ilk bor keng qamrovli tarzda tanitgan “Divan-i Hikmatdan saylanmalar” nomli asari nashr etildi. tomonidan T.R. Madaniyat vazirligi nashrlari orasida chop etildi. Ushbu tadqiqotda Ahmad Yesevining hikmat deb nomlangan 70 ta she’rining asl matni va turk tiliga tarjimasi o‘rin olgan. Kamol Eraslan 2022-yil 13-iyul kuni Istanbulda vafot etdi. 2022-yil 14-iyul kuni Istanbul universiteti Adabiyot fakulteti Faxriy zalida Eraslan uchun tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. Marosimdan so'ng, jasadi Fotih masjidida o'qilgan janoza namozidan keyin Chamlija qabristoniga dafn qilindi.

[182] Haz. Ahmed-i Yesevi, Divan-i Hikmet'ten Secmeler. Prof. Dr. K.Eraslan, Ankara, 1983.

[183] https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/mahmud-asad-joshon-haqiqiy-sevgi.html

[184] Muhammad Zohid Qutqu. Nafs nimadir?. “Sharq”. Toshkent. 2020. Tarjimon. Zebunisso Husayn qizi.

[185] Umar Foruq Saydo al-Jazariy (1954) - turkiyalik Naqshbandiya tariqati ustozlaridan.

[186] Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. –T.: “Istiqlol”, 1999. -180b.

Ushbu asar tasavvuf tariqatlari, xususan, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tariqatlar – yassaviya, kubroviya va naqshbandiya tariqatlari kelib chiqishi va namoyondalari to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar bilan tanishtiradi. Asarning ikkinchi bo‘limi aynan shu tariqatlarga bag‘ishlangan. Bu nodir asar o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. Tarjima Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti ilmiy xodimi Nodirxon Hasan tomonidan amalga oshirilgan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek Ahmad Yassaviy ijodining turk adabiyotiga, ma’naviy dunyosiga ta’sirini keyingi davrdagi turkiyalik olimlar ham ta’kidlab o‘tishgan. Bulardan Muhammad Sarxon Tayshiy[187], Ahmad Yashar O‘choq[188], Mustafo Qara[189], Usmon Turar[190], Hasan Komil Yilmaz[191] kabi olimlarning maqolalaridagi faktlar bunga dalildir. Jumladan, Mustafo Qara[192] Ahmad Yassaviy ta’limoti usmonli davlatining ma’naviy poydevori bo‘lganligini qayd etsa, Hasan Komil Yilmaz[193] Avliyo Chalabiyning «Sayohatnoma»siga asoslanib, yassaviyya izdoshlarining kasb-hunarga qo‘shgan hissalaridan bahs yuritadi.

Sobiq sho‘ro davlati qaramligida yashagan qardosh jumhuriyatlar mustaqillikni qo‘lga kiritgach, Ahmad Yassaviy shaxsiyati va ijodiyotiga qiziqish o‘z-o‘zidan kuchaydi. 1993-yilni «Ahmad Yassaviy yili» deb belgilanishi nafaqat O‘zbekistonda, balki boshqa turkiy jumhuriyatlarda, Xususan Turkiyada ham bu buyuk mutasavvifning hayoti, adabiy-ma’rufiy faoliyati, izdoshlari xizmatiga qiziqishni kuchaytirib yubordi. 1991-93-yillar oralig‘ida turkiy xalqlar olimlari tomonidan O‘zbekiston va Turkiyada Yassaviyga bag‘ishlab ilmiy anjumanlar o‘tkazilib, ma’ruzalar matni alohida majmua shaklida chop etildi. Turkiyada bir necha alohida ilmiy to‘plamlar nashr etildi. Ahmad Yassaviy vaqfi tuzilib, uning nashri o‘laroq «Yassaviy» jurnali chiqarila boshlandi.

1993-yil 1-2-may va 25-26-noyabr kunlari Istanbul va Izmir shaharlarida Ahmad Yassaviyga bag‘ishlab o‘tkazilgan konferensiya materiallaridan to‘plam tarkib topdi. Uning so‘zboshisida professor, filologiya fanlari doktori Mahmud As’ad Jo‘shonning shunday fikrlari berilgan: “Bu asar zoti muhtaram Ahmad Yassaviy haqida qilingan jiddiy tadqiqotlar, ilmiy ma’ruzalardan iboratdir. Shu bois uni juda foydali va muhim bir asar deyish mumkin. U yassaviyshunoslikdagi katta bo‘shliqni

[187] Muhammad Sarxon Tayshiy. Ahmed-i Yesevi. Ahmed-i Yesevi's life-works-ideas-effects. –Istanbul: Seha, 1996, p. 51;
[188] Ahmet Yaşar Ocak. "Anadolu sufiliğinde Ahmed-i Yesevi ve Yesevilik", Türk Dili, sayı: 204, Aralık 1993, 581-587.
[189] https://www.dergah.com.tr/yazarlar/mustafa-kara.
[190] https://hasankamilyilmaz.com/prof-dr-hasan-kamil-yilmaz-kimdir.html
[191] https://hasankamilyilmaz.com/prof-dr-hasan-kamil-yilmaz-kimdir.html
[192] Mustafa Kara. Tasavvuf va tariqatlar tarixi. Istanbul. 1995
[193] Komil Yilmaz. Tassavvuf va tariqatlar. Istanbul. 1997.

to‘ldiradi va qiziquvchilar uchun ishonchli manba vazifasini o‘taydi. Bugunga qadar bunday kitob dunyo yuzini ko‘rmagandir”[194].

Haqiqatda ham, undagi ayrim maqolalar Yassaviy ijodiyotiga yangicha munosabat, talqin va tahlillarining o‘ziga xosligi bilan diqqatni jalb etadiki, buni alohida ta’kidlash lozim. Shuningdek, to‘plamdagi maqolalar yana ikki masalada o‘quvchining bilim va tasavvurini boyitadi, deyish mumkin. Bulardan biri, yassaviya tariqatining O‘rta Osiyodan g‘arbda Bolqongacha, sharqda Chingacha, shimolda Moskvagacha tarqalish jug‘rofiyasi, ikkinchisi, Yassaviy ijodining umumturk adabiyoti taraqqiyotidagi ta’siri va mavqei. Bu ikki masala hanuzgacha maxsus tadqiq etilgani yo‘q. Turkiyalik tadqiqotchilaridan Mustafo Tahralining[195] ishlari aynan shu muammoni hal etishga xizmat qiladi. Olim o‘z tadqiqotlarida Ahmad Yassaviyning ijod tajribalari faqat uning izdoshlarigagina ta’sirini o‘tkazgan, degan fikr-mulohazalar inkor etib, balki, turkiy adabiyot tarixida Ahmad Yassaviy so‘zlaridan ilhomlanmagan, buyuk pirning tasavvufiy she’riy maktabidan saboq olmagan yetuk shoir yoki yozuvchini topish dushvordur, deb ta’kidlaydi.

Bundan tashqari bu davrda Ahmad Yasaviyning «Devoni hikmat»i bir necha olimlar tomonidan chop etildi. Jumladan, 2001-yilda Sayramlik tarixchi Mirahmad Mirxoldoro‘g‘li va turk olimi professor Metin Oqar[196] hammuallifligida yangi topilgan Yassaviy hikmatlari e’lon qilindi.

Bundan tashqari Turkiyada kubroviylik va nashqbandiylik tariqatlari allomalari va ularning ilmiy merosini o‘rganish ishlari olib borilgan. Najmiddin Kubroning hayoti va uning tasavvuf tariqati masalasini o‘rgangan turkiyalik olimlardan biri Mustafo Qara[197]hisoblanadi. Uning “Türkistan'ın Işığı Necmeddin-i Kübra” (Turkiston nuri Najmiddin Kubro), “Necmeddin Kübra-Tasavvufî Hayat”[198] (Najmiddin Kubro – Tasavvuf hayoti) asarlari 2000- yilda nashr etildi. Bu asarlar Turkiyada najmiddin Kubro hayoti va faoliyatini o‘rganishdagi ahamiyatli ishlardan biri bo‘ldi.

Naqshbandiya tariqatning yetuk vakillari bugungi kunda butun yer yuzida mavjud. Xususan Turkiyada ham bugungu kunda bu tariqatni tutganlar hamda bu bo‘yichga tadqiqotlar olib borgan olimlar mavjud. Ana shunday murshidi komillardan biri hazrati shayx, doktor, professor Mahmud As’ad Jo‘shondir[199].

---

[194] Mahmud As’ad Jo‘shon. Islom, tasavvuf va hayot. Istanbul. 1996.

[195] https://kubbealti.org.tr/kisi/mustafa-tahrali

[196] https://www.kitapyurdu.com/kitap/hoca-ahmed-yesevi-nin-yeni bulunahikmetleri/65053.html&manufacturer_id=8032

[197] https://www.dergah.com.tr/yazarlar/mustafa-kara.

[198] Mustafa Kara. Necmeddin Kübra-Tasavvufî Hayat. Bursa 2000.

[199] Shayx Mahmud As’ad Jo’shonnning ota-bobolari asli Buxoroyi Sharifdan. U 1938-yilda Turkiyaning Osiyo qismida – tog‘li Chanoqqal’a shahrida tavallud topgan. Mahmud As’ad Jo‘shon Vatan jihatidan (ota-bobolari) asli Buxoroi sharifdan, shajarada hazrati Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam avlodidan, ya’ni, sayyid, Naqshbandiya silsilasida esa 40-murshidi komildirlar. Tafsir, hadis, fiqh, e’tiqod va tasavvuf ilmida yetuk bo‘lgan

U kishi – 30 dan ortiq ma’rifiy, fiqhiy va tasavvufiy kitoblar, 400 dan ziyod maqola muallifi. Arab, fors, ingliz, olmon (nemis) tillarini yaxshi bilgan olim Markaziy Osiyo, Sharq mamlakatlari, AQSh, Yaponiya, Olmoniya, Daniya, Avstraliya, Gollandiya kabi o‘lkalarni kezib, islomiy tasavvuf mavzuida jonli suhbatlar, ma’ruzalar qilganlar.

Atoqli tasavvufshunos olim Mahmud As’ad Jo’shonning 12 maqolasidan tuzilgan «Buyuklar tuhfasi»[200] kitobi tasavvufshunos olimlarni befarq qoldirmaydi. Ushbu kitob Mahmud As’ad Jo‘shon hazratlarining bir nechta asarlaridan saralab olingan muhabbat saboqlaridir. Unda Islomning asl mohiyati ixtiloflar, janjallar va nizolar emas, balki ezgulik va mehr-muhabbat ekanligi uqdirilgani, qanday qilib Allohning sevikli bandasi bo‘lish yo‘llari, ma’naviy kamolot asoslari bayon etilishi bilan birga, ushbu to‘plamda Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari allomalari haqida ham so’z boradi. Xususan, tasavvuf tariqatlarining yetuk vakillari hisoblangan Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro hamda Bohauddin Nashqband kabi tariqat allomalarining hayot yo‘li va ijodiy faoliyati to‘g‘risida keng ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Hozirgacha e’tiborga molik muallifning bir necha asari O‘zbekistonda chop etilgan. «Buyuklar tuhfasi» kitobi o‘zbek tasavvuf ixlosmandlari uchun ham begona emas. Asarni o‘zbek tiliga yosh olim Alimardon Hayitov o‘girgan. Kitob «Muharrir» nashriyoti tomonidan 2012 yilda nashr etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Fuad Köprülü. Türk edebiyati’nda ilk mutasavviflar. Türk tarih kurumu basimevi - Ankara 1976.
2. Komil Yilmaz. Tassavvuf va tariqatlar. Istanbul. 1997.
3. K. Eraslan “Ahmed-i Yesevi, Divan-i Hikmet'ten Secmeler”. Ankara, 1983.
4. Muhammad Zohid Qutqu. Nafs nimadir?. “Sharq”. Toshkent. 2020. Tarjimon. Zebunisso Husayn qizi.
5. Mustafa Kara. Tasavvuf va tariqatlar tarixi. Istanbul. 1995.
6. Mahmud As’ad Jo’shon. Buyuklar tuhfasi. Toshkent. 2012.
7. Mahmud As’ad Jo‘shon. Islom, tasavvuf va hayot. Istanbul. 1996.
8. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqlol”, 1999. – 180b.

O‘ZBEKISTONDA XITOYSHUNOSLIK MASALALARIGA DOIR

Axror Jumaboyev
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
E-mail manzili : axrorjon97@gmail.com

bu alloma tegrasidagi talab ahlining ma’naviy kamolotiga ko‘ra, «Shayxi valitarosh», ya’ni avliyolar yetishtiruvchi shayx deb atalmoqdalar. Olim 2001-yilda umrining oxirgi yillarida makon topgan Avstraliyada vafot etgan.

[200] Mahmud As’ad Jo’shon. Buyuklar tuhfasi. Toshkent. 2012.

Kalit so'zlar: *Tarixiy aloqalar, Ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risi bitim, Oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning yo'lga qo'yilishi, Konfutsiy instituti, ilmiy tadqiqotlar.*

Annostatsiya: *Hozirgi davrda Xitoy Xalq Respublikasi bilan keng miqyosli aloqalarni amalga oshirish O'zbekiston tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biridir. Shu bilan birga, Xitoy tashqi siyosiy strategiyasida Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston bilan hamkorlik eng asosiy va muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.*

ON ISSUES OF CHINESE STUDIES IN UZBEKISTAN

Akhror Jumabayev
Tashkent State University of Oriental Studies
Independent researcher
E-mail address: axrorjon97@gmail.com

Key words: *Historical ties, "Agreement on Cooperation in the Field of Education", Establishment of Cooperation between Higher Education Institutions, Confucius Institute, Scientific Research.*

Abstract: *Currently, the implementation of large-scale relations with the People's Republic of China is one of the priorities of Uzbekistan's foreign policy. At the same time, cooperation with Central Asian countries, in particular Uzbekistan, is one of the most basic and important directions in China's foreign policy strategy.*

Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan va hozirda O'zbekistonning strategik hamkori hisoblanadi. O'tgan 30 yil davomida O'zbekiston XXR bilan keng ko'lamli qo'shma loyihalarni amalga oshirib, umumiy maqsad va vazifalarni belgilab kelmoqda. Shu vaqt ichida ta'lim va ilmiy hamkorlik sohasida ajoyib muvaffaqiyatlarga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi oliy ta'lim sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan Xitoy Xalq Respublikasi Ta'lim vazirligi o'rtasida oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi 1999-yil 8-noyabrdagi bitimga asoslanadi. Toshkent (2004-yil) va Samarqand (2013-yil) shaharlarida Konfutsiy institutlarini tashkil etish to'g'risidagi shartnomalar ta'lim sohasidagi hamkorlikning asosiy hujjatlari bo'ldi[1].

Toshkent shahridagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (TDSHU) qoshida Xitoyning Lanchjou universiteti bilan hamkorlikda Toshkent Konfutsiy instituti ochildi va dunyoda birinchi bo'ldi. Shundan so'ng O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Ta'lim vazirligi o'rtasida hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Samarqand Konfutsiy instituti Xitoy tilini xorijda targ‘ib qilish davlat idorasi “Hanban” bilan hamkorlikda Shanxay chet tillar universiteti bilan hamkorlikda vujudga kelgan va Samarqand davlat chet tillar institutida faoliyat yuritmoqda.

Har yili XXR davlatlararo hamkorlik va ShHTga a’zo davlatlarning hamkorlik dasturi doirasida Xitoy universitetlarida bir yillik amaliyot o‘tash uchun grant o‘rinlarini ajratadi. Ushbu dasturlar doirasida talabalar va stajyorlar Xitoyga nafaqat xitoy tilini o‘rganish, balki ta’limning turli yo‘nalishlari va iqtisodiyot tarmoqlarida amaliyot o‘tash va malaka oshirish maqsadida ham boradi.

Mamlakatizmiz fuqarolari grant asosida Xitoy universitetlarida va Konfutsiy institutlari orqali amaliyot o‘tash imkoniyatiga ham ega. O‘zbekistonda Konfutsiy institutlari tashkil etilganidan buyon minglab mamlakatimiz fuqarolari xitoy tili bo‘yicha o‘qitildi, xitoy tilini bilishning HSK darajasi uchun sertifikatlarga ega bo‘ldi, Xitoy an’analari, urf-odatlari va madaniyati bilan yaqindan tanishdi. O‘zbekistonda Xitoy madaniyatini ommalashtirishda ularda faoliyat yuritayotgan turli to‘garaklar: “Xattotlik”, “Xitoy taomlari”, “Taychi mahorati”, “Munozara klubi”, muntazam tashkil etilayotgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar katta rol o‘ynamoqda. Jumladan: “Xitoy tilida kuylayman”, “Notiqlik”, “Insholar tanlovi”, “Xitoy nasrining go‘zalligi”, “Qiziqarli spartakiada” va boshqalar[2].

Bundan tashqari, Konfutsiy institutlari xitoy tili bo‘yicha yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, O‘zbekiston ta’lim muassasalarida ixtisoslashgan mutaxassislar uchun xitoyshunoslik bo‘yicha seminarlar, konferentsiyalar, malaka oshirish kurslarini o‘tkazishga hissa qo‘shmoqda. Bu jarayonda mahalliy mutaxas-sislar bilan bir qatorda Konfutsiy institutlari faoliyatiga xitoyshunoslik sohasida yangi yutuqlarni olib kirayotgan, o‘z bilim va tajribalari bilan o‘rtoqlashayotgan xitoylik ko‘ngilli o‘qituvchilar muhim o‘rin tutadi. Xususan, 2019 yil koronavirus pandemiyasi boshlanishidan oldin Xitoydan sakkiz nafar ko‘ngilli TDSHU qoshidagi Konfutsiy institutida o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullangan.

Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekistonda xitoy tili birinchi yoki ikkinchi chet tili sifatida o‘rganiladigan oliy o‘quv yurtlari soni ham ortib bormoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonda xitoyshunoslik yo‘nalishidagi tayanch oliy ta’lim muassasasi va Markaziy Osiyo mintaqasida sinologlar tayyorlashga ixtisoslashgan birinchi oliy o‘quv yurti Toshkent davlat sharqshunoslik universitetidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga muvofiq 2014-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida xitoyshunoslik fakultetining ochilishi xitoyshunoslik fanining rivojlanishi tarixidagi muhim voqea bo‘ldi[3]. Bu tashkil etilgan kadrlar resurslari, ilmiy va ta'lim salohiyati,

shuningdek, XXR universitetlari hamda tashkilotlari bilan faol hamkorlikni yo’lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi.

Mazkur fakultetda ikkita ixtisoslik mavjud bo‘lib, ular: “Xitoy filologiyasi” va “Xitoy tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti” kafedralaridir. Mazkur kafedralar amaliy tajribaga ega, o‘quv jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanadigan malakali professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlangan. Ta’kidlash joizki, fakultetning deyarli barcha professor-o‘qituvchilari Xitoyning nufuzli universitetlarida malaka oshirishdan o‘tgan.

TDSHU o'quv jarayoniga har yili Xitoydan ko'ngilli mutaxassislar jalb qilinadi. Shunday qilib, so‘nggi uch o‘quv yilida 22 nafar xitoylik mutaxassis universitetimiz talabalari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazdi[4]. Xitoydagi hamkor universitetlar mutaxassislari ham universitet talabalari uchun onlayn darslar va mahorat darslarini o‘tkazmoqda.

O‘quv reja va dasturlari zamon talablari asosida yangilandi. Yirik kafedralar o‘qituvchilari xitoylik hamkasblari bilan birgalikda ilg‘or yondashuv hamda uslublarni joriy etish va keng qo‘llash bo‘yicha jahon tajribasini hisobga olgan holda ularni tanqidiy tahlil qildi va qayta ko‘rib chiqdi.

“Xitoyshunoslik” ixtisosligi bo‘yicha 2021–2022 o‘quv yili uchun Xitoyning filologiya, adabiyot, manbashunoslik, jurnalistika, tarix, falsafa, iqtisodiyot va siyosat kabi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha 72 ta o‘quv guruhlari tuzilgan. Talabalar kunduzgi va kechki kurslarda tahsil olgan. Aynan o‘sha yili fakultetda 770 nafar talaba bakalavriat, 88 nafari magistratura, 15 nafari doktorantura yo‘nalishida tahsil olgan, xorijlik talabalar ham o‘zbekistonlik do‘stlari qatori bu yerda bilim olgan. 2022–2023 o‘quv yilida “Tashqi iqtisodiy faoliyat (tashqi savdo”) mutaxassisligi bo‘yicha xitoylik talabalarni tayyorlash uchun magistraturada alohida guruh tashkil etilgan.

Shuningdek, 2022 – 2023 yilgi o‘quv yilida 20 nafarga yaqin Xitoy fuqarosi universitetda bakalavriat, magistratura, doktorantura va til yo‘nalishlarini tamomlagan.

Fakultetda talabalarning bo‘sh vaqtlarini foydali o‘tkazishlari uchun turli fakultetlar mavjud. Masalan, “Xitoy tili va madaniyati ixlosmandlari klubi”, “Yosh iqtisodchilar klubi”, “Yosh tarjimonlar klubi”, “Yosh siyosatshunoslar maktabi” va boshqalar.

Xitoyshunoslik fakulteti auditoriyalari kompyuter va multimedia uskunalari, elektron doskalar bilan jihozlangan. Kompyuter sinflari, xitoy tilini sinxron tarjima qilish markazi, raqamli to‘plam, o‘quv va badiiy adabiyotlar hamda filmlarni o‘z ichiga olgan boy fondga ega fakultet kutubxonasi yaratildi. Bu, xususan, universitetning Xitoy hukumati

tomonidan bir necha bor turli zamonaviy jihozlarning grant oluvchisiga aylangani tufayli yaratilgan.

Universitet Xitoy universitetlari: Shanxay, Lanchjou, Xunan Oddiy universiteti, Tyanjin politexnika universiteti, Sian xalqaro tadqiqotlar universiteti, Shanxay xorijiy tillar universiteti va Shimoli-g‘arbiy millatlar universiteti bilan aloqa o‘rnatgan.

Imzolangan shartnoma doirasida 2022–2023 o‘quv yilidan boshlab Dalyan shahridagi Liaoning Normal universiteti bilan “Xitoy filologiyasi” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ikki tomonlama diplom dasturini yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu dastur Xitoy universitetlari bilan birinchi ikki darajali dastur bo'ldi. Bundan tashqari, Pekin til va madaniyat universiteti hamda Pekin chet tillar universiteti bilan akademik almashinuv va ilmiy tadqiqotlar sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida anglashuv memorandumlarini imzolash bo‘yicha ish olib borildi. Shuningdek, 2022-2023 yilda Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Millatlar Universiteti bilan hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum imzolandi. Bu esa Xitoy mablag‘lari hisobidan qo‘shma ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, qo‘shma xalqaro konferensiyalar, yoshlar forumlari, madaniy tadbirlar va mutaxassislar almashinuvini o‘tkazishga yo‘l ochdi. Bu o’z navbatida yosh tadqiqotchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etishga yordam berdi.

Koronavirus pandemiyasi boshlanishidan oldin har yili hukumatlararo va universitetlararo kelishuvlar doirasida 30 ga yaqin TDSHU talabalari XXRning hamkor universitetlarida bir yil davomida stajirovka o‘tashi, shu bilan birga o‘qituvchilar xalqaro konferensiyalar, stajirovkalar va malaka oshirish yo’lga qo’yildi. XXRda malaka oshirish kurslari TDSHU professorlari Xitoydagi universitetlarda talabalar va ixtisoslashgan mutaxassislarga bir necha bor ma'ruzalar o'qidilar. O’zbekistonlik o‘qituvchilar Pekindagi Markaziy Millatlar universiteti va Lanchjoudagi Shimoli-g‘arbiy millatlar universitetida o‘zbek tilini o‘qitishni targ‘ib qilishga qo‘ldan kelgancha hissa qo‘shdilar.

O‘zbekiston yoshlari oldida asosiy vazifa global darajaga chiqish, dunyoning yetakchi universiteti talabalari darajasida ta’lim olish vazifasi turibdi va shu sababli xitoy tili o‘qituvchisining ilmiy va kasbiy kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablar tobora ortib bormoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoydagi hamkor oliy ta’lim muassasalari bilan ma’ruzalar, ilmiy seminarlar, mahorat saboqlari o‘tkazilib, o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashilmoqda, Xitoy universitetlarining kredit-modul tizimidagi tajribasi o‘rganilib oliy ta’lim tizimiga tadbiq etildi.

Pandemiya sababli ushbu almashinuvlar va tadbirlar vaqtincha onlayn rejimga o'tdi. Shunday qilib, 2020-2024 yillarda TDSHU dan 70 dan ortiq

o‘qituvchilar Xitoydagi hamkor universitetlar tomonidan onlayn tarzda tashkil etilgan konferensiyalar, seminarlar va malaka oshirish kurslarida qatnashib kelmoqdalar[5].

TDSHUda har yili xitoyshunoslikning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tadi. U O‘zbekiston, Xitoy va boshqa mamlakatlar akademik doiralari vakillari o‘rtasida muloqot maydoni bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur konferensiyaning asosiy maqsadi O‘zbekistonda xitoyshunoslikni rivojlantirish muammolarini muhokama qilish bo‘lib, unda ishtirokchilar ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-gumanitar va madaniy aloqalarning tarixi, bugungi holati va istiqbollarini muhokama qiladilar. Shuningdek, hamkorlikning yangi istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha fikr almashiladi. Konferensiya materiallari to‘plam shaklida nashr etilgan. Ushbu konferensiya sinologlar va yosh mutaxassislarning ilmiy izlanishlarini sinovdan o'tkazish uchun qulay platforma hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi ikki yilda universitetda sinologlarning ilmiy salohiyati ko'rsatkichi sezilarli darajada oshdi. Fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun 4 ta va falsafa doktori (PhD) uchun 11 ta dissertatsiya himoya qilindi[6]. Ushbu ilmiy ishlarning doirasi keng: tilshunoslikning dolzarb masalalaridan – til hodisalarining bugungi holati, til, yozuv va adabiyot tarixi, qiyosiy tadqiqotlar, tarjima muammolari, tarjimashunoslik, atamashunoslik, xitoy tilini o‘qitish metodikasi – Konfutsiy falsafasiga, tashqi siyosat va xalqaro munosabatlarga, madaniy diplomatiyaga, davlatlarning ijtimoiy-siyosiy masalalar va ekologik muammolarni hal etish tajribasiga va boshqalar.

2022-yilda xitoyshunoslik fanining rivojidagi yana bir muhim voqea TDSHU qoshida O‘zbekiston-Xitoy ilmiy-tadqiqot markazining ochilishi bo‘ldi. Monografiyalar yaratish, Xitoyning ichki, tashqi siyosati va iqtisodiy tajribasini o‘rganish, Buyuk Ipak yo‘lining o‘rni va ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik istiqbollari, yangi avlod darsliklari, elektron ilovalar yaratish, shuningdek, yosh tadqiqotchilarni tayyorlash. shular jumlasidandir.

Markaz homiyligida universitetdagi sinolog olimlarning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida yaratilgan turkum ilmiy ishlari nashrga tayyorlandi. O‘zbekistonlik sinolog olimlarning 22 jilddan iborat monografiyalar turkumi O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligiga salmoqli tuhfa bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Oliy ta’limdagi yangi voqelik va islohotlardan kelib chiqib, fan va ta’limni integratsiyalashuvi, ilmiy tadqiqot ishlarini xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tashqi savdo, xususiy biznesning amaliy ehtiyojlari bilan yaqinlashtirish zarurligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur, deb o‘ylayman.

Sinologlar uchun bu noan'anaviy manbalardan grantlarni jalb qilish, moliyalashtirish uchun mutlaqo yangi platformadir.

Albatta, Xitoydagi universitetlar va tashkilotlar bilan davom etayotgan hamkorlik xitoy tilini mukammal biladigan, xitoyshunoslik sohasida keng va chuqur bilimga ega kadrlar tayyorlashni yaxshilaydi. Bu esa, o‘z navbatida, do‘st mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikning yangi ufqlarini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. G‘ofurov N.O. O’zbekiston va Xitoy hamkorligining ayrim huquqiy asoslari.// Ilmiy to’plam. Namangan, 2009. –N 3. – 244 b.
2. Xodjayev.A Buyuk Ipak yo’li: munosabatlar va taqdirlar. – T.:
3. “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyot 2007 – 280 b
4. X. Xolliyev “O’zbekiston va jahon hamjamiyati”.- T, Universitet. 2003. 90 bet
5. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi 9-jild. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti,. 2005. 438 b.
6. Limanov O. Xitoyning Markaziy Osiyodagi strategiyasi //Ijtimoiy fikr. Inson xukuklari - Toshkent, 1999, № 3-4. 166 b.

GLOBALLASHUV DAVRIDA MA’NAVIY BARQARORLIKKA QARSHI TAHDIDLAR

Nigina Raxmonova
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti
E-mail:nigina.raxmonova.94@bk.ru

Kalit so’zlar: *Ma’naviy tahdid, glaballashuv, ma’naviy barqarorlik, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, mafkuraviy tajovuz, axloqiy muhit.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekistondagi ma’naviy barqarorlik negizlari va unga tahdid solayotgan omillar tahliliga bag‘ishlangan. Unda mamlakatning mustaqillikka erishishi, ayniqsa keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ijtimoiy ong shakllarining rivojlanishi, ijtimoiy ruhiyat va mafkuraning insonparvar xarakter kasb qilishi, ma’naviy ishlab chiqarish jarayonining optimallashishi uchun real shart-sharoitlar yaratgani ochib beriladi. Shunga qaramasdan, jadal o‘zgarib borayotgan ijtimoiy voqelik jamiyatning ma’naviy barqarorligiga tahdid soluvchi yangi omillarni vujudga keltirmoqda. Maqolada mazkur omillarning mazmuni va mohiyati, tahdidi ko‘lami tavsiflanadi.*

AGAINST SPIRITUAL STABILITY IN THE AGE OF GLOBALIZATION THREATS

Nigina Rakhmonova
Doctoral student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov
E-mail: nigina.rakhmonova.94@bk.ru

Key words: *Spiritual threat, glabalization, spiritual stability, political stability, social stability, ideological aggression, moral environment.*

Abstract: *This article is devoted to the analysis of the foundations of spiritual stability in Uzbekistan and the factors that threaten it. It reveals that the country's independence, especially the reforms carried out in the following years, created real conditions for the development of forms of social consciousness, the humanistic character of social psyche and ideology, the optimization of the spiritual production process. Nevertheless, the rapidly changing social reality creates new factors that threaten the spiritual stability of society. The article describes the content and essence, the scale of the threat of these factors.*

Yangi asrda turli mamlakatlarning ma’naviy barqarorligiga tahdid solayotgan omillar ko‘paygani xususida ko‘p yozilmoqda. Darhaqiqat, “globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda”. Mazkur tahdid va xatarlar ayrim mamlakatlarda ijtimoiy taraqqiyot sur’atlarini keskin sekinlashtirmoqda, boshqalarida esa ma’naviy beqarorlikni keltirib chiqarmoqda. Shu boisdan jamiyat ma’naviy barqarorligini ta’minlash masalasi qariyb barcha mamlakatlarda strategik ahamiyatga molik vazifalar turkumiga kiritilmoqda. Chunki “ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minlash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin”.

Biroq ilmiy manbalardagi tahlillarga e’tibor beradigan bo‘lsak, ma’naviy tahdid deganda nuqul jamiyat ma’naviy barqarorligiga putur yetkazadigan ma’naviy omillar nazarda tutiladi. Aslida bunday emas. Ma’lumki, “ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’i nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zlagan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim”. Lekin jamiyatning ma’naviy barqarorligiga, shu jumladan insonning ruhiy dunyosiga nafaqat ma’naviy, balki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar

ham tahdid solishi mumkin. Binobarin, jamiyatning ma’naviy barqarorligiga tahdid solayotgan omillarni birmuncha kengroq tavsiflamoq darkor. Faqat shunday talqin va tahlilgina mazkur omillarni to‘g‘ri, aniq va batafsil tasniflash va pirovardida ularni bartaraf etishga doir maqsadga muvofiq chora-tadbirlar tizimini, ushbu choralarni o‘zida mujassam qilgan ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

O‘zbekistondagi ma’naviy barqarorlikka putur yetkazayotgan tahdidlar haqida gapirganda birinchi navbatda *ayirmachilik tamoyillari va vayronkor g‘oyalarga asoslangan siyosiy dasturlarning* ko‘payayotganini tilga olish lozim. Jahonning turli mamlakatlarida millatchilik va shovinizmni ulug‘laydigan, davlatlarning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini tan olmaydigan siyosiy kuchlar tobora urchimoqda. Ushbu siyosiy kuchlar o‘z g‘oya va qarashlarini ifodalagan turli siyosiy dasturlarni ilgari surmoqdalar, davlat institutlaridan ularni ro‘yobga chiqarishni talab qilmoqdalar. Masalan, Rossiyada bunday dasturlar Rossiya liberal-demokratik partiyasi, “Xalq irodasi” milliy tiklanish partiyasi tomonidan taqdim qilinmoqda. Ularning dasturlarida Rossiyadagi bugungi barcha muammolarning sabablari “rus bo‘lmagan” dunyo vakillarining sa’y-harakatlari bilan bog‘lanadi. Mazkur siyosiy dasturlarning mohiyati va ijtimoiy xatarlari bundan bir necha yillar muqaddam Penza davlat pedagogika universiteti tadqiqotchilari S. G.Grishin va Ye.V Kozlovalarning maqolalarida ochib berilgan edi. Maqolada qayd qilinishicha, yuqoridagi partiyalarning mafkurachilari rus xalqini o‘z hohish-istaklarini ifodalash va milliy manfaatlarini himoya qilish huquqlaridan mahrum bo‘lib qolgan, deb hisoblaydilar. Mamlakatda huquqlari yaxshiroq muhofazalangan milliy respublikalar esa rus olami uchun katta tahdid emish. Chunki ular butun mamlakat bo‘ylab rusofobiya va milliy toqatsizlik g‘oyalarini targ‘ib qilayotganmish. Bugungi Rossiya muammolarining asl ildizlari ana shu holat bilan bog‘liq emish.

Rossiya liberal-demokratik partiyasi va “Xalq irodasi” milliy tiklanish partiyasi mafkurachilari rus millatini zaiflashtirgan omillardan yana birini SSSRning tarqalib ketgani bilan bog‘laydilar. Shu boisdan bugungi hukumat SSSRni tiklashga va rus xalqining ulug‘ligini ta’minlashga intilmog‘i lozim emish. “Bunday tezislar,- deya o‘z tashvishini bildiradi S. G.Grishin va Ye.V Kozlova,- pirovardida agressiv g‘ayriinsoniy ichki va tashqi siyosatni yoqlash uchun ishlatilishi mumkin”.

Ayirmachilik tamoyillari va vayronkor g‘oyalarga asoslangan siyosiy dasturlar jahonning boshqa mamlakatlarida ham ko‘paymoqda. AQShda bunday dasturlar “muqobil o‘nglar” tarafdorlari tomonidan ilgari surilmoqda. Ularda ultramillatchilik, shovinizm, ksenofobiya, irqchilik g‘oyalari keng targ‘ib qilinadi. Masalan, 1865 yilda tashkil topgan va

bugunga kelib 130 dan ortiq guruhlarga ega bo‘lgan Kukluks-klan irqchilik g‘oyalariga asoslangan siyosiy dasturni ro‘yobga chiqarish yo‘lida faoliyat ko‘rsatmoqda. Neonatsistlar milliy fronti, neokonfederatlar guruhi dasturlari ham shunga o‘xshab ketadi.

Tashvishlanarli tomoni shundaki, ayrim jamiyatlarda bunday siyosiy dasturlarni yoqlovchi fuqarolar soni oshmoqda. Masalan, Rossiyada 1993-yilda o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovlarda respondentlarning uchdan bir qismi barcha muammolarning sabablarini rus bo‘lmagan fuqarolar bilan bog‘lagan bo‘lsa, 2004 yilgi so‘rovlarda bu fikrni 42 foiz respondent ma’qullagan. Rossiya ommaviy axborot vositalaridagi bugungi publikatsiyalar bunday kayfiyatdagi kishilar son yanada oshganini ko‘rsatmoqda.

Turli mamlakatlarda ayirmachilik tamoyillari va vayronkor g‘oyalarga asoslangan siyosiy dasturlarning ko‘payayotgani nafaqat shu mamlakatlardagi, balki O‘zbekistondagi ma’naviy barqarorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ularning ta’sirida o‘zbek jamiyatidagi ijtimoiy hamjihatlikka, kishilarning ruhiyatiga, ularning boshqa mamlakat, millat va elat vakillariga bo‘lgan ishonchiga putur yetmoqda. Eng yomoni, mazkur omil jamiyatni ma’naviy beqarorlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan yangi va yangi xatarlarning vujudga kelishiga yo‘l ochib bermoqda. Shuni inobatga olgan holda uni jamiyat ma’naviy barqarorligiga bo‘lgan markaziy tahdid sifatida baholamoq darkor.

G‘ayriinsoniy siyosiy dastur tarafdorlari o‘z g‘oya va mafkuralarini keng targ‘ib va tashviq etish qatorida o‘zga ijtimoiy taraqqiyot mo‘ljallarini, mafkuralarni, g‘oyaviy-nazariy qarashlarni obro‘sizlantirishga intilmoqdalar. Shu boisdan ularning boshqa davlatlar, mamlakatlar, xalqlarga *mafkuraviy tajovuzlari* yil sayin ashaddiy tus olmoqda. “Bugungi kunda mafkuraviy tajovuz deganda aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa yoshlarning qarashlarini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan yo‘nalishda o‘zgartirish, buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g‘oyalarini singdirish kabi g‘arazli maqsadlar tushuniladi”.

Masalaning bir tomoniga alohida e’tibor bermoq darkor. Mafkuraviy tajovuz nafaqat “muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi g‘oyaviy-nazariy qarashlardir”. Ayni paytda u puxta o‘ylangan va tizimli ravishda amalga oshirib borilayotgan amaliyot hamdir. Aksariyat hollarda bu amaliyot maxsus shakllantirilgan markazlar, uyushmalar, institutlar tomonidan amalga oshirilmoqda. Tadqiqotchi R. Rustamov o‘z dissertasiyasida bunday markazlardan birini mufassal tavsirlab beradi. “Birgina “Islom davlati” nomi bilan faoliyat olib borayotgan terroristik tashkilotning targ‘ibot sistemasiga nazar tashlaylik,-

deb yozadi u.- Bu targ‘ibot o‘z g‘oyalarini tarqatish va tarafdorlar to‘plashga yo‘naltirilgan faoliyatni o‘zida mujassam qiladi. Tashkilotda targ‘ibot ishlarini amalga oshirish uchun maxsus markaz tashkil etilgan. Bruking instituti tadqiqotchilarining ma’lumotlariga qaraganda, bu markaz faol va professional faoliyati bilan ajralib turadi. Uning tarkibida “Al-Furqan” axborot byurosi, “Al-I’tisom media” videomahsulotlar ishlab chiqarish studiyasi, “Al-Hayot” xorijiy tillarda materiallar tayyorlash byurosi, “Al-Ajnad media” qo‘shiqlar va she’rlar tayyorlash studiyasi, “Furat media” Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun materiallar tayyorlash bo‘limi mavjud. Markaz tomonidan birgina 2014 yilning oxirgi choragida Internetdagi 46 mingdan ortiq akkauntda 5 milliondan ko‘p postlar e’lon qilingan. G‘ayriinsoniy g‘oyalarni targ‘ib qilish maqsadida tayyorlangan materiallar (masalan, “Qilichlar zarbi” filmi) o‘zining yuqori saviyasi bilan xarakterlanadi”.

Mafkuraviy tajovuz g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi sifatida ham, muayyan maqsadni ko‘zda tutgan amaliyot tarzida ham o‘zbek jamiyatining ma’naviy barqarorligiga tahdid soladigan jiddiy omillar biri bo‘lib qolmoqda. U ijtimoiy ong shakllari ravnaqiga, jamiyat a’zolarining mafkuraviy tasavvurlariga rahna solmoqda, kishilarni milliy g‘oya atrofida jipslashtirishga xalal bermoqda. Binobarin, jamiyat ma’naviy barqarorligini ta’minlash bilan bog‘liq har qanday ijtimoiy dasturni tayyorlayotganda mafkuraviy tajovuzning oldini olish masalasi diqqat markazida turmog‘i darkor.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, davr o‘tgani sayin O‘zbekistondagi ma’naviy barqarorlikka tahdid solayotgan omillar, jarayonlar, holatlar tobora ko‘paymoqda. Bugungi kunda jamiyatning ma’naviy barqarorligiga, shu jumladan insonning ruhiy dunyosiga nafaqat ma’naviy, balki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillar ham xavf tug‘dirmoqda. Jumladan, ayirmachilik tamoyillari va vayronkor g‘oyalarga asoslangan siyosiy dasturlarning ko‘payayotgani, mamlakatlar va xalqlarga mafkuraviy tajovuzlarning ashaddiy tus olayotgani, tarixiy voqealarni noxolis talqin qilishning urf bo‘layotgani, diniy mutaassiblik va diniy toqatsizlikning avj olayotgani, axloqiy plyuralizmning ildiz otayotgani, inson haq-huquqlarining axloqdan ayri holda talqin etilayotgani, ilm-fan rivojida nooqilona tenensiyalarning yuzaga kelayotgani, san’at olamida yangi oqimlarning paydo bo‘layotgani O‘zbekistonda ijtimoiy ong shakllari ravnaqiga, kishilar ijtimoiy ruhiyatiga, ma’naviy ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan tahdid uyg‘otmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi.-T.:O’zbekiston, 2021.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- T.:Ma'naviyat, 2008
3. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash ma’suliyati.-T.:O’zbekiston, 2018.

4. Гришин С. Г., Козлова Е. В.. Национальный вопрос в программах националистических партий современной России.// Известия Пензенского государственного педагогического университета им. В. Г. Белинского, 2007,
5. Rustamov R.R. Geopolitik raqobat sharoitida ma’naviy targ’ibot sistemasidagi atributiv o’zgarishlar: muammolar va yechimlar: Fals.d.(PhD) diss.-Samarqand: SamDU, 2019.

“DEVONU LUG'OTIT TURK” ASARIDA TOPONIMLAR

Munavvarjon Tojiboyev
FDU Mustaqil tadqiqotchi

Kalit so‘zlar: *toponim, lingvistika, “Devonu lug‘o-tit turk”asari, geografik toponimika, Mahmud Koshg‘ariy, turkiy xalqlar.*
.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada toponimlarni lingvistik aspektda o‘rganish, leksik birlik sifatidagi nomlash xususiyatlarini tahlil qilish , asar yozilishi tarixi va uning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.*

TOPONYMS IN DEVONI LUGATIT TURK

Munavvarjon Tojiboyev
FerSU is an independent Researcher,

Key words: *toponymy, linguistics, "Devonu lugotit turk" work, geographic Mahmud Koshgari, Turkic peoples.*

Abstract*: the article discusses the linguistic aspects of toponyms, analyzes their naming features as lexical units, and explores the history of the work's creation and its significance.*

Hozirgi kunga kelib muayyan arealga xos toponimik birliklarning barcha turlarini yaxlit bir butun tizim sifatida antropotsentrik, sotsiolingvistik, semantik, nominatsion-motivatsion, tarixiy-etimologik jihatdan tadqiq etishga talab ortmoqda. Toponimlarni lingvistik aspektda o‘rganish, leksik birlik sifatidagi nomlash xususiyatlarini tahlil qilish, onomastik birliklar semantikasini yoritish, tarixiy, madaniy, uslubiy semalarni tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida lingvistik, tarixiy, geografik toponimika, areal lingvistikaga oid izlanishlar yuzaga kelmoqda. Toponimikaning tarkibiy qismlari bo‘lgan oykonimlar, gidronimlar, oronimlar, agiotoponimlar va nekronimlar kabi birliklarni yangi lisoniy paradigmalar asosida tadqiq etish kun tartibiga qo‘yilgan. Toponimlarni tarixiy-lisoniy jihatdan tahlil qilish, ayniqsa, semantik xususiyatlarini o‘rganish xalqning milliy, etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixini, tilning tarixiy taraqqiyoti va takomilini yoritishda,

nominativ, kommunikativ, akkumulyativ funksiyalari mohiyatini aks ettirishda ahamiyatlidir. O‘zbek tilshunosligida toponimikani o‘rganish borasida ko‘pgina ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, respublikamizning barcha hududlari tarixiy-lisoniy jihatdan alohida o‘rganilmagan. “Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvatlashimiz lozim”[201]. Bugungi kunda o‘zbek toponimikasi oldiga barcha viloyatlar toponimiyasini zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida tadqiq etish vazifasi qo‘yilmoqda.

Ma'lumki, joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyat tarixida bo‘lib o‘tgan voqyea va hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan.

Toponimikani o‘rganish til tarixi va til nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko‘pgina joy nomlari juda qadimiydir. Ibtidoiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan geografik nomlarni keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug‘at tarkibida, so‘zlarning dastlabki shaklida ro‘y bergan o‘zgarishlarni bilib olish mumkin.

Etnonim va toponimlarni to‘plab tadqiq etish o‘zbek tilidagi atoqli otlar tizimining shakllanish bosqichlari xususida qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, xalqimiz tarixi, urf-odatlari, turmush tarzi, o‘lkamiz jug‘rofiyasi va arxeologiyasi, shuningdek, ma'naviyatimiz sarchashmalari haqida keng qamrovli izlanishlar olib borishga asos bo‘la oladi. Xalqimiz tarixi, taqdiri va turmush tarzining o‘ziga xos qomusi hisoblangan joy nomlari ajdodlarimiz tafakkurining bebaho yodgorligi, o‘zbek ma’naviyati xazinasini asrlar davomida boyitib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biri sanaladi.

Bundan roppa-rosa 950 yil avval 1072 yilning 25 yanvarida Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlarning oltin kitobi “Devonu lug‘otit turk”[202]ni yozishni boshladi va ikki yil davom etgan mashaqqatli mehnatdan keyin 1074 yilning 10 fevralida yakunladi. Bu turkiy xalqlar tarixidagi eng salmoqli va bebaho asarni boshlashdan avval Koshg‘ariy “Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg‘onistonga qadar cho‘zilgan” turkiy o‘lkalarni, shaharlar, qishloq va yaylovlarni kezib chiqdi, shu asnoda turli sheva va lahja xususiyatlarini o‘rgandi, ularni adabiy til bilan chog‘ishtirdi, o‘z ishi uchun nihoyatda boy

[201] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б 22.

[202] Қаранг. Кошғарий М. Девону луғатит турк . – Тошкент: Фан, Т. I , 1960, – 449 б.; Т. II, 1961, – 427 б.; Т.
III, 1963, – 466 б.

manba to‘pladi. Lug‘at tuzishda arab tilshunoslari yaratgan an’anadan unumli foydalangan holda, ishga ijodiy yondashdi, turkiy til qonuniyatlarini birinchi navbatda inobatga olib, kitobi — “Devonu lug‘otit turk”ga tartib berdi.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asari bebaho bir qomuski, undan har bir mutaxassis o'ziga kerakli material topa oladi. «Devon»ni ayni vaqtda qimmatli toponimik asar ham deyish rnumkin. Chunki bundan uch yuz-to'rt yuz yil oldin yozib olingan nomlar ham hozirgi talaffuzdan ko'ra qadimgi toponimiyaning dastlabki shakliga ancha yaqin bo'ladi. «Devonu lug'otit turk» esa bundan qariyib 10 asr oldin yozib qoldirilgan. Shuni aytish kerakki, toponim qanchalik ilgari yozib olingan bo'lsa, shunchalik qimmatli sanaladi. Chunki ana shu davrda joy nomlarining fonetik hamda grammatik xususiyatlarida ganday o'zgarishlar ro'y berganini aniqlash mumkin bo'ladi. Mahmud Koshg'ariy asarining toponimika uchun ahamiyati undagi joy nomlari bilangina tugamaydi.

Toponimlaming etimologiyasi, semantikasini aniqlash hamda grammatik xususiyatlarini hisobga olishda qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o'simlik, hayvonlarning o'sha davrdagi nomlari, toponimlaming grammatik tuzilishiga doir mulohazalar g'oyat zo'r ahamiyatga egadir. Bu jihatdan «Devon» nihoyatda boy material beradi.

«Devon»dagi toponimik ma'lumotlarni bir necha turga bo'lish mumkin:

1. «Devon» da tilga olingan joy nomlari.
2. Etnonimlar, ya'ni turli xalq, elat, qabila, urug' nomlari.
3. Antroponimlar, ya'ni kishi ismlari.
4. Geografik atamalar, o'simlik hamda hayvon nomlari.
5. So'zlarning fonetik va grammatik tuzilishiga doir fikrlar.

Ma'lumki, «Devon»ga doira deb atalgan xarita ilova qilingan. Bundan tashqari, matnda ham bir qancha joy nomlari izohlab o'tilgan. Bizning hisobimizga ko'ra «Devonu lug'otit turk»da jami 160 dan ortiq toponim tilga olingan. Shu o'rinda aytish joizki, asarda ayrim joy, ba'zi o'simliklar, hayvonlar nomlari atamalar takroran berilgan. Bunday qaytariqlar hisobga kirmaydi, albatta.

«Devon»dagi nomlarning asosiy qismi O'rta Osiyoga oid turkiy nomlardir. Bu toponimlaming bir qanchalari hamma uchun tushunarlidir. Chunonchi, Oqsoy, Oqterak kabi nomlarni hozir ham uchratish mumkin. Bnxoro, Farg'ona, Samarqand, Xo'jaad, Xorazm, Talas, Tarina, Sayram, Manqishloq, Issiqkol kabi toponimlar deyarli o'zgarishsiz yetib kelgan. Ha, Qorayalg'a, Ala, Ertisli kabi nomlar fonetik jihatdan biroz o'zgarib ketgan va hozir Hi, Qorajllg'a, Olay, Irtish shaklida yoziladi.

Beshbaliq, Yangibaliq, Tunkand, Yankand, O'zkand kabi shahar nomlari, Badalart, Buqachart, Zanbiat, Qavaqart, Yafg'uart kabi dovonlar, Ikkio'kuz, Qoraqosh O'kuz, O'rungqosho'kuz kabi daryolar etimologiyasiga «Devon» ning o'zidan javob topish mumkin.

Ma'lumki, toponimikada turli afsonalar ham inobatga olinadi va o'rganiladi. Lekin joy nomlari etimologiyasi to'g'risida Mahmud Koshg'ariy keltirgan ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish zarur.

«Devonu lug'otit turk»dagi toponimlaming biz uchun yana bir qimmatli tomoni ularning grammatik xususiyatlaridir. Ma'lumki, joy nomlarining etimologiyasidan tashqari grammatik tuzilishiga qarab ham ularning qaysi tilga, qaysi davrga oid ekanligini ma'lum darajada aniqlash mumkin.

Hozirgi turkiy toponimlaming asosiy qismi ikki va uch komponentdan, ya'ni tarkibiy qismdan iborat. «Devon»dagi joy nomlarining yarmidan ko'pi bir komponentli nomlar. Masalan, Yamak, Yofinj, Alusli, Azig', Abul, Etil, Udun, Yamar, Ala, Urang, Qo'jn, Bukur, Talas, Qatas, Quya, Toman, Koson, Xazar, Chog'la, Barxaa, Sabran, Sitg'un, Tovg'ach, Barjug', Tartuq, Tayiz, Ko'rung, Oazvin kabilar ana shular jumlasidan. Ikki komponentlilar u qadar ko'p emas: Ikkiko'z, Oqsoy, Oqterak, Olayig'och, Beshballq, Yangibaliq, Qorayig'och, Badalart, Buqachart, Boyyig'och, Yulduzko'l kabilar. Bu toponimlaming birinchi komponenti sifat, ikkinchi komponenti esa ot (geografik atama). Ikki komponentlilar grammatik tuzilishi jihatidan hozirgi toponimlardan farq qilmaydi. Uch komponentlilar esa atigi bir nechta: D'rungqosho'kuz, Qeraqosho'toaz, To'rig'arttayiz..

Etnonimlar haqida. «Devon»da juda ko'p xalq, qabila, toifa nomlari -
etnonimlar tilga olingan. Mahmud Koshg'ariy «Devon»ning bosh qismida turk qabilalari haqida so'z yuritib: bajanak, qipcboq, o'g'uz,- yamak, basmil, qay, yabaku, tatar, qirg'iz, chigil, taxsi, yag'ma, ig'roq, jaruq, jumul, uyg'ur, tangut, xtoy. Kitobning lug'at qismida esa kenjak, bayot, sag'doq, uch, qorluq, o'groq, kucha, balaq, Kalach, aramut, turkman, qiniq, salg'ar kabi etnonimlarni ham tilga olgan.

Bizning fikrimizcha, toponimika uchun yana bir ahamiyatli manba «Devon»da anchagina uchraydigan etnotoponimlardifr. Arg'u (shahar), Bulg'or dengizi, Bulg'or shahri, Kesjak saiigir (shahar), Turk (shahar), Tavg'ach (mamlakat), Uyg'ur (viloyat), Yabaqu (suv nomi), Yag’ma (qishloq nomi), Yamak (cho'l nomi) kabilar aslida etnotoponimlardir. Bundan tashqari, doira xaritada ham G'uzlya, Qipehosi yurti, Basmil cho'li singari bir qancha o'lkalar tilga olingan. Demak, «Devonu lug'otit

turk»[203]dan ayni vaqtda etnonimlar va etnotoponindar to'g'risida ham juda boy material topish mumkin.

Biroq etnonimlarning etimologiyasi to'g'risida Mahmud Koshg'ariy keltirgan rivoyatlarning hammasini ham to'g'ri deb bo'lmaydi. Masalan, u turkman - «turkmonand», ya'ni «turkka o'xshash», chigil - «chi gil», ya'ni «bu qanday loy», uyg'ur «xud xo'r», ya'ni «o'zi topib yeydigan» degan so'z bo'lib, bu turk qabilalarining nomlari forscha degan xulosani bildirgan. Tanqidiy foydalanilsa, bu ma'lumotlar etnografiya, shuningdek, toponimika uchun ishonchli va boy material bo'lib xizmat qiladi.

«Devon»dagi kishilar ismlari shu jihatdan qimmatliki, bir necha arabcha ismlarni istisno qilganda, kishi ismlarining deyarli hammasi qadimiy turkiy bo'lib, hozirgi vaqtda iste'moldan chiqib ketgan. «Devonu lug'otit turk»dagi 60 dan ortiq kishi ismlari orasida xonlarning, pahlavonlarning, urug' boshliqlarining, oddiy kishilarning ismlari, laqablari bor, Akademik I.Y.Krachkovskiy musulmon mamlakatlarida qullarga va cho'rilarga Yoqut, Zumrad, Kofur (kamfara) kabi asl toshlar yoki xushbo'y moddalar nomlarini qo'yish rasm bo'lgan deb yozgan edi. Mahmud Koshg'ariy ham bu fikrni isbotlaydi.

Demak, Kumush, Tilla (ba'zan Oltin) kabi qimmatbaho metall nomiari bilan atalgan ismlar ham dastlab qui va cho'rilarga qo'yilgan.

Mahmud Koshg'ariy ba'zi ismlarning etimologiyasini ham aytib o'tgan. Bektur - «o'rningda bek tur, uzoq yasha», To'g'ril - yirtqich qush nomi, So'kman - «jang saflarini sindiruvchi», Burslan - «qop-lon», Suli-— Sulayman so'zining qisqargani va hokazo. Bir qancha ismlarni izohsiz tushunish mumkin: Bug'raxon (bug'ra, buvra - erkak tuya), Barsxon (bars - qoplonning bir turi, bu so'z asli turkiy, yo'lbars esa «yo'l- yo'l bars» demak), Qilichxon, Turumtoy (yirtqich qush), Arslon tegin va hokazo. Atish, Utush, Abi, Buluch, Tutush, Tekish kabi ismlarning semantikasi esa biz uchun aniq emas.

«Devonu lug'otit turk» leksikasi toponimika uchungina emas, balki umuman til tarixi, dialektologiya uchun bitmas-tuganmas lazina. «Devon»da hozirgi vaqtda keng iste'molda bo'lgan so'zlarni ham, shaklan biroz o'zgargan atamalar hamda hozirgi vaqtda butunlay ishlatilmaydigan so'zlarni ham uchratish mumkin.

Xulosa qilib aytgattda, «Devonu lug'otit turk»dagi geografik atamalar
sinchiklab o'rganilishi kerak. Chunki ular ko'pgina toponimlarning etimologiyasi uchun «kalit» bo'lib xizmat qilishi mumkin.

---

[203] Караев С. Опыт изучения топонимии Узбекистана: Автореф.дисс. … канд. филол. наук. – Ташкент, 1969. – 26 с

«Devon»da qaraqan (qarag'an), anduz (andiz), alrrta, alrnila (olma), arpag'an, burchaq (lo'viya), sarmusaq (sarimsoq), apshan (yavshan-shuvoq), yilg'un (yulg'un), yandaq (yontoq), qaramuq kabi o'simlik nomiari keltirilgan. Mahmud Koshg'ariy davridan buyon ularning shaklida deyarli o'zgarish bo'lmagan. Ayni paytda qazin (qayin), charun (chinor), avya (ayva-behi), yag'aq (yong'oq), armut (Navoiyda- umrud, Radlovda- urmud), olmurut (nok, nashvati), azriq (ayrih) ajriq, egir, igir- iyir singari o'simlik nomlari esa fonetik o'zgarish yoki metateza (harflarning o'rni almashishi) bilan yetib kelgan.

700 sahifadan iborat “Devoni lug‘atit turk” asari jahon madaniyati va ilm-fani rivojiga qo‘shilgan ulkan hissa xisoblanadi. Qo‘lyozmaning yagona va eng qadimgi nusxasi 1226 yilga oid bo‘lib, Turkiya Milliy kutubxonasida saqlanadi.

Mahmud Qoshg‘ariy shuni isbotladiki, turkiy tilning ahamiyati arab tilinikidan kam emas. Til va adabiyotning qadimiy obidasi – “Devoni lug‘atit turk”yaratilganidan buyon o‘n asrdan oshiq vaqt o‘tdi. U hamon turkiy xalklar tarixinio‘rganishda betakror manba hisoblanadi. Buyuk olim, turkiy leksikograf, grammatist va dialektolog Mahmud Qoshg‘ariy nomi turkiy xalqlar tarixiga qiziquvchi barcha insonlar uchun qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorov X. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. –T.: Fan, 1968. 14-35-b.

2. Eremeev D.E. K semantike tyurkskoy etnonimii //Etnonimы. –M., 1970. S139.

3. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘otit turk. T.:O‘zSSR Fanlar Akad.nashr, 1960. I. 89-b.

4. Shoniyozov K. Qang‘ dalati va qang‘lilar. –T.: Fan, 1990.145-146-b.

5. Do‘simov Z. Shimoliy Xorazm toponimlari: Filol.fanlari nomzodi...dis. T.,1970.33-b.

MIRZO MUHAMMAD HAYDARNING “TARIXI RASHIDIY” ASARI MARKAZIY OSIYO TARIXIGA OID MUHIM MANBA

Kozimbek Qahorov
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti
E-mail manzili: kozimbekqahorov@gmail.com

Kalit so‘zlar: *“Tarixi rashidiy”, Mirzo Muhammad Haydar, dug`lot.*

Annotatsiya: *Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi rashidiy” asari XIV-XVI asrlar Movarounnahr, Xuroson va Mo‘g‘uliston tarixi bo‘yicha ma’lumot*

beruvchi muhim manba bo‘lib, tadqiqotda ushbu asarning ilmiy ahamiyati va qo‘lyozma nusxalari haqida so‘z boradi. Tadqiqotda asarning tarixiy ahamiyati ochib berilgan.

“THE HISTORY OF RASHIDI” BY MIRZA MUHAMMAD HAYDAR IS AN IMPORTANT SOURCE ON THE HISTORY OF CENTRAL ASIA

Kozimbek Kahorov
Master's student, Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail address: kozimbekqahorov@gmail.com

Key words: *Chigil, Yagmo, Kay, Tangut, Pan-Islamism, Pan-Turkism, Qarluq, Oghuz, ethnos, Sovietization, Turkic khana-te, caliphate, civiliza-tion, Beyshi.*

Abstract: Mirza Muhammad Haydar's “History of Rashidi” is an important source of information on the history of Movarunnahr, Khorasan and Mongolia in the XIV-XVI centuries. The research reveals the historical significance of the work.

Tarixni o‘rganish o‘zlikni anglashga, ota-bobolari kim ekanligini fahmlashga va ularga har tomonlama loyiq bo‘lish uchun harakat qilishga yetaklaydi. Bu tarixni xolis hamda xalq tushunadigan tilda yetkazib berish tarixchi olimlarimizning vazifalari hisoblanadi desak, xato qilmagan bo‘lar edik. Ushbu mavzu mintaqa tarixiga oid muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi bilan alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Asarning dolzarb ahamiyatga ega ekanligi uning boshqa manbalarga qaraganda aniqligi va xolisligidadir. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar asarni yozishda o‘zidan oldingi zabardast tarixchi olimlar asarlar va usullaridan, jumladan, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ato Malik Juvayniyning “Tarixi Jahonkushoy” va boshqalardan samarali foydalangan. Asarda mintaqa hududlarining XIV-XVI asrlardagi bayon etilgan bo‘lib, boshqa manbalarda duch kelinmaydigan faktlar bilan o‘ziga xos ahamiyatga egadir. Tarixchi olim asarni yozish davomida bevosita o‘sha davr jonli muhitini kitobxonlarga his qildirishga harakat qilgan. Tarixiy yurishlar bilan birgalikda mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va ra’iyatning ahvoli ham bayon etilgan.

Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlari qator tarixchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Asar yaratilgandan beri o‘tgan davr mobaynida ko‘plab turli saviyadagi kotiblar nusxalar ko‘chirishgan, tarjimonlar bir necha marotaba turkiy tilga o‘girganlar. Ana shu jarayonda

nusxalararo farqlar tobora ko‘paya borgan. Ko‘plab olimlar tomonidan ushbu asar o‘rganilib o‘z ona tillariga tarjima qilingan. Jumladan: Muhammad Sodiq Koshg‘ariy, Mullo Muhammad Niyoz Abdulg‘afur o‘g‘li, ingliz olimlari Uilyam Erskin, Tomas Arnold, Amerika olimi Uiler Tekston, frasuz olimi Rene Grosse, Eron olimlari Husayn Razmjo‘, Qozi Ahmad Tataviy, o‘zbek olimlari Hamidulla Hasanov, Bo‘riboy Ahmedov, Asomiddin O‘rinboyev va boshqalar. “Tarixi Rashidiy” asarini rus olimlaridan V.V. Bartold, V.V. Velyaminov Zernov o‘z tadqiqotlarida asosiy manba sifatida foydalanishgan. “Tarixi Rashidiy” 1 daftarining Muhammad Niyoz bin Abdug‘afur tarafidan 1837-1838 yillari qilingan turkiy tarjimasi ekanligi olimlarimiz tomonidan aniqlangan. Qo‘lyozma muqaddimasida tarjima Xo‘tan hokimi Muhammad Aziz Vong farmoni bilan nasr va nazmda bajarilgani to‘g‘risida ma’lumot berilgan[204]. Shunday qilib, ushbu tarixiy manba ko‘plab davlatlarning tarixiy davrlarini ochib berganligi bois ko‘plab tillarga tarjima qilingan va chuqur tahlillar asosida o‘rganilgan.

“Tarixi Rashidiy”ga bo‘lgan qiziqish tobora ortib borganini Ross tarjimasi ikkinchi marta 1898-yili Londondagi “Curzon” nashriyotida hech qanday o‘zgarishlarsiz bosilib chiqqanidan ham ko‘rish mumkin. 1973-yili esa Patnadagi “Academica Asiatica” nashriyotida uchinchi nashr amalga oshirildi (Ikkinchi va uchinchi nashrlar ham har biri 535 betdan iborat). Ikkisida ham xarita berilgan. Xaritaning mashhur Buyuk Britaniya jug‘rofiy jurnalida ham alohida bosilib chiqishi naqadar ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. 1970-yili 1898-yilgi nashr, bu safar xaritasiz, Nyu-Yorkdagi “Prager” nashriyotida bosib chiqariladi. “Tarixi Rashidiy”ning 696 sahifadan iborat nusxasi 2008-yili beshinchi marta, Nyu-Yorkdagi “Cosimo Inc.” bosmaxonasida chop etildi. Bu nashr “A History of Moghuls of Central Asia: The Tarikh-i” deb nomlangan. 1996-yili professor U. Takston “Tarixi Rashidiy”ni inglizchaga to‘liq o‘giradi, kirish so‘zi yozib, izohlar, ko‘rsatkichlar, xarita ilova qiladi va Harvard universitetidagi Yaqin Sharq tillari va madaniyati fakultetida nashr etadi. Tarjimon asardagi she’riy parchalarni ham inglizchaga ag‘darib, kursivda bergani e’tiborga molik. Nashr “Mirza Haydar Dughlat’s Tarikhi-i-Rashidi: A History of the Khans of Moghulistan” deb nomlangan

Asarning birinchi faslida hazrati Odam alayhissalomdan to hazrati Muhammad Rasulullohgacha o‘tgan ajam podshohlari haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Asarning II-VII fasllarida Temuchin Chingizxonning nasabi, uning avlodi Ugaday (O‘la) qoon, Jo‘chixon, Chig‘atoyxon, To‘luxon, G‘ozonxonlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

[204] Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Т., Фан, 2007. – 157. Б

“Tarixi Rashidiy” ning birinchi daftari Qoshg‘ar, Qozog‘iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir. Ikkinchi daftar esa birinchisidan keskin farqli o‘laroq muallifning esdaliklaridan, ya’ni voqealarga boy jo‘shqin hayoti davomidagi ko‘rgan-kechirgan xotiralarining jonli va ta’sirli bayonidan iborat. Bu ma’lumotlar Qoshg‘ar, Movarounnahr, Afg‘oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi. “Tarixi Rashidiy” ning o‘rganilishi haqida turli tillardagi tarjimasini nashrga tayyorlagan olimlar kirish so‘zlarida ancha to‘xtalib o‘tilgan. Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari yozilganidan keyin bir asr o‘tar-o‘tmas Sharq tarixchilari va geograflari o‘z asarlarini yozishda undan foydalana boshlaganlar. Natijada bu muhim manbaning keng tarqalishiga zamin hozirlangan edi. Fikrimizni asar nusxalari ko‘pgina qo‘lyozmalar xazinalarida saqlanayotganligi ham tasdiqlaydi.

O‘zbekiston va jahon tarixchi olimlari “Markaziy Osiyo haqidagi yagona mukammal asar” deb bir og‘izdan tasdiqlagan. “Tarixi Rashidiy” nafaqat Mo‘g‘uliston, ayni paytda O‘rta Osiyoning o‘sha davrdagi yirik shaharlari Andijon, Toshkent, Xo‘jand, Sayram, Turkiston, O‘ratepa, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Hisor, Qunduz, Marv va boshqa mamlakatlar: Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Kashmirning XV-XVI asrlardagi tarixini o‘rganishda birlamchi asosiy manbalardan bo‘lib xizmat qiladi. Bejiz emaski, mashhur yapon olimi Eyji Mano XV-XVI asrlardagi Markaziy Osiyo tarixini Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarlari tadqiqi asosida yaratish mumkinligini “Bobur va uning davri” fundamental monografiyasi bilan isbotladi. “Chig‘atoy va mo‘g‘ullar tarixini tadqiq qilish uchun biz foydalangan asosiy tarixiy manbalar – Boburning “Boburnoma”si hamda Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridir ... - deb yozadi u, - Markaziy Osiyo Bobur hayotligida mo‘g‘ul, chig‘atoy, o‘zbek, qozoq hamda uyratlardan tashkil topgan oltoy xalqlariga mansub bo‘lgan kishilarning faoliyatlariga guvoh bo‘lgan.

Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarining yalpi voqea-hodisalar ko‘lami xususida bu kitobning turkiy tarjimoni Muhammadniyoz ibni Abdulg‘afurning fikrlari bizga ma’qul bo‘lgani uchun tabarrukka shu matnni keltiramiz: “Tarixi jahonkushoy”, “Majma’ at-tavorix” (Tarixlar to‘plami), “Tarixi guzida” (Saralangan tarix), “Tarixi manzuma” (She’riy tarix), “Zafarnoma” va yana bir qancha mashhur tarixiy kitoblarning hammasi Iroq, Xuroson, Movarounnahr olimlarining asarlari bo‘lib, bularda faqat o‘sha yerlardagi podshohlarning ahvollari yozilgan, xolos, ulardan boshqa voqealar tilga olinmagan. Mo‘g‘ul xonlarining zikri va nasl-

nasablari, hol-ahvollarini bayon qiladigan biror kitob yozilmagan[205]. Faqat “Tarixi Rashidiy” kitobigina Mirzo Muhammad Haydar ko‘ragon ibni Muhammad Husayn ko‘ragon (Alloh taolo ularning go‘rlarini nurafshon qilsin)ning asari bo‘lib, uni hijriy 951 yili Tarixi Rashidiy Abdurashidxon ibni Sulton Saidxon nomiga bag‘ishlab yozgan. Unda Tug‘luq Temurxon zikridan to Abdurashidxon va Humoyun podshoh haqidagi voqealargacha bo‘lgan ahvollar artibi bilan yozilgan va tutgan o‘rni e’tibori bilan har qaysi xon va podshohning ahvoli tafsiloti bayon qilingan. Shuningdek, Mo‘g‘uliston zaminining kengligi, ob-havosi va Koshg‘ar, Yorkand, Xo‘tan viloyatlaridagi shahar, imo rat, qabriston, sahro, bog‘lar, daryolar, tog‘u cho‘llari hamda bu joylardagi xalqlarning urf-odatlari, rasmu-qoidalari imkon boricha tekshirilib, kuzatilib va aniqlanib batafsil bayon qilingan. Shu narsa aniqki, bu viloyatlarning ta’rifi va mo‘g‘ul xonlarining zikri boshqa birorta kitobda tilga olingan emas. Garchi ba’zi tarixiy asarlarda tasodifiy uncha muncha aytilgan bo‘lsa-da, bular juda qisqa ma’lumotlardir. “Tarixi Rashidiy”da bo‘lsa, maxsus mo‘g‘ul xonlari haqidagi hikoyalar va Mo‘g‘ulistondagi voqealar shunchalik mufassal o‘z ifodasini topganki, undan ortig‘ini tasavvur qilish mumkin bo‘lmasa kerak”[206].

“Tarixi Rashidiy» asarida avvalo podshoh va xonlarning olti sulola silsilasi keng ufqlarda juda ustalik bilan tiziladi va ularning tutashuv halqalariga alohida ahamiyat beriladi: Temuriy, boburiy, shayboniy, mo‘g‘ul xonlari, qozoq xonlari va safaviylar shajaralari uzviy muntazam tarixiylikda yoritiladi.

“Tarixi Rashidiy”ning boshqa tarixiy asarlardan farq etuvchi xususiyati shundaki, unda hukmdorlar tarixi talqini bilan uzviy ravishda turli davrlardagi diniy-ruhoniy peshvolik vakillari - pir-murshidlarining ham o‘ziga xos sulolalari faoliyati o‘z aksini topgandir. Chingiz tomonidan Qoraqurumga ko‘chirilgan Mavlono Shujo‘iddin Mahmuddan boshlab, Tug‘luq Temurxonni islomga keltirgan Mavlono Arshadiddin, uning avlodidan Xoja Tojiddin, Xoja Muhammad Yusuflargacha bu tarixda ma’lumotlar bor. Ularning eng mashhurlari Xoja Ubaydulloh Ahror va Xoja Nuro bo‘lib hisoblanadilar. Xoja Ubaydullohning sodiq muridi - Xoja Nuro nafaqat diniy-ruhiy jabhaning buyuk arbobi, ayni paytda o‘z zamonining mislsiz hoziq tabibi ham bo‘lib hisoblanadi. Chunki u Sharq mamlakatlarining ilm-fan markazlarida bo‘lib, tibbiyot sohasining eng mo‘tabar ustozlaridan saboq olgan va birga xizmat ham qilgan. Muhammad Haydar Mirzo u kishining karomatu tabobati haqida juda ko‘tarinki ruhda fikr yuritadi. “Tarixi Rashidiy” muallifi o‘z kitobida ko‘pgina diniy arboblar va ularning asarlariga o‘rin ajratadi. Ularning faoliyatini el-yurt

[205] Мирзо Мухаммад Хайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи, сузбоши, табдил, изохлар ва курсаткичлар муаллифи т.ф.н. О.Жалилов. - Т.: O’zbekiston, 2011. - Б. 23

[206] https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/194-tarixi-rashidiy.pdf

xaloskorligini ta’minlashda, ma’naviy-ma’rifiy jabhada shohu gadoga teng ta’sir o‘tkazishda kuzatadi. O‘z e’tiqodi manbai va shaxsiy yutuqlarini shu piri murshidlar faoliyatlari sharofatidan ko‘radi. Biz biror tarixiy asarda diniy ustozlarga bu darajada keng o‘rin ajratilganini bilmaymiz. Voqea-hodisalar talqinining izchilligi, muallifning og‘zaki ishonarsiz ma’lumotlarni asarga kiritmasligi, tarixiy arboblar shaxsiyatiga haqqoniy oqilona munosabat, hatto diniy nuqtai nazardan o‘zi la’natlab turgan shaxs va uning so‘zlari, maktublari mazmuni haqqoniyatiga erishish, talqinda fikr tiniqligi, balandparvoz murakkab jumlalardan qochish, samimiylik tarixchi va adib Muhammad Haydar Mirzoning uslubini belgilaydi. Mirzo Haydar O‘rta Osiyo tarixnavisligining an’analariga sodiq qolgan holda tarixchi sifatida bu sohaga fors tilida memuar janrini singdirish singari Boburona yangilikni kiritdi. Uning ikkinchi ixtirosi: bir tarixiy asarni boshdan-oxirigacha atayin ikki marotaba bir-birini to‘ldirib yaratish tajribasini sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkazdi.

Endi asarning o‘ziga xosligi, boshqa tarixiy asarlardan tubdan farqiga kelsak: tarixiy shaxslar tarjimai holini ixcham jumlalarda mukammal berish; shaxsiy qiyofasini axloqiy-ma’naviy nuqtai nazardan to‘la-to‘kis yaratishdir. Bizningcha, bu xususiyatni muallif “Boburnoma”dan o‘rgangan va mufassallikda ba’zan undan ham oshib tushgan desak, mubolag‘a bo‘lmas. Ikkinchi o‘ziga xosligi, “Tarixi Rashidiy”da o‘z shaxsi, tarjimai holi bilan bog‘liq voqea-hodisalarning ham kam bo‘lsa-da, berilishidir. Go‘yo u bu ishi bilan o‘zining ham bir tarixiy shaxs bo‘lib qolishiga umid qilgan.

“Tarixi Rashidiy” asarining bizgacha bir necha qo‘lyozma nusxalari yetib kelgan. Asarning tarixiy ahamiyatini uning bir necha nusxalarda zamonamizgacha yetib kelganligidan ham bilishimiz mumkin. Olim o‘zing asarini XVI asr o‘rtalarida fors tilida yozgan. Keyinchalik ushbu asar turli tillarga tarjima qilingan. Asar Yevropa olimlarini ham ancha qiziqtirib qo‘ygan. Ba’zi manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra “Tarixiy Rashidiy” o‘z davri voqelarini eng aniq faktlarga asoslanib gavdalantirgan tarixiy manba hisoblanadi. Ushbu asar XIX asr oxirlari va XX asr boshlaridan boshlab bir necha marta ingliz tiliga tarjima qilingan. Keyinchalik boshqa Yevropa tillariga ham tarjimalar amalga oshirilgan. “Tarixiy Rashidiy” nodir qo‘lyozmalaridan biri Toshkentda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanib kelinmoqda. “Tarixi Rashidiy” asari o‘zning boshqa manbalarga qaraganda xolis va bevosita muallif o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan voqealar bayon etilganligi bilan alohida xarakterga ega hisoblanadi. Bobur bilan zamondosh bo‘lgan Muhammad Haydar tarixiy vaqealarni gavdalantirishda nafaqat o‘zidan oldingi tarixchi olimlar asari balki Boburning “Boburnoma” sidagi ma’lumotlardan ham

foydalangan. “Tarixi Rashidiy” asarida voqealar To‘g‘luq Temurxondan boshlanib to Abdurashidxongacha bo‘lgan tarix bayon etilgan va asar Abdurashidxonga taqdim qilingan. Asarda bevosita Movarounnahr, Xuroson va Mo‘g‘uliston hududlaridagi siyosiy kurashlar, hukmdorlarning harbiy yurishlari, ra’iyatning ahvoli, Dashti Qipchoqdagi “O‘zbek”lar davlati, ularning O‘rta Osiyo hududlariga yurishlari singari muhim tarixiy jarayonlar ustalik bilan bayon etilgan. Asar tilining soddaligi bilan asrlar davomida o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari O‘rta Osiyo, Xuroson, Hindiston va Sharqiy Turkistonning XV asr oxirlari – XVI asr birinchi yarmidagi tarixi, madaniy, etnik munosabatlarini o‘rganishda o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Asarda o‘sha davr madaniy-ma’naviy hayotigaoid ma’lumotlar ham ko‘p bo‘lib, mashhur shoirlar, olimlar, san’atkorlar hayoti va ijodi haqida g‘oyat muhim ma’lumotlar keltirilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, Mirzo Muhammad Haydar bolalik paytidan boshlaboq o‘sha davrning ko‘pgina mashhur kishilari bilan muloqot qilgan va ularning ba’zilariga shogird bo‘lgan. 1541-1546 yillarda yozilgan “Tarixi Rashidiy” asari ikki jild (daftar)dan iborat. Tug‘luq Temurxon (1348-1363) dan to Abdurashidxon (1533-1560) gacha bo‘lgan davr tarixi yoritilgan. Tarixchi olim Muhammad Haydar Ayoziy o‘zining “Tarixi Rashidiy” asarida Sohibqiron Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur davriga oid qator muhim voqealar keltirilgan. Asarda Amir Temurning hayot yo‘liga to‘xtalish bilan birga, harbiy yurishlariga ham katta e’tibor berilgan. Sohibqironning Mo‘g‘uliston safari va mintaqadagi boshboshdoqlarni bir markaziy hukumat ostida birlashtirish yo‘lida olib borgan kurashlari asarda faktlar asosida gavdalantirilgan. Muallif asarda Zahiriddin Muhammad Bobur siymosiga ham to‘xtalib o‘tgan va Bobur haqidagi voqealar o‘zining aniqligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Chunki, tarixchi Muhammad Haydar bevosita Boburning xolavachchasi hisoblangan. Muhammad Haydar bir necha yil Bobur bilan birgalikda bo‘lgan. Shu sababli ham “Tarixi Rashidiy” va “Boburnoma” da keltirilgan tarixiy voqealar bir biriga juda ham yaqin hisoblanadi. Muallif Boburning Movarounnahrdagi muvaffaqiyatsizligi, undan Afg‘oniston hududlariga yurishlari, keyinchalik Hindiston sari lashkar tortishi asarda gavdalantirilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Tarixiy manbalar.

I.1. Мирзо Мухаммад Хайдар Аёзий. Тарихи Рашиди. Нашрга тайёрловчилар: С.А. Азимжонова, А.Уринбоев, О.Х. Жалилов. - Тошкент, 1999, - 709. Б

I.2. Мирзо Улугбек. Турт улус тарихи. Б.Ахмедов кириш сузи, изохлари ва тахрири остида. Форс тилидан Б.Ахмедов, Н.Норкулов ва М.Хужаевлар таржимаси. - Т., 1994, – 356. Б
I.3. Muhammad Niyoz Abdulg‘afur o‘g‘li. Tarixi Rashidiy, 1837-yil uyg`urcha (Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limi) (inv. № 120, №121, №192)

II. Ilmiy adabiyotlar

II.1. Ахмедов Б. Узбекистон тарихи манбалари. - Т.: Укитувчи, 2001, – 230. Б
II.2. Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Т., Фан, 2007, – 174. Б
II.3. Жалилов О. Х,. Мирзо Мухаммад Хайдарнинг “Тарихи Рашидий асарининг туркий кулёзма нусхаси // Шаркшунослик 1997, – 678. Б

ABDURAUF FITRAT QARASHLARIDA ILMGA BO’LGAN MUNOSABAT

Elmurodova X.
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistantin
E-mail: Xursandoyelmurodova@email.com

Kalit so’zlar: *Abdurauf Fitrat, jadid, Qur’on", "payg’ambar hikmatlari", islom huquqi, "Munozara" asari, “usuli jadid”, ayollar savod-xonligi, ayollar tarbiyasi, "bola tarbiyasi".*

Annotatsiya: *Ushbu maqola jadidlarning yirik namoyondalaridan biri Abdurauf Fitratning ilmga bo’lgan munosabati va uning fikrlari bayoni ochib beriladi. Ayollar ham erkaklar bilan bir qatorda bilim olish zarurligi, oilada, jamiyatda bilim olishning ahamiyati haqidagi qarashlari yoritib beriladi.*

THE ATTITUDE TOWARDS SCIENCE IN THE VIEWS OF ABDURAUF FITRAT

Elmurodova Kh.
Master's student Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: Xursandoyelmurodova@email.com

Key words: *Abdurauf Fitrat, jadid, Qur'an", "wisdom of the prophet", Islamic law, "Discussion", "usuli jadid", women's literacy, women's education, "child educati-on".*

Abstract: *This article reveals the attitude of Abdurauf Fitrat, one of the great representatives of modernism, to science and his thoughts. Women's views about the need to get education along with men, the importance of getting education in the family and society are highlighted.*

Fitrat jadid sifatida, birinchi navbatda, insonning dunyoga kelib, ilm olish huquqiga egaligi va shu huquqdan foydalanish lozim ekanligini

ta’kidlaydi. Insonning bu huquqi Payg’ambar hikmatlari va Qur’on suralariga uyg’un bo’lishiga qaramay, jamiyatdagi fikri qotib qolgan kimsalarning qarshiligiga uchrab, oyoqosti qilinishi unda kuchli e’tiroz uyg’otadi.

Payg’ambarimiz “Ilmni Chindan bo’lsa ham izlang”, “Beshikdan qabrgacha ilm izlang”, “Ilm dunyoning izzati va oxiratning sharafidir” hikmatlari bilan o’zlarining barcha ummatlarini ilm tahsiliga da’vat etmagan bo’lar edi. Binobarin, Buxoro ishlarti shu qadar jaholatga botganki, aholi ilmli bo’lganidan keyingina tartibga tushadi.[207]Agar insonning ilm olish yoki olmaslik huquqi faqat uning o’ziga, taqdiriga ta’sir qilganda, bu u qadar katta fojea bo’lmasligi mumkin. Lekin, jamiyat insonlar yig’indisidan iborat ekan. Buxoro amirligidagi xalq ommasi esa ilm –ma’rifatdan uzoqda yashayotgan ekan, bu narsaning amirlikdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum va madaniy sharoitga ta’sir etmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham din olimlarining, amirlikdagi reaksion guruhning g’ayriilmiy harakati oqibatida amirlik ijtimoiy tuzum sifatida chiridi, xalq ommasi esa jaholat botg’og’iga botdi.

Fitrat asarida ham ta’kidlab o’tadi, Farangi: ilm mulk-mamlakat obodligining sababchisidir. Ilm millat taraqqiysining boisidir. Ilmdirki, Amerika vaxshiylarining qatnashini ushbu darajadagi takomul va buyuklik martabasiga yetkazgan. Ilmdirki, Eron zaminida ziyolilarni yo’q qilmoqchi bo’lgan ikki otni tanazzul va zilat chohiga qulatgan. Ilmdirki, bir siqim ingliz oroli egalarini Hind, Misr, Belujiston va Arabistonnning bir qismiga farmonravo qilgan, o’rusning ziyoli bo’lmagan ahlini Tatar, Qirg’iz, Turkiston, Kavkaz musulmonlariga molik qilib qo’ygan. Jadid maktabi, Fitrat nazdida, ilmning beshigidir. Bu beshikdan keyin, albatta, maxsusu o’rta va oliy o’quv yurtlarining bo’lishi va yoshlar tahsilni shu tarzda, zanjirsimon davom ettirishlari zarur. Ilm faqat saboq olish, gazeta-jurnallarni o’qish emas, dehqonchilik, sanoat, mudofaa ham ilmni, yangi texnikani taqoza etadi. Kichik bir orolning egasi bo’lmish inglizlar ilm orqasida qudratli harbiy davlatga aylanib, jahonning qariyb yarmini bosib olishgan. Turkiston va Buxoro hududlaridagi hokimlar esa ilmsizliklari orqasida o’z vatanlarini dushman qo’liga topshirib qo’yibdilar. Mudarris garchand, hamma narsada “kofirlik” izlarini ko’rsa-da, islom huquqining masihiy davlatlar tajavvuzi bilan toptalayotganini sezmaydi, masjidlarga itlari bilan kirgan chor amaldorlari, ularning nazdida, islomiy qadriyatlarni oyoqosti qilmaydi, inson e’tiqodi va huquqlarini poymol etmaydi. Ular bunday katta narsalar bilan emas, balki jadid maktabi o’quvchilarining kursida, xuddi o’rislarga o’xshab o’tirishi bilan chiqisha olmaydi. Ilmsizlik

[207] Rustam Sharipov”Turkiston jadidchilik harakati tarixidan” Toshkent-“O’qituvchi”-2002, B-85

hatto ularning ko’zlarini ham toraytirib qo’ygan. Fitrat “Munozara” asarida Mudarris Farangining Buxoro amirligidan vaziyat og’ir holga kelganligini ko’rsatuvchi fakt va dalillari oldida esankirab, undan najot yo’lini ko’rsatib berishni so’raganida, farangi najot faqat jadid maktablarida ekanligini aytadi. Shundan ham bilinib turibdiki, Fitrat yagona yo’l jadid maktabi deb ko’rgan va shu uchun o’zining barcha imkoniyatlarini sarflagan. Xalqni ma’rifatli qilmasdan, ulamoni jaholat botqog’idan chiqarmay turib, jamiyat kemasini taraqqiyot manzillari sari boshlash, mustamlakachilikning siqilib kelayotgan zanjirlaridan halos bo’lishi amri mahol edi. Shuning uchun ham jadidlarning najot yo’li sifatida yangi usuldagi maktablarni targ’ib etishi va ochishi tarixan to’g’ri edi.

Fitrat jamiyatda ayollar mavqeyi, ularning o’qishi, ularning haq-huquqlarini ham ko’tarib chiqqan. Xususan, shu asarida ham bunga alohida urg’u berib o’tadi. Farangi: Endi ayting-chi, Buxoroda ayollar ham tahsil oladilarmi yoki yo’q? Mudarris: Yo’q, ayollar tahsil ko’rmaydilar. Farangi: Nega ularni tahsildan bebahra qoldirganlar? Ayol aqli ta’lim va tarbiya xususida erkakdan kamroq bo’lmasa kerak. Bizning hakamlardan biri aytadiki: “Biz Amriqo va Fransiya ayollarining ixtirolari mushohadasini keyin bildikki, ayolning tushunish darajasi erkaknikidan kam emasdir.Vasizlarning Payg’ambaringiz ham buyuradiki, “Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdir”. Ayollarning tarbiyati foydali bo’lib, “Kimki yaxshilik keltirsa, unga o’n barobar“ oyatining hukmiga ko’ra, yaxshi amalllarga ega bo’lishlik vojibdir. Negaki, yaxshi amallar yaxshi axloqsiz mumkin bo’lmaydir. Bizning birinchi tarbiyamiz onalarimiz tarafidandir, ularning o’zlari tarbiya ko’rmagan bo’lsalar, biz ham ularning yomon tarbiyasidan hamisha yomon axloq egasi bo’lamiz. Shu sababli donolar bizning olamni insoniyat doirasidan tashqarida, deb biladilar. Agarda Qur’oni karimga murojaat qilsangiz ko'rasizki, ikki-uchta xususiy hukmlardan tashqari barcha ishda ayol-u erkakka bir xil xitob qilingan. Ya'ni diniy hukmlarni bayon qilib ayol-u erkak farqini ajratmaydi, balki hammani «ayuhallazin» va «ayuhan-nos« xitobi ostida birlashtiradi.[208] Yurtning baxtsizligi zaminning saodatsizlig’idirki, ayollar u yerni ta’lim va tarbiya sharafidan mahrum qiladilar. Fitrat bu so’zlari orqali qizlarning o’qitish ham muhim masalalardan ekanligini tasdiqlab o’tadi. Sabab sifatida tarbiyani bolalar onalardan olishi va ular zehnli bo’lib voyaga yetishida o’qimishli onaning roli katta ekanligi bildiradi. Ayollar zehnda erkaklardan qolishmaydi, Amriqo va Fransiyadagi ayollar qilgan ixtirosi bilan misol qilib o’tadi. Bu fikri bilan ayollar agar yaxshi tahsil olsalar, nafaqat oilaning,

[208] A.Fitrat “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” Cho’lpon nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2013. B-125

balki mamlakat rivoji uchun ham o’zlarining yaxshigina hissa qo’sha oladilar, deb ko’rsatadi.

Ushbu gazetaning yana bir maqolasida Buxoroda faqat o’g’il bolalar uchun emas, balki qizlar uchun ham yangi usuldagi maktablarni ochish kerakligini qayd etib: “Biz buxoroliklar qizlar ilm olishlari kerakliklarini tushunishga harakat qilmaymiz. Madomiki, ilm olish har bir odam uchun diniy va dunyoviy majburiyatlarga kirar ekan, ayollar ham ilm o’rganishlari shartdir. Bas ayollarni “agarda xatu savod chiqarib ilm olsalar gunoh qiladilar” deyish xato va qabul qilib bo’lmaydigan xulosadir”, - deb yoziladi[209].

Tahsilning jadidlar ishlab chiqqan bu usuli xotin qizlarning ham to’laqonli ilm olishlariga imkon tug’diradi. Binobarin, “usuli jadid”ga ko’ra, osonlik bilan ayollar ham, erkaklar ham olim bo’ladilar. “Tahsili jadidada, deydi Fitrat o’z qahramoni tilidan, qizni olti yoshligida maktabga beradilar, agar xohlasalar, o’n sakkiz aksariyat o’n to’rt yil o’qitib, tafsirxon va hadisxon olima qilib kuyovga beradilar”. Fitrat xotin – qizlarning erkaklar bilan barabar ilmdan bahramand bo’lmasligi jamiyat va xalq taqdiriga salbiy ta’sir ko’rsatib kelgani va hozir ham ko’rsatayotgani alohida ta’kidlaydi.

Fitratning asarida keltiriladi: “Ma’lumdirki, kim tarbiyasizning qo’lida katta bo’lsa, u tarbiyasiz o’sadi. Binobarin, siz hammangiz tarbiyasiz qolmoqdasiz, chunonchi, qolgansiz ham”. Farangi bu so’zlari bilan Mudarrisni xam jamiyatning tarbiya ko’rmagan a'zosi, deb tushunadi va bu fikrni uning yuziga dangal aytadi. Mudarrisni bunday atashning boisi shundaki, uning onasi ilmsiz bo'lgan, binobarin, o'z farzandlarini, chunonchi, Mudarrisni ham tarbiya qila olmagan. O'z navbatida, Mudarrisning xotini ilmsiz ulg’aygani uchun ularning farzandlari ham tarbiyasiz bo'lib o’sdi. Fitrat tarbiya deganda o'qimishli odamni nazarda tutadi. Tarbiyaning asosiy unsurlaridan biri, uning fikricha, ilm. Binobarin, muallif talqinicha, ota-ona tarbiyasi ilm bilan qo’shilgan bo'lishi, aniqrog’i, farzand maktab ko’rgan, ma'lumotli, jaxolatdan yiroq ota-ona tomonidan tarbiyalanishi lozim. Agar shu mudarrisning o’zini oladigan bo’lsak, u va uning o'ziga o'xshash, fikriy darajasi tuban xotini farzandlarini qanday tarbiya qilishlari mumkin? Agar jamiyat shu mudarrisga o'xshash kishilardangina iborat bo’lsa, bu jamiyatning tanazzulga yuz tutishi, jaxolat botqog’iga botishi shubhasizdir.

Xulosa qiladigan bo’lsak, Fitrat garchand, Farangi tili bilan tarixiy jarayonni taxlil etuvchi fikrlarni bayon etmasada, ular o’z-o’zidan xayolimizda paydo bo’ladi, Fitrat bor haqiqatni anglab yetadi. Shuning

[209] Feruza Bobojonova .Buxoro amirligida ta’lim tizimi(XIX asrning oxiri- XX asr boshi)Toshkent:”Adib nashriyoti”, 2014-B-84

uchun ham jadid maktabini ochish zarurligining ijtimoiy sabablarini ko'rsatishda davom etadi.

IMOM MOTURIDIY HAYOTIGA NAZAR VA ISLOM DINIGA QO‘SHGAN HISSASI

Gulobar To‘xtavaliyeva
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabasi

Kalit so‘zlar: Imom Moturidiy, Moturidiylik, islom dini, falsafa, din, ta’limot, kalom ilmi, mas’hab, tariqat, yubiley.

Annotatsiya: *Ushbu maqola hidoyatga boshlovchi olim Imom Moturidiy hazratlarining hayoti, bosib o‘tgan yo‘li, bizga qoldirgan boy merosi hamda islom diniga qo‘shgan hissasi, Moturidiylik ta’limoti, Moturidiylik maktabiga asos solishi, bu ta’limotning maqsad va vazifalari, uning xotirasiga bag‘ishlab bajarilayotgan ishlarga bag‘ishlanadi.*

A LOOK AT THE LIFE OF IMAM MATURIDI AND HIS CONTRIBUTION TO ISLAM

Gulobar Tukhtavaliyeva
The student of Tashkent State University of Oriental Studies

Key words: Imam Moturidi, Moturidism, Islamic religion, philosophy, religion, teaching, knowledge of the word, mashab, tariqat, jubilee.

Abstract: This article is devoted to the life of Imam Moturidi, the leading scholar of guidance, his path, his rich legacy and contribution to Islam, the teachings of Moturidi, the founding of the school of Moturidi, the goals and tasks of this doctrine, and the work being done in his memory.

KIRISH

Yetuk olim Imom Moturidiy o‘z ta’limoti orqali ko‘plab ixtiloflarni oldini oladi, islom dini asoslarini to‘g‘ri tushuntiradi. Sof islomiy aqidani saqlab qolish borasida beqiyos ishlar olib boradi. Uning ta’limoti bugungi kun uchun ham g‘oyat dolzarb ahamiyat kasb etib, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan ba’zi guruhlarning g‘oyalarini fosh etishda yaqindan yordam berib kelmoqda.

ASOSIY QISM

Imom-ul-xudo unvoniga sazovor bo‘lgan buyuk olim Imom Moturidiy hazratlarining dunyoga kelgan yili to‘g‘risida tarixiy manbalarda aniq bir qat’iy ma’lumot afsuski yo‘q. Ammo ba’zi manbalarda esa milodiy 870-yilda tug‘ilgan deya keltirib o‘tilgan. U dastlabki bilimni Samarqanddagi “Iyodiy” madrasasida olgan. Moturidiy Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Abu

Nasr Ahmad Iyodiy, Imomi A’zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo Balxiy, Muhammad ibn Fazl kabilarni o‘zining ustozi deb bilgan.

Imom Moturidiy ko‘p shogirdlar yetishtirgan. U shogirdlariga fiqh, usul-ul fiqh va boshqa diniy ilmlardan saboq bergan. Manbalarga tayanib ish ko‘rilsa, Moturidiyning shogirdlari haqida ma’lumotlar talaygina. Lekin ularning barchasiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishonish qiyin. Chunki bu ma’lumotlarning mualliflari yashagan davrda Moturidiy shuhrat pog‘onasiga ko‘tarilib bo‘lgan edi, shu bois nafaqat haqiqiy, balki soxta shogirdlar haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Bu esa o‘z navbatida shogirdlar doirasining kengayishiga olib keladi. Asosiy shogirtlaridan biri sifatida Abul-Qosim Ishoq ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Zayd al-Qoziy aytish mumkin. U ustozidan turli fanlardan saboq oldi, hatto ma’lum muddat qozilik lavozimida ishladi.

Abu Mansur al-Moturidiy mutazilitlar va jahmitlar bilan tortishuvlarda “asosli dalillar” va qo‘rqinchli dalillarni ishlatgan. Moturidizm nihoyat XIII asrda shakllandi va Usmonli hukmronligi davrida musulmon dunyosida eng katta tarqalish va ta’sirga ega bo‘ldi. Al-Moturidiyning falsafasi va uning qarashlari umuman uning zamondoshi bo‘lgan Abul-Xasan al-Ashariyning (asharitlaming eponimi) e’tiqodlariga yaqin. Ikkala faylasuf ham qarashlariga javoban o‘z ta’limotlarini ishlab chiqdilar. Ushbu maktablar o‘rtasidagi farq “Xudoning mavjudligi” masalalarida yotadi, unda al-Moturidiy vahiydan tashqari ongga tayanishga ruhsat bergan, ammo shu bilan birga u Xudoning amrlarini ong bilan tushunib bo‘lmasligini tan olgan.

Hazrat Moturidiy juda ko‘p unvonlarga sazovor bo‘lgan hamda kalom maktabiga asos soladi. Misol sifatida “Imom-ul-mutakallimin’’ ya’ni Kalom ilmi olimlarining peshvosi deya e’tirof etiladi. Kalom ilmi o‘rta asrlarda falsafiy-diniy fikrlar va dinning nazariy asoslarini o‘rganish, islom aqidalariga e’tiqod etish haqidagi bilimlarni ifodalagan. Biron-bir dinga mansub shaxs uchun majburiy hisoblangan, har qanday sharoitda muhokama qilmasdan e’tiqod qilinishi lozim bo‘lgan diniy talablar majmuiga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida u maxsus bilimlar tizimi sifatida vujudga keldi.

Kalom – “ilm-ul kalom” atamasi keng ma’noda o‘rta asrlar musulmon adabiyotida diniy-falsafiy mavzularda (jumladan, nasroniylik va yahudiylikda ham) erkin fikr yuritishga nisbatan qo‘llangan, tor ma’noda esa aqidaparastlik, ya’ni dinda obro‘-e’tiborli hisoblangan shaxslar – payg‘ambar, sahobalarga taqlid yo‘li bilan emas, balki Qur’on va sunniy ta’limotni aql-idrokka mos talqin etish, tafakkurga suyanib ish yuritishga nisbatan ishlatilgan. Hadis ilmi payg‘ambarimiz tomonidan rivoyat qilingan gap va ishlarni, fiqh ilmi shariat qonunchiligini, kalom ilmi esa islom dinida e’tiqod qanday bo‘lishini o‘rgatadi. Kalom, shu tariqa, o‘z taraqqiyoti

davomida shariat ilmining tarkibiy qismiga aylandi. Shar’iy asosdagi “kalom” yo‘nalishi to‘lig‘icha Abu Mansur Moturidiyning ta’limotidan boshlanadi.

Moturidiy o‘z ta’limotini an’analarini va ilmiy asarlari bilan Movarounnahr ilohiyot maktabi rivojlanishiga katta ulush qo‘shdi. Ilohiyot ilmlari to‘la shakllanib kamol topishiga xizmat qildi. Ularni qayta ishlab chiqib, ma’lum tizimga solishdek bir ishni amalga oshirdi va hanafiy talimotini O‘rta Osiyo xalqlarining urf-odatlari bilan bog‘liqligini o‘z qarashlari orqali ko‘rsatib berdi. Uning ta’limoti islom dinida ikki buyuk aqidaviy yo‘nalishdan biri sifatida taniladi.

Moturidiya aqidasi Qur’on, hadis va aql-idrok, mantiq va haqiqatga yaqin ekani bilan boshqa ta’limotlardan ajralib turadi. Abu Mansur Moturidiy o‘z ta’limoti bilan bog‘liq aksariyat fikrlarini “Kitob tavhid” asarida bayon etgan. Xususan, o‘zga toifadagi firqalarga qarshi shunday so‘zlarni aytadi: “Ular tafakkur va tadqiq bilan qarasalar edi, Alloh taolo ham bandalarini tafakkur va tadqiqot, ibrat va tajriba bilan ish qilishga buyurganini tushunar edilar, ibrat va tafakkur esa ilm manbalaridan biridir”.

Moturidiylik ta’limoti mu’taziliylar kabi faqat aqlga suyanish emas, balki naqldan ham qo‘shib foydalanishni zarur deb biladi. Aqida borasida qo‘shgan yana bir hissasi shuki, o‘sha davrlarda juda ko‘plab firqalar e’tiqod borasida o‘z fikrlari bilan musulmon ahlini turli yo‘llarga boshlagan edi. Moturidiy esa bunga chek qo‘yadi va bu o‘lkada yagona aqida tizimini (ya’ni hanafiya mazhab asosida) o‘rnatadi. U barcha aqidalar orasidagi bahsli mavzularni har bir firqaga dalillar asosida isbotlab beradi. Natijada turli xildagi mayda oqimlar ko‘payishining oldi olinadi.

Quronning bir qator savollariga al-Moturidiy va uning izdoshlari ash’ariylar kabi javob berib, muqaddas matnlarning ratsional talqinini afzal ko‘rganlar: ular Qur’onni o‘zaro bog‘liq holda abadiy deb bilishgan. uning ma’nosiga ko‘ra va bu ma’noning og‘zaki ifodasi bilan bog‘liq holda vaqt o‘tishi bilan paydo bo‘lgan, solihlar bu ko‘rishning mohiyatini aniqlamagan holda, Allohni narigi dunyoda ko‘rishlari mumkin, deb ishongan, barcha insoniy xatti-harakatlar Xudo tomonidan yaratilgan va inson faqat o‘ziga mos keladi. (kasb) ularni o‘z irodasi va qobiliyati tufayli o‘ziga, Allohning asosiy sifatlari (ilm, qudrat va hokazo) haqiqiy va boqiy . Lekin ash’ariylardan farqli o‘laroq, al-Moturidiy Allohning asosiy sifatlarigina emas, balki amal sifatlarining ham abadiyligini tan olgan; Mo"taziliylar singari, u kishida ixtiyor erkinligi, jumladan, ikki qarama-qarshilik o‘rtasida tanlov bor, iymon diniy marosimlarga rioya qilishda emas, balki Allohni og‘zaki tan olishda ekanligiga ishongan .

Moturidiylikda har bir insonning taqdiri Alloh tomonidan belgilab qo‘yilganiga qaramay, u o‘z xatti-harakatlari uchun javobgardir, deb

hisoblanadi. Moturidiylikka ko‘ra, inson imtihonlar uchun yaratilgan. Shu bilan bir vaqtda taqdir sinovlaridan o‘tishi kerak va to‘g‘ri yo‘lni topish uchun harakat qilishi kerak. Hayoti davomida har bir qabul qiladigan qarorlari o‘ziga bog‘liq ekanligini takidlaydi.

Imom Moturidiyning ko‘p asarlari bizgacha yetib kelmagan. Faqat 3 dona asarlari saqlanib qolingan. Bular “Ta’vilotu ahlis-sunna”, “Kitob at-tavhid” va “Kitob-ul maqolat” asarlari Moturidiy hazratlaridan bizgacha yetib kelgan hikmatida shunday degan, “to‘g‘ri yo‘lning kaliti ilmdir”, bu hikmattan juda ko‘p xulosalar chiqarsa bo‘ladi. Dinni asl mohiyatini anglab yetmaydiganlar afsuski bugungi kunda ko‘plab topiladi. Bularning hammasi ilmsizlik va muhit toza emasligidan kelib chiqadi.

Moturidiya aqidasiga doir masalalarni shayx Moturidiyning yakka o‘zlari tuzib, tartibga solgan emaslar, balki ul zotga qadar ham Ahli Sunna val-Jamoa aqidasi shakllanib ulgurgan edi. Moturidiy hazratlarining xizmatlari shundan iborat bo‘lganki, o‘sha davrdagi aqidaviy oqimlarning ta’sirini qirqish, ularning iddaolariga raddiya berish, kuchli va asosli dalillar bilan haqiqiy islom aqidasini himoya qilish, ilmi kalom, mantiq va munozara qoidalariga rioya qilgan holda xasmlar jaholatiga ilmu ma’rifat bilan javob qaytarib, chin ixlosli musulmonlar uchun aqidaga doir muhim qo‘llanmalar tayyorlab bergan.

Moturidiy yodgorlik majmui - O‘zbekiston Respublikasining Samarqand viloyati markazidagi me’morlik yodgorlik. Imom al-Moturidiy tavalludining 1130-yilligi (2000) munosabati, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan Samarqand shahri markazida bunyod etilib, ramziy maqbarasi o‘rnatilgan (hududi 4 gektarga yaqin). Yodgorlik Registon ansambli yaqinida, Vobkent, G‘ijduvon va Buxoro ko‘chalari oralig‘ida joylashgan. Bosh kirish qismi Vobkent ko‘chasidagi xiyobon orqali. Loyihaga ko‘ra, 3 qismga (markaziy, bog‘ va xo‘jalik inshootlariga) bo‘lingan, ular o‘zaro bir-biri bilan xiyobonli yo‘lka orqali bog‘langan. Loyiha o‘qi manzarali mujassamotda yaratilib, ramziy maqbara binosiga tutashgan. Sharsharali favvoralar xiyobonli yo‘lka markazida qurilib, atrofi obodonlashtirilgan. Yodgorlik me’moriy loyihasi va badiiy yechimida o‘zbek milliy mahobatli san’atining eng yaxshi an’analari qo‘llangan. Maqbara pishiq g‘ishtdan, murabba tarxli (12x12 metr), shifti gumbazli (balandligi 15 metr), poygumbazi 24 kichik ravoqchalarga bo‘linib, ganchkori panjaralar bilan bezatilgan. Panjaralar yuqorisi murakkab tuzilishdagi muqarnaslar bilan to‘ldirilgan. Xona markaziga qo‘yilgan sag‘anada arab yozuvida buyuk olimning hadis so‘zlari bitilgan .

Asarlari o‘zbek tilida nashr etildi. 2020-yil 11-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Ushbu markazda alloma merosi chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganilmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Moturidiy hazratlariga quyidaagicha ta’rif bergan: Islom olamida “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor bo‘lishi bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy majmuasi yonida moturidiylik ta’limotini o‘rganish maqsadida kalom ilmi maktabi, Qarshida aqida maktabi faoliyat olib bormoqda.

XULOSA

Imom Abu Mansur Moturidiyning ta’limotini yoshlar va nafaqat kattalar to‘g‘ri anglash, axloqiy va ma’naviy tarbiyasida shuningdek, diniy ilmsizlikning oldini olishda katta yordam beradi desak xato bo‘lmaydi. Imom Moturidiy murakkab yo‘lni bosib o‘tgan buyuk olim hisoblanadi. Zinhor savobli ishini yarim yo‘lda tashlab ketmagan. Hazratning bunday savobli ishlari tufayli har birimiz minnatdor bo‘lishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirjon Obidjonovich “Dinshunoslik”(uslubiy qo‘llanma) Namangan – 2021.
2. Islom Abdug‘aniyevich Karimov “Yuksak ma’naviyat va yengilmas kuch”.
3. “Imam-i Maturidi” İslam alimleri ansiklopedisi. Türkiye Gazetesi. İstanbul, 1984. C.
4. O‘zME.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. https://www.sammuslim.uz/oz/articles/aqidah/imom-moturidiy-bizga-qanday-meros-qoldirgan.

MEHMONXONA BIZNESIDA INNOVATSIYALAR: RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Nargiza Hakimova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Kalit so‘zlar: *innovatsiyalar, innovatsion texnologiyalar, mehmonxona biznesi, ekologik tozalik, energiya tejash, “yashil texnologiyalar”, eko-mehmonxonalar.*

Annotatsiya: *Maqolada turizmning innovatsion rivojlanishi sharoitida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning turizm salohiyatiga ta’siri hamda mehmonxona faoliyatiga innovatsiyalarni joriy qilishda xorij tajribasi ko‘rib chiqiladi. Innovatsiya turlaridan mehmonxona faoliyatida raqobatbardoshlikni ta’minlashda foydalanish omili tavsiflangan.*

INNOVATION IN THE HOTEL BUSINESS: AS A FACTOR OF INCREASING COMPETITIVENESS

Nargiza Hakimova

Researcher of Tashkent State University of Economics

Key words: innovations, innovative technologies, hotel business, environmental cleanliness, energy saving, "green technologies", eco-hotels.

Abstract: The article examines the impact of the changes taking place in the conditions of the innovative development of tourism on the potential of tourism, as well as the foreign experience in introducing innovations into hotel operations. The factor of using innovation types to ensure competitiveness in hotel activity is described.

O‘zbekistonda mehmonxona xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyoti va turizmini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda mamlakat mashhur sayyohlik maskaniga aylandi, bu esa yuqori sifatli mehmonxona xizmatlariga talabning oshishiga olib keldi. O‘zbekiston boy tarixiy va madaniy merosga ega bo‘lib, mahalliy va xorijiy sayyohlarni o‘ziga tortadi. Mamlakat, ayniqsa, turizmni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha davlat tashabbuslarini amalga oshirishni hisobga olgan holda, mehmonxona sanoatini yanada rivojlantirish uchun imkoniyatlarga ega. Ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Xiva kabi sayyohlar ommabop yo‘nalishlarida yuqori sifatli mehmonxonalarga talab ortib bormoqda.

Zamonaviy biznes sharoitida turizm sanoati va, ayniqsa, mehmonxona biznesi manfaatdor tomonlarning turli talablariga moslashishiga to‘g‘ri keladi. Raqobatning kuchayishi va iste’molchilarning talablari ortib borayotgan sharoitda mehmonxonalar o‘zgarishlarga tezroq va faolroq moslashishi zarur. Biznesga innovatsiyalarni joriy etish hal qiluvchi muvaffaqiyat omili va mehmonxonaning omon qolish shartiga aylanib ulgurdi, buning uchun korxona egalari ham, xodimlari ham birdek mas’ul bo‘lishadi.

Mehmonxona biznesi turizmni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Turistik yo‘nalishning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan uning turistik mahsuloti muvaffaqiyatining asosiy omillariga nisbatan erishilgan sifat darajasiga bog‘liq. Turistik mahsulot darajasining muhim ko‘rsatkichi – bu mehmonxonaning o‘z mehmonlari va boshqa manfaatdor tomonlarga innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va yechimlarni taqdim etish qobiliyati bilan belgilanadigan turar joy taklifining sifatidir.

Yevropa Komissiyasi “innovatsiya”ni mahsulot va xizmatlar va ular bilan bog‘liq bozorlarni yaxshilash yoki oshirish, ishlab chiqarish, xarid qilish va tarqatishning yangi usullarini joriy etish; xodimlarni boshqarish, tashkil etish va mehnat sharoitlariga o‘zgartirishlar kiritish sifatida belgilaydi.

Innovatsiya, ko‘pincha, yangi mahsulot, jarayon, yangi g‘oya, bilimning yangi shakli, mijozga xizmat ko‘rsatishning yangi usuli yoki yuqoridagilarning kombinatsiyasini yaratish va muvaffaqiyatli qo‘llash deb

ta’riflanadi. Innovatsiyaning barcha ta’riflari bir narsaga mos keladi: *innovatsiya - bu yangilik.*

Mehmonxona korxonasida innovatsion muhitni yaratish quyidagi jarayonlar bilan birlashishi kerak:

a) mehmonxona mijozlarining hissiy va jismoniy holatini yaxshilash;

b) mehmonxona infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini oshirish;

v) mehmonxona xizmatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadan samaradorlikni oshirish;

g) mehmonxona bo‘limlari samaradorligini oshirish;

d) mehmonxona mehmonlari bilan ishlashda xatolarni kamaytirish;

e) mehmonxona xodimlari va mehmonlar o‘rtasida samarali o‘zaro munosabatlarni yaratish;

f) mehmonxona mehmonlarining shaxsiy ma’lumotlari xavfsizligini ta’minlash,

j) mehmonxonaning raqobatbardoshligini oshirish.

So‘nggi yillarda ishlab chiqilgan yangi sayyohlik mahsulotlariga misollar sifatida sodiqlik dasturlari, ekologik jihatdan qulay joylashtirish vositalari, mahalliy an’analarga asoslangan tadbirlar va boshqalarni keltirish mumkin.

Hozirgi vaqtda mehmonxona biznesi va turizmda “kontseptual biznes” tushunchasi keng tarqalmoqda, bu iste’dodli dizaynerlar tomonidan yaratilgan dizaynerlik mehmonxonalar guruhi tomonidan taqdim etiladi. Bunday mehmonxonalarga badiiy mehmonxonalar, dizayn mehmonxonalari, butik mehmonxonalar kabilar kiradi. Ularni yaratish ijodkor odamlarning ijodiy konsepsiyasiga asoslanadi. Bu mehmonxonalar bir-biridan o‘ziga xos me’moriy dizayni, betakror interyeri, o‘ziga xos atmosferasi va a’lo darajadagi xizmati bilan ajralib turadi[210] .

Mehmonxonaning ushbu turi eksklyuzivlikka, tabaqalashtirilgan mehmonxona mahsulotlariga talabning ortishi tendensiyasiga va mehmonxona tashkilotlarining odatdagi mehmonxona taklifidan ko‘proq narsani taqdim etish istagiga javoban yaratilgan. Butik mehmonxonalar o‘zining original, zamonaviy va hashamatli uslubi bilan ajralib turadi va g‘ayrioddiy dam olish va qulaylikni ta’minlaydi.

Ular, odatda, kichikroq sig‘imga ega va taniqli dizaynerlar tomonidan ishlab chiqilgan interyerlarga ega bo‘lib, har bir xona yangicha uslubda bezatilgan bo‘ladi. *Butik mehmonxonalar* an’anaviy mehmonxonalarga nisbatan *innovatsiya* hisoblanadi. Atmosfera, qulaylik va eksklyuziv xizmatni qadrlaydiganlar uchun ixtisoslashgan mehmonxonalar.

[210] Stoffers, J.; Eringa, K.; Niks, J.; Kleefstra, A. Workplace Innovation and Organizational Performance in the Hospitality Industry. Sustainability 2021, 13, 5847. https://doi.org/10.3390/su13115847

Misol uchun, Castello di Velona Resort Italiyaning Montalcino shahridagi ajoyib Velona qal’asida joylashgan. Ba’zilar qal’aning eski xonalarida joylashgan bo‘lsa, boshqalari zamonaviy kengaytmada joylashgan bo’lib, Val d’Orcia vodiysi ustidan quyosh botishining ajoyib manzaralarini taqdim etadi. Unda Toskana restorani va 1500 m2 maydonga ega bepul kurort mavjud. Mehmonxonada sauna, turk hammomi, yopiq va ochiq basseynlarga ega sog‘lomlashtirish markazi mavjud.

Tarix davomida texnologik innovatsiyalar mehmonxona sanoatiga eng katta foyda keltirgan innovatsiyalar turiga kiradi. Ularga mehmonlar signalizatsiyasi, elektron eshik qulfi, shaxsiy kompyuterlar, ovozli pochta, video kuzatuv, elektron seyflar, kompyuterni bron qilish tizimlari, boshqaruv axborot tizimlari, simsiz Internetdan foydalanish, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish va boshqalar kiradi.

Turizmdagi asosiy texnologik innovatsiyalarga misollar sifatida kompyuterlashtirilgan monitoring va boshqaruv tizimlari, tozalash va texnik xizmat ko‘rsatish robotlari, o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish qurilmalarini keltirish mumkin. Texnologik innovatsiyalar mehmonxonalarga jismoniy o‘zaro ta’sirni kamaytirish va tozalikni yaxshilash, natijada infektsiya xavfini kamaytirish imkonini beradi, shu bilan birga mijozlar ehtiyojini qondirish va mehmonxona raqobatbardoshligini ta’minlash uchun yordam ko‘rsatadi.

Aria Resort&Casino mehmonxonasida, Las-Vegas, AQSH, oddiy xona kalitlari yo‘q, mehmonning smartfoni kalit hisoblanadi. Xonalar sizning xonada ekanligingizni avtomatik ravishda aniqlaydigan tizim bilan jihozlangan. Tizim pardalarni ochadi, yoqimli musiqani yoqadi va qulay haroratni o‘rnatadi.

Texnologik innovatsiyalar nuqtai nazaridan yaxshi mehmonxona amaliyotiga misollardan biri Blow Up Hall (Poznan, Polsha). *Blow Up Hall* – “elektron san’at mehmonxonasi” deb ataladi. Mashhur rassom Rafael Lozano-Xemmer hayajonli video instalyatsiya yaratdi, uning atrofida mehmonxona dizayni qurilgan. Binoga kirganingizdan so'ng siz mehmonxonaning 2400 ta kamerasidan olingan kadrlarni birlashtirgan holda qabulxonada efirga uzatiladigan videoning qahramonlaridan biriga aylanasiz. Eshiklarda kalit yoki raqamlar yo‘q, faqat iPhone telefonidan kalit sifatida foydalaniladi. Har bir mehmonga o‘z xonasiga kirish, konsyerjga qo‘ng‘iroq qilish, Internetga kirish va oldindan yuklangan sayohat ma’lumotlarini ko‘rish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan tanib olish texnologiyasiga ega Apple telefoni beriladi.

Mehmonxona biznesidagi boshqaruv innovatsiyalari inson resurslarini sifatli boshqarishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni nazarda tutadi. Bularga yangi ish o‘rinlarini yaratish, yangi tashkiliy

tuzilma, vakolatlar tizimi, ichki vakolatlarni rivojlantirish, jamoani shakllantirish faoliyati va boshqalar kiradi. Ular, ko‘pincha, yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish bilan birlashtiriladi. Ushbu turdagi innovatsiyalar yordamida korxona xodimlarining qoniqish va sadoqatini oshirish muammosi hal qilinadi. Xodimlar bilan bog‘liq innovatsiyalar xodimlarni tashkil qilish, boshqarish va ushlab turish, ishdan qoniqishni oshirish, bilim va malakalarni rivojlantirishning yangi usullarini topishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ish joyidagi innovatsiyalarga ko‘proq strategik yo‘nalish va xodimlarning ijodkorligini rivojlantirish tashkilot faoliyatining omillariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ichki o‘zgarishlarning yuqori sur’atlari, o‘z-o‘zini tashkil etish va bilimga investitsiya qilish ham daromadlar o‘sishi, barqarorlik va mehmonxonalar bilan band bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Afsuski, natijalar, shuningdek, ish joyidagi innovatsiyalar mehmondo‘stlik sanoatida boshqa sohalarga qaraganda past ekanligini ko‘rsatadi. Boshqaruv innovatsiyasiga misol sifatida xodimlarni rag‘batlantirish, motivatsion va korporativ dasturlar va xodimlarning sodiqligini shakllantirish uchun turli nomoddiy bonuslar bo‘yicha yangi g‘oya bo‘lishi mumkin.

Keng rivojlangan yo‘nalish bu xodimlarni taassurotlar bilan rag‘batlantirishdir: moddiy rag‘batlantirish, korporativ sayohatlar, jamoa qurish va ko‘ngilochar tadbirlar.

Marriott mehmonxonalari turli xil motivatsion dasturlarni taklif qiladi, masalan:

1. **“Oyning eng yaxshi xodimi”** va ikkita shunday xodim bor: mehmonxonaning “yuzi” va mehmonxonaning “yuragi”. Xodimlar mehmonxona restoraniga ikki kishilik taklifnoma va pul bonusi oladilar;

2. **“Yilning eng yaxshi xodimi”** – xodim yil oxirida tanlanadi va restoranga taklifnoma va Yevropaga besh yulduzli Marriott mehmonxonasi setida qolish bilan bir haftalik sayohatga yo‘l oladi.

Logistika sohasidagi innovatsiyalar, bu tashkilotning qiymat zanjiridagi pozitsiyasiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan yangi biznes aloqalarini yaratishni o‘z ichiga oladi. Turizm logistikasidagi innovatsiyalarga quyidagilar kiradi: oziq-ovqat va restoran biznesi sohasidagi vertikal kommunikatsiyalar, CRS (kompyuter bronlash tizimlari) va Internet-marketing, aeroport xab tizimini takomillashtirish va boshqalar.

Institutsional innovatsiyalar tashkilot vakolatlaridan tashqariga chiqadi, davlat va xususiy sektorlar bo‘ylab tarqaladi va biznes yuritishning yangi qoidalarini belgilaydi. Turizm bilan bog‘liqligiga misollar: moliyaviy rag‘batlantirishni isloh qilish, ijtimoiy yoki sog‘lomlashtirish turizmi konsepsiyasini qayta qurish; turistik hududlarga kirishni nazorat qiluvchi

boshqaruv tizimlari va birliklari, kredit tashkilotlarini yaratish yoki o‘zgartirish va moliyaviy resurslarni olish shartlarini o‘zgartirish.

Bunday yangilik mehmonxonalarda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida xavfsizlik kafolatini ta’minlovchi HACCP (Xavflarni tahlil qilish va tanqidiy nazorat nuqtalari) tizimining joriy etilishi hisoblanadi. HACCP tizimi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilashga qaratilgan ilmiy asoslangan va tizimli usuldir.

Ushbu konsepsiya tizimli profilaktika yondashuvi bilan tavsiflanadi va o‘ziga xos xavflarni aniqlash va tahlil qilish va “oziq-ovqat zanjiri” bo‘ylab xavf ehtimolini, ya’ni iste’molchilar salomatligi uchun xavfni kamaytiradigan profilaktika choralarini belgilashga asoslanadi.

Qayd etilishicha, strategik darajada turizm sohasidagi innovatsiyalar atrof-muhit muammolariga g‘amxo‘rlik qilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mehmonxona kompaniyalari rivojlantirayotgan atrof-muhitni boshqarish tizimi sertifikatlari soni ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu sababli, biznesni boshqarishda innovatsiyalarning har qanday turi raqobatbardosh ustunlikka aylanishi mumkin bo‘lsa-da, *eko-innovatsiya* nafaqat kompaniya va *ekologik innovatsiyalar* amalga oshirilayotgan jamiyatga foyda keltiradi, balki kompaniyaga, jamiyatga uch barobar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, atrof-muhitga yetarlicha bo‘lmagan e’tibor va ushbu sohada korxona tomonidan innovatsion imkoniyatlar rivojlanmaganligi o‘rta va uzoq muddatli istiqbolda bozorda raqobatbardoshlikni yo‘qotishni anglatadi. Chunki, yaqin kelajakni ular faoliyat yuritayotgan muhitga moslashuvchi va undan oldinda turadigan ekologik samarali model va strategiyaga amal qilganlar belgilaydi. Atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish, atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish va mahalliy rivojlanish turizm uchun juda muhimdir[211] .

Dunyo bo‘ylab mehmonxonalar yanada ekologik toza bo'lish va ularning atrof-muhitga ta’sirini minimallashtirish uchun katta sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Misol uchun, Karib dengizi bo‘ylab ko‘plab mehmonxonalar yanada ishonchli va toza energiya shakli sifatida qayta tiklanadigan energiyaga o‘tib ulgurdi. Bagama orollaridagi Star Island Eleuthera 100% toza energiyadan foydalanadigan mehmonxonalardan biridir.

Mehmonxonada quyosh nurlarini to‘playdigan va mehmonxona binolarini kecha-yu kunduz energiya bilan ta’minlaydigan quyosh panellari mavjud. Chewton Glen mehmonxonasi Londondan poezdda ikki soatlik

[211] Stoffers, J.; Hendrikx, K.; Habets, O.; Van Der Heijden, B. Employability and innovative work behaviours in SMEs in a Euroregion. Pers. Rev. 2019, 49, 167–187

masofada joylashgan. 130 gektar o‘rmon, bog‘larni o'z ichiga olgan obyektda hozirda 14 ta ekologik toza xona mavjud. Xonalar milliy bog‘ning ajoyib manzaralarini taqdim etadi va havo manbali issiqlik nasoslari, quyosh panellari, energiya tejamkor yoritish va yomg‘ir suvini yig‘ish imkonini beradi.

Mehmonxona issiqxonasida sabzavot yetishtirish innovatsion jarayonga misol bo‘la oladi. Ushbu yangilik birinchi marta 2011-yilda Qo‘shma Shtatlardagi Atlanta Marriott Alpharettada joriy etilgan. Shunday qilib, mehmonxona o‘z mehmonlariga eng yangi mahsulotlarni iste’mol qilish imkoniyatini berdi. Mehmonlar, ko‘pincha, yangi, mavsumiy, mahalliy mahsulotlar va organik sertifikatlarni talab qilganligi sababli, boshqa mehmonxonalar ham ushbu tashabbusni o‘z zimmasiga oldi. Innovatsiyalar rivojlanishiga qarab hozirda uy tomida bog‘i bo‘lgan mehmonxonalarni topish ham mumkin: Westin New York Grand Central mehmonxonasida oshpaz Brayan Uiler ko‘p qavatli uyning tomida sabzavot va o‘tlar bog‘ini yaratdi.

Parijdagi mashhur For Seasons mehmonxonasi organik bog‘ga ega bo‘lib, o‘z mehmonlariga qiziqarli tajriba – mehmonxona restoranlarida ovqat tayyorlash uchun sabzavot va mevalarni qo‘lda terish xizmatini taqdim etadi.

Xizmatlarni takomillashtirish va farqlash uchun innovatsiya tushunchasi ochiq innovatsiya tushunchasi bilan bevosita bog‘liq. Mijozlar va mehmonxona sektori o‘rtasidagi hamkorlikdagi innovatsiyalar uchun ushbu maydon raqobatdosh ustunlik, mijozlar munosabatlarini va mijozlarning sodiqligini mustahkamlash manbai hisoblanadi.

Ochiq innovatsiyalar mehmondo‘stlik korxonalariga o‘z mijozlari bilan hamkorlik qilish uchun platformalar va kanallarni yaratish imkonini beradi, bu esa ularning didi va talablarini yaxshiroq tushunishga olib keladi.

Bunday sharoitda mijozning qabul qilingan xizmat haqidagi fikrini hisobga olish yanada zarurdir, chunki mijoz mehmonxona xizmatlaridan foydalangandan so'ng, agar u sifatdan qoniqsa, mehmonxonani uchinchi shaxslarga tavsiya qiladi. Shunday qilib, mijozlar ehtiyojini qondirish va keyingi tavsiyalar orqali mehmonxona yangi mijozlarni jalb qiladi va eskilarini saqlab qoladi[212].

Biroq, innovatsiya qilish uchun mijozning hozirgi ehtiyojlari haqida ma'lumotga ega bo'lish muhimdir. Biz to'plashimiz mumkin bo'lgan barcha mijozlar ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda mijozlarni saqlab qolish va mehmonxonaga yangilarini jalb qilish uchun tavsiya tizimlari juda muhim

[212] Латкин А.Н., Ильина Е.Л., Шевелева Л.А., Сергеева В.С. Создание инновационной среды в гостиничных предприятиях // BENEFICIUM. 2020. № 3 (36). С. 12-20. DOI: http://doi.org/10.34680/BENEFICIUM.2020.3(36).12-20.

bo'lib qoldi. Muxtasar qilib aytganda, mijoz mehmonxona sohasida innovatsiyalarning asosiy manbai hisoblanadi

Marketing innovatsiyasiga sodiqlik dasturlari misol bo'la oladi. InterContinental Hotels Group mehmonxonalari o'z mehmonlariga maxsus imtiyozlar dasturini taklif qilishadi. Priority Club mehmonxona sanoatidagi eng yirik mukofot dasturi bo'lib, marketing nuqtai nazaridan alohida rol o'ynaydi. InterContinental Hotels guruhiga kiruvchi barcha brendlarga tegishli bo'lgan klub a'zolari uchun ko'plab imtiyozlar va mukofotlar. Mehmonxona xizmatlariga sarflangan har bir dollar uchun to‘plangan ballar jami summaga qo‘shiladi va ballar keyinchalik mehmonxonani bron qilish uchun ishlatilishi, hamkor aviachiptalariga aylantirilishi yoki sovg‘alar va shunga o‘xshash narsalarni sotib olish uchun vaucherlarga qaytarilishi mumkin.

Klubga a'zolikning uchta darajasi mavjud: Gold Elite, Platinum Elite va eng yuqori Spire Elite. Ushbu uchta darajadagi har birida ma'lum imtiyozlar mavjud. Prioritet klubiga a'zo bo'lgandan so'ng har bir a'zo karta va ularning raqamini oladi va eng past darajadagi imtiyozlardan boshlanadi va kechalar soni ko'payishi bilan kartaning qiymati, ya'ni imtiyozlar darajasi oshadi. Marriott Rewards sodiqlik dasturi dunyodagi eng afsonaviy va tan olingan dasturlardan biri hisoblanadi. Va u allaqachon 30 milliondan ortiq mijozlarga ega.

Mehmon avtomatik ravishda dastur ishtirokchisi maqomini oladi va bepul xonada yashash, kurortlarda chegirmalar yoki hamkorlar ro‘yxatidan istalgan aviakompaniya bilan reyslarga almashtirilishi mumkin bo‘lgan ballarni to‘playdi. Mehmondo'stlik sanoatida innovatsiyalar ko'pincha gastronomiya, animatsiya, sog'lomlashtirish markazlari kabi mehmonxona xizmatlari sifatining ayrim jihatlariga qaratilgan.

Zamonaviy biznes sharoitida turizm sanoati va, ayniqsa, mehmonxona biznesi manfaatdor tomonlarning turli talablariga moslashishiga to‘g‘ri keladi. Raqobatning kuchayishi va iste’molchilarning talablari ortib borayotgan sharoitda mehmonxonalar o‘zgarishlarga tezroq va faolroq moslashishi zarur. Biznesga innovatsiyalarni joriy etish hal qiluvchi muvaffaqiyat omili va mehmonxonaning omon qolish shartiga aylanib ulgurdi, buning uchun korxona egalari ham, xodimlari ham birdek mas’ul bo‘lishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Киреева Ю.А. Современные тенденции развития сферы гостеприимства / Ю.А. Киреева // Актуалные проблемы развития индустрии гостеприимства : сборник научных статей по итогам XVII международной научно-практической конференции «Актуалные проблемы развития индустрии гостеприимства» и Круглого стола «Экономика туризма и индустрии гостеприимства: точки роста, цифровая трансформация, кадры» в рамках I Всероссийского профессорского

экономического форума, Санкт-Петербург, 01 июня 2021 года. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный экономический университет, 2022. – 54-62-betlar. – EDN XRVMVX.
2. Мілінчук О. В. Переваги екологічної серти-фікації готелів в Україні / О. В. Мілінчук. // Мене-джмент в інноваційному розвитку економіки: про-блеми та перспективи. – 2014. – 322–323-betlar.
3. Пушка О. С. Розвиток сучасних еко-тенде-нцій у готелних господарствах міста Києва / О. С. Пушка, Д. Ю. Тихонова. // Young Scientist. – 2017. – №4. – С. 739–742.
4. Полстяная Н. В., Кононенко Т. П., Федак В. И. Экологические отели как современная инновационная концепция в индустрии гостеприимства // Science of Europe. 2018. №25-2 (25). 8-bet.
5. Абрамова Д. Д., Сурикова Н. А. Экологические инновации в средствах размещения // Экологические аспекты современных городов. Сборник материалов VIII межрегионального семинара. Иваново, 2022. 62-68-betlar.
6. Mehmonxonaning rasmiy sayti http://www.muottasmuragl.ch/en/
7. Stoffers, J.; Eringa, K.; Niks, J.; Kleefstra, A. Workplace Innovation and Organizational Performance in the Hospitality Industry. Sustainability 2021, 13, 5847. https://doi.org/10.3390/su13115847
8. Stoffers, J.; Hendrikx, K.; Habets, O.; Van Der Heijden, B. Employability and innovative work behaviours in SMEs in a Euroregion. Pers. Rev. 2019, 49, 167–187
9. Латкин А.Н., Ильина Е.Л., Шевелева Л.А., Сергеева В.С. Создание инновационной среды в гостиничных предприятиях // BENEFICIUM. 2020. № 3 (36). С. 12-20. DOI: http://doi.org/10.34680/BENEFICIUM.2020.3(36).12-20.

MUNDARIJA

KIRISH.....3

MARKAZIY OSIYO XALQLARI ETNOMADANIY MEROSINI GLOBAL MIQYOSDA TARG‘IB QILISH

Атаханов Ш. Кирғизистонлик ўзбеклар: муаммолар ва ечимлар (қисқача этноижтимоий таҳлил)…….....……326

Alimova R. Elchilar Koshg‘ar dehqonchiligi xususida……..….337

Nigar R. Erken Ortaçağ Azerbaycanında konfesyonel durumun bazı meselelerine dair.....344

Темиров Ф. Садриддин Айнийнинг Ўзбекистонда тарихий-маданий ва маънавий меросни сақлашда тутган ўрни…….....…..352

Zokirov B., Bakirov B. “Abdullanoma” asarida bazmlar tasviri va ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati…….....….357

Abdullayev M. Qoraqalpoq hunarmandchiligi: tadqiqot va tahlil.....365

Шосаидов А. МарказийОсиё халқлари маданияти масалаларининг архив ҳужжатларида ёритилиши…….....……371

Zufarov M. Manbalarda turkiy xalqlarining iste’mol taomlari va ularning antropologiyasi…….....……378

Bazarbaev S. Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ijodi hamda etnografiyaga qo’shgan hissasi haqida…….....……..384

Ismoilov A. Qadimgi migratsiyalarning markaziy osiyodagi etnoturizm va urbanizatsion (shaharlashish) jarayonlarga ta’siri…….....….387

Abdigapparov O. Shimoliy Surxon voha aholisining an’anaviy turarjoylarida mintaqaviy va etnik xususiyatlar…….....……393

To‘rayev Sh. Dashti Qipchoqdan kelgan elatlar etnik tarixi (janubiy O‘zbekiston misolida)…….....……399

Jo’rayev B. Markaziy Osiyoga koreyslar migratsiyasi.....404

Qo’shmonov D. Toshkent viloyati o’zbeklarida juft tanlash an’anasi va uning o‘ziga xos “mezon”lari……407

Toshtemirova Sh. Etnologiyada gender tadqiqotlar tarixi: feministik yondoshuv va jamiyatdagi jinsiy rollar…….…415

Шоаслонова. З. Туркий қабилаларнинг ўзбек халқи этник тарихида тутган ўрни.....428

TARIXIY TADQIQOTLARNING UMUMIY MASALALARI

Абдумажид Мадраимов., Аскарий Мадраимов. Тарихчи Гиёсиддин Хондамирнинг Бобуршуносликка қўшган катта ҳиссаси……..….434

Şahbazov T. Azerbaycan seyyahı abduraşit el-bakuvi ve onun “telhisu'l-âsar ve ajaibu'l-meliki'l-kahhar” isimli seyahetnamesi hakkında.....444

Xaydarov I. Markaziy Osiyo respublikalarning iqtisodiy munosabatlari tarixidan……..…….451

Xaydarov I., Turdimuratova M. Tasavvuf allomalari asarlarida davlatchilik boshqaruv g‘oyalari va ularning ahamiyati.....457
Alisher Nasimov. Rossiya imperiyasi tadqiqotchilari tomonidan janubiy viloyatlar aholisining etnik tarkibi va joylashuvi masalasining o‘rganilishi……462
Tadjiyeva F. Xiva xonligi va usmonlilar imperiyasi: tarixiy aloqalar va o'zaro ta'sirlar……467
Xudoynazarov I.B. Usoma ibn munqizning “Kitab al-e’tibar” (كـ تاب الاعـ تـ بار) (XII asr) asarida “o‘zbek” atamasi va uning tahlili……..….472
Safayev M. XAEE materiallarini muzeylarda to‘planishi (O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi misolida)……477
Turdiyev M. O‘zbekistonda nomoddiy madaniy merosga nisbatan davlat siyosatining shakillanish bosqichlari (1991-2020-yillar)…….483
Fayzullayev F. Fazlulloh Ibn Ruzbehonning “Suluk al-muluk” asarining tadqiqi va tasnifi……...…….490
Abdurasulov Sh. Turkiyada XX asrda Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari allomalari va ularning ilmiy merosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar…….495
Jumaboyev A. O‘zbekistonda xitoyshunoslik masalalariga doir.....500
Raxmonova N. Globallashuv davrida ma’naviy barqarorlikka qarshi tahdidlar……..…….506
Tojiboyev M. “Devonu lug'otit turk” asarida toponimlar….....……511
Qahorov K. Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari Markaziy Osiyo tarixiga oid muhim manba…….....516
Elmurodova X. Abdurauf Fitrat qarashlarida ilmga bo’lgan munosabat…….523
To‘xtavaliyeva G. Imom Moturidiy hayotiga nazar va islom diniga qo‘shgan hissasi…….……..……527
Xakimova N. Mehmonxona biznesida innovatsiyalar: raqobatbardoshlikni oshirish omili sifatida……...532.

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING ETNO-TARIXIY JARAYONLARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

“Markaziy osiyoda etnoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari”ga bag‘ishlanadi

2024-yil 25-oktyabr

Muharrir: O.Fozilova
Dizayner-sahifalovchi: U.Raxmatov

Tasdiqnoma №212405. 25.01.2024-y.
«BEST-PUBLISH» nashriyoti

18.04.2024-da nashrga ruxsat etildi. Format 60x84 1/16.
Shartli b.t. 19,5. Hisob. b.t. 20. Times garniturasi.
50 nusxa. 104-buyurtma.

100000, Toshkent shahri, Oqtepa ko‘chasi, 49-uy.
Тел.: +998 97 755-99-07; +998 94 673-99-07.
email: best-publish2024@gmail.com